

Zaxriddinbobir XAYDAROV

INSON TARAQQIYOTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Zaxriddinbobir XAYDAROV

«INSON TARAQQIYOTI»

(5610400 – Ijtimoiy-madanly faollyat ta'lif yo'nalishi
talabalari uchun mo'ljallangan)

O'QUV QO'LLANMA

“Inson taraqqiyoti” fani 5610400-Ijtimoiy-madaniy faoliyat ta’lim yo’nalishi o’quv rejasidagi qo’shimcha fanlar blokidan o’rin olgan. Inson taraqqiyoti kursi yuzasidan tayyorlangan mazkur o’quv qo’llanmada inson taraqqiyoti to’g’risidagi g’oyalari evolyutsiyasi tarixiylik va davriylik nuqtayi nazaridan atroficha yoritib berilgan. Shuningdek, inson taraqqiyotini ta’minlovchi va belgilovchi asosiy omillar ko’rsatib berilgan. O’quv qo’llanma talabalarga inson taraqqiyoti bilan bog’liq bo’lgan zarur bilim va ko’nikmalar yuzasidan to’liq tasavvur olish imkoniyatini yaratib beradi.

* * *

According to the curriculum of the course 5610400-socio-cultural activity, this training manual on the subject “Human Development” is in the block of additional subjects. In this tutorial, the evolution of ideas concerning stages of the development of mankind are described in detail from the point of view of historicity and periodicity. Furthermore, the training manual shows the main factors that ensure the development of mankind. The study guide gives students the opportunity to gain important knowledge and skills related to the development of mankind.

* * *

Согласно учебному плану по направлению 5610400-социально-культурная деятельность, данное учебное пособие по предмету “Развитие человека” находится в блоке дополнительных предметов. В данном учебном пособии детально описаны эволюционные идеи развития человечество с точки зрения историчности и периодичности. А также показаны основные факторы, обеспечивающие развития человечества. Учебное пособие даёт студентам возможность получить важные знания и навыки, связанные с развитием человечества.

Mas’ul muharrir

Bekmurodov Mansur Bekmurodovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar

Umarov Absalom Adilovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Abdulla Nuritdinovich Rasulov
tarix fanlari doktori, professor

Dexkonov Narimon Burxonjonovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o’quv qo’llanma Namangan davlat universiteti Kengashining 2017 yil 17-iyuldagisi № 10- sonli yig’ilishida muhokama qilinib, nashriga tavsiyga etilgan.

Z. U. Xaydarov.

Inson taraqqiyoti (o’quv qo’llanma). – Namangan, 2018. – 180 b.
© Namangan davlat universiteti, 2018 yil

KIRISH

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Ushbu kurs talabalar ongida inson taraqqiyoti to‘g’risidagi g’oyalar evolyutsiyasi, “Inson taraqqiyoti” konsepsiyasining mohiyati va mazmuni, inson huquqlarining tarixiy taraqqiyoti, insonning jamiyat va davlat bilan o‘zaro huquqiy aloqadorligi, inson taraqqiyotida xalqaro tashkilotlarning o‘rni, “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi” va uning tarixiy ahamiyati, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari, inson huquqlari to‘g’risidagi xalqaro Paktlar, demografik vaziyat va uni inson taraqqiyotidagi o‘rni, globalizatsiya va inson taraqqiyoti, inson taraqqiyotida ta’lim, madaniyat, din va axloq masalasi, sog‘liqni saqlash inson taraqqiyotining omili, atrof muhit va inson taraqqiyoti haqida muayyan bilimlarni shakilantiradi va ko‘nikmalar hosil qiladi.

“Inson taraqqiyoti” fani 5610400 – Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi ishchi o‘quv rejasiga muvofiq qo‘sishimcha fanlar blokida talabalarga o‘qitiladi va ixtisoslik fanlari kabi muhim ahamiyatga ega. Hozirda davlat tilida darslik, o‘quv qo‘llanma va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning yetishmasligini hisobga olgan holda tayyorlangan. Ushbu o‘quv qo‘llanma inson taraqqiyoti bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarni egallahsha oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistrantlar, tadqiqotchilar va shu soha bilan qiziquvchilarga katta yordam beradi.

1-§. INSON TARAQQIYOTI KURSIGA KIRISH REJA:

1. “Inson taraqqiyoti” fanining predmeti
2. “Inson taraqqiyoti” fanining maqsad va vazifalari
3. Inson biosotsial mavjudot sifatida

Tayanch so‘z va iboralar: *Inson taraqqiyoti, inson taraqqiyoti konsepsiysi, antropogenez, sotsiogenetik, gomonoid, genetik, tabilitylik, ijtimoiyilik, ruhiyat, ma’naviyat, paternalizm.*

XXI-asr taraqqiyotning asosiy omillaridan biri insonlarni ma’naviy yuksaltirish va moddiy ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishdan iboratdir. Inson taqqiyoti o‘z mohiyatiga ko‘ra inson erkinliklari, odamlarning uzoq, sog‘lom va ijodkor hayotga bo‘lgan huquqlarini hamda ularning qadrlash maqsadlariga erishishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, barcha sohada tub islohotlar davri boshlanib, bu jarayonda inson eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etildi. Jamiyatni yangilanishi jarayonlari esa islohot islohot uchun emas, islohot inson uchun tamoyiliga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimidagi islohotlar natijasi o‘laroq, ijtimoiy-madaniy faoliyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis sifatida tayyorlanmoqdaki, ular jamiyat a’zolarining madaniy tafakkurini rivojlantirish va madaniy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshiradi. Bu jarayonda esa bevosita inson taraqqiyoti bilan bog‘liq bilimlarni o‘zlashtirishiga zarurat yuzaga keladi.

“Inson taraqqiyoti” fanining predmetini, inson taraqqiyoti to‘g’risidagi g’oyalari evolyutsiyasi, rivojlanishi, inson takomilini belgilovchi asosiy omillar, inson huquqlari, uning davlat va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari borasidagi bilimlarni va madaniyatini oshirishga qaratilgan bilimlar majmuasi tashkil etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning bo‘lajak kasblariga ijodiy yondashishlariga xizmat qiladi. “Inson taraqqiyoti” fanining maqsadi insonning rivojlanishi va uning takomilida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining tutgan o‘rnini hamda insonning jamiyatga ta’sirini, inson omili, inson huquqlari kabi masalalarni o‘rgatishdan iborat. “Inson taraqqiyoti” fani insonning rivojlanishi masalalarini tahlil etish, inson omili, inson huquqlari, inson taraqqiyoti konsepsiysi, paktlar va boshqa xalqaro hamda mintaqaviy hujjatlar, tashkilotlar to‘g’risidagi bilimlarni o‘rganish, iqtisodiy o‘sish, insonning turmush darajasi va inson taraqqiyoti, insonning jamiyat, davlat bilan huquqiy aloqadorlik masalalarini tadqiq etish, inson taraqqiyotida madaniyat, din, axloq, ta’lim-tarbiya masalalarini o‘rganishni vazifa qilib qo‘yadi.

Hozirgi kunda inson taraqqiyoti tushunchasi OAVda, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy sohalarda tez-tez qo'llanilmoqda. Inson taraqqiyoti konsepsiysi ilk marotaba 1990-yilda BMTning inson taraqqiyotiga bag'ishiangan ma'rzasida keng tahlil qilindi. Unga ko'ra, taraqqiyotning asosiy maqsadi insonlarni keng qamrovli tanlash imkoniyati bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Odamlarning sifatli ta'lif olishga erishishi, teng ravishda munosib ish o'rniga va salomatligini asrash uchun yetarli daromadga ega bo'lishi hamda malakali tibbiy xizmatdan foydalana olishi inson taraqqiyotining qay darajadaligini belgilab beradigan mezonlar hisobianadi.

Hozirgi zamon fan ma'lumotlariga qaraganda odam deb ataluvchi yagona biologik turga mansub bo'lgan tirik mavjudotning insonga aylanishi uzoq davom etgan evolutsion jarayondir. Ushbu jarayon, mutaxassislarining fikriga ko'ra, uch-uch yarim million yil davom etgan. Bugungi kunda eng so'nggi fandagi aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, insonning ilk vatani Afrika zaminidir. Odamning dastlabki ajdodlari hisoblangan tirik mavjudotning (gomonoid) insonga aylanishi uzoq davom etgan evolutsion jarayonning natijasidir. Zamonlar o'tishi bilan, ular Hindiston, Eron va Yevropaning turli hududlariga ko'chib o'tishgan. Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan biridir. Insonning paydo bo'lishi, inson hayotining ma'nosи, inson o'limi masalasidagi tortishuvlar hamon davom etmoqda.

Insonning faoliyati, turmush tarzi zamonlar o'zgarishi bilan asta-sekin o'zgarib kelgan. Xuddi shiu o'zgarishning turli-tumanligi nafaqat insonlar, balki uning ajdod va avlodlarining birini ikkinchisidan farq qiluvchi asos vazifasini bajargan. Boshqacha aytganimizda, inson faoliyati, turmush tarzidagi turli-tumanlik (birov-ovchi, birov-bog'bon, birov-cho'pon, birov-temirchi, birov-ilg'or, birov esa qoloq va hokazo) insonlaming birining ikkinchisidan farq qiluvchi muhim belgisi hisoblangan. O'z navbatida, yagona biologik turga mansub bo'lgan inson faoliyatidagi turli tumanlik, rang-baranglik, uning har bir vakili faoliyatida individual o'ziga xoslik mavjud ekanligidan ham dalolal beradi.

Inson faoliyatidagi turli-tumanlikning vujudga kelishi faylasuflar munozaralariga sabab bo'ldi va bo'layotir. Chunonchi, yagona biologik turga mansub bo'lgan insonning ongi va faoliyati nega turlicha bo'ldi? Insonning kundalik faoliyati, uning irsiy-genetik xususiyatlari, tabiiy-ijtimoiy muhit ta'siriga bog'liqmi yoki yo'qmi? Insonning olamdagи boshqa tirik mavjudotlardan farq qiluvchi eng muhim xususiyatlari nimalardan iborat? kabi savollarga donishmandlar hamisha javob qidirdilar va hozir ham izlayotirlar.

Odamning inson darajasiga ko'tarilish jarayonini to'la tasavvur etmoq uchun, avvalo, uni olamda mavjud bo'lgan turli biologik mavjudotlar, ayniqsa, boshqa tirik maxluqotlardan ajratib turuvchi eng muhim

xususiyatlarni bilish zarur. Xo'sh, olamda mavjud bo'lgan boshqa tirik maxluqotlardan insonning farqini ko'rsatuvchi eng muhim xususiyatlarnimlardan iborat? Ta'kidlash zarurki, eng avvalo, inson olamda mavjud bo'lgan boshqa tirik maxluqotlardan o'zining xotirasi, tafakkuri, tili borligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, til uning ajdodlari va avlodlari orasidagi aloqadorlik, vorislik vazifasini bajaradi. Inson nasliga xos barcha genetik-xususiyatlар, axloqiy normalar, uning faoliyatini boshqaruvchi barcha dasturlar, yo'l-yo'riqlar, ko'rgazmalar, xuddi shu til orqali ajdodlardan avlodlarga uzatiladi.

Bugungi kunda olimlar tomonidan yaratilgan turli nazariyalarining tushuntirishiga ko'ra, olamdagi boshqa tirik maxluqotlardan insonning tub farqini ifodalovchi xususiyatlardan yana biri, u o'z amaliy faoliyatini tartibga, ya'ni ma'lum bir normaga sola bilishidir. Boshqacha aytganimizda, inson o'z faoliyatini amalga oshirish madaniyatiga ega ekanligi bilan boshqa tirik maxluqotlardan principial farq qiladi. Shu holat insonning insoniyligini belgilovchi eng muhim xususiyat – madaniyat ekanligini isbotlaydi. Madaniyat insonlarni ma'lum bir jamiyatga birlashtirib turuvchi, uning kundalik amaliy faoliyatini ma'lum maqsad tomon yo'naltiruvchi qudrat ekanligidan ham dalolat beradi. Inson amaliy faoliyatida ma'lum madaniyat talablariga rioya qilishi va uni amalga oshirishi, kishilarning jamiyatga birlashtirilishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi, kishilik jamiyatni bilan hayvonlar galasi orasidagi farqning mohiyatini ochib beradi. Kishilarning ma'lum madaniyat talablari asosida birlashishi, jamiyat tirik maxluqotlar oddiy galasi emas, balki undan ustunroq turuvchi yahlit ijtimoiy uyushma ekanligini isbotlaydi. Insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlardan yana biri, u o'zining yashashi, turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanlidir. Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish faqat insonga xos xususiyat bo'lib, undagi barcha qobiliyat va malakalarni namoyon qiluvchi ijodiyotdir. Ayniqsa, moddiy ishlab chiqarish jarayoni insonda mavjud bo'lgan barcha jismoniylari va ma'naviy qobiliyatlar yorqin namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon falsafasi shu holatni insonning kundalik "amaliy faoliyat"i tushunchasida mujassamlashtirdi. Hozirgi zamon donishmandlari olamdagи tirik mavjudotlar ichida "inson – eng aqlii mavjudot", "inson – o'zini o'zi anglovchi mavjudot", "inson – ma'naviy va erkin mavjudot", degan xulosalarga keldilar. Lekin shuni alohida ta'kidlash zarurki, insonga xos aql-farosat, o'zini o'zi anglash, ma'naviy yetuklik birdaniga shakllangan emas. Chunki, hayvonning odamga aylanishi uzoq yillar davom etgan jarayondir. Hayvonlarning (gomonoid) odamga aylanishi (antropogenez) va ularning ma'lum bir jamiyatga birlashish jarayoni (sotsiogenez), olimlarning guvohlik berishicha, taxminan uch-uch yarim million yil davom etgan. Ya'ni antropogenez va sotsiogenez yagona bir jarayonning ajralmas ikki tomonidir.

Ko'rinib turibdiki, hayvonning odaingga aylanishi – antroposotsiogenezi jarayonining natijasidir. Tirik mavjudotlar olamidan odamning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishi-o'lik tabiatdan tirik tabiat, tirik mavjudotlar ajralib chiqishiga teng bo'lgan buyuk sakrashdir.

Antropogenez jarayonida mehnat asosiy rol o'yndaydi. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabliy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'zini o'zi o'zgartiradi. Inson organizmining sof fiziologik funksiyalari, qo'l va oyoqlarning, bosh va barmoqlarning, tog'aclar, paylar, suyak va muskullarning taraqqiy etishlari ham bevosita mehnat bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, mehnat insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy, madaniy taraqqiyoti uchun ham asosiy shart-sharoit vazifasini bajardi. Mehnat tufayli inson tabiatga ta'sir etdi. Buning uchun esa mehnat quroliari yasab, ushbu qurollarni uzluksiz takomillashtirib bordi. Inson, amerikalik olim B.Franklin aytganidek, "mehnat quollarini yaratuvchi maxluqdir".

Mehnat quollarining yaratilishi insonning ishlab chiqarish borasidagi faoliyatining asosidir. Ma'lumotlarga qaraganda, inson mehnat quollarini yaratishni boshlaganiga bir-bir yarim million yil bo'ldi. Inson dastlabki mehnat quollarini ov qilish, boshqacha aytganimizda, turli maxluqlarni o'ldirish uchun kashf etgan. Bu jarayon, ya'ni mehnat quollarini yaratish jarayoni ham ongsizlikdan onglilik tomon o'sib, rivojlanib bordi. Mehnat qilish insonni takomillashtirish bilan asta-sekin olamning ichkarisiga tomon kirib boraverdi. Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mehnat-antropogenez va sotsiogenezi jarayonining markaziy omillidir.

Antroposotsiogenezi jarayonida inson ongi, aql-farosati shakllanishida, uning amaliy faoliyatini ma'lum bir maqsad tomon yo'naltirishda til eng muhim vosita vazifasini bajaradi. Xuddi shuning uchun ham tilning taraqqiyoti antroposotsiogenezi jarayonining eng muhim omillaridan biridir.

Inson o'zining ijtimoiy-tarixiy mavjudot ekanligi bilan olamda mavjud bo'lgan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Undagi barcha fazilatlar, xislatlar tarixiy taraqqiyot tufayli vujudga keldi. Shuning uchun ham inson-tarixiy taraqqiyotning ham natijasidir. Insondagi barcha ehtiyojlar mehnat tufayli hosil bo'ldi. O'z navbatida ushbu ehtiyojlar, istaklar-mehnat tufayli qondirildi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirish bilan cheklanib qolmay, balki uni madaniylashtirdi.

Insondagi biologik xususiyatlardan turg'un yoki o'zgarib turishi mumkin ekanligini unutmaslik lozim. Inson irqi turg'un biologik xususiyat bo'lsa, insondagi fiziologik xususiyatlardan o'zgarib turuvchidir. Ya'ni, inson irqi uzoq vaqillardan buyon o'zgarmasdan, barqarorligicha turgan bo'lsa, uning gavda tuzilishi esa zamonlar almashishi bilan, u yashayotgan tabiiy muhitning o'zgarishi bilan o'zgarib turgan. Bu esa inson irlisi (genetik) xususiyatlarining o'zgarib borishiga ham sabab bo'lgan.

Insondag'i tabiiylik bilan ijtimoiylik orasidagi o'zaro dialektik aloqadorlik mexanizmini o'rganish jarayonida har bir kishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligini tan olmaslik, amaliyatda qobiliyatli, talantli, iqtidorli kishilarni kamsitishga, ularni jamiyatning oddiy ijrochi "murvatchalariga" aylantirib qo'ydi. Qobiliyatli, talantli kishilarni qobiliyatsiz, loqayd kishilar bilan tenglashtirish ijtimoiy adolat norma va prinsiplariga zid ekanligini ham unutmaslik zarur.

Inson tabiiy va ijtimoiy, boshqacha aytganimizda, bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy, ham organik olamga taalluqli ekanligi uning mohiyatini tushunib olishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolar orasida quyidagi ikki muammo haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Aristotel insonning mohiyatida hayvoniy (biologik) va siyosiy (ijtimoly) boshlang'ich asos borligini inobatga olib, uni "siyosiy hayvon" – degan edi. Munozara, baxslarga sabab bo'lgan mulohaza shundan iboratki, o'sha ikki boshlang'ich asosning qay biri inson faoliyati, bis-tuyg'ularini belgilashda asosiy rol o'ynaydi? Insonda tabiiylik (biologik) va ijtimoiylikning o'zaro aloqadorligi qanday sodir bo'ladi?

Yuqorida biz inson bolasining har biri o'ziga xos takrorlanmas xususiyatlarga ega ekanligi haqida to'xtalib o'tgan edik. Qizig'i shundaki, biz kishilarni ba'zi biologik belgilariqa qarab (masalan, yoshi, jinsi) ma'lum guruhlarga birlashtiramiz, boshqa birovlarini esa ijtimoiy belgilariqa (masalan, kasbi, mutaxassisligi, ish stoji va boshqalar) qarab, yana allakimlarni insondag'i tabliylik (biologik) va ijtimoiylik orasidagi aloqadorlikka qarab ma'lum tabaqalarga birlashtiramiz. Shunday ekan, o'sha belgilarga qarab tabaqalashtirilgan guruhlarning (masalan, xotin-qizlar) biologik o'ziga xosligi jamiyat faoliyati uchun ahamiyatga egami?

Ushbu muammolar atrofida faylasuflar va boshqa insonshunos olimlar orasida uzoq vaqtlardan buyon munozaralar davom etmoqda. Muaminolar yechimiga bag'ishlangan turli konsepsiylar, ilmiy yo'nalishlar vujudga kelmoqda. Chunonchi, ba'zi birovlar kishilarning irqiy belgilariqa qarab insoniy fazilatlarini baholashni taklif etayotirlar. Ayrim irqlarning insoniy fazilatlari yuqori, ayrimlarniki esa past, chunonchi "oliy" va "past" tabaqalari bo'ladi, degan fikr-mulohazalarni bayon etmoqdalar. XIX-asrda, hatto o'tgan asrning boshlarida ham, "oq irq" jahonda mavjud bo'lgan barcha irqlarning buyugidir, degan uydirmalar tarqatilganligi fikrimiz dalllidir. Turgan gapki, jahon ilmiy jamoatchiligi bunday g'ayri ilmiy fikr-mulohazalarni, irqchilik g'oyalarini antigumanistik qarash sifatida qattiq qoraladi. Uning ijodkorlarini reaksiyonlikda aybiadi.

Jamiyat hayotida, kundalik turmushda inson ma'naviy ehtiyojlari moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga nisbatan keyingi o'ringa surib qo'yildi. Moddiy jabhada ishtirok etayotgan kishilarni haddan ortiq ulug'lash, "hazrati ishchi", "hazrati dehqon", degan uydirmalar o'ylab topildi. Ma'naviy ishlab

chiqarishda halol va fidoyilik qilayotgan, o'n yillab zahmat tortgan olim. yozuvchi, shoir mehnatini "ikkinchi nav" qarichi bilan o'lchash urf bo'ldi. Inson tani (biologiyasi) bilan ma'naviyati orasidagi aloqadorlik mexanizmi chuqur tahiil etilmadi. Moddiy ishlab chiqarishni uzlusiz kengaytirilishi tabiiy resurslar kamayib ketishiga, tabiat muvozanatining buzilishiga sabab bo'ldi. Fan-teknika yutuqlarini xalq xo'jaligiga tatbiq etish, chunonchi, turli zaharli ximikatlardan foydalanishning ortib borishi odamlar salomatligini yemirdi. Odamlar, ayniqsa, onalar salomatligining zaiflashishi bilan jismonan majruh tug'ilgan bolalarning soni ko'payaverdi. Tabiiyki, jismi zaif kishining ma'naviyati ham majruh bo'ladi. Natijada, jismonan majruh, ma'naviy qashshoq kishilar soni yildan yilga ortib boraverdi.

Inson uchta qudrat: tana – ruhiyat – ma'naviyatning yig'indisidir. Insonning biologik holati deganda, uning tanasida, ya'ni jismida sodir bo'ladigan morfofiziologik, genetik, nerv-miyasida ro'y bergan va berayotgan elektroximik o'zgarishlar, uning yoshi, irqi, jinsini ifodalovchi alomatlari tushuniladi. Insonning ruhiy, ya'ni psixologik holati haqida fikrmulohaza yuritganda, uning his-tuyg'ulari, kayfiyati, irodasi, temperamenti tushuniladi. Insonning ma'naviyati – jamiyatda mavjud bo'lgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar, ayniqsa, barcha ijtimoiy institutlar amalga oshirgan tarbiyaviy-mafkuraviy ta'sir natijasida shakllangan fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar, malakalar yig'indisidir. Ma'naviyat insonning ijtimoiy qiyofasini vujudga keltiruvchi generator vazifasini bajaradi. Ma'naviyatning shakllanishida inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi ishtirok etadi. Bisotida majjud bo'lgan butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Inson deb nomlanuvchi biosotsial uyushma tirik mavjudot sifatida o'z hayoti cheklanganligini tushunib olishi bilan olamdag'i boshqa tirik mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Boshqacha aytganimizda, olamdag'i tirik mavjudotlar ichida inson o'z umrining chegarasi, muddati borligini tushumib yetadi.

Xo'sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Insonning bu dunyoda yashashdan maqsadi nima? Inson hayotining ma'nosi nimada? Turli odamlar hayotning ma'nosini turlicha tushunadilar. Birinchi guruhdagilar oliy ideallarga intilib fidoiylarcha umr kechiradilar. Hayotning ma'nosini "ikkinchi umr"da ko'radir. Ikkinchi guruhdagilar esa hayotning ma'nosini yaraqanni topishda, unga yetishishda deb biladi. Buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoy hayotning ma'nosini quyidagicha ifodalaydi – "men faqat xudoga ishongan lahzalardagina haqiqiy mazmunli yashaganimni esladim... Tangrini tanish va yashash aslida bir xil gap. Xudo - hayot demakdir", – deb e'tirof etadi o'zining "Iqrornoma" asarida. Hayotining ma'nosi ideal va baxt tushunchalari bilan bevosita bog'liqdir. Inson bugunmi, ertami o'zining o'llshini, boshqacha aytganimizda, o'lim muqarrarligini tushunib yetgani uchun ham uning oldini olish, o'z hayotini mazmunliroq qilishga intiladi.

Hamisha yangi-yangi orzu-istiklar ummonida yashaydi va o‘z navbatida, o‘zining barcha orzu-umidlарining to‘la ushalmasligini tushunib yetadi. Insonning xuddi shu orzu-umidlari, intilishlari-yaxshilik, to‘g‘rilik, adolatlilik, insof kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topadi. Kimki maqsadsiz, orzusiz, umidsiz yashasa, unda axloq ham, odob ham bo‘lmaydi. Axloqsiz, odobsiz, umidsiz inson esa hamisha tuhmat bo‘xtonga moyil,adolatsizlik, hatto yovuzlikka intilishi katta bo‘ladi.

Olaindagi tirik majudotlar ichida o‘z umrining qisqaligini tushunib yetgan o‘sha odam bolasida nega yaxshilik bilan yomonlik, to‘g‘rilik bilan yolg‘onchillk, adolatpeshalik bilan adolatsizlik mavjud bo‘ladi? Inson o‘zining ma‘naviy qiyofasidagi ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun asrlar osha kurashdi. Bunday muammolar yechimini ba‘zan dindan, ba‘zan fandan qidiradi. Boshqacha aytganimizda, inson hayotga va o‘limga hamisha o‘zining munosabatini bildirdi. Xuddi shuning uchun ham ushbu muammolar insoniyat madaniyatining markazida bo‘ldi.

Inson o‘z umrini uzaytirish, hayotini yanada sermazmun qilish, uni har tomonlama boyitish, ko‘proq yashash uchun uzlusiz intilib keldi. Jismonan abadiy yashash uchun imkoniyat bo‘lmasa, ruhan yashash, axloqiy jihatdan o‘limni yengish yo‘llarini, uslublarini qidirdi. Aniqroq qilib gapiradigan bo‘lsak, inson hamisha hayotdan qoniqmaslik tuyg‘usi bilan yashadi. Bu holat hozir ham davom etayotir.

Insonning hayotdan qoniqmaslik, barcha orzu-umidlari to‘la ushalmasligi bir tomondan, uning yashashi, ijodiy faoliyat ko‘rsatish uchun qudratli qo‘zg‘atgich vazifasini bajarsa, ikkinchi tomonidan, xuddi shu qudrat insonning turli qobiliyatlarini, malakalarini, iste’dodlarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Har bir kishi hayotining mazmunini shu holat tashkil etadi.

Inson o‘zining barcha orzu-umidlарини jamiyat orqali ro‘yobga chiqarmoqchi bo‘ldi. Lekin jamiyat zamonlar o‘zgarishi bilan o‘zgarib turadi. Tarixiy sharoit o‘zgarib turishidan qat’i nazar insonning hayoti, turmush tarzi jamiyat bilan uзви bog‘liq bo‘ldi.

Inson hayotining mazmuni faqat bir o‘zining orzu-umidlari, istaklarini ro‘yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish, faqat o‘zi uchun, o‘zining manfaati uchun yashashdan iborat, degan ma‘noni bildirmaydi. Chinakam inson darajasiga ko‘tarilgan biosotsial mavjudot hamisha el-u yurt, millat manfaati haqida ham bosh qotiradi. El-yurt, millat manfaati haqida o‘ylamaydigan, erta-yu kech o‘z manfaati haqida o‘ylaydigan kimsalarni mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy “hayvonlashgan shaxs” deb atagan edi.

Bugungi kunda faqat o‘z manfaatini o‘ylaydigan, insof, diyonat, aql-farosat nidosiga qulq solmaydigan “insoniylik qiyofasini yo‘qtgan shaxslar” soni ko‘payib ketdi. Bunday kimsalar o‘z manfaatlari yo‘lida har qanday pastkashliklarni amalga oshirishdan qaytmayotganliklari, og‘ir

jinoyatlar yo'liga kirib borayotganliklari fikrimizning isbotidir. Xuddi shuning uchun ham insonparvar, demokratik jamiyat qurish uchun ommaviy harakat avj olib ketgan bir paytda, mamlakatimizda jinoyatchilikka, ayniqsa, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning boshlanib ketishi, inson tabiatidagi hayvoniy fazilatlar qoldig'iga qarshi kurash alomatidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev e'tirof etganidek: "Jamiyatimizda qonun va adolat ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar", – degan prinsipni qaror toptirish uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda.

Shunday qilib, inson hayotining mazmuni va ma'nosi, uning o'iishi yoki o'imasligi muammosi, hamisha insoniyatning diqqat markazida bo'ldi. Ilmiy-texnika yutuqlari inson turmush tarzining barcha jabhalariga Jadallik bilan kirib borayotgan hozirga zamonda gerontologiya fanining ma'lumotlariga tayanib aytish mumkinki, bugun inson hayotini sermazimun qilish, umrini uzaytirish borasidagi radikal o'zgarishlar sodir bo'layotir, odamlar ongi har kuni, har soatda yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyib bormoqda.

Insonning insoniy fazilatlari va xislatlari, u yashayotgan jamiyat a'zolarining, butun insoniyatning orzu-umidlari, his-tuyg'ulari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muhit o'zgarishi bilan inson orzu-umidlari, istaklari hani o'zgaradi. Xuddi shu o'zgarish inson hayoti mazmunining asosini tashkil etadi. Shunday ekan, inson qancha yashashi kerak? Qanday yashashi lozim? Nima uchun yashashi darkor? Ushbu savollarga ham insoniyat hamisha javob qidiradi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasi, insonning qancha yashashi, nima uchun yashashi, uning tabiatida insonparvarlik g'oyalarning mavjudligi, milliy va umummilliy (umuminsoniy) qadriyatlarga amal qilish qobiliyatları, malakalarining shakllanganligi bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Inson tabiatiga xos ushbu fazilatlar u yashayotgan ijtimoiy muhitda mavjud bo'lgan shart-sharoitlarga bog'liq. Lekin inson tabiati, ayniqsa, uning ma'naviy qiyofasi, biologik, fiziologik, undagi optimistik, realistik kayfiyatlar bilan bog'liq. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, insonning o'lishi yoki o'imasligi uning ma'naviy qiyofasidagi insonparvarlikning real holati darajasi bilan bog'liq.

"Inson o'limi" muainmosi hozirgi zamon faylasuflari orasida turli tortishuvlarga, munozaralarga sabab bo'layotgan muammolardan biridir. Ayniqsa, "inson o'lishi huquqiga egami?" degan muammo ilmiy jamoatchilik orasida turli bahslashuvlarga sabab bo'layotir. Insonning o'z ixtiyori bilan hayotdan ketishi ("o'zini o'zi o'ldirishi") masalasida ham turlicha fikrmulohazalar mavjud. Chunonchi, diniy dunyoqarash insonning o'z ixtiyori asosida hayot bilan xayrlashuvini qattiq qoralaydi. Islom dini qoidalariga

muvofiq, o'zini o'zi o'ladirgan kishiga, hatto janoza o'qilmaydi. Xristian dini talablariga ko'ra bunday kishilarning jasadini mozorga ko'mish taqiqlanadi.

Fan-teknika jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda inson hayotini tibbiyot tomonidan qattiq nazorat ostiga olinishi ushbu muammoning dolzarbligini yanada oshirib yubordi. Chunki hozirda evtanaziya (grekcha - "og'riqsiz" degan ma'noni bildiradi), ya'ni og'riqsiz o'lim masalasida turli bahslashuvlar, munozaralar ko'payib bormoqda. Evtanaziya tarafdarlari antipaternalistlar, deb yuritiladi. Antipaternalistlarning fikr-mulohazalariga muvofiq, inson o'lish huquqiga ega bo'lmog'i, uning bunday huquqi maxsus qonun yordamida rasmiylashtirilishi darkor. Ushbu qonunga muvofiq o'limni o'ziga ravo ko'rgan kishining hayot bilan xayrlashuvi boshqalarga zarar keltirmasligi lozim. Insonning o'z ixtiyori bilan o'lishi boshqalarga zarar keltirsa, bunday holat axloq normalariga zid bo'ladi.

Paternalizm tarafdarlari esa insonning o'zini o'zi o'lirishi umuminsoniy axloq normalariga zid deb tushuntiradilar. Insonning yashashi muqaddasdir, deb hisoblaydilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki har bir insonga dunyoga kelish va bu yorug' olamda yashash huquqi bir marotaba beriladigan oliy ne'matdir. Har bir inson o'ziga berilgan ushbu imkoniyatdan foydalanib o'z hayot tarzini to'g'ri yo'lga qo'yib umrining har bir daqiqasidan unumli foydalanib hayot kechlirmog'i lozimdir.

Nazorat uchun savollar:

1. "Inson taraqqiyoti" fani qanday masalalarni o'rghanadi?
2. "Inson taraqqiyoti" fani maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Antroposotsiogenez jarayon deganda nimani tushunasiz?
4. Amerikalik olim B.Franklin insonga qanday ta'rif bergan?
5. Aristotel insonni nima sababdan "siyosiy hayvon" degan edi?
6. Inson hayotining mazmuni, "Inson o'limi" muammosi bo'yicha qanday qarasqlar mavjud?

2-§. INSON TARAQQIYOTI TO'G'RISIDAGI G'OYALAR EVOLYUTSIYASI

REJA:

1. Qadimgi Sharq va G'arbda inson to'g'risidagi dastlabki tasavvurlarni vujudga kelishi.
2. O'rta asr mutafakkirlari asarlarida inson muammosi.
3. XVI-XX asrlarda ma'rifatli inson tog'risidagi qarashlar.

Tayanch so'z va iboralar: *Inson haqidagi ta'lilotlar, yer egalari, veda, jaynizm maktabi, imperator, zardushtiylilik, Avesto, Milet, Eley shahri,*

sofisitlar, tirk mavjudod, ko'p xudolik, xristianlik, jon, qalb va tana uyg'unligi, koinot, yaxshilik va yomonlik, Vasko da Gama, din, cherkov, gumanizm, barkamol inson, fiqh, tasavvuf, panteizm, ma'rifa-parvarlik harakati.

Kishilik jamiyati tarixida inson to'g'risidagi dastlabki fikrlar qadimgi Sharqda, xususan, Hind, Xitoy, Eron va Turonda yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalarida o'z ifodasini topgan. Dastlabki davrda odamlarning tasavvurlari juda oddiy bo'lib, dunyo, tabiat to'grisidagi bilmlari cheklangan. Odamlar o'zlarini yashab turgan atrof muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishiarni turli xudolar ramzida ifodalashgan. Odamlar va xudolarning turmush tarzlari bir xil, hatto ular bir xil xislatlari, fazilatlar va bir xil nuqsonlarga ega bo'lganlar. Lekin xudolar qudratli, kuchli, salobatli, hamma narsaga qodir, deb ta'riflangan. Asta sekin o'sha qudratlilik, o'sha buyuklik, barcha ishlarning uddasidan chiqa olish salohiyati odam degan tirik mavjudot tomon og'a boshiagan.

Qadimgi Hindiston inson to'g'risidagi dastlabki fikrlar paydo bo'lgan mamlakatlardan biridir. Hindiston zaminida inson haqidagi ta'limotlarning paydo bo'lishi bugungi kundagi eng so'nggi tadqiqot natijalariga ko'ra, milloddan avvalgi XII-VII-asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrlarda Hindistonda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik rivojlangan edi. Ilk sug'orish tizimlari vujudga kelib, savdo-sotiq rivojlandi. Buning oqibatida kichik-kichik davlatchalar vujudga keldi.

Qadimgi Hindlarning eng dastlabki diniy qarashlari totemistik, tabiatni ilohiylashtirish, ota-bobolar ruhiga topinish kabllardan iborat bo'lgan. Milloddan avvalgi II-ming yllikda Hindistonda aniqrog'i XII-VII-asrlarda shakllangan qadimgi Vedalar (to'rt asosiy muqaddas kitob: Rigveda, Atharvaveda, Samaveda va Yajurveda)da, ya'ni diniy bilimlar, gimnlar, qo'shiqlar, urf-odatlar to'plamlarida insonning insoniy xususiyatlari haqidagi fikr-mulohazalarni uchratish mumkin. Vedalarida bayon qilingan inson to'g'risidagi fikrlar mifologik-diniy qarashlar bilan birgalikda bayon etilgan.

Ushbu manbalar o'z zamonasi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotini aks ettiruvchi yirik madaniy-ma'rifiy meros hisoblanadi. Ularning yaratilishi uzoq davom etgan jarayon hisoblanadi.

Vedalarda inson tushunchasi "hammabop", barchaga xos umumiyligini ifodalamasdan, balki o'zining kelib chiqishi va rivojlanish tarixiga ega bo'lgan ayrimlik, yakkalik ramzi sifatida ta'riflangan. Vedalarda ba'yon etilishicha, ayrim kishidagi hammaga xos, barchaga taalluqli fazilatlarning vujudga kelishiga sabab braxmanlardir. Braxmanlar tufayli odamda insoniy xislatlari, fazilatlari shakllangan.

Markazlashgan yirik davlatlarning tarkib topib borishi yagona xudoga sig'inish elementlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Dastlab

podshohlarni ilohiylashtirish, so'ngra yagona xudo e'tiqodi paydo bo'lgan. Yagona xudo Prajapati odamlar va xalqlarni yaratuvchi sifatida tasavvur qilingan. Quldarlik tuzumining vujudga kelishi diniy tasavvurlarni o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatdi, natijada vedalardagi diniy qarashlar mohiyati o'zgarib, Braxma dinning paydo bo'lishiga olib keldi. Braxmanizmda jonning ko'chib yurishi to'g'risidagi ta'limot diniy nuqtayi nazardan asoslab beriladi. Milloddan avvalgi VI-asrga kelib Braxmanizinga qarama-qarshi tarzda Buddaviylik dini vujidga keladi. Buddaviylik ta'limotida hayot, ya'ni borliqdagি barcha mavjudotlarni yashash uchun kurashi, ularga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob uqubatlarning sababi – inson va barcha tirik jonzotlarining dunyo lazzatlariga ko'ngil qo'yganidir. Chunki har qanday insoniy tuyg'u, ehtiros va istaklar azob uqubatlarni chuqurlashtiradi. Azob-uqubatlardan qutulishning yagona yo'li – dunyoning barcha lazzatlaridan, huzur-xalovatlaridan vos kechish, yerdagi barcha narsalarning o'tkinchiigiga, beqaror ekanligiga ishonishdir. Ushbu ta'limotga ko'ra bir qayta tug'ilgandan ikkinchi qayta tug'ilishga o'tish yo'li insonning azob uqubatga mahrum qlladi. Qachonki inson o'z kuchi va saxovatli hayoti bilan donishmandlikning to'rt bosqichini bosib o'tsagina qayta tug'ilishi zanjirini butunlay uzib tashlaydi va qayta tug'ilishi azobidan qutuladi. Zamonalr o'tishi bilan Vedalarida bayon etilgan olam va inson borlig'i haqidagi fikr-mulohazalar turlicha sharhlandi. Chunonchi, ortodoksal oqim tarafdorlari Vedalarda bayon qilingan olam va inson borlig'i orasida o'zaro aloqadorlikning mavjud ekanligi haqidagi g'oyalarni qo'llab-quvvatlagan, uni har tomonlama rivojlantirgan bo'lsalar, noortodoksal oqim yalovbardorlari bunday qarashlarni tanqid qila boshladilar. Hind falsafasidagi ortodoksal oqimning shakllamishiga: sankxya, vaysheshika, nyaya, yoga, mimansa diniy-falsafiy maktablarining ijodkorlari katta hissa qo'shishgan bo'lsa, noortodoksal oqim rivojida: jaynizm, buddizm, lokayata, chorvaka maktablari muxlislarining ulushi salmoqli bo'lgan.

Daosizm qadimgi Xitoyda keng tarqalgan falsafiy oqimlardan biri hisoblanadi. Bu oqimga milloddan avvalgi VI-asrda yashagan Lao Szi asos solgan. Dao so'zi aslida "yo'l", "negiz" degan ma'nolarni anglatadi. Daosizm ta'limotiga muvofiq, insonning insoniyligi ishonch, umid prinsipiiga rioya qilishiga qarab belgilanadi. Umidga esa istakni, orzuni cheklash vositasi yordamida erishiladi. Istak, orzuni cheklay olmaslik insonda xudbinlik, ichiqoralik kabi illatlarning paydo bo'lishiga turki beradi. Kishilarning xudbinligi nafaqat odamni, hatto olamni ham deformatsiyaga giriftor qiladi. Bunday holat olamning asosi bo'lgan daoning garmonik tabiatiga, ya'ni "Har bir kishi hamma narsa uchun" qoidasiga mos tushmaydi.

Daosizm ta'limotida har tomonlama garmonik rivojlangan inson qiyofasi haqida bir talay ajoyib fikrlar bayon etilgan. Ushbu ta'limotga ko'ra, garmonik rivojlangan inson tabiiylikka ko'proq mayli bor, har qanday behuda

ishlar bilan o'zini ovora qilmaydigan, har qanday vasvasalar ta'siriga berilmaydigan kishidir. U osmonga qiyoslanadi. Bunday kishilar o'zining osmon daosi bilan uzviy aloqador ekanligini his qilib turadi. Chunki inson kosmos bilan bog'liq bo'lib, o'ziga xos mikrokosmosdir.

Daosizm ta'limotiga ko'ra, insonning baxt-iqboli, farovon turmushi hukmdor (imperator) faoliyat bilan bog'liq. Hukmdor fuqarolarning orzu-istaklarini ezgulik tomon boshqarishi lozim. Shuning uchun ham hukmdor faoliyatining asosida xalq daosi bilan osmon daosining aralashuvi yotmog'i darkor. Osmon daosi tabiat qo'ynda yashovchi oddiy odamlarning ideal jamiyatini bunyod etishiga harakat qiladi. Donishmand imperator osmon daosi muddaosini, ya'ni ideal jamiyat qurish istagini turli amaldorlar yordamida bajaradi. O'sha amaldorlar ideal jamiyat qurish jarayonida vujudga kelgan turli nifoqlarni oqilona bartaraf etmoqlari lozim. Shunday qilib, daosizm ta'limotida ijtimoiy ideal, har tomonlama rivojlangan inson osmon daosi siyosida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Xitoy falsafasida inson to'g'risidagi fikr-mulohazalar Konfutsiy ta'limotida yanada yangi bosqichga ko'tarildi. Konfutsiy o'zidan meros qilib hech qanday asar qoldirgani yo'q. U o'zining falsafiy qarashlarini og'zaki bayon qilgan.

Konfutsiy miloddan avvalgi 551-479-yillarda yashagan. Konfutsiy nomi "Kun" va "Futsizm" so'zlarasi asosida vujudga kelgan. Hozirgi zamon qoidalariiga asosan tahlil qilsak, "Kon" familiyasini bildirsa, "fu" so'zi faylasuf, "szi" o'qituvchi, ustoz, muallim ma'nosini anglatadi. Xitoyliklar uni "Kunsizm", ya'ni "Faylasuf ustoz Kun" deb atashgan. Konfutsiy qadimgi Xitoya insonparvarlik (jen) g'oyalarini birinchi bo'lib olg'a suradi. Uning fikricha insonlar o'rtasida o'zaro xurmat va muhabbat hukumron bo'lishi kerak, davlat tepasida aqli kishilar turishi kerak va ular o'z xatti-harakatlari, xulq-atvorlari bilan butun xalqqa o'rnak bo'lishlari kerak deb ta'kidlaydi.

Inson to'g'risidagi qarashlarni miloddan avvalgi VII-VI-asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, Eron va Turonda keng tarqalgan mifologik-diniy, diniy-falsafiy ta'limotlarda yaqqol ko'rishi mumkin. Ana shunday ta'limotlardan biri Zardushtiylik edi.

Zardushtiylik ta'limotiga Turonzaminning Xorazm o'lkasi qishloqlaridan birida tavallud topgan, o'z zamonasining yirik qomusiy olimi, shoir Zardusht-Spitamon asos solgan. U yoshligidan bilimga, ilmga chanqoqligi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan.

Zardushtiylikning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini har tomonlama o'rganishda XVIII-asrda ijod etgan Anketil Dyuperron, ingлиз tadqiqotchisi D.Buggerlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Zardusht shaxsi, uning tug'ilgan vatani, hayoti va ijodi haqida hozirgi zamon ilm-fan arboblari turli-tuman fikrlarni bayon qilmoqdalar. Fikrlar xilma-xilligidan qat'i nazar Zardusht – Spitamonning miloddan avvalgi VII-

asrning ikkinchi yarmi – VI-asrning boshlarida Xorazmda tug‘ilgani, yashagani va ijod qilgani tarixiy haqiqatdir. Zardusht nomi Yevropa faylasuflari asarlarida “Zarastra”, “Zaratushtra”, deb ham yuritiladi. Zaratushtra eroncha so‘z bo‘lib, “zara” – oltin, “ushtra” – tuya ma’nolarini bildiradi. Ayrim hollarda “Zaratushtra” iborasi “oltin tuyalik, “oltin tuya egasi”, “tuyalarni yetaklovchi kishi”, deb liam tarjima qilinadi.

Zardushtiylik ta’limotining asosiy qoidalari uning muqaddas kitobi “Avesto”da bayon etilgan. “Avesto” 21 kitobdan iborat bo‘lib, Abu Rayhon Beruniy “Osorul-boqiya...” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) kitobida va Abulqosim Firdavsiy o‘zining “Shohnoma” asarida Zardushtning pand-u nasihatlari, yakka xudolikka asoslangan Zardushtiylik ta’limotining asosiy qoidalari bayon qilingan. “Avesto”dagi 21 kitobning: birinchi yettitasi xudolarga, koinotning paydo bo‘lishi va insoniyat tarixiga doir; keyingi yetti kitob ibodat masalalari, diniy dasturlar, odamlarning turmush tarzi haqida; oxirgi yetti kitobda tibbiyot, astronomiya muammlolariga bag‘ishlangan edi. Eron va Turonni Aleksandr Makedonskiy zabit etgach 1200 qoramol terisiga tillo bilan bitilgan ushbu nodir to‘plamni Yunonistonga olib ketadi.

Zamonlar o‘tishi bilan Eron va Turon xalqlari o‘zlarining qalblaridan mustahkam o‘rin egallagan “Avesto”ni tiklashga kirishdilar. Yodnomaning parokanda qismlarini to‘plashda, zardushtiylik qoidalari saqlab qolishda Eron va Turon shohlari: Gushtasp, Baloshi Ashkoniy, Ardasher Bobakon, Shopuri Ardasher, Shopur ikkinchi, Xusrav Anushervonlar fidoyilik qildilar. Sosoniylar sulolasi hukmronlik qilgan zamonlarda (milodning III-IV asrlari) “Avesto” qayta tiklangan, yangi ko‘rinishda namoyon bo‘ldi. Zardushtiylik Sosoniylar imperiyasining rasmiy dini darajasiga ko‘tarildi. Afsuski, yodnomaning tiklangan nusxalari ham, milodning VII-VIII asrlarida, Eron va Turon mamlakatlariga islam dini kirib kelishi bilan yo‘q qilib tashlandi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, o‘sha buyuk madaniy merosning to‘rt kitobi: “Yasna”, “Videvdat”, “Yasht”, “Visparad” qayta tiklandi va bizning zamonamizga yetib keldi. Bu kitoblar o‘z mazmuniga ko‘ra turli vazifalarni bajargan. Jumladan: “Yasna” (Yosin), 17 bobdan iborat bo‘lib, turli duolar va bashoratlar yig‘indisidan tashkll topgan. Shuningdek, unda “Avesto”ning eng qadimiy qismi “Got”lar ham o‘rin olgan. “Got”lardagi asosiy g‘oya: “ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal” birligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa. “Videvdat” 22 bobdan iborat bo‘lib, butun olamning yaratuvchisi Ahura Mazdaning dushmanlari bo‘lgan yovuz devlar, ins-u jinslarga qarshi kurash olib borishga mo‘ljallangan qonun-qoidalari, turli gunohlardan poklanish marosimlari, saxovatlari bo‘lishga qaratilgan rasim-rusumlar (chunonchi, o‘likni yerga ko‘mish, yolg‘on va’da bergen kishini jazolash, ayollarga bo‘lgan munosabat, it boqish haqidagi qoidalari) to‘plamidir. “Yasht” turli ruhlar sha’niga aytilgan, kuylanishi savob hisoblangan qo’shiqlar (gimnlar) to‘plami

(24 bobdan iborat) bo'lsa, "Visparad" olamni bilishga doir pand-u nasihatlar, unga hukmronlik qilishga qaratilgan hamd-u sanolar to'plamidan iborat.

Odamzot tuproqdan vujudga kelib, tuproqqa qaytishi lozim, degan nuqtayi nazar zardushtiylik ta'limotidagi eng muhim g'oyalardan biri edi. Shunday qilib, Eron va Turonda qadimgi zamonda keng tarqalgan zardushtiylik (miloddan avvalgi VII-VI-asrlar), moniylik (eramizning III-IV-asrlari), mazdakiylik (eramizning V-VI-asrlari) ta'limotlarda, shuningdek, qadimgi Sug'd pandnomasida inson to'g'risida fikr-mulohazalar ko'p edi. Ushbu ta'limotlar Yaqin va O'rta Sharq xalqlari azaldan, inson kamoloti, ayniqsa, uning ma'naviy-axloqiy pokligi, imon-e'tiqodi bilan amaliy faoliyatining mushtarakligiga e'tiborni qaratganligidan dalolat beradi. Ushbu ta'limotlarda ona Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichikka g'amxo'rlik, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida kattalarning shaxsiy o'mak ko'rsatishi kabi insonparvarlik g'oyalari olg'a suriladi. Odamlarni egzilikka, yaxshilikka undadi, tinchlik, osoyishtalik, halol mehnat har tomonlama ulug'landi. Bu esa o'z navbatida zardushtiylik, moniylik, mazdakiylik ta'limotlari qadimgi Eron va Turon jahon sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Qadimgi zamон Yevropa mamlakatining beshigi hisoblangan Yunon faylasuflarining inson to'g'risidagi qarashlarining shakllanishida Eron va Turon xalqlari orasida keng yoyilgan zardushtiylik diniy falsafiy ta'limotining ta'siri sezilarli bo'ldi.

Bunday holatni Qadimgi Yunonistonning Milet shahri nomi bilan atalgan "Milet falsafa maktabi" (miloddan avvalgi VI-asr) namoyandalari Fales, Anaksimandr va Anaksimenlarning inson to'g'risidagi qarashlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Milet Markaziy Yunonistonning savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlangan yirik shaharlaridan biri edi. Miletda Eron, Turon va Yunon xalqlari ma'naviy madaniyatlarining yaqimlashuv jarayoni sodir bo'ldi. Shu tufayli zardushtiylik ta'limotidagi olam va odam to'g'risidagi ilg'or fikr-mulohazalar miletlik faylasuflar tomonidan katta chanqoqlik bilan o'zlashtirildi.

Milet falsafa maktabi namoyandalari Fales, Anaksimandr, Anaksimen va Geraklit Efesskiylarning olamning tuzilishi, odamning vujudga kelishi to'g'risidagi fikr-mulohazalarini har tomonlama rivojlantirgan faylasuf Demokritning (miloddan avvalgi 460-370-y.) fikriga muvofiq, jon inson tanasini harakatga keltiruvchi manba bo'lib, u atomlardan tashkil topgan. Tana o'lishi bilan jon ham o'ladi. Chunki olamda tanadan tashqarida yashaydigan jon yo'q. O'lim esa atomlarning o'zaro to'qnashuvlari oqibatida sodir bo'lgan parchalanishning oqibatidir. Uning tushuntirishicha, odam deb ataluvchi jonli mavjudot hamisha tabiatga taqlid qilib yashaydi. Tabiatdagi go'zallik ta'sirida rassomlik vujudga keldi. O'rgimchak to'qigan to'rдан

to'qimachilikni. asalaridan imorat qurishni, bulbulidan musiqani o'rgandi. Inson moddiy olamning ta'sirida o'zining sezgilari yordamida his qiladi. U olamdag'i turli hodisalarni, voqealarni bilihda hissiyot bilan tafakkur, aql-farosatning o'zaro aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishi lozimligini dalillashga urindi.

Demokritning fikriga asosan, odamning boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladigan eng muhim xususiyati nutqidir. Nutq esa odamga ko'rsatilgan xudoning karomati emas, balki o'sha tirik mayjudotlarning olam bilan bo'lgan o'zaro aloqalari, amaliy faoliyatlar tufayli vujudga kelgan. Odamlar o'zlarining yashash sharoitini o'zgartirib turishlari, ularning sovuqdan saqlanish, oziq-ovqat qidirib topishning yangi uslublarini izlab topishga majbur qildi. Ana shunday munosabatlar doirasida odam asta-sekin inson sifatida shakhtanib bordi.

Sokratning inson to'g'risidagi qarashlari uning shogirdi Platon (Aflatun, miloddan avvalgi 427-347-yillarda yashagan) tomonidan yanada rivojlantirildi. Uning tushuntirishicha, inson ilohiy qudrat tomonidan yaratilgan. Boshqacha aytganimizda, Platonning qarashlariga muvofiq, xuddi o'sha ilohiy qudrat insonni yaratuvchi birinchi sababdir.

Platon insonning mohiyatini tushuntirib berishga harakat qildi. Uning fikriga ko'ra, inson asosan ikki bo'lakning uyushmasidan iborat. Birinchi bo'lak – o'lmas jon, ikkinchi bo'lak – o'lib turadigan tanadir. Jon xuddi g'oya kabi bir butun bo'lib, u bo'linmasdir, tana esa allaqanday materialdan yasalganligi uchun bo'linib turadi va bir necha qismlardan iboratdir. Jonning mohiyati uning bo'linmasligida emas, balki doimo harakatda ekanligidadir. O'zidan-o'zi harakat qilib turgan barcha narsalar o'lmasdir. Lekin o'sha harakatni vujudga keltirgan har qanday narsaning ham chegarasi bor. Shuning uchun ham o'sha chegarasi bor narsalar doimo o'lib turadi.

Platonning ta'kidlashicha, insonning joni ham ikki qismidan iborat bo'ladi: oliy-yuqori qism va pastki-quyi qism. Oliy qismida barcha aql-zakovat to'plangan, uning yordamida inson abadiy g'oyalar olamining sir-asrorini bilib oladi va farovonlik, ezgulik tomon intiladi. Pastki qism esa his-hayajonga asoslanadi. Jondagi bu ikki holat ikki otga o'xshaydi, birinchisi yuksalish tomon boshlasa, ikkinchisi pastga, jarga tortadi. Ko'rinish turibdiki, tana jonga nisbatan nafaqat past, balki zararli hainda salbiy deb hisoblanadi.

Platon odamlarni uchta katta toifaga bo'lgan. Birinchi toifadagi kishilarни aqlli kishilar, ikkinchi toifadagilarni his-hayajonga beriluvchilar, uchinchi toifaga mansub odamlarni esa dohiylarga, yo'lboshchilarga sajda qiluvchilar, deb atagan. Odamlarning jonida ana shu uch toifaning qaysi xislatlari ko'p bo'lsa, o'shang aqarab shu uch toifaning biriga mansub bo'ladi, – deb tushuntirgan.

Birinchi toifaga mansub kishilar faoliyatida hamisha aql-zakovat ustunlik qiladi. Ular doimo go'zallik, ezgulik tomon intilishadi. Bunday

kishilar faoliyatida tartib-intizom kuchli bo'lib, ular hamisha farovonlikka intiladilar. To'g'rilik,adolat, insofga doim moyil bo'ladilar. Bundaylarni Platon donishmandlar, deb hisoblaydi. O'zi barpo etmoqchi bo'lgan davlatdan, ular uchun rahbarlik lavozimlaridan o'rin qidiriladi. Mashhur yunon faylasufining fikriga ko'ra, ikkinchi toifaga mansub kishilarda xayrli his-tuyg'ular, ayniqsa, mardlik, jasorat, boshliqlarga bo'ysunish kabi xislatlar serob bo'ladi. Ana shunday fazilatlar harbiylar, davlat xavfsizligini ta'minlovchi posbonlar uchun, ayniqsa, juda zarur, deydi. Uchinchi toifaga mansub kishilarda jismoniy ishga moyillik ko'p bo'ladi. Bunday odamlar toifasiga dehqonlar, hunarmandlar kiradi. Shu toifaga mansub kishilar davlatning moddiy asoslarini yaratishlari lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Inson va uning mohiyati haqidagi ajoyib fikr-mulohazalarni Platonning sevimli shogirdi, takrorlanmas, universal aql-zakovat egasi Aristotel (miloddan avvalgi 384-322-y.) falsafasida yaqqol ko'rish mumkin. Inson jismi va ijtimoiy qiyofasi orasidagi aloqadorlikni tushuntirib berishda Aristotel o'z o'tmishdoshlaridan ancha ilgarilab ketdi.

Aristotelning tushuntirishicha, olamdag'i jamiki tirik mavjudotlar hayotining asosini jon tashkil qiladi. Jon bir necha, "darajalar", "holatlar" da namoyon bo'ladi. Aristotel ta'biri bilan aytganimizda, tirik mavjudotlardagi jon uch yirik turkumga bo'linadi. Eng past turkumdag'i jon o'simliklarda, ikkinchi turkumdag'i jon hayvonlarda, eng oliy uchinchi turkumdag'i jon odamlarda bo'ladi. Bunday fikr-mulohazalardan ko'rinish turibdiki, Aristotel falsafiy fikrlar tarixida birinchilardan bo'lib, tiriklik ramzi bo'lgan, jonning topologiyasini ishlab chiqdi. Uning fikriga muvofiq, o'simlik joni barcha tirik mavjudotni oziqlantiradi, o'stiradi, ko'paytiradi, hamma narsaga ilhomlantiruvchi kuch-quvvat ato etadi. Hayvon joni yuqoridagi funksiyalarni bajarish bilan birga, sezish qobiliyatiga ham ega bo'ladi. Shuningdek, hayvon jonica yoqimli narsa tomon intilish, yoqimsiz narsadan qochish tuyg'usi mavjud bo'ladi. Odam joni, ya'ni aqlli jonda o'simlik, hayvon joni bajargan funksiyalardan tashqari, eng oliy qobiliyat – fikr yuritish, tafakkur mavjud bo'ladi.

Aristotelning ta'kidlashicha, tana oliy darajali aql uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aql esa, tanaga bog'liq bo'lmaydi. Oliy darajadagi aql o'zining faoliyat ko'rsatishi, yaratuvchanligi bilan faqat qabul qilish xususiyatiga ega bo'lgan passiv aqldan tubdan farq qiladi. Aristotel inson deb ataluvchi tirik mavjudotni, bir tomondan, "butun va bo'linmas", deb talqin etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, unga o'ziga o'xshaganlar bilan yashashga mahkum etilgan, "Siyosiy maxluq" sifatida qaraydi. U o'zining "Siyosat" nomli asarida insonga quyidagicha ta'rif beradi: "...inson o'z tabiatiga ko'ra siyosiy mavjudotdir".

Aristotel odamning inson darajasiga ko'tarilishida jamiyat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etadi. Odamlar faqat jamiyatda inson

bo'lib shakllanadilar, axloqiy mavjudot bo'lib tarkib topadilar. Lekin bunday tarbiya faqat adolatli davlat sharoitida amalga oshishi mumkin. Haqiqiy adolat prinsiplari va normalari asosida yaratilgan qonunlar ustuvorligiga erishish, ularga amal qilinishini ta'minlash, fuqarolarda chinakam insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi.

Aristotel insonni olamdag'i tirik mavjudotlarning toji deb tushuntiradi. Chunki inson degan tirik mavjudotda rivojlangan intellekt mavjud, u nutq so'zlash imkoniyatiga, yaxshillk bilan yomonlikning farqiga borish qobiliyatiga ega. "Tabiat insonning qo'liga qarab intellektual va axloqiy kuch-quvvat qurolini berdi", – deb yozgan edi u. Aristotel bunday fikr-mulohazalarini bayon qilish yordamida inson bilan hayvon o'rtasidagi farqni ko'rsatib bermoqchi edi.

Qadimgi zamon, xususan, ellistik davr inson falsafasi, miloddan oldingi IV-III-asrlarda Yunonistonda, keyinroq, ya'ni milodning boshlarida Rimda keng tarqalgan. Stoiklarning inson to'g'risidagi fikr-mulohazalarini ellinizm davrining mashhur faylasufi Epikur (miloddan avvalgi 342- 271-yil) qarashlarida ham ko'rish mumkin. U Platonning jon haqidagi fikrlarini rad etadi. Uning fikricha, jon moddiy tana bilan bog'liq, tana o'lishi bilan jon liam o'ladi. Inson jon tufayli sezadi, his qiladi. His qilish, sezishning manbayi liam jondir. Jonning mohiyati tanadagi atomlarning harakati bilan bog'liq. O'lim tananing yangi, sezgisiz holatidir. Aql ham atomlardan tashkil topgan. O'limdan hech qachon qo'rqmaslik darkor. Chunki biz bor, o'lim yo'q, o'lim kelgan vaqtida esa biz bo'lmaymiz. Shuning uchun ham o'lim tiriklar uchun ham, o'liklar uchun ham mavjud emasdir. Epikur insonning individual xislatlarini o'rganishga e'tiborini qaratadi. Chunki jamiyatda sodir bo'ladigan barcha ijtimoiy munosabatlar alohida olingan kishining subyektiv xohish-irodasi, foyda ko'rishi va ratsional fikr yurita olish qobiliyati bilan bog'liq. Uning tushuntirishicha, insonning yashashdan maqsadi baxt-saodatga erishish, o'sha baxt-saodatdan qoniqish hosil qilishdir. Lekin chinakam mammuniyat chegarasiz, qo'pol hissiy zavq olish, rohat qilish degani emas. Oliy darajadagi qoniqish, mammuniyat jonning osoyishtaligini ta'minlashdir. Bunday osoyishtalik, g'ala-g'ovursizlikka erishmoq uchun inson o'z jahlini jilovlay bilishi, jahlini yuta bilishi, ko'proq aqlga erk berishi darkor.

O'rta asr insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot jarayo-nining eng uzoq davom etgan bosqichidir. O'rta asrlarni ilmiy-falsafly adabiyotda Rim imperiyasining halokatidan (476-yil) boshlash urf bo'ldi. Tabiiyki, bunday chegara shartli edi. Chunki o'rta asr falsafasi haqida fikr yuritganimizda, milodning I-IV-asrlaridan boshlab XIV-XV-asrlargacha bo'lgan fikrlash madaniyati tarixi bosib o'tgan yo'l haqida gapirish o'rinni bo'lardi, deb hisoblaymiz.

O'rta asr falsafasining shakllanish jarayoni Yevropada xristian dinining vujudga kelishi va uning tarqalishi bilan bog'liq bo'lsa, Osiyo, Afrika

mainlakatlarida, xususan, O'rta Osiyoda islom dinining paydo bo'lishi va uning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunonchi, xristian dini eramizning I-II-asrlarida Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida vujudga kelib, O'rta dengiz atrofi mamlakatlariga keng tarqala boshlagan bo'lsa, islom dini milodning VI-VII-asrlarida Shimoliy Afrikada paydo bo'ldi va tez orada nafaqt Osiyo, balki Yevropa mainlakatlariga ham keng tarqaldi.

Qadimgi zamon falsafasi ko'p xudolik (politeizm) bilan bir xudolik (monoteizm) orasida tebranib, qalqib turgan bo'lsa, o'rta asr falsafasi bir xudolikka asoslanganligi bilan tubdan farq qiladi Shuning uchun hain o'rta asr falsafasining ildizlari iudaizm, xristianlik va islom dinlariga borib taqaladi.

O'rta asr falsafasining eng muhim xususiyatlaridan biri, uning teosentrik xususiyatga ega ekanligidir. Teosentrik fikr yuritish madaniyatiga asosan, olamdagi butun mavjudotning yaratuvchisi – Xudodir. Teosentrik xususiyatga ega bo'lgan o'rta asr falsafasining asosida yaratish va kashf etish g'oyasi inson to'g'risidagi fikr-mulohazalarning negizini tashkil etadi.

Ma'lumki, qadimgi zamon, xususan, Eron, Turon va Yunon faylasuflari inson jamiki tirik mavjudotlarning toji ekanligini ta'kidlab, uni olamdagи barcha tirik mavjudotlar ichida birinchi o'ringa ko'tarib qo'ydilar. Inson olamdagи tirik mavjudotlarning birontasiga o'xshamasligini qayta-qayta ta'kiddilar. O'rta asr faylasuflari (antropologlari) esa, insonning eng muhim belgisi, uning "Xudoga o'xshash" ekanligini ta'kiddilar va o'sha insonga o'xshagan Xudoni koinotdan tashqariga olib chiqdilar. Endilikda Xudo koinot ustida turadigan bo'ldi. Xuddi shu holat qadimgi zamon antropologizmi bilan o'rta asr antropologizmi o'rtasidagi asosiy farqni ifodalaydi. Qadimgi zamon faylasuflari, inson koinotning bir bo'lagi deb qaragan bo'lsalar, o'rta asr insonshunos faylasuflari inson bilan koinot o'rtasida o'tib bo'lmas to'siq bor, deb hisobladilar.

Xristian falsafasi insonda Xudoga o'xshash fazilatlar, xislatlar mavjud ekanligini birinchilardan bo'lib isbotlashga harakat qildi. Xususan, xristian cherkovining buyuk namoyandalaridan biri Grigoriy Nisskiyning tushuntirishicha, Xudo podshohdir, butun koinotni, jamiki mavjudotning egasidir. Xudoning insonni yaratishdan muddaosi, uni butun olamning xo'jayini, chinakam podshoh qilish edi. Podshoh bo'lish uchun esa, ikki narsa zarur: birinchidan, erkinlik, tashqi ta'sirdan holis bo'lish, ya'ni mustaqillik; ikkinchidan podshohlik qilish uchun zarur bo'lgan xislatlarning mavjud bo'lishi. Shuning uchun Xudo insonga aql-idrok va erk ato etgan, yaxshilik va yomonlikning farqiga borish uchun fikrlash qobiliyatini bergen. Xuddi shuning o'zi insonning mohiyatini, unda Xudo obrazini mavjudligini tasdiqlaydi. Insonning olamga podshohlik qilishi, tabiat ustidan hukimron bo'lishini ta'minlash uchun unga tabiat bilan aloqa qiluvchi a'zo tana bilan hayvoniy jon ulashgan. Xudoning inson qiyofasida namoyon bo'lish g'oyasi,

nafaqat qadimgi Yunon madaniyatida, balki yakka xudolikka asoslangan dinlar iudaizm va islomda ham yo'q edi. Faqt xristian dinida boshqa dinlardan farqli o'laroq, unda xudo inson qiyofasida gavdalanadi. Xristianlikkacha hech qayerda, hech qachon Xudo bilan inson qiyofasi bir-biriga o'xshaydi, deb tasvirlanmagan. Bu ikki asos: inson va Xudo hech qachon bir-birlari bilan qo'shib ketmagan edi. Xristianlik Xudo bilan koinotga hukmronlik davosini qildi. Xuddi o'sha hukmdor Xudoning inson tanasiga o'rnashib olishi ajablanarli holat edi. Xristianlik ta'limotiga ko'ra, jon tanadan tashqarida yashay olmaydi (Platonning tushuntirishicha esa, jon o'immas, tana o'lganidan so'ng ham boshqa tanaga ko'chib yashayveradi), degan aqida o'rta asr xristian falsafasida, jon va tana muammosining asosini tashkil etdi. Inson to'g'risida ta'limot yaratishga uringan o'rta asr xristian faylasuflaridan biri Origendir. Uning fikricha, inson degan tirik mavjudot jon, qalb va tanadan iborat. Inson joni o'ziga bog'liq emas, chunki u Xudo tomonidan in'om etiladi, hamisha yaxshilik va haqiqat tomon intiladi. Qalb kishining o'z "Men"idir va insonda individuallik boshlanayotganligidan dalolat beradi. Origennenning tushuntirishicha, xuddi o'sha qalb, yaxshilik va yomonlikni tanlab oladi. O'z tabiatiga ko'ra, u hamisha jon oldida, tana esa qalb oldida qarzdordir. Lekin qalb o'zida ikki qutbni (yaxshilikni ham yomonlikni ham qabul qila olgani uchun) mujassamlashtirgani uchun uning pastki qismi ba'zan yuqoriga chiqib oladi va insonda turli havas, ishtiyoqlarni uyg'otadi. Bunday holat inson odatiga aylangunga qadar u gunohkor mavjudot bo'lib qoladi, yaratuvchi tomonidan yaratilgan tabiatning tartib-intizomiga amal qiladi. Shunda oliv qashshoqlikka bo'ysunadi. Xuddi shunday yo'l bilan olanga yomonlik kirib oladi. Shunday qilib, yomonlik Xudodan ham, tabiatdan ham kelib chiqmaydi, tanada ham paydo bo'lmaydi, balki u insonning o'zida hosil bo'ladi. Origennenning fikriga asosan, yomonlik Xudo tomonidan insonga in'om etilgan erkinlikning suiste'mol qilinishi tufayli vujudga keladi. Shuning uchun o'rta asr xristian falsafasi inson erki bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganishni birinchi o'ringa qo'ydi. Inson qalbi tanasiz, materiyasiz mavjud bo'ladigan sof, ma'naviy shakl, materiyaga bog'liq bo'limgan substansiadir. Uning o'immasligi va yo'q bo'lib ketmasligi, shu bilan izohlanadi. Chunki qalb substansiya bo'lgani uchun yo'qolmas, sof shakl bo'lgani uchun buzilmasdir. Inson axloqiy fazilatlari haqida fikr yuritgan Foma Akvinskiy har bir kishi axloqiy faoliyatining asosini xohish-istik, erk tashkil etmog'i darkor, deb hisoblaydi. Bu yerda Foma Akvinskiy Avgustin qarashlariga zid fikr yuritadi. Ezgulikka qaratilgan inson faoliyatini qattiq hurmat qiladi. Uning fikriga ko'ra, ezgulik to'rt ko'rinishda, chunonchi: donishmandlikda, jasurlikda, mo'tadillikda va adolatparvarlikda namoyon bo'ladi. Shuningdek, unga yana uchta xristianlikka xos fazilatlarni: ishonch, umid va muhabbatni qo'shib qo'yadi. Foma Akvinskyming ezgulik to'g'risidagi ta'limoti o'ta murakkab bo'lishi

bilan birga, markaziy g'oyasi juda soddadir. Uning e'tirof etishicha, insonda aqlning bo'lishi tabiiy bir hol, shunday ekan, kimki aqlga qarshi chiqsa, o'sha kishi insonga ham qarshi bo'ladi. Chunki aql erkdan ustun turadi, uni ulug'laydi va boshqaradi. Xullas, Foma Akvinskiy erkka nisbatan aqjni qadrlaydi, yuksaklikka ko'taradi. Foma Akvinskiy jamiyat a'zolarining ma'naviy va ijtimoiy muammolarini haqida bosh qotiradi. Ushbu muammolarni Yunon faylasuflariga o'xshab jamiyat va davlat doirasida o'rganadi. Uning fikriga muvofiq, davlat barchaning farovonligi haqida qayg'urishi uchun yashamog'i darkor. Lekin u jamiyatda mavjud bo'lgan turli tabaqaga mansub kishilarning teng bo'lishiga mutlaqo qarshi edi. Hamma Xudoga bo'ysunishi, barcha xristianlar orzu qilgan ezgulikning asosini tashkil etmog'i lozim, degan fikrni olg'a surar edi.

XV-asrdan e'tiboran Yevropaning ko'pgina mamlakatlari siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotida tub sifatiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan eng muhimmi qadimgi Yevropa, xususan, qadimgi Yunon madaniyatini, urf-odatlarini, rasm-rusumlarini tiklashga urinish kayfiyatlarining vujudga kelganligi bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham bu davr Yevropa falsafasi tarixida "Renessans" davri deb yuritiladi. Renessans davri (XV-XVI-asrlar) Yevropa falsafasini o'rta asr fikrlash madaniyatining natijasi va uning yakuni ekanligini unutmaslik darkor. Tabiiyki, ijtimoiy-tarixiy jarayon Yevropaning turli mamlakatlarida turlicha kechdi. Boshqacha aytganimizda, Renessans davri, mutaxassislarning fikriga ko'ra, Yevropada uch asosiy bosqichni: ilk bosqichni (XIV-asr), yetuklik bosqichini (XV-asr) va oxirlab qolgan so'nggi bosqichni (XVI-asr) bosib o'tdi. Renessans o'zining ilk bosqichida Butun Yevropani emas, balki uning eng rivojlangan mamlakatlarini qamrab oldi. Xuddi shuning uchun ham Renessans davri ilk bosqichining izlari qadimgi Italiyaga borib taqaladi. Kishilar fikrlash madaniyatida gumanistik va antroposentrik qarashlarining ustuvorlik qilishi ularning qadimgi Yevropa madaniy merosiga bo'lgan qiziqishlarini orttirib yubordi. Bunday tendensiyaning rivojlanib borishi o'z navbatida qadimgi zamon Yunon falsafasi namoyandalarining asarlarini o'rganishga bo'lgan intilishi ham kuchaytirdi. Qadimgi Yunon faylasuflari Platon va Aristotel falsafasi qayta tahlil qilina boshlandi. Neoplatonizmga, Itoiklar falsafasiga, Epikur va Sitseron qarashlariga qiziqish kuchayib ketdi.

Renessans, eng avvalo, qadimgi zamon madaniy, xususan, falsafiy merosi haqida erkin fikr yuritish, har qanday qoidalarni o'zgarmas, mutlaq haqiqat deb qarashdan voz kechish, inson bisotida mavjud bo'lgan qobiliyatlarni, malakalarni erkin namoyish qilish uchun vujudga kelgan imkoniyat edi. Xuddi shuning uchun ham olim-u fozillar, xususan, faylasuflar "yopiq maktablar" namoyandalari emas, balki mustaqil tadqiqotchi sifatida harakat qila boshladilar. Har bir tadqiqotchining o'ziga xos bayon qilish,

ilmiy-falsafiy asarlarni o'ziga xos tahlil qilish, voqelikni ravon, ommabop tilda tasvirlash uslublari vujudga keldi. Bunday uslublar o'tmish falsafiy adabiyotlarining sxolastik bachkanalikka asoslangan murakkab bayon qilish uslubiga zid edi. Bir ibora bilan aytganda, Renessans davri Yevropa falsafiy adabiyotlari o'tmishning sxematizmi va aprioristik chayqovchiligiga zarba berib, voqeа va hodisalarни chinakamiga real tavsiflashga, amaliyat uchun foyda keltirgan masalalar yechimini topishga e'tiborni qaratdi.

Renessans davri Yevropa madaniyati, xususan, uning falsafasi insonning eng oliv qadriyat ekanligini har tomonlama isbotlashga urindi. Xuddi shu davrga kelib ijtimoiy munosabatlarni baholashning yangi mezoni – insoniylik kriteriysi vujudga keldi. Insonning insoniyligi ajdodlar yaratgan madaniy-ma'naviy merosni o'zlashtirish qobiliyati bilan belgilandi. Shuningdek, Renessans davri Yevropa madaniyati, xususan, falsafasidagi eng muhim tendensiya olammi teosentrik tushunishdan antroposentrik tushunishga o'tilgani edi. Ushbu inqilobiy o'zgarish, shubhasiz, o'ta murakkab jarayon bo'lib, turli ziddiyatlarga to'la edi. Xususan, Yevropada individuallikning har tomonlama rivojlanishi ayrim hollarda xudbinlikning ortib borishiga olib keldi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, Renessans davri Yevropa falsafasida o'rtta asrning teosentrik tasavvurlariga zid bolgan yangi gumanistik yo'nalishlar vujudga keldi. Insonshunos olimlar, shoir-u yozuvchilar asarlarlda inson bilan tabiat, shaxs bilan jamiyat orasidagi aloqadorlik muammolarini o'rganish birinchi o'ringa chiqib oldi. Gumanistik falsafa vakillari har tomonlama rivojlangan shaxs g'oyasini olg'a sura boshladilar.

Gumanizm iborasini tor ma'noda tahlil qiladigan bo'lsak, uni g'oyaviy harakat deb baholash mumkin. Chunonchi, gumanizm g'oyalari o'zining ilk bosqichida Italiyada qadimgi zamon adabiyotlarini, san'atini, til va madaniyatini o'rganish shaklida namoyon bo'ldi. Xususan, italyan adabiy tilining asoschisi hisoblangan Dantening "Ilohiy komediysi", mashhur falsafiy asari "Bazm" va eng muhim siyosiy traktati "Monarxiya" asarlari italyancha gumanizm g'oyalarining shakllanisbida qudratli manba vazifasini bajardi. Gumanistik harakatning qadr-qimmati faqat falsafiy fikrlash madaniyati rivojlanishiga qo'shgan hissasiga qarab emas, balki qadimgi qo'lyozmalarni o'rganish borasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlariqa qarab baholanadigan bo'ldi. Xuddi shuning uchun ham Yevropa Renessans davrining ilk bosqichini xarakterlovchi italyancha gumanizm ayrim hollarda adabiy-filologik voqeа sifatida ham ta'riflana boshlandi.

Gumanistik antroposentrizm g'oyalarini ishlab chiqishda va dinni rivojlantirishda munosib hissa qo'shgan xristian allomalaridan biri Dante Aligeri – o'rtta asrning so'nggi va Yevropa ilk Renessans davrining buyuk shoiri, publisisti, faylasufi va siyosiy arbobi edi.

Dante Aligeri jahon madaniy merosi xazinasini “Yangi hayot”, “Falsafa yordamida ovinish haqida risola”, “Bazm”, “Monarxiya”, “Illohiy komediya” kabi asarlar bilan boyitdi. Ayniqsa, Sharq madaniyatni, xususan, Sharq falsafiy tafakkuri bilan Yevropani tanishlirishda Dantening xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Uning sevimli mahbubasi Beatrichega bag‘ishlagan “Yangi hayot” she’riy to‘plamida (1291-1292-yillarda to‘plam holiga keltirgan) Ibn Sino va Ibn Rushdning sharqona an’analarini davom ettirib, chinakam ishq va muhabbat, vafo va sadoqatni e’zozlaydi. Muhabbatning chinakam insoniy fazllat, oliv axloq, odob, umuman insonga xos bo‘lgan eng oliv xususiyat ekanligini ta’kidlaydi. Ishq-muhabbatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonini tushuntirib berishga harakat qiladi, uni har tomonlama e’zozlashga chaqiradi. Dante 1304-1308-yillarda quvg‘inda bo‘lgan kezlarida o‘zining yirik ilmiy-falsafiy asarlaridan biri “Bazm” va badiiy-filologik asari “Xalq nutqi”ni yozadi. “Bazm” o‘rtta asr falsafiy tafakkurining yirik qomusiy asari hisoblanadi. Dante bu asarida, eng avvalo, o‘z zamondoshlari, maslakdoshlarini falsafani har tomonlama, chuqur o‘rganishga chorlaydi. Falsafiy merosdan xabardor bo‘lishni har bir fuqaroning insoniy burchi deb hisoblaydi. Dante “Bazm”da inson muammosini, ayniqsa, uning ma’naviy-axloqiy qiyofasning shakllanishi jarayonini tahlil qilishga katta e’tibor beradi. Shoirning fikriga ko‘ra, har bir kishining ma’naviy-axloqiy qiyofasi jamiyatning madaniy darajasini belgilaydi. Dante o‘rtta asr ta’limotlariga. Bunday fikr-mulohazalarning yuzaga kelishi, o‘z navbatida, gumanizm konkret tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga qarab, turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishidan dalolat beradi. Turgan gapki, bunday tendensiya italyancha gumanizmga ham taalluqli bo‘lib, u turli ijtimoiy harakatlarda o‘z ifodasini topdi. Tarixiy jihatdan cheklangan bo‘lishiga qaramasdan, u Yevropa tarixida buyuk voqealarni bo‘lib qoldi.

XVI-XIX-asrlar musulmon falsafasida barkamol inson g‘oyalarni targ‘ib etishda shoir va yozuvchilar, tarixchi va faylasuflar bu davr talablari asosida yangi g‘oyalarni ilgari surdilar. XVI-XIX-asrlarda mazmunan boy, axloqiy, ta’lim-tarbiyaviy jihatdan g‘oyat ahamiyatli, nafisligi bilan hayratga soladigan, kishini o‘ylashga da’vat etadigan g‘azallar, ruboyilar, hikoyalar, tarixiy va falsafiy asarlar yuzaga keldi. Falsafiy va axloqiy fikr sohasida Poshoxo‘ja, Mirzajon ash-Sheroziy al-Bog‘naviy ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabog‘iy, Muhammad Sharif al-Buxoriy va boshqalarning asarlarini ko‘rsatish mumkin.

Poshoxo‘ja barkamol g‘oyasi asosida bir qator hikoyalar to‘plamini yaratgan bo‘lib, “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti” va “Gulzor”) ularda insof, adolat, diyonat, saxovat, donolik va aql-zakovat, rostgo‘ylik, ruhiy komillik, halollik, mehr-oqibat, kamtarlik va boshqa ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tahlil qiladi, salbiy illatlar, insoniylikka zid xatti-harakatlarni qoralaydi.

Yusuf al-Qorabog'iy (1563-1647-yil) yoshligidan fiqh, falsafa, tasavvuf bilan shug'ullanadi. Uning asosiy risolalarlda "Risolayi botiniya", "Risolayi xilvatiya", "Fi ta'rifi ilm" va boshqalarida barkamol inson g'oyasi haqida muhim fikrlar bildirgan. Shu bilan birga falsafaning eng muhim muammolari haqidagi fikrlari ifoda etadi. Uningcha, olam yagona jism, undagi barcha mavjud narsalar uning a'zolaridir. Olamdagi butun narsalarni Xudo yaratgan, u birinchi sababdir. Borliqdagagi hamma narsalar sabab-oqibat orqali bir-biri bilan bog'langan. Shuningdek, olim harakat va uning turlari, to'rt unsur haqida ham o'z fikrlarini bildiradi.

Boborahim Mashrab (1640-1711-yil) qarashlarida ham barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida e'tibor berilganligi, insoniylik, pok muhabbatni uylash, kishilarni do'stlikka, vafodorlikka chaqirish, takabburli va yolg'on so'zlashdan saqlanish, nasl-nasabga ishonmaslik, iymone'tiqodini sotmaslik, ota-onani hurmat qilish kabi g'oyalar Mashrab dunyoqarashining mag'zini tashkil qiladi.

Marshab ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlikni ko'rib fig'oni oshadi, uning poetik qahramonlari adolatsizlikdan azob chekadi. Boshqa ijodkorlardan farqli o'laroq Mashrab hayotining qachonlardir oddiy odamlar uchun ham kulib boqishiga umid qiladi. Mashrab falsafasidan bahra olib yaratilgan she'rlar o'zining mazmundorligi, o'ynoqiligi, sho'xligi va chinakam dunyoviyligi uchun xalq qalbidan chuqur o'rinni oldi.

Mirza Abdulqodir Bedil (1644-1721-yil) ilmning ko'p sohalari, xususan, falsafa, adabiyot, san'atshunoslik bo'yicha ijod qildi. Bedilning "Irfon" (Bilim), "Chor unsur", "Nukot" ("Hikmat") asarlarida barkamol inson g'oyasi haqidagi fikrlarni ifoda etgan. Bedil o'z falsafiy qarashlarini ijtimoiy hayotga tadbiq etib, jamiyat hayotidagi yomonlikni bartaraf qilish va yaxshilikni o'rnatish niyatida haqiqatni izlaydi va boshqalarni ham shunga da'vat etadi. U o'z zamonasidagi diniy va milliy fanatizm g'oyalaridan g'azablanadi. Harbiy zadagonlarning g'arazgo'y va rahmsiz amaldorlarning jaholatparastligi va firibgarliklaridan nafratlanadi. Uning nazarida inson mo'jizakor, ayni chog'da, u fitnalar manbayi hamdir. Odamdag'i bu ikki xil tabiatni hisobga olish kerakligiga e'tibor qaratadi. Inson haqida, uning fazilat va nuqsonlari haqida gapirishdan maqsadi, unga (insonga) yaxshilini o'rgatish, yomonlikni yo'qotishdan iborat.

Mirza Bedilning insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ijtimoiy va falsafiy g'oyalari o'sha davrda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

XVII-XVIII-asrlar g'arbiy Yevropada Uyg'onish davri hisoblanadi. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivoji tabiatni, undagi predmet, hodisalarining sifat va xususiyatlarini o'rganishga, bu esa o'z navbatida, falsafaning rivojiga olib keldi. Ushbu davrda astronomiya, matematika, mexanika, fizika, jug'rofiya, fiziologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar yanada kuchaydi. Tabiat bilimning yagona manbai va bilim

taraqqiyotining asosi bo'lib qoldi. Ilg'or olimlar va mutafakkirlar sxolastikaga va cherkovning g'oyaviy hukmronligiga qarshi birgalikda isyon ko'tardilar. Natijada fan bilan din o'ttasidagi kurash keskinlashadi. Uyg'onish davrida dinka qarshi fanni olg'a surgan olimlardan biri ilmiy astronomiyaning asoschisi Nikolay Kopernikdir (1473-1543-yil). U o'zining 1543-yilda nashr etilgan "Osmon jismlarining doirasimon aylanishi" nomli kitobida Arastu va Batlomusning (Ptolomey) cherkov rasmiy qabul qilingan geosentrik nazariyasini rad etdi, unga o'zining geliosentrik sistemasini qarsbi qo'ydi. Geosentrik nazariya bo'yicha olamning markazi Yer bo'lib, u doin harakatsiz turadi, uning atrofida Quyosh, oy va boshqa sayyorlar aylanib turadi. Kopernik o'z geliosentrik sistemasida Yer olamning markazida emasligini, uning harakatsizligi noto'g'ri ekanligini ta'kidlaydi. Uning ta'limoticha, Yer bir tomonidan o'z o'qi atrofida harakat qiladi, bu harakat kun bllan tunning almashinib turishining sababidir, ikkinchidan, olamning markazi Quyosh bo'lib, uning atrofida boshqa sayyorlar bilan bir qatorda Yer ham aylanib turadi.

Kopernikning geliosentrik nazariyasining ahamiyati shundaki, butun dinga, sxolistik falsafa sistemasiga qaqshatqich zarba bo'lib tushdi. U tabiat fanlari rivoji uchun yo'l ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, bu kashfiyat dunyoqarashning umumiy rivojiga tabiiy-ilmiy zamin bo'ldi.

O'rta asr diniy falsafasiga qarshi kurashda uyg'onish davrida panteistik falsafa vujudga keldi. Panteistik falsafa shunday falsafaki, (grekcha-pancha va theos-xudo) barisi xudo deydigan falsafiy ta'limotdir. Panteizm – bu tabiatdan tashqari ilohiy kuchni inkor etib, xudo –tabiatning o'zi, deb biluvchi oqimdir. Bu ta'limotga ko'ra, xudo shaxssiz Ibtidodir, u tabiatdan tashqarida turmaydi, balki u bilan aynan birdaydir. Panteizm xudoni tabiat ichida qorishtirib, g'ayritabiyy ibtidoni rad etadi.

Panteizm oqiminining uyg'onish davridagi vakili Jordono Bruno (1542-1600 yil). Bruno o'z davrida bir nechada falsafiy asarlar qoldirgan. Chunonchi "Sabab, ibtido va yakka-yagona haqida", "Benihoyalik, koinot va olamlar haqida" falsafiy dialoglar. Bruno ta'limoticha, moddiy olam birlamchi bo'lib, ong ikkilamchidir va moddiy olam imangu, u hech qanday xudo tomonidan yaratilgan emas, bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi, u so'ngsiz va cheksiz, moddiy olam cheksiz predmet va hodisalar bir-biri bilan o'zaro aloqadadir. Bruno ta'limoticha, Quyosh sistemasidan tashqari yana sanoqsiz dunyolar, sayyoralar mavjud, dunyo bepoyon moddiy olamning kichik bir qismidir. Yer esa bepoyon olamning zarrachasidir. Kopernik o'z geliosentrik nazariyasi olamning moddiy birligini ta'kidlagan bo'lsa, Bruno har bir dunyo chekli, lekin sanoqsiz dunyolardan iborat olam esa bepoyondir, degan xulosaga keladi. Uningcha, cheksiz moddiy dunyolar o'ttasida bog'lanish va o'zaro taqosslanish, birlik va qarama-qarshilik munosabati davom etadi. Bu borada Bruno Uyg'onish davrining boshqa mutafakkiri

Nikolay Kuzanskiy qarama-qarshiliklar haqidagi dialektik fikrlarini rivojlantirdi.

XVII va XVIII-asrlar g'arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Ana shu davrda Nikolay Kopernikning geliosentrik nazariyasining ta'siri tobora kuchaya bordi. Nyuton mexanikaning asosiy qonunlarini kashf qildi. Bu kashfiyotlar xristian xurofiy mafkurasiga zarba berdi va yangi dunyoqarash uchun ilmiy asos tayyorladi. Lekin shunga qaramay, yangi ilmiy dunyoqarashning asosi mexanik va metafizik tabiatga ega edi.

XVIII-asrning eng yirik mutafakkirlaridan biri Fransiyalik Rene Dekart (1596-1650-yil) edi. Dekart ikki xil substansiya (mohiyat): materiya va ruh yonma-yon ravishda mavjud bo'llib, ular xudoga bo'ysunadilar deb tushuntirgani holda dualistik nuqtayi nazarda turdi. U bilishning deduktiv usulini ishlab chiqishga harakat qildi. U ratsionalizmning asoschisi hisoblanadi. "Men fikr qilyapman, demak mavjudiman deb xulosa chiqaradi. Dekart tomonidan yaratilgan deduktiv usulning talablari quyidagilardan iborat: 1. Bilish, aniq shubhaga o'r'in qoldirmaydigan darajada bo'lish kerak. 2. Tekshirilayotgan muammolarni imkon qadar mayda qismlarga bo'lib o'rganish lozim. 3. Fikr yuritganda oldin oddiydan murakkabga o'tish lozim. 4. Bilish jarayonida tadqiqotni to'la olib borish kerak, hech narsani qoldirish mumkin emas. Uning qarashlari muhim rol o'ynaydi.

XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asr boshlarida Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlarining jamiyat hayotini insonparvarlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari ijtimoiy fikrda ma'rifatparvarlik g'oyalari keng tarqalishiga olib keldi.

O'rta Osiyo ma'rifatparvarligi ham feodal tartiblariga qarshi, mamlakatni feodal qoloqligidan chiqarish uchun kurashuvchi ilg'or kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy harakat edi. Biroq, O'rta Osiyo ma'rifatparvarlarining faoliyati XIX-asr oxiri va XX-asr boshlari Yevropada kapitalizmning to'la tantana qilganligi, o'lkaning Rossiyaning mustamlakasi sifatida keskin siyosiy kurash doirasiga tortilganligi davriga to'g'ri keladi. Bu hol O'rta Osiyo ma'rifatparvarlligida iz qoldirmay iloji yo'q edi.

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi davrda feodal tuzum va tartiblarini tanqid qilish, madaniy-ma'rifiy sohadagi yangiliklarini egallash, Yevropaning turli tillarini o'rganishni targ'ib qilish. ilim-fanning ahamiyatini ko'tarish kabi masalalar olg'a surildi. Ahmad Donish, Avaz O'tar, Furqat, Muqimiyl, Zavqiy singari ma'rifatparvarlar ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilib chiqdilar.

Ikkinchi bosqichda ma'rifatparvarlikning yuqori bosqichi bo'lgan jadidchilik oqimining vujudga kelishi edi. Jadidizm ta'limotining asosiy maqsadi: yangicha ta'lim-tarbiya, yangi usul maktablarini yo'lga qo'yish,

dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash, maorif-madaniyatda yangi tartiblami o'rnatish, yangi ijtimoiy-siyosiy masalalarni rivojlantirishga qaratilgandir. Jadidchilik harakati turkiy millatlarning ma'naviy-madaniy rivojlanishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Turkistonda yangi usul maktablari ochilib, ma'rifatparvar, ilg'or pedagoglar bu maktabiar uchun turli qo'llanmalar yarata boshladilar. Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Ibrat, Hamza kabilar bu sohada jonbozlik ko'rsatdilar va bu ishda faol ishtirok etdilar. Jadidlar boshqa o'lkalardagi ma'rifatparvarlik harakati bilan ham aloqa o'mata boshladilar. Bu darda Turkistonda ma'rifatchilik va jadidchillkning turli, yangi ta'lif-tarbiya, o'quv-o'qituv masalalari o'zida aks ettiruvchi juda ko'p jurnallar chop etildi. "Taraqqiyot", "Oyna", "Sadoyi Turkiston", "Samarqand" kabi jurnallar shular jumlasidandir.

XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asr boshlarida Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlarining jamiyat hayotini insonparvarlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari turli bosqichda turlicha bo'ldi. Ma'rifatparvarlarining jamiyat hayotini insonparvarlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari asosan ma'rifatparvarlik va jadidchillkda o'z aksini topdi.

Ma'rifatparvarlikning ilk namoyandaliridan biri, aniqrog'i, asoschilaridan biri Buxoro xonlik tuzumining birinchi tanqidchisi Ahmad Donish (1827-1897-yil) edi. Buxoro xonligini Rossiya bilan taqqoslab, Donish o'z vatanini iqtisodiy va madaniy jihatidan orqada qolganligini ko'rsatib beradi. Bu ahvolning asosiy sababini u Buxoro amirlarining nodonligi va o'zboshiimchaliklarida deb bildi.

Ahmad Donish o'z xalqini zulm va nochorlikdan qutqazish choralarini izlaydi. Uningcha, Buxoro davlat tuzumi isloh qilinsa, davlat xukmdori odil va donishmand bo'lsa, xalqni qashshoqlikdan qutqarish mumkin bo'ladi. Mamlakatning boshqarish tartiblarini isloh qilish zarurligini uqtirish maqsadida Donish isloh loyihasi bilan amirga murojaat qiladi.

Ahmad Donish davlat bir guruh kishilarga emas, balki xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan g'oyani asoslaydi. Buning uchun xukmdor bilimdon, odil va donishmand bo'lmog'i shart.

Donish yer yuzidagi barcha boyliklar odamlar va xalqlar o'rtasida teng taqsimlanadi. Odamlar qadim zamonlarda teng bo'lishgan, keyinchalik kuchiilar kuchsizlarning mulklarini tortib olish natijasida tengsizlik kelib chiqqan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida ma'rifatparvarlik ta'lilotini yanada riojlanirish uchun Qaraqalpoq xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Berdimurod Berdaq (1827-1900-yil), o'zbek ma'rifatparvarlari Sattorxon (1843-1902-yil), Furqat (1858-1909-yil) asarlarida hain o'z ifodasini topgan.

Sattorxon fikricha, jamiyat taraqqiyotining asosini ilm-fan, ma'rifat tashkil qiladi, bu jamiyatning farovon yashash garovidir. Uningcha, ilm-fanga, taraqqiyotga erishish vositalaridan biri boshqa xalqlar bilan do'stona

aloqada bo'lish, undan ibrat olish va o'rganishdir. Sattorxonning ma'rifatparvarlik faoliyati o'z xalqiga chuqur muhabbat, xalq ommasini ma'rifatli qilish ishiga sadoqat tuyg'ulari bilan sug'orilgandi. Furqat ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi deb tushunadi. Furqat xon va beklarning o'zaro urush va nizolarini qattiq qoralaydi, bu urushiar xalqqa og'ir kulfat ekanini, mamlakatni vayronlikka olib kelganligini ta'kidlaydi.

Muqimiyl (1850-1903-yil), Zavqiy (1853-1921-yil), Anbar Otin (1870-1914-yil), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929-yil) asarlarida ma'rifatparvarlik harakatining demokratik g'oyalari bilan sug'orilgandir. Ular ham ijtimoiy taraqqiyot jamiyat a'zolarining ilm-fanga, bilinga ega bo'lishiga bog'liq, deb tushunganlar. Mamlakat qoloqligiga ilm-fanning rivojlanmasligini sabab deb bildilar.

Shu vaqtga qadar jadidizmni o'rganishda unga aqidaparastlik bilan yondashish, jadidlar harakatini millatchilik harakatidir deb bir tomonlama buzib ko'rsatishga olib keldi. Aslida esa jadidizm ma'rifatparvarlik harakatining yuqori bosqichi bo'lib, uning namoyandalari mamlakatni feodal qoloqlikdan chaqarish, milliy mustaqillikka erishish uchun kurashda jonbozlik ko'rsatdilar. Ular asosan madrasa talabalari, yangi usul mакtab o'qituvchilar, mayda savdogarlardan iborat edi. Keyinchalik yirik savdogarlar, endigina paydo bo'la boshlagan sanoat korxonalarini egalari ham ular safiga qo'shilib, jadidlar harakatini asosan moddiy jihatdan qo'lladilar.

Jadidlar harakatining yirik namoyandasini, uning nazariy asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiydir (1879-1919-yil). Behbudiy o'z uyida kambag'al oilalar bolalari uchun yangi usul mакtabini ochdi va shu mакtabda tarix, geografiya, adabiyotdan dars berdi, o'zbek va fors tillarida bir necha darsliklar yozdi.

Behbudiy jadidchilik harakatining boshqa bir qancha rahbarlari Munavvar qori, Fitrat, Fayzulla Xo'jayevlar bilan birgalikda umrining oxirigacha o'z xalqining ma'naviy va siyosiy ozodligi uchun kurash olib bordi.

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi maorif tizimini isloq qilishdan iborat edi. Jadidlar milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini biladigan zamonusiy bilimga ega savodli kadrlar bo'lishi zarurligini yaxshi anglashardi. Shuning uchun ham dunyoviy bilimlarni o'rganish ishiari, maorif tizimini isloh qilish masalasi XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim masalalaridan biri bo'lib qoldi.

XVIII-asrning ma'rifatparvarlik falsafasi klassik falsafani shakkantirishda sezilarli ta'sir o'tkardi. Klassik falsafa deganda, eng avvalo, XVIII-XIX-asr nemis klassik falsafasi tushuniladi, chunki nemis klassik falsafasida uyg'onish davridan boshlab XIX-asrgacha bo'lgan vaqtida inson ma'naviyatida qilingan to'ntarish falsafiy fikrlash madaniyati bo'lgan barcha

o‘zgarish o‘z ifodasini topgan edi. Nemis klassik falsafasi butun Yevropa falsafiy tafakkur taraqqiyotini barcha yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirdi.

Nemis klassik falsafasini shakllantirgan asosiy vakillari: I.Kant, I.T.Fixte, F.R.Shelling, G.F.V.Gegel va L.Feyerbaxlarning xizmatlari katta bo‘ldi. I.Kant (1724-1804 yillar) nemis klassik falsafasi yirik vakillaridan biri edi. Uning falsafiy ta’limoti ikki muhim davrga bo‘linadi: tanqidiy falsafagacha bo‘lgan (XVIII-asrning 70-yillarigacha) davr va tanqidiy falsafa davrigacha bo‘lish mumkin. Birinchi davrida tabiatshunoslikning falsafiy masalalari bilan shug‘ullandi. 1785-yilda yozgan eng yirik asri “Osmon umumiy tabiiy tarixi va nazariyasi”da quyosh sistemasi koinotdagi boshlang‘ich katta tumanlikning aylanma harakat qilishi natijasida kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Bu o‘zaro tortilish va itarilish sayyoralar, jumladan Yer ham, I.Kant ta’limotiga ko‘ra, uzoq davom etgan tabiiy tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

XVIII-asrning 70-yiliaridan boshlab I.Kant faoliyatining ikkinchi davri boshiandi. Bu davrda u o‘z e’tiborini insonning bilish qobiliyati va imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratib, obyektiv reallikning mavjudligini e’tirof etadi va uni, “narsalar o‘zida” deb ataydi. Lekin uningcha “narsalar o‘zida”ni bilish mumkin emas. U dunyo qonunlarining obyektiv xarakterga egaligini mutlaqo tan olmaydi. Uning fikriga ko‘ra, kishilarning idroki tabiatga qonunlar ato etadi. Shuning uchun ham inson aqli tabiatga moslashishi kerak emas, balki tabiat inson aqliga moslashishi kerak. Kantning xizmatlari shu bo‘ldiki, Transsensual (lotincha – chegaradan chiqmoq). Bu termin Kant falsafasida muhim ahamiyatga egadir, chunki Kant, insonning billshi transsensual olamga, “narsalar o‘zida” olamiga kirishga qodir emas, deb hisoblar edi. Inson bilimlarini ichki strukturasining o‘rganib bilimlar ikki darajada: empirik va transsensual darajada mavjud bo‘ladi deb tushuntiradi. Uning fikricha, empirik bilim insonning individual xususiyatlarga bog‘liq bo‘lsa, transsensual bilim insonning uinumiy holatiga, uning kelib chiqishiga u yashayotgan muhitga bog‘liq bo‘ladi deb tushuntiradi.

Insonning rivojlanishi, taraqqiyoti to‘g‘risidagi g‘oyalar barcha davrlarda buyuk mutafakkirlarning asarlarida bosh inavzu sifatida o‘rin egalladi. Bu boradagi qarashlar dastlabki davrlarda oddiy, diniy mistik g‘oyalar sifatida shakillangan bo‘lsa, o‘rta asr va yangi zamон nazariyotchilari tomonidan ilm-fan yutuqlari doirasida rivojlantirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni bu qarashlarda oddiy insonni ma’rifatli inson darajasiga ko‘tarilganligini qayd etish lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Inson to‘g‘risidagi dastlabki fikrlar qadimgi qaysi davlatlarda vujudga kelgan?

2. Vedalar haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz?
3. Qadimgi Xitoyda inson to'g'risidagi dastlabki fikrlar qaysi ta'limotlarda bayon etilgan?
4. Qadimgi Eron va Turon zaminida inson to'g'risida qanday qarashlar mavjud edi?
5. Qadimgi Yunon faylasuflarining inson to'g'risidagi qarashlari qanday edi?
6. XVI-XIX asrlarda oralig'ida yashab o'tgan qaysi olimlar asarlarida barkamol inson g'oyalari ilgari surilgan?
7. Kimlar Turkistondagi ma'rifatparvarlik liarakatining demokratik namoyandalari hisoblanadilar?
8. Renessans davri falsafasida inson haqidagi fikrlarni o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3-§. "INSON TARAQQIYOTI" KONSEPSIYASINING MAZMUN VA MOHIYATI

REJA:

1. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.
2. Inson taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillar.
3. Inson omili: istiqlol, ma'naviyat, taraqqiyot

Tayanch so'z va iboralar: Konsepsiya, inson taraqqiyoti ko'rsatkichi, yashash davomiyligi, ta'lim darajasi, yalpi milliy mahsulot, inson omili, istiqlol, inson manfaati, inson manfaatlari, inson xotirasi, xotira va qadrlash.

2000-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik sammitida "Mingyillik deklaratsiya" qabul qilindi. Qabul qilingan deklaratsiya bugungi kunning eng muhim hujjatlaridan biri bo'lib, inson taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ushbu deklaratsiya qabul qilinishi bilan jahon hamjamiyatida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqlarning farovon turmush darajasini yuksaltirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash sifat ko'rsatkichini oshirish maqsadida davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlikka asos soladi. O'zbekistonda ham inson taraqqiyoti borasida belgilangan marralarga erishishni ta'minlash doirasida olib borilayotgan ishlarda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida jamiyatni rivojlanishida mamlakatga va tashqi siyosatiga oid vazifalardan biri inson manfaatlарining ustunligi yuqori baholangan. O'zekistonda inson taraqqiyotiga bo'lgan e'tibor, mamlakat taraqqiyotining yangi sifat bosqichiga ko'tarilganligidan dalolatdir. Inson taraqqiyoti negizida oilaviy farovonlik, salomatlik, uzoq umr ko'rish, moddiy

farovonlik, ma'lumotning yuqori sifat darajasi, nafaqat salmoqli daromad, balki mehnatdan ma'naviy qoniqish, jamoatchilik orasida obro', xavfsizlik, madaniy hordiq kabi insoniy omillarning ta'minlanishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Inson taraqqiyoti – bu inson imkoniyatlarining kengayish jarayonidir.

Hozirgi kunda inson taraqqiyoti tushunchasi OAVda, shuningdek siyosiy va iqtisodiy sohalarda tez-tez qo'llanilmoqda. Inson taraqqiyoti konsepsiysi ilk marotaba 1990-yilda BMTning inson taraqqiyotiga bag'ishlangan ma'rzasida keng tahlil qilindi. Unga ko'ra, taraqqiyotning asosiy maqsadi insonlarni keng qamrovli tanlash imkoniyati bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Odamlarning sifatli ta'lim olishga erishishi, teng ravishda munosib ish o'rniغا va salomatligini asrash uchun yetarli daromadga ega bo'lishi hamda malakali tibbiy xizmatdan foydalana olishi inson taraqqiyotining qay darajadaligini belgilab beradigan mezonlar hisoblanadi.

Sog'lom va uzoq umr ko'rish, bilim egallash va munosib hayot darajasiga ega bo'lish inson imkoniyatlarining kengayishi hisoblanadi. Agarda ushbu imkoniyatlarga erishish cheklangan bo'lsa, unda boshqa ko'plab imkoniyatlar ham qo'lga kiritilmay qolaveradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti taraqqiyot dasturining "Inson taraqqiyoti konsepsiysi va o'Ichovi" nomli ma'rzasida: "Bugungi kunda mamlakat boyligi tabiiy resurslar bilan emas, balki shu millat odamlari bilan belgilanmoqda. Ya'ni qaysi mamlakat o'z fuqarolariga keng qamrovli tanlov imkoniyatini yaratib bergen bo'lsa, o'sha davlatda insonlarning har jihatdan rivojlanishi hisobiga farovonlik va to'kin-sochinlik hukm suradi. Lekin insonlarga vosita sifatida emas, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga erishishning tub maqsadi sifatida qarash o'rnlidir. Shuning uchun ham inson taraqqiyoti konsepsiysi "mamlakatning haqiqiy boyligi – bu uning odamlaridir", – degan asosiy g'oyani targ'ib qiladi.

1990-yil boshiaridan beri inson taraqqiyoti ko'rsatkichi (indeksi) belgilab olindi. Unga asosan mamlakat rivojlanishining o'rtacha darajasi inson taraqqiyotining asosan quyidagi uch asosiy o'Ichoviga ko'ra aniqlanadigan bo'ldi:

1. Kutiladigan yashash davomiyligi ko'rsatkichi o'zida mamlakat sog'liqni saqlash tizimi va ijtimoiy ta'minotning holatini ma'lum darajada aks ettiradi.

2. Ta'lim darajasi ko'rsatkichi aholi katta yoshli qismi (15 yosh va undan katta)ning savodlilik darajasini va aholini boshlang'ich, o'rtcha va oliy ta'limga jalb qilish holatini o'zida ifoda etib, mamlakat ta'lim tiziminining qay tarzda ekanligini ko'rsatib beradi.

3. Aholi jon boshiga nisbatan YalM (yalpi milliy mahsulot) ko'rsatkichi mamlakat fuqarolarining daromadi qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu tarkibiy qismning har biri insonning muhim va asosiy imkoniyatlarini o'zida qamrab oladi. Inson taraqqiyotining bu uchala komponenti uchun muntazam ravishda hisoblanadigan va deyarli dunyodagi barcha mamlakatlar taqoslanadigan ko'rsatkich tizimi taqdim qilingan. BMTning 2018 yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston "Inson taraqqiyoti indeksi" yuqori mamlakatlar qatoridan joy oldi va 105-o'rinni egalladi. O'zbekiston 0,710 indeks bilan inson taraqqiyoti yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhi kirdi. Bu haqda BMTning inson imkoniyatlarining rivojlanib borishi to'g'risidagi dasturi hisobotida ma'lum qilindi. Mazkur reytingga jami 189 mamlakat kiritilgan. Undagi davlatlar o'rni ta'lim darajasi, umrning o'rtacha uzunligi va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi bo'yicha belgilanadi. Shuningdek, gender tenglik, ayollar huquqlari va imkoniyatlarining kengligi, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ham hisobga olingan. Inson rivojlanishing eng yuqori darajasi 59 mamlakatda qayd etildi. Reytingda Norvegiya birinchi o'rinni egalladi, Shveysariya ikkinchi va Avstraliya uchinchi o'rinda qayd etildi. Inson rivojlanishing eng yuqori darajasi qayd etilgan 59 mamlakat orasiga Rossiya (49-o'rin), Qozog'iston (58-o'rin) ham kirgan. O'zbekiston Qozog'istondan tashqari barcha qo'shnilarini bu borada ortda qoldirgan. Reytingda Turkmaniston 108-o'rinni, Qirg'iziston 122-o'rinni va Tojikiston 127-o'rinni egallagan. Ro'yxatni eng quyi rivojlanish darajasi bilan Janubiy Sudan, Markaziy Afrika Respublikasi va Niger yakunlagan. Hujjatga ko'ra. O'zbekistonda o'rtacha umr davomiyligi 71,4 yosh, ta'lim davomiyligi 11,5 yil, aholi jon boshiga YalM 6470 dollarga teng.

Shunday qillb, hozirda O'zbekiston inson taraqqiyoti o'rtacha bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olgan. Keyingi yillarda hukumatimiz va BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida inson taraqqiyoti konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda o'tgan yillar davomida inson taraqqiyotiga qaratilgan ko'plab milliy ma'ruzalar e'lon qilindi:

- Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy taraqqiyot (1995-yil);
- Iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyoti (1996-yil);
- Ijtimoiy yakdillik va inson taraqqiyoti (1997-yil);
- Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning demokratik, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar o'tkazishdagi roli (1998-yil);
- O'zbekiston mustaqillikka erishgan yildan beri o'tgan davrga inson taraqqiyoti jihatidan nazar tashlash (1999-yil);
- Kichik va o'rta biznesni kengaytirish va rivojlantirish orqali inson taraqqiyotini kuchaytirish (2000-yil);

- Markazsizlashtirish va inson taraqqiyoti (2005-yil);
- Salomatlik barcha uchun: O'zbekistonning yangi mingyillikdagi asosiy maqsadi (2006-yil);
- O'zbekistonda ta'lif: talab va taklif mutanosibligi (2007-2008 yillar);
- Jamiyat taraqiyotining g'oyaviy asoslari va hozirgi zamon (2010-yil);
- Inson va jamiyat manfaatlari uyg'unligining falsafiy tahlili (2014-yil);
- Mafkuraviy muammolar, ma'naviy tahdidlar va barkamol shaxs tarbiyasi (2017-yil).

O'tgan davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, ma'ruzalarning har birida belgilangan muhim maqsad va vazifalar hayotda o'z aksini topayotganligini ko'ramiz. Bir tomondan, hukumatimiz tomonidan inson taraqqiyotini kuchaytirishga qaratilgan turli qaror va qonunlar qabul qilinib, hayotga tadbiq etilmoqda. Boshqa tomondan BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi homiyligi va tashabbusligida mamlakatimizda inson taraqqiyoti konsepsiyasini keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan qator hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Shulardan biri 2008-yilning may oyidan ish boshlagan "Inson taraqqiyoti konsepsiyasini o'qitish orqali ta'lif muassasalari salohiyatini kuchaytirish" loyihasidir. Hozirgi kunda o'qituvchilar, davlat xizmatida ishlovchi xodimlar va yosh avlod vakillari orasidan inson taraqqiyoti konsepsiyasini yaxshi biladigan, milliy rivojlanish strategiyasini tahill qilishda ushbu konsepsiya tamoyillarini qo'llay oladigan mutaxassislarni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham loyihaning asosiy maqsadi mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini o'qitishni joriy qilish, shuningdek Inson taraqqiyoti va Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari tamoyillariga mos bo'lgan strategiya haqida talabalar va o'qituvchilarning xabardorligini oshirishdan iborat.

"Inson va davlat munosabatlarida inson manfaatlari ustuvor bo'lishi shart", "Jamiyatdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish avvalo inson uchun, uning hayotini farovon etish uchun amalga oshirilmog'i darkor", "Inson – islohot uchun emas, islohot – inson uchun xizmat qilishi kerak", – degan g'oyalarni to'la ro'yobga chiqarish yo'lida barcha zarur sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston istiqlolining o'tgan tarixan qisqa davri davlatimiz uchun siyosiy soha, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot va ma'naviyat, ijtimoiy hayot, sud-huquq tizimi, tashqi siyosat va milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish, jahon hamjamiatidan munosib o'rinn egallash yillari bo'ldi.

2015-yilda mashhur HSBS xususiy banki tayyorlagan "Dunyo 2050-yilda" ma'rzasida O'zbekistonning jadal sur'atlarda rivojlanayotgan 26 davlat ro'yxatiga kiritilgani yutuqlarimiz xalqaro miqyosda keng e'tirof etilayotganining yana bir tasdig'idir. Ayni chog'da shu ham ayonki, bugungi

globallashuv davrida jahon miqyosida chuqir moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan, raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir sharoitda biz mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiot yo'lini har tomonlarna tahlil qilib, davlatimizni barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish maqsadida, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nallishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ni ishlab chiqildi.

Butun dunyo insoniyati qashshoqlik, tengsizlik va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimiini talab qilmoqda. 2015-yil 25-sentabr kuni barcha mamlakatlarning yetakchilari 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan barqaror taraqqiyot dasturini qabul qilib, talablardan aniq harakatlarga o'tish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida yig'ilishadi.

Pol Led, BMTTDning 2015 yildan keyingi davrga mo'ljallangan taraqqiyot dasturini ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan ishchi guruh rahbari 2015-yilda butun dunyo mamlakatlarining vakillari yig'ilishib, yangi taraqqiyot dasturini qabul qilishi hamda iqlim o'zgarishi muammolarini hal qilishda yagona bir kelishuv tuzishi haqida gapiradi.

Barqaror taraqqiyot 2030 dasturi yangi 17 ta Barqaror taraqqiyot maqsadlari (BTM)dan, yoki Global maqsadlardan iborat bo'lib, keyingi 15 yillik davrdagi umumjahon siyosati va sarmoyalar yo'nalishlarini belgilab beruvchi dasturdir. Unda dunyo mamlakatlarning yetakchilari qashshoqlikka – dunyoning barcha nuqtalarida, batamom barham berishga va'da qilishi kutiladi.

Barqaror taraqqiyot maqsadlari konsepsiysi 2015-yilda bo'lib o'tgan BMTning Barqaror taraqqiyot mavzusidagi Rio+20 konferensiyasida dunyoga kelgan. Mazkur konferensiya davomida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining uchta tamoyili, xususan, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash tamoyillarini qamrab oluvchi vazifalar ham belgilab olingan.

Global maqsadlar 2000-yilda qabul qilingan va qashshoqlikka qarshi kurashish masalalarini yechishni ko'zda tutgan 15 yillik dastur – Mingyllik taraqqiyot maqsadlari (MTM)ning davomi bo'lib hisoblanadi.

Mingyllik taraqqiyot maqsadlari doirasida qashshoqlik va ochlikka barham berish, o'limga olib keluvchi, lekin davolasa bo'ladigan kasalliklarning oldimi olish, barcha bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash va rivojlanish sohasidagi shu kabi boshqa yo'nalishiardagi o'lchab bo'ladigan, barcha tomonlar bilan kelishilgan vazifalar va maqsadlar belgilab olingan edi.

Mingyllik taraqqiyot maqsadlari quyidagi kabi yo'nalishlarda "yo'ko'satkich" bo'lib xizmat qilgan:

Daromad bo'yicha qashshoqlik, yaxshilangan suv manbalaridan foydalanish imkoniyati, bolalarning boshlang'ich ta'lim muassasalarida o'qishi, bolalar orasidagi o'lim darajasi kabi ko'rsatkichilarning yaxshilanishi millionlab insonlar uchun hali to'laqonli bajarilmay qolganligini inobatga olganda, biz tanlagan yo'limizning oxirgi qismini bosib o'tib, qashshoqlikka batamom barham berishimiz, to'liq gender tenglikka erishishimiz, sog'liqni saqlash sohasining sifatini oshirishimiz, har bir bola maktab ta'limini olish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashimiz lozimdir. Endi biz dunyonи barqaror taraqqiyot yo'liga yo'naltirishimiz kerak va global maqsadlar aynan shu vazifalarning yechimini 2030-yilga qadar topishimizni nazarda tutadi.

Mazkur dastur barcha mamlakatlarda joriy etilib, tinchliksevar, ochiq jamiyatni yaratish, inson turmushi va mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda dolzarb bo'lган iqlim muammolari, jumladan, iqlim o'zgarishi muammosini hal etish kabi maqsadlarga qaratilgan. Iqlim masalalariga bag'ishlangan Parij konferensiysi davomida butun jahon mamlakatlarining yetakchilari iqlim o'zgarishi muammosi yuzasidan yagona bir kelishuvga erishishi kutilmoqda.

Global maqsadlar Mingyillik taraqqiyot maqsadlari dasturi tomonidan boshlab qo'yilgan ishlarni oxiriga yetkazib, hech bir inson taraqqiyot jarayonidan chetta qolib ketmasligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Barqaror taraqqiyot jamg'armasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (BMTTD) tomonidan Ispaniya bukumatining boshiang'ich sarmoya tariqasida ajratilgan mabiag'i hisobiga joriy etilgan bo'lib, Mingyillik taraqqiyot maqsadlari bosqichidan Barqaror taraqqiyot maqsadlari bosqichiga o'tishni ta'minlashga xizmat qiladi.

"Business Call to Action" (BCtA) nomli global tashabbusning asosiy maqsadi Mingyillik taraqqiyot maqsadlariga erishish jarayonni tezlashtirishdan iborat bo'lib, u tijorat sohasidagi yuksalish va shu bilan birga umumiy taraqqiyot jarayoniga yordam beruvchi biznes-modellarni hayotga tadbiq etuvchi kompaniyalarni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bugungi erkin va ozod, tinch va osuda hayotimiz qadrini, mustaqillik bergen imkoniyatlarni chuqur anglashda, inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarning bosh maqsadidir.

Tarixga hurmat bilan qarash, urush va mehnat faxriyalarini qadrlash, azaliy qadriyatlar, qadimiy urf-odat va an'analarimizni, milliy tilni asrabavaylash, baynalmilal tarbiyani kuchaytirish, shukronalik bilan yashash, yoshlarga hal qiluvchi kuch sifatida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish haqida davlatimiz rahbari tomonidan bayon etilgan keng qamrovli, teran mantiqiy fikrlar, amaliy xulosa va takliflar jamoatchiligidan katta qiziqish uyg'otdi.

Tarixni dohiylar emas, balki ongli va bunyodkor inson, xalq yaratadi. Har qaysi unib-o'sib kelayotgan yosh avlodning o'z ota-bobolari an'analarini davom ettirib, ularning xotirasi, bebaho merosiga nisbatan hurmat-ehtirom, g'urur-iftixon hissi bilan yashashi, mamlakatda amalga oshirilayotgan

demokratik jarayonlarning sisati va natijadorligini tubdan oshirish hamda insonning huuqqlari, erkinliklari va manfaatlarni, shu jumladan, odamlar hayotining munosib darajasini ta'minlash, ular amalga oshirilishi uchun davlat organlarining roli va mas'uliyatini kuchaytirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish va ularning murojaatlari bilan ishslashning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, fuqarolarni bezovta qilayotgan hayotiy muammolarni o'z vaqtida hal etish, "Inson manfaatlari har narsadan ulug" degan ezgu g'oyani hayotga izchil joriy etish maqsadida, 2017-yil O'zbekiston Respublikasida "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilindi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Ikkinci jahon urushidan so'ng atigi 49 kun bashariyat tinchlikda yashagan. Holbuki, jahon tarixida dahshatli iz qoldirgan bu urush sobiq ittifoqda yashagan 27 million odamning umriga zomin bo'lgan, shu jumladan, 500 ming nafar o'zbekistonlikning yostig'ini quritgan. Afsuski, fashizm ustidan g'alaba qozonilganiga 75 yilga yaqin vaqt bo'lganiga qaramay, dunyoning turli hududlarida hamon zulm va zo'ravonlik hukmronlik qilmoqda, urush olovleri yonmoqda.

Bu fikrning tasdig'ini 30 yildan ortiq davomida harbiy harakatlar davom etayotgan jafokash Afg'oniston misolida ko'rishimiz mumkin. Afg'on muammosini harbiy yo'l bilan hal etib bo'lmasligini Prezidentimiz xalqaro minbarlardan turib alohida ta'kidlab kelmoqdalar. Muttasil davom etayotgan urush Afg'oniston xalqining tinkasini quritmoqda va muammoni hal etishni yanada qiyinlashtirmoqda.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari 2017-yil sentabr oyida BMTning 72-sessiyasi minbaridan O'zbekistonning bu boradagi pozitsiyasini ochiq bayon etganini eslash joiz. Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti bo'lib qoladi. Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'ymasdan, to'g'ridan-to'g'ri muloqot olib borishdir. Muzokaralar afg'onistonliklarning o'zлari hal qiluvchi o'rin tutadigan holda, Afg'oniston hududida va BMT shafeligida o'tishi lozim. Donishmand afg'on xalqi o'z taqdirini o'zi mustaqil hal qilishga haqlidir. O'zbekiston Afg'onistoning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo'shmaqda va bundan keyinham hissa qo'shadi. Afg'oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo'lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg'onistondagi o'tkiz ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak. Bu jafokash yurtda tinchlik o'rnatishga ko'maklashish yo'lidagi bizning umumiy qat'iy harakatlarimiz aslo susaymasligi lozim – deb ta'kidlagan edi. Bu tashabbuslarning mazmun-mohiyati shundan iboratki, afg'onlar o'z

mamlakati muammolarini o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, Afg‘onistonda urushning tugashi va uning barqaror kelajagidan manfaatdor mamlakatlar ko‘magida o‘zlari hal etishlari darkor.

Jahondagi notinch vaziyat va turli urushlar dunyo ahlini tashvishlantirmoqda. Savol tug‘iladi: nima uchun bugungi kunda ham urushlar davom etyapti? Nima uchun urushga intilayotganlar, uni boshlayotganlar kamaymayapti?

Bular – oddiy, shunchaki savollar emas, aksincha, g‘oyat hayotiy va o‘tkir savollardir. Urushni kim boshlaydi? Albatta, uni muayyan manfaatdor kuchlar boshlaydi. Lekin undan oddiy xalq jabr ko‘radi, millionlab begunoh odamiar aziyat chekadi. Achinarlisi shundaki, nafaqat urushga guvoh bo‘lgan avlod, balki keyingi avlod ham ana shu urush azobini chekib kun ko‘rishga majbur bo‘ladi.

Urushiarning, musibatlarning oldini olish uchun xalqimiz biz qanday tarixiy sharoitda, murakkab zamonda yashayotganimizni yaxshi anglashi, vaziyatga to‘g‘ri baho bera olishi darkor. Intervyudagi ushbu da‘vatkor so‘zlar hammamizni doimo uyg‘oq va sergak bo‘llishga undaydi: “Ey, odamzot, ko‘zingni och, atrofga qara, kechagi tarixdan xulosa, saboq chiqar!”.

Bu da‘vatdan kelib chiqadigan eng muhim xulosa shuki, jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog‘liq yangicha tendensiya va vaziyatlar, yangi tahdidlar paydo bo‘layotganini har birimiz teran anglab, chuqur his qilib, ayni chog‘da yanada hushyor va ogoh bo‘lib yashashimiz darkor.

Ha, bugun atrofimizda ro‘y berayotgan turli voqealarga to‘g‘ri va munosib baho bermasdan, kechayotgan jarayonlarga o‘zimizning daxldor ekanimizni his qilmay, “bu muammolarga mening dahlim yo‘q, ular haqida o‘ylash mening ishim emas, boshqalar bosh qotirsin”, degan tushuncha bilan yashashning, loqaydlikning vaqtiga allaqachon o‘tib ketgan.

Tez o‘zgarib borayotgan shiddatli zamonda – axborot asrida befarq va beparvo bo‘lmasdan, aksincha, yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqeahodisalarga daxldorlik bilan yashash, jahonning turli hududlarida qayta bosh ko‘tarayotgan fashizm, millatchilik, shovinism kabi xavfli baloyu illatlarga nisbatan murosasiz bo‘lish, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga qarshi kurashish haqida bot-bot ogoh etayotgan so‘zlar bugun shunchaki da‘vatlar emas.

Moziyning ochiq va achchiq sabog‘i shu – dunyoda tekin, holis narsaning o‘zi yo‘q. Birovning marhamati-yu maslahatiga uchib emas, aksincha, faqat o‘z kuch-qudratimizga, salohiyatimizga, milliy qadriyatlarimizga, imon-irodamizga tayanib ish ko‘rishimiz lozim. Chunki XXI-asrning ikkinchi o‘n yilligida – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlik tobora kuchayib

borayotgan murakkab jarayonlar qurshovida, ya'ni globallashuv zamonida yashyapmiz.

Bugun nainki yurtimizning, balki dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga qadar – bir qadam. Bugun deyarli har bir xonadonda, o'quv dargohida, korxonada, ko'cha-ko'yda zamonaviy kompyuterlar bor va ular internetga ulangan. Demak, har qanday xabarni tezkor uzatish va qabul qilish imkoniyati mavjud. Endilikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharofati tufayli inson o'z uyida o'tirganicha dunyoning turli chekkalarida qanday voqe-a-hodisalar yuz berayotganini nafaqat eshitish, ayni chog'da ko'rib-kuzatish va hatto o'z munosabatini bildirish imkoniga ega.

Lekin tanganing boshqa tarafini ham unutmasligimiz lozim. Aynan globallashuv bahonasida dunyoning narigi chetida joylashgan qaysidir davlatlar yoki qandaydir markazlar dunyoning boshqa chetidagi qaysidir mamlakatlarga o'z siyosatini, mafkurasini o'tkazishga va o'ziga tobe qilib olishga intilmoqda. Bunda "nishon bo'Igan" o'sha mamlakat xalqining na milliy qadriyatlari, na urf-odatlari e'tiborga olinyapti va na o'sha yurtda yashaydigan insonlarning din-u diyonati, imon-e'tiqodi, xohish-irodasi bilan hisoblashilyapti.

Ommaviy axborot vositalari qatori internet ham yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishini ta'kidlab birinchi Prezidentimiz: "Internet – bu katta bir do'kon. Do'konga borganda, odam xohlagan molini sotib oladi. Internetni ham shunday bir bozor, ya'ni axborot bozori, deb tushunish kerak", – deydi. Binobarin, o'sib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalashimiz kerakki, ular internet bozoriga kirganda faqat o'zi uchun zarur narsani olsin, internetdagi axborotdan foydalanish madaniyatini o'rgansin.

Albatta, keyingi vaqtida mamlakatimizda Ziyonet elektron axborot tarmog'i tashkil etilgani va mavjud ta'lim maskanlarining aksariyati shu tarmoqqa ulangani internetdan foydalanuvchilarni turli axborot xurujlaridan himoya qilish bilan birga, ularning manfaatlariga mos axborotlarni ko'paytirish, barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samaralari bilan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni bat afsil tanishtirib borishga xizmat qilmoqda.

YUNISEF tomonidan o'tkazilgan so'rovlari internetdan foydalanadigan bolalarning 90 foizi axloqsiz surat va videolarga duch kelishi, 60 foizi esa bu turdag'i axborotni maqsadli ravishda izlaganini ko'rsatdi. Hatto o'zimizning ba'zi yoshlarimiz uchun ham internet va qo'l telefonlari axloqsizlik manbaiga aylanayotgani o'ta tashvishlidir. Negaki, oqibatda bunday ziyonli ta'sir domiga tushib qolgan farzandlarimizda yaqinlari va qarindoshlarga nisbatan hurmat va muhabbat tuyg'ulari susayib, egolzmga moyillik kuchayib bormoqda.

Mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini egallashga yo'naltirilgan bo'lib, "ommaviy madaniyat" deb qaralayotgan mazkur illat xalqimizning ma'naviy xazinasi bo'lgan odob, axloq, ibo, or-nomus, iroda, sharm-hayo, iffat-andisha kabi fazilatlarimizga tajovuz qilib, ko'p ming yillik milliy qadriyatlarimizning ildiziga putur yetkazayotgani ham, taassufki, bor gap.

Aholida, jumladan, yoshlарimизда axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va izchil yuksaltirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Kimdaki axborot iste'moli madaniyati shakllangan bo'lsa, albatta, ana shu shaxs milliy qadriyatlarimizga zid xabar, ma'lumotlar bilan tanishish paytida ularni o'z qarashlari, qadriyatları tizimiga tayangan holda baholay oladi. Boshqacha aytganda, hamma gap internetning boy axborot resurslaridan kim va qanday maqsadlarda foydalanishiga bog'liq. Tarmoqni taqiqlash, undan illat izlash bilan ovora bo'lmasdan, aksincha, internetning imkoniyatlaridan Vatanimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo'lida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sho'rolar zamonida ma'naviy merosimiz durdonalari haqida so'zlash, yozish, targ'ib-tashviq qillsh taqiqlangan edi. Ma'naviyat darg'alari millatchilik, milliy biqiqlikda, dindorlikda ayblanib, qatag'on qilingani, hatto yaqin qarindoshining janozasida bo'lgani, ta'ziyasiga borgani uchun jazo choralar ko'rildi ko'pchilikning yodida hali.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 25 yillik tadbirida ta'kidlaganlaridek – Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir. Yurtdoshlarimizning ma'naviy dunyosi yuksalib, ijtimoiy faolligi o'sib, daxldorlik tuyg'usi kundan-kun kuchayib bormoqda. Binobarin, yuksak ma'naviyatlari shaxsni hech kim yenga olmaydi, yuksak ma'naviyat qaror topgan jamiyat esa hargiz tanazzulga yuz tutmaydi.

Insonning jamiyatdagi o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Ma'naviyat – ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'pri. U otabobolarimiz to'plagan jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an'analarning majmuyi, qolaversa, ular to'plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi.

Islohot – avvalo odamlar ongidagi o'zgarishdir. Dunyoda eng qiyin ish insonni tarbiyalash, uning ongu tafakkurini shakllantirish, degan gap bor. Masalaning yana bir jihatni borki, biz ko'pincha yon-atrofimizda yuz berayotgan yangiliklarni sezmaymiz, ularga beparvo qaraymiz. Mo'jizalarni

chetdan kutishga o'rganib qolganmiz. Holbuki, ularni chetdan izlash shart emas, ular shundoq ko'z o'ngimizda yuz bermoqda: yangi-yangi maktab, litsey va kollejlar, ulardag'i zamonaviy jihozlar, eng muhimi, ko'zlarida quvonch va hayrat uchqunlari porlab turgan bolalarimiz – dunyoda bundan ortiq mo'jiza bormi?!

"Barcha uchun ta'lif" hisoboti direktori Paulina Rozning aytishicha, mojarolar davom etayotgan o'lkalarda bolalarning qariyb yarmi ta'lif olish imkoniyatigan bebahra. "Ixtiloflar domidagi 35 mamlakatda 28 million bolaning maktabga bora olmayotganini o'rgandik. Bu jami o'quvchilarning 42 foizi. Sabablar turlicha. Ba'zi o'lkalarda konflikt zonalarida maktablarga borishning imkoniyati umuman mavjud emas. O'qituvchilar yo'q. Maktabga borish xavfli. Yosh qizlar jinsiy tajovuz qurboni bo'lishdan xavfsiraydi. Urush girdobidagi davlatlarda qizlarni zo'r lash, jinsiy zo'ravonlik holatlari ko'p uchraydi", – deydi u. BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'y lab bunday qochqinlar soni 19 million bo'lib, ularning yarmi 18 yoshga to'imagan bolalardir. Xalqaro qonunga ko'ra, qochqinlarning ta'lif olish liuquqini ta'minlash kerak. Ammo har doim ham buni amalga oshirishming imkon bo'lavermaydi. Masalan, Chadda Darfur dan kelgan 270 ming qochqin uchun faqat ikkita o'rta maktab tashkil etilgan. Qochoqlar lagerlaridagi maktablarda, odatda, o'qituvchilar, kerakli jihozlar va kitoblar yetishmaydi. YUNESKOning global ta'lif bo'yicha hisoboti direktori Paulina Roz shimoliy Keniyadagi Dadab lageriga bordi. Bu yerda somalilik 250 ming qochqin yashaydi. chorak qismi bolalar. "Bolalarning yarmi maktabga bormaydi. Bitta sinfda 300 dan ortiq bola bor. Vaziyat yanada yomonlashyapti. Bu lagerlar 20 yildan beri bor, ya'ni bu qisqa muddatli muammo emas. Dadabda men yoshlardan ko'p eshitgan narsa shu bo'ldiki, bu yerda ta'lif va ishning yo'qligi ayrim yigitlarni yana Somaliga qaytib, qo'liga qurol olishga majbur qilmoqda. Lagerning o'zida ham xavfsizlik yaxshi ta'minlangan deb bo'lmaydi", – deydi Roz.

Tabiiy savol tug'iladi: yangi, zamonaviy ta'lif maskanlariga qatnaydigan farzandlarimizning darslardagi davomatiga biz ota-onalar, mahalla-ko'y, keng jamoatchilik nechog'li e'tiborlimiz? Axir, "kadrsiz ish – qadrsiz ish", deydilar. Ya'ni, malakali kadrlarsiz sifatli ish bajarib bo'lmaydi, murakkab texnika-uskunalarni boshqarish mushkul. Qolaversa, darsga kelmagan bola nazoratsiz qoldi, degani. Ularni chetdan turib "mutlaq erkinlik", "chegarasiz erkinlik", "erkin axloq" degan soxta g'oyalarni tiqishtirishga zo'r berayotgan turli mafkuraviy markazlarning ta'sir doirasiga topshirib qo'yishga hech kimning haqqi yo'q.

Istiqlol yillarda mamlakatimizga qanchadan-qancha zamonaviy texnika-tehnologiya kirib kelmoqda, ishlab chiqarishning eng ilg'or sohalari bo'yicha yangidan yangi quvvatlar ishga tushirilmoqda. Misol uchun, Navoiy viloyatining bir paytlar qush uchsa qanoti kuyadigan bepoyon cho'l

hududidagi 564 hektar maydonda hozir “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasasi tashkil etilgan. Bu yerda xorijlik sheriqlar bilan hamkorlikda tuzilgan ishiab chiqarish korxonalarini tomonidan o’nlab turdagisi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Viloyatning yana bir iqtisodiy giganti – Xalqaro intermodal logistika markazidan dunyoning o’nlab yirik shaharlariiga haftasiga o’ttizdan ziyod reyslar amalga oshirilmoqda.

Ha, biz hech qachon hech kimdan kam bo’lmaganmiz, kam emasnimiz, kam bo’lmaymiz ham! Yoshlar, qaysi sohada bo’lmasin, zamonaviy bilimlarni egallashga, ilm cho’qqilarini zabt etishga, eng ilg’or texnika va texnologiyalarni jilovlashga bel bog’lar ekan, avvalo, ana shu da’vatga tayanib ish ko’rishi ayni muddaodir. Biz shavkatli ajdodlarimizga munosib bo’lmog’imiz zarur.

O’tgan yillar mamlakatimizda bunyodkor xalqimizning demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo’lidagi bosqichma-bosqich, izchil va samarali harakatlari davridir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021-yillarda O’zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o’rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo’yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e’lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o’tdi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo’yicha yil noimlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017-yil — “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning davomiy ekanligini ko’rsatib berdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Inson taraqqiyoti konsepsiysi mazmun va mohiyati nimalardan iborat?
2. Inson taraqqiyoti konsepsiyasini belgilovchi asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Mustaqillik yillarda O’zbekistonda inson omiliga bo’lgan munosabat to’g’risida tushunchangiz qanday?
4. Xotira va qadrlash tushunchalarini izohlab bering.
5. O’zbekiston davlati tinchlikni saqlash va mustahkamlash borasida qanday siyosat olib bormoqda?

4-§. INSON HUQUQLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI REJA:

1. Qadimgi Sharqda inson huquqlari.
2. Zardushtiylik dinida inson huquqlari.
3. Sharq mutafakkirlari inson huquqlari to‘g‘risida.
4. Islom ta’limotlarida inson huquqlari g‘oyasi.

Tayanch so‘z va iboralar: *Inson huquqlariga oid g‘oyalar, inson huquqlariga oid g‘arbona va sharqona qarash, qonun, shartnomaga, nikoh, ahslashuv, ayollar huquqi, bolalar huquqi, fozil odamlar shahri, islom ta’limoti, hadis.*

Qadimgi Sharqda inson huquqlari. Inson huquqlari masalasi to‘g‘risida bahs ketganda, uning beshigi qayerda, inson huquqlariga oid g‘oyalar qayerda keng rivojlangan, bugungi kunda inson huquqlari masalasiga kim ko‘p hissa qo‘shtmoqda, degan savoliar va bahslar bu sohadagi g‘arblik va sharqlik olimlar o‘rtasidagi qizg‘in tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham, bu sohadagi, ya‘ni, inson huquqlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bo‘yicha yevrosentrik (ya‘ni, bu sohadagi g‘oyalar Osiyoda dastlab paydo bo‘lgan va bu g‘oyalarning keng tarqalishiga katta hissa qo‘shtgan) qarashlar o‘rtasidagi o‘zaro ilmiy bahs-munozaralar halihamon davom etib keladi. Bunday taqqoslashdan maqsad, inson huquqlariga oid g‘arbona va sharqona tushunchalarni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni o‘zaro qiyosiy taqqoslash va o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishdan iborat, holos.

Yunon-Makedoniya, Rim, Vizantiya va Usmon imperiyalarida yevropaliklar ham, osiyolik va afrikaliklar ham yashagani bois, ular o‘rtasida madaniy almashinuv jarayoni uzlusiz kechgan. Chunonchi, “g‘arbiy” Rim huquqi “sharqiy” yahudiyilar huquqiga, qolaversa, “g‘arbiy” nasroniylar huquqiga ta’sir etgan, ana shu nasroniy huquq esa, mustamlaka bosqinlari davrida ko‘pgina “sharqiy” huquqiy an‘analarga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shu sababli ham, inson huquqlari Sharqda qanday shakllanganligini tahlil etmay turib, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning kelgusi rivojini anglab olish qiyin.

Zardushtiylik dinida inson huquqlari. Qadimgi Sharqda inson huquqlari to‘g‘risida fikr yuritilganda, birinchi o‘rinda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”ga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Inson huquqlari muammolari Markaziy Osiyoning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarida o‘z aksini topdi. Bunga qadimgi va o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyoning diniy-falsafiy va huquqiy tizimlarining tahlili guvohlik bermoqda, xususan, VIII-asrda paydo bo‘lgan zardushtiylik dinini misol qilib olishimiz mumkin.

Bizga ma'lumki, bu din falsafasining markazida yaxshilik xudosi Ahuramazda va yomonlik xudosi Axriman o'rtasidagi kurash yotadi.

Zardushtiylikda markaziy o'rnlardan birini qonun, shartnoma va tanlash kategoriyalari egallaydi. Zardushtiylikning muqaddas kitobining uchdan bir qismini qonunlar tashki'l etib, ularning maqsadi mukammal, barcha munosabatlarda uyg'unlashgan, gullab-yashnaydigan jamiyatni qurishdir.

Shartnomaga ishonch alohida qadriyat hisoblangan (shartnoma, og'zaki va yozma bo'lgan). Shuning uchun ham, zardushtiylikdagi asosiy xudolardan bin Mitra shartnoma xudosi bo'lganligi bejiz emas.

Shartnoma boshqalar hayotiga va mulkiga hurmat tamoyillariga rioya etish tushunchasi asosiga qurilgan bo'lib, u "Avesto"da markaziy o'rnlardan birini egallaydi. Tabiiyki, fozil hukmdor nafaqat qonunga amal qilishi, balki, shu bilan birga, zo'ravonlikka ham yo'l qo'ymasligi kerak.

Zardushtiylik islomga qadar bo'lgan o'z rivojining necha ming yillik davrida o'ziga xos diniy-falsafiy tizim sifatida shakliandi hamda Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining aksariyati uchun huquqning universal manbai sifatida xizmat qilib keldi. Huquqshunos N.Safо-Isfihoniyning ta'kidlashicha, "qonun tushunchasi zardushtiylikning ilk bosqichlaridan oq uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Zardushtiylikka xos muqaddas kitobning uchdan bir qismi turli bosqich va sohadagi qonunga taalluqli edi", zardushtlarning "amaliy qonunlar"ni o'zida mujassam etgan muqaddas kitobi – "Avesto"ning maqsadi esa, "har jihatdan va hamma munosabatlarda uyg'unlikka erishiladigan, uyushgan, gullab-yashnayotgan jamiyat barpo etish" dan iborat bo'lgan. Zardushtiylik huquqining diniy xususiyatiga qaramay, etnik mansubligi, dini, yoshi, jinsi va qaysi tabaqaga mansubligidan qat'i nazar, shaxs huquqlari unda Rim huquqidan kam bo'lmagan darajada shakllangan va qaror topgan. Shu bois, tadqiqotchilar zardushtiylik qonunlari "odamlarning xohish-irodasi erkinligiga e'tibor beradi", deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Huquqshunos olim A.G.Perixanyan zardushtiylik huquqida "xotin-qizlar emansipatsiyasining ayrim unsurlari" namoyon bo'lganligiga e'tiborni qaratadi. Ayol kishi shaxsiy mulk huquqiga ega bo'lib, uni xayriya maqsadlarida mustaqil tarzda ishlatishi, shuningdek, mustaqil tarzda da'vegarlik qilishi va guvohlik ko'rsatmalari berishi mumkin bo'lgan. Zardushtiylik huquqida nikoh, ahflashuvchi tomonlar – nikohlanuvchilarni ikki taraflama tanloving samarasini, deb hisoblangan va faqat shundan keyingina ota-onalar va vasiylar tomonidan tasdiqlangan (shu bilan bir qatorda, bu narsa hozirgi kunda bo'lganidek, ota-onalar va vasiylar tomonidan majburlov hollari bo'lislini istisno etmagan). Nikoh shartnomalari muayyan muddatga, odatda, o'n yil muddatga tuzilgan, ana shu muddat tugaganidan keyin har ikki tomonning azim-u qarori bilan nikoh yangidan

tuzilgan. Oila monogam, ya'ni bir nikohli asosda qurilgan. To'g'ri, er o'z xotinini uning rozilgisiz boshqa erkakka muvaqqat nikohga berishiga yo'l qo'yilgan, lekin bunda u xotini ana shu muvaqqat nikohdan orttirgan bolalarni ham o'zining qonuniy bolalari va vorislari deb e'tirof etishi shart bo'lган. Bu hol, tabiiyki, er kishi uchun jiddiy tushov bo'lib xizmat qilgan.

Ayollarning huquqi, er sudda xotinini o'ziga bo'ysunmaganlikda, itoatsizlikda ayblagan taqdirda ham, inobatga olinavergan. Shuni ta'kidlash joizki, o'sha davrdagi boshqa diniy tizimlarda bo'lgani kabi, zardushtiylikda ham xotinning itoatsizligi, bo'ysunmaganligi eng og'ir gunohlardan biri, deb hisoblangan. "Erining izmiga yurmaydigan, uning buyrug 'ini bajarmaydigan ayolni xotin deb hisoblamaslik kerak", – deyiladi o'rta asrlarda yozib qoldirilgan forsiy nasihatlardan birida. Shunga qaramay, bunday qilmish uch marta sodir etilib, sud tartibida ommaga e'lon qilingan taqdirdagina, er itoatsizlik, bo'ysunmaslik to'g'risidagi rasmiy hujjatni olar va shundan keyingina xotiniga nisbatan da'vo qo'zg'ashi mumkin bo'lgan. Ammo ana shunday bo'lgan taqdirda ham, ayol kishi o'ziga qo'yilayotgan ayblovni omma oldida rad etish va o'zining aybsizligini isbotlash huquqini saqlab qolgan. Aks holda u o'ziga tegishli bor mol-mulk erining foydasiga o'tib ketishiga qarshi hech narsa qila olmagan.

"Avesto", – deydi S.G.Ganbarov, – tug'ilgan va hali dunyoga kelmagan bolalarming huquqlarini qat'iy muhofaza etgan. Voyaga yetimagan bolalarni ota-onasidan olib ketib qolish, ularni vasiyliksiz qoldirishga og'ir jinoyat sifatida qaragan. Bolalarni go'dakligidanoq o'qitish, ilmi qilish tavsiya etilgan. "Agar o'g'ling bo'lsa, – deyiladi "Adurbadning o'gitlarida, – uni bolaligidanoq maktabga ber, zotan, bilim ko'z nuridir".

Garchi, o'sha davrdagi boshqa dinlarda bo'lgani kabi, zardushtiylikda ham quidorlik qoralanmagan bo'lsa-da, zardushtiylik huquqiga ko'ra, qul muayyan huquqlarga ega bo'lgan. Ayrim hollarda u o'z xo'jayimiga qarshi da'vo qo'zg'atishi mumkin bo'lgan. Ana shunday hollardan biri zardushtiylikning "Taqdir" kitobida eslatib o'tilgan.

Inson huquqlari g'oyasi diniy va huquqiy asarlardagina emas, falsafiy tafakkurning eng sara mevalarida ham o'z aksini topgan. Markaziy Osiyoning eng yirik mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy (873-950-yil) o'zining "Fozil odamlar shahri" degan asarining "Foziliar shahri hokimining fazilatları" bo'limida "Fozillar shalirining birinchi bostiligi shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat, fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur. Fozillar shahri hokimi, avvalo, to'rt muchasi sog'lom bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuq-son xalal bermasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim. Ikkinchidan, bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatlari bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi va shu sohadagi umumiy ahvol qandayligini

ravshan tasavvur qila oli-shi zarur. Uchinchidan, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur. To'rtinchidan, u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. Beshinchidan, u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur. Oltinchidan, u (ustozlardan) ta'lif olishga, bilim, ma'rifatga havasli bo'llishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur. Yettinchidan, taom yeishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur. Sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'oni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur. To'qqizinchidan, u o'z qadrini biluvchi va or-nomusli odam bo'lishi, pastkashlardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyimmat bo'lish va ulug', olyi ishlarga intilishi zarur. O'ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur. O'n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'rvuchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'rvuchi bo'lishi zarur. O'zi, haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur. O'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan choratadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rkoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur".

Forobiy taklif etayotgan ushbu o'n ikkita xislat bir odamda jamlanishi qiyin va kamdan-kam uchraydigan holat bo'lgani uchun ham, uning kitobida bunday xislatlarning to'liq barchasiga ega bo'limgan bo'lsa ham, "... unda yuqoridagi fazilatlardan oltitasi yoki beshtasi kamol topganida ham, u aql va zakovatda benazirtigi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi" deb ko'rsatiladi.

Ulug' olim o'z fikrini yanada rivojlantirib, avvalgi fozil hokim o'rniga kelishi mumkin bo'lgan hokim (imom)da quyidagi olti fazilat bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi:

Birinchi – donishmandlik.

Ikkinchi – avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlar va tartiblarni xotirasida yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilish uchun quvvai hofizaga ega bo'lish.

Uchinchi – agar avvalgi imomlar davridan biror (yoki bir qancha) sohaga taalluqli qonun qolmagan bo'lsa, bunday qonunni o'ylab topish uchun ijod, ixtiro qilish quvvatiga ega bo'lish.

To‘rtinchi – hozirgi haqiqiy ahvolni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan, avvalgi imomlar ko‘zda tutmagan voqealarni oldindan ko‘ra bilish uchun bashoratgo‘ylik xislatiga ega bo‘lish. Bu xislat unga xalq farovonligini yaxshilash yo‘lida kerak bo‘ladi.

Beshinchi – avvalgi imomlar o‘rnatgan qonunlarga, shuningdek, avvalgilardan ibrat olib, o‘zi to‘qib chiqargan qonunlarga xalq amal qilishi uchun qizg‘in so‘zlash – notiqlik xislatiga ega bo‘lishi.

Oltinchi – zarur hollarda harb ishlariiga mohirona rahbarlik qilish uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo‘lish; ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida jang-u jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san’atni yaxshi bilish.

Forobiy o‘zining fozli inson to‘g‘risidagi ta’limotini rivojlantira borar ekan, mamlakatni jamoaviy boshqarish masalasini ham ilgari suradi. Ya’ni, qayd etilgan xislatlar bir kishida emas, bir necha kishida mavjud bo‘lgan taqdirda, jamoaviy boshqaruv maqsadga muvosiq, degan fikrni bildiradi: “Mabodo sbu xislatlarning barchasini o‘zida jamlagan bir odam topilmasa, lekin ikki kishi birgalashib, shu xislatlarga ega bo‘lishsa (ya’ni, biri donishmand, ikkinchisi – qolgan xislatlar sohibi bo‘lsa) shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo‘yish zarur. Mabodo, bir guruh odamlar birgalikda ana shunday xislatlarga ega bo‘lishsa (ya’ni, birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshqa xislatlar bolsa), ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga qo‘yish zarur. Shu guruh a’zolari birgalashib, o‘zaro kelishib harakat qilsa, har biri fozil hokim bo‘lishi mumkin. Mabodo, biror zamonda fozillar shahrida hokimlik qllayotgan bir yoki bir necha kishida boshqa zarur xislatlar bo‘lsa-yu, ammo donishmandlik bo‘limasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunda shahar halokatga yuz tutadi”.

Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy merosi juda boy bo‘lib, u o‘zining bir qator asarlarini muhim ijtimoiy masalalarga bag‘ishlagan. Mutafakkirming jamiyat, davlat, huquq, siyosat, adolat haqidagi g‘oyalari va qarashlari uning “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola”, “Urush va tinch turmush haqida kitob”, “Jamiyatni o‘rganish haqidagi kitob”, “Davlat arbobining hikmatlari”, “Ilmlarni tasniflash va ular tartibi haqida kitob”, “Fozil shahar aholisining maslagi haqida kitob”, “Fozil, johil, fosiq, o‘zgartirilgan va adashganlar shaharlari haqida kitob”, “Shaharlar xususida siyosat yuritish”, “Siyosat haqida to‘plamlarning qisqacha kitobi” kabi asarlarida o‘zining chuqur ifodasini topgan. “Ilmlarni tasniflash va ular tartibi haqida kitob”ning shaharga taalluqli fan (yoki shaharni boshqarish haqidagi, ya’ni, siyosiy yoki siyosat haqidagi fan), huquqshunoslik va kalom (islom aqidalari)ga bag‘ishlangan “Ilmi madaniyat” nomli V-bo‘limida axloq, tarbiya va davlat boshqaruvi masalalari bayon etilgan.

Abu Nasr Forobiy ko‘pincha siyosat fani to‘g‘risida emas, balki, oliv hokimiyatni boshqarish san’ati (qadimgi yunonlar siyosat – “politika”) deganda, davlatni – “polis”ni boshqarish san’atini tushunganlar haqida

gapirodi, zero, uning fikricha, oliv hokimiyat, oliv hukmdor davlatning ijodkori bo'lib, uning faoliyatini yo'naltirib turadi. Shu bois, u ko'proq davlatni boshqarishning umumiy (universal) qonunlarini ishlab chiqadigan siyosat haqidagi fan to'g'risida emas, balki, davlat arbobi oldida turgan maqsadni hayotga joriy etishda va baxtga erishish uchun sharoit yaratishda ifodalanuvchi "davlatni boshqarish san'ati", "boshqaruv san'ati" haqida yozadi.

Abu Nasr Forobiy o'zining siyosiy idealidan kelib chiqib, ushbu fikrga aniqlik kiritadi. U boshqaruv san'atini har bir kishi va ijtimoiy guruhning o'z tabiiy maqsadiga mos tarzda, uyg'un rivojlamishi uchun sharoit yaratishdan iborat, deb hisoblaydi. Arastu kishilar birligining eng oliv shakli – fuqarolardan iborat polis (shahar), deb hisoblagan. Arastudan boshqacha sharoitlarda, ya'mi o'rta asrlardagi "kosmopolitik" tafakkur sharoitida yashagan Abu Nasr Forobiy kishilar birligining ancha yuksak shakllari – xalq, insoniyat haqida yozgan va davlat boshqaruvining shaklini fuqarolardan mustaqil, oliv va suveren, deb tasavvur qilgan.

Abu Nasr Forobiy siyosat haqidagi fanda ikkita asosiy siyosiy maqsadni qo'yadi: hirinchisi – ideal hukmdorga ega bo'lgan fozil davlat qurish; ikkinchisi – barcha xalqlar va barcha zamonlar uchun yaraydigan ijtimoiy tuzum orasiga qaytar, bu bilan u go'yo kishandan bo'shanganday xursand bo'lar va o'z ishi bilan band bo'lar emish. Bu shuning uchunki, idora qilish va boshqarish rohatdan mahrum bo'lish, degan so'zdir. Bunda u o'sha joydagi ezuvchilarni eziluvchilarga nisbatan adolatli qillaman, deb holdan toygan bo'ladi. Bu degan so'z, ularni qo'riqlash (u yer egalarini) "... mol-mulki, hayotini bimoya qillaman, deb tinkasini quritish deganidir".

"Odamlardan, – deb o'z so'zini davom ettiradi Beruniy, – u (hokim) uchun yig'iladigan to'lov pullari ham mahalla qorovuliga beriladigan haq misolidir, bu xuddi yo'lovchililar karvonboshi bo'lgan kishining mahorati va darajasining qadriga yarasha unga o'zaro pul yig'ib berishiga o'xshashdir. Uning vaqtি o'tishi bilan bularning hammasi tugaydi. Har bir zamonning o'ziga xos odatlari bor. O'z ahli orasida bularga rioya qilish kerak, aks holda nizom va bir xillik yo'qolsa, tartib ham yo'q bo'ladi".

Ushbu parchadan ma'lum bo'lishicha, Beruniyning mamlakatni demokratik usulda idora qilish tushunchasi qadimgi davrdagi Afina, O'rta Osiyo va Shimoliy Italiya shaharlarida ko'ringan davlat tuzilishini o'rganish tufayli hosil bo'lgan, desa bo'ladi.

Ijtimoiy tengsizlik g'oyasi Beruniy qarashlarida insonning shaxsiy huquq va erkinliklari g'oyasi bilan bog'liq ravishda asoslab beriladi. Bunda insonning shaxsiy huquq-erkinliklarga ega ekanligidan uning jamiyat hayotining iqtisodiy-siyosiy va madaniy sohalarida teng huquqlilik asosida faoliyat ko'rsatishi zarurligi nazarda tutiladi.

Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiylik, axloq va odobning asosiy masalalari bo'yicha qarashlari insoniylik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan. U xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yoqlab, hukmdorlarning o'zaro urushlariga qarshi chiqadi. Uning ijtimoiy qarashlari markazida inson, insoniy jamiyat turadi.

Beruniyning "Oq kiyimliklar" va karmatlar haqida hikoyalari", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya" kitobiga so'z boshi, "Mineralogiya" kitobiga kirish so'zi, "Hindiston" kabi asarlaridagi falsafiy qarashlari inson va uning jamiyatdagi roli, mehnati, kasbi, bilimi, ijtimoiy rivojlanishi kabi masalalarga qaratilgandir.

Amir Temurning, "Temur tuzuklari"da adolat to'g'risida fikr yuritilishi. Buyuk bobokalonimiz Amir Temur tarix sahifalarida, nafaqat jangu-jadallar orqali 20 dan ortiq davlatlami birlashtirib, buyuk sultanat barpo etgan ulug' sarkarda sifatida, balki, oqil va adolatparvar davlat boshlig'i sifatida ham o'chmas nom qoldirgan. Uning "Kuch adolatdadir" degan bosh g'oyani ilgari surishing o'zi ham, Amir Temur birinchi galda adolatli boshqaravga asoslangan davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib olganligidan dalolat beradi. Amir Temur sultanatni idora qilish to'g'risidagi tuzugida aytadiki, "Qaysi mamlakatni zabit etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim. Ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlarni va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipoji uchun dargohimga yo'l berdim. Raiyatini o'zimga qaratib oldim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda hadlaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo'lini to'sdim". U yana, "Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak", – deb ta'kidlaydi.

"Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi blian ish tutsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar. Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdarligiga qarab yig'sinlar". Amir Temurning bunday adolatli, insonparvar siyosat yuritishi mamlakatning ham siyosiy, ham iqtisodiy va ham ijtimoiy jihatdan kuchayishiga va o'z davrining eng qudratli sultanati darajasiga ko'tarilishiga yordam berdi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston o'lkasini mustaqil qilish va aholining huquq va erkinliklarini ta'minlab berish jadidchilik harakati namoyandalarining asosiy maqsadlaridan biri edi. Bu maqsadga erishishning

asosiy vositasi sifatida esa, ular ma'rifatchilikni, ya'm, xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini ilg'or g'oya va bilimlar yordamida o'zgartirishni tanlagan edilar.

Islom ta'limotlarda inson huquqlari g'oyasi. Islom huquqi o'z zaminida normativ tizim sifatida VII-X-asrlarda arab xalifaligida feodal jamiyat qaror topayotgan bir davrda shakllangan bo'lib, islom diniga asoslangandir. Islom mavjud huquq Ailoh tomonidan yuborilganligiga asoslanadi. Sarvari koinot tarixning muayyan bir davrida bashariyatga o'zining rasuli – Muhammad payg'ambar (taxminan 570 – 632-yillar) orqali islom ta'limotini ayon etdi. Alloh tomonidan in'om etilgan huquq insoniyatga bir yo'la va abadul-abad berilgan. Shu bois, jamiyat bu huquqqa amal qilmog'i lozim. Islom huquqi nazariyasi ilohiy kashfiyot tushuntirish va sharhlashga muhtoj ekanligini e'tirof etadi. Islom huquqshunoslarining necha asrlik sermashaqqat ishlari aynan ana shunga, ya'ni, tushuntirish va sharhlashga ketgan. Biroq ularning bu sa'y-harakatlari yangi huquq yaratishga emas, balki, Alloh tomonidan nozil bo'lgan huquqni faqatgina amalij jihatdan foydalanish uchun moslashtirishga qaratilgan, holos.

Islom huquqida Rimning keyingi davriga oid bo'lgan huquqdagi, qolaversa, G'arb huquqiga xos bo'lgan qonun tushunchiasi yo'q. Nazarij jihatdan yolg'iz Alioh qonunchilik hokimiyatiga ega. Amalda esa, huquqshunos olimlarning asarlari Islom huquqining bordan-bir manbayidir. Islom huquqi mutaxassislar tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan. Davlat emas, balki, fiqh – huquq ilmi qonun chiqaruvchilik rolini o'ynaydi. Huquq muayyan normalarning majmuyi sifatida islom amal qila boshiagan dastlabki ikki asr mobaynida shakllandi. Keyingi asrlar amalda bu borada hech bir yangilik kiritmagan. Ana shu turg'unlikmi ijтиҳод eshiklarimeng yopilishi bilan bog'laydilar. XIX-asrga qadar Islom huquqiy ongingin tadrijiy rivoji dimiy-huquqiy sharhlar hamda fatvolar majmuyida o'z ifodasini topgan. Bu shiarh va fatvolar esa, shariatning an'anaviy qoidalari va tamoyillarini yangicha tarzda talqin etar ekan, hech qachon ularni ochiqdan-ochiq rad etmagan va ularning odatiy jarangini o'zgartirmagan.

Inson huquqlari masalasi islomda shuhrat qozongan tasavvuf ilmining asosini tashkil etadi. Ilimning bu turi Sharqda keng tarqalgan bo'lib, O'rta Osiyoda uning vujudga kelishi va rivojlanishiga Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror singari buyuk siymolar katta hissa qo'shdilar. Ularning ta'limoti islomda tariqat (Tariqat -islomda yo'1-yo'riq, yo'nalish degan ma'nolarni anglatadi) deb atalib, bu tariqatlarda falsafiy, diniy-axloqiy, huquqiy masalalar to'g'risidagi muhim g'oyalari ilgari suriladi. Bu tariqatlardagi g'oyalari uzoq yillardan buyon insonning jamiyatdagi o'z haq-huquqlarini anglab olishlarida va uni himoya qilishlarida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Yassaviy, G'ijduvoniy, Naqshbandiy tariqatlarida insonning shaxsiy va ijtimoiy huquqlari masalasi insonning Alloh taolo va uning rasuli Muhammad alayhissalom oldidagi tengligi misoldida bayon qilinadi. Islom tariqatlarida har bir kishining dinga e'tiqod qilishi, uning foydali mehnat bilan shug'ullanishi, ilm olishi, aybsiz jazolanmasligi, qyinoqqa solinmasligi singari masalalar bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar muhim ahamiyatga egadir.

Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida mo'min-musulmonlarning dinga e'tiqod qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida Naqshbandiya tariqatida berilgan fikrlarga yuqori baho beradi. Uning yozishicha, Bahouddin Naqshband islam shariatiga va uning talablariga rioya qilish ixtiyoriy ekanligini qayd qiladi va bu talablarning ijrosida insonning qadr-qimmati kamsitilishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi zarurligini ta'kidlaydi.

Tasavvuf ilmida bir qancha yo'nalish bo'lib, ularning islamda birmuncha keng tarqalgan yo'nalishlaridan biri Naqshbandiya tariqatidir. Unda ilgari surilgan "dil ba yoru dast ba kor" (dil – Allohdha, qo'l – ishda) mavzusidagi g'oya insonni mehnat qilishga undash bilan birga, uning mehnat qilish huquqiga ega ekanligini ham bildiradi. Haqiqatan ham, Naqshbandiya ta'limotiga amal qilgan kishilar halol mehnat bilan kun kechirish, Allohning marhamatlaridan bahramand bo'lish, o'z oilasini obod qilish, savdo-sotiq bilan shug'ullanish va boshqa shular singari shaxsiy va ijtimoiy huquqlardan foydalanishga harakat qilganlar.

Tasavvuf ilmida musulmonlik haq-huquqlariga doir masalalar o'zining chuqur ifodasini topgan. Alloh oldida barchaning tengligi g'oyasi tasavvuf ilmining asosini tashkil qilganligi uchun ham unda Alloh taolo va uning rasuli Muhammad alayhissalomning haq-huquqlari juda keng va chuqur ifodalab berilgan.

Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Abduxoliq G'ijduvoniyning "Vatsiyatnama", Imom G'azzoliyning "Oxiratnama" asarlarida inson zoti Alloh buyurgan amallarni bajarish bilan uning oldidagi o'z haqini ado etishi, Alloh va uning payg'ambari Muhammad alayhissalomning inobati bilan berilgan shariat huquqlaridan foydalanishi va shu yo'l bilan har bir mo'min komil inson bo'lib hayot kechirishi mumkinligi to'g'risida qimmatli fikrlar yozilgan. Shuningdek, ularning asarlarida ota-onalarning, farzandlarning, qarindosh-urug'larning, er va xotinning, davlat rahbarlari va raiyatning, qo'shnilarining haq-huquqlari o'zining aniq ifodasini topgan.

Insonning erkin bo'lishi g'oyasi tasavvuf ilmining asosini tashkil etadi. Chunki tasavvufda insonning xatti-harakatlari, uning jamiyatdagi mavqeyi qanday bo'lishi mumkinligi Alloh taoloning irodasiga bog'liq ekanligi bilan asoslab beriladi. Har bir insonning Alloh taolo visoliga yetishi g'oyasi tasavvuf ilmida uning insonga xos bo'lgan haq-huquqlaridan biri sifatida qaraladi. Bu huquq islamda shariat talablariga asoslangan bo'lib, unga to'sqinlik qilish Alloh taologa shak keltirish bilan barobardir. Shuning uchun

ham, tasavvuf ilmining namoyandalari o'zlarining asarlarida musulmonlik haq-huquqlari orasida insonning Alloh taologa iyomon keltirishi zarurlligini ta'kidlaydilar.

Tasavvuf ilmining yetuk namoyandalaridan biri Ahinad Yassaviy o'zining "Hikmatlar" asarida har bir inson Alloh taoloning visoliga yetish huquqiga ega ekanligini ko'plab hayotiy misollar asosida tushuntirishga harakat qilgan. Shuning blan birga, Yassaviyning tasavvuf ilmidagi qarashlari uning har bir insonning kiyim-kechakka, uy-joyga ega bo'lish singari huquqlarga ega ekanligi g'oyasi bilan ham chambarchas bog'lanib ketgan. Insonga zulm qllmaslik, tazyiqqa duchor etmaslik, shaxsiy hayotiga aralashmaslik singari insonparvarlik g'oyalari Yassaviy hikmatlarida o'zining chuqur ifodasini topgan.

Sharq olamida mashhur bo'lган "Fiqh" ilmi inson huquqlari va ularni himoya qilishni shariat qonunlari asosida yoritib berishdag'i asosiy manbalardan biri bisoblanadi. Fiqh ilmi o'rta asrlarda sharq mamlakatlarida shariat me'yordi va tartib-qoidalarini qonuniy yo'l bilan tartibga solib turish zarurati asosida vujudga kelgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Avestoda inson huquqlariga qanchalik e'tibor berilgan?
2. Qaysi sharq allomalari asarlarida inson huquqlariga alohida e'tibor berilgan?
3. Temur tuzuklarida adolat to'g'risida qanday fikrlar bayon etilgan?
4. Isloin ta'limotlarida inson huquqlariga oid qanday qarashlar mavjud?
5. Jadidlar o'zlarining inson huquqlari borasidagi fikr mulohazalarini nima orqali ominaga yetkazganlar?

5-§. INSONNING JAMIYAT VA DAVLAT BILAN O'ZARO HUQUQIY ALOQADORLIGI

REJA:

1. Inson, jamiyat, davlat va ularning o'zaro bog'liqlik tomonlari
2. "Inson huquqlari" va "fuqarolik huquqlari"
3. Inson bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda qonun ustuvorligi

Tayanch so'z va iboralar: *Inson, jamiyat, davlat, demokratik huquqiy davlat, o'zaro munosabat, huquq, deklaratsiya, fuqarolik huquqlar, huquqiy maqom, fuqaro, milliy markaz, qonunchilik monitoringi.*

Demokratik huquqiy davlat insonni, uning erkinligi va haq-huquqlarini barcha ijtimoiy voqeliklar markaziga qo'yadi. Zero, inson jamiki dunyoviy ne'matlar ichida eng ulug' idir.

Jamiyat va davlat munosib hayot sharoitlari yaratib berishi, har kimning baxtli, emim-erkin yashashi uchun kafolat berishi lozim. Yuksak madaniy va ma'rifiy fuqarolik jamiyatida inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari muqaddas sanaladi. Inson dunyodagi ongli va irodali mavjudotdir. Shu bois uni dunyoning tanho tilagi va samari deyish joiz.

Inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanganlik darajasi mamlakatdagi siyosiy tuzumning xarakterini, davlatning qanchalik demokratikligini ko'rsatadi. "Inson huquqini qonunda va amalda ta'minlay olmagan, buning uchun yetarli kafolatlar yaratib berolmagan jamiyat demokratik jamiyat emas".

Inson jamiyatning faol bo'lagidir. Shundan kelib chiqib, inson iqtisodiy munosabatlarning, siyosiy hamda ma'naviy hayotning bevosita ishtirokchisiga aylantirilmas ekan, ijtimoiy jarayonlarga uzviy jalb etilmas ekan, davlatning ravnaqi, jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti va kelajagi haqida gapirish mumkin emas.

Inson va jamiyat, inson va davlat o'rtasidagi munosabat, shaxsning huquqiy holati masalalari qadimdan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning dolzarb mavzuyi sanalib keladi.

Inson jamiyatda o'sib ulg'ayadi, shaxs sifatida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Jamiyat shaxslar (individlar)ning oddiy yig'indisi emas. Balki u kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning mujassam majmuyi, mushtarak mahsuli sifatida maydonga chiqadi. Jamiyat – bu insonlarning umumiyl manfaatlar haimda ehtiyojlari birligi asosida, ularni qondirish maqsadidagi birikuvi va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, aloqadorlik, hamkorlik ifodasidir.

Shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik nihoyatda serqirra bo'lib, turli shakl va mazmunga ega. Shaxsning jamiyat bilan aloqasi, avvalo oila, ta'lim-tarbiya va mehnat jamoalari kabi boshlang'ich bo'g'inlar vositasida amalga oshadi. Jamiyatni katta bir vujud (organizm) deb qaraladigan bo'lsa, shaxs ana shu vujudning muhim hujayrasidir. Shaxs muayyan jamoalar, ijtimoiy guruhlar tarkibida shakllanadi, ijtimoiy aloqalar sohibi sifatida jismoniy va ma'naviy kamolotga yetadi. Jamiyatning umumiyl ijtimoiy ongi, ma'naviyati, madaniy darajasi, siyosiy-huquqiy saviyasi har bir shaxs tarbiyasi va fe'l-atvoriga singib boradi. Shu bilan birga inson o'zigagina xos xususiyat va fazilatlarga ham ega bo'ladi. Har bir inson tanho (individual) va u betakrordir.

Jamiyat shaxsning hayot faoliyati, erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar yig'indisi hisoblanadi. Jamiyat va shaxs aloqadorligi dialektikasi shundan iboratki, har bir shaxsning erkin rivoji, o'z iste'dodi, qobiliyatlarini namoyon eta olishi pirovardida butun jamiyatning rivoji, ravnaq topishi demakdir.

Shaxs va jamiyat o'zaro majburiyatlar orqali ham bir-biri bilan uzviy bog'liqsir. Masalan, jamiyat har bir shaxsga muayyan tarbiya berishi, uni ijtimoiy muhofaza etishi, shaxsning jamiyatdagi belgilangan vazifalarini ado etishi uchun shart-sharoit, hayotiy muhit yaratib berishi lozim. O'z navbatida, shaxs jamiyatga, uning umumiyl manfaatlariga hurmat baho keltirishi, o'z xatti-harakatlarini boshqa insonlarning manfaati bilan muvofiqlashtirishi, o'z jamoasi bilan hisoblashishi shart. "Inson, – deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov – o'z davlati, o'z xalqi oldidagi, huquqi katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak".

Inson bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda huquqiy asoslarning qaror toptirilishi jamiyat demokratiyalashuvining jiddiy ko'rsatkichidir. Mazkur munosabatlarning asosiy tamoyillari va shakllari Konstitutsiya hamda qonunlarda o'z ifodasini topadi. Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklari ko'lamini mujassam tarzda mustahkamlab, ularni ta'minlashning moddiy, siyosiy hamda yuridik kafolatlarini belgilaydi.

Inson huquqlari faqat shaxs erkinligi (avtonomligi, suverenligi) real bo'lgan sharoitdagina to'laqonli bo'ladi. Inson jamiyatdagi o'zgartishlar, islohotlarning vositasi emas, balki maqsadi deb qaralishi lozim.

Insonlarning erkinligi va tengligi g'oyalari dastlab burjua inqiloblari jarayonida ilgari surildi va ular insoniyatning "oltin xazmasi"ga aylandi. Inson huquqlari aynan mana shu erkinlik g'oyalari zaminida qaror topdi.

Inson huquqlari va erkinliklari tizimi o'z yaralish ibtidosi va rivojlanish mantig'iga ega. Adabiyotlarda "inson huquqlarining uch avlod" bosqichi haqida ko'rsatib o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat.

Inson huquqlarining "birinchi avlodji" – fuqarolik va siyosiy huquqlar hisoblanadi. Ular Ovro'padagi burjua-demokratik inqiloblar, shuningdek Amerika Qo'shma Shtatlarining o'z mustaqilligi uchun olib borgan kurash davrida qo'liga kiritilgan Siyosiy huquqlar davlat hokimiyati o'zboshimchaligini jilovlashga yo'naltirilgan edi. Dasturiy talab sifatida davlat hokimiyatining inson erkinligi va mustaqilligiga daxl etmaslik majburiyati to'g'risidagi g'oya ilgari surilgan. Bu talab faqat hokimiyatlar taqsimlanishi va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi taimoyili joriy etilgach, amalga oshdi.

Inson huquqlarining "ikkinci avlodji" bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida shakllandi. XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyot sohasida sezilarli siljishlar ro'y berdi. Ishlab chiqarishning markazlashuvi va ishchilar (kasaba uyushmalari) harakati rolining oshishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar o'zining davlat-huquqiy ifodasini topdi. Jumladan, mehnat qilish huquqi, munosib hayot sharoitiga bo'lgan huquq, ilm olish huquqi va bir qator

ijtimoiy kafolatlar: mehnat qobiliyatini to'la, qisman va vaqtincha yo'qtoganda nafaqa olish, pensiya olish huquqi, ishsizlik nafaqasi va hakozo.

Nihoyat, inson huquqlarining "uchinchchi avlodi" – "hamjihatlik huquqlari" deb atalib, ular davlatlardan ustun turuvchi va kollektiv xarakterga ega. Umumiy e'tirof etilgan qoidaga ko'ra bu huquqlar: tinchlikka bo'lgan huquq, bexavotir tabiiy atrof muhitga bo'lgan huquq, insoniyatning iqtisodiy va madaniy merosidan foydalanish huquqi va boshqalar.

Insonning o'z erkinliklari, huquqlari va manfaatlari uchun davom etgan uzoq kurashi umuminsoniy ahamiyat darajasiga ko'tarilgan quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjalarda o'zining moddiy ifodasini topgan: Erkinlikning buyuk xartiyasi (1215-yil.); Huquq to'g'risidagi petitsiya (1628-yil.); "Habes Corpus AKT" (1679-yil.); Huquqlar to'g'risida bill (1689-yil.); Amerika Virginiyasi huquqlari Deklaratsiyasi (1776-yil.); Amerika Qo'shma Shtatlarining mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil.); Fransuz inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi (1789-yil.); Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil.); Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt (1966-yil) va boshqalar. Mazkur hujjalalar orqali inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi yuridik qoidalar shakllanishining butun yo'lini va mantiqini anglab yetish mumkin. Bularda aks ettirilgan inson huquqlariga oid qoidalar mag'zini birgina g'oya – insonning tug'ilishidan boshlab mavjud bo'ladigan, ajralmas, tabiiy huquqlari to'g'risidagi tasavvurlar tashkil etadi. Bu huquqlar siyosiy hokimiyatlar tomonidan tan olinishi va qonunlar bilan kafolatlanishi lozim.

Har qanday huquq, shu jumladan inson huquqlari insonning biologik mohiyati bilan emas, balki uning ijtimoiy mohiyati, muayyan jamiyat a'zosi ekanligidan kelib chiqadi. Fransuz burjua inqilobi (1789-yil.) dunyoga bergen "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi" tabiiy huquq maktabi g'oyalardan kelib chiqib, inson huquqlariga baho bergen. Deklaratsiya tamoyillariga muvofiq insonga ikki jihatdan izoh beriladi: bir tomonidan, alohida olingen inson, odam tarzida, ikkinchi tomonidan – fuqaro, ya'ni biron bir jamiyatning, siyosiy-ijtimoiy guruhning a'zosi sifatida tavsiflanadi. Shunga binoan, Deklaratsiya "inson huquqlari" va "fuqaroning huquqlari"ni aniq-tiniq belgilab bergen. Inson huquqlari qatoriga u tug'ilishi bilan mavjud bo'ladigan, odamning insoniyat jamiyatiga qo'shilgunga qadar holatidagi huquqlari yig'indisi kiradi. Fuqaroning huquqlari deganda esa, inson siyosiy jamiyatga qo'shilgandan keyin ega bo'ladigan huquqlari majmuyi tushuniladi.

G.Grotsiy, B.Spinosa, D.Lokk, Sh.L.Monteskye, T.Jeferson va boshqa ko'plab huquqshunos, faylasuf olimlar tabiatdan kelib chiqib, har bir kishiga: yashash huquqi, erkinlik huquqi va mulk huquqi tegishlidir, deb ta'kidlaydilar. Mazkur mutafakkirlar bo'lajak yangi davlat modelini ishlab chiqib, unda har bir fuqaro ega bo'lishi lozim bo'lgan asosiy siyosiy huquqlar

ko'lamini ham belgllab berdilar. Bu huquqlar "fuqaroning huquqlari" yoki "fuqaroviy huquqlar" nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. Siyosiy huquqlar yoki fuqaroviy huquqlar fuqaroning davlat bilan bo'ladigan o'zaro mumosabatlaridan kelib chiqadigan huquqlar yig'indisidir.

Shunday qilib, burjua davlatlari qaror topayotgan davrda inson huquqlari deganda insonning tabiiy huquqlari, fuqaroning huquqlari deganda esa pozitiv huquq, ya'ni davlat tomonidan yaratilgan huquqlar tushuniladigan bo'ldi.

Fransuz Deklaratsiyasi inson huquqlari qatoriga erkinlik, mulk, xavfsizlik va zulmga qarshilik ko'rsatish huquqlarini kiritadi; fuqaroning huquqlariga esa fuqaroning davlat siyosiy hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini beruvchi huquqlar, davlat hokimiyatining o'zboshimchalligidan muhofaza etuvchi huquqlar, shaxsning daxlsizligini ta'minlovchi huquqlarni kiritadi.

Taraqqiyotning keyingi jarayonlarida inson va fuqaro huquqlarini ajratish ikkinchi darajali ahamiyat kasb eta boshladi. Hozirgi paytda fuqaroning huquqlari sifatida, odatda, davlatning konstitutsiyasiga kiritilgan huquqlar tushuniladi. "Inson huquqlari" deganda esa bir qadar kengroq narsa, insoniyatni muayyan ma'naviy huquq e'tirof etiladi. Bunda hainina vaqt ham davlatda amal qilayotgan obyektiv huquq bilan insonning ma'naviy huquqlari, huquqiy talablari aynan mos kelavermaydi. Ular hali qonun shaklida rasmiylashtirilmagan bo'lsa, amalda qonunga nisbatan ilgari surilayotgan ma'naviy talab shaklida maydonga chiqadi. Qonunga, masalan, konstitutsiyaga kiritilgach esa bu huquqdan endi inson huquqdari deyilmasdan, fuqaroning huquqlari deb yuritiladi.

Xorijda, aksariyat hollarda, "inson huquqlari" deganda shaxsiy huquq va erkinliklarmi, "fuqaroning huquqlari" ostida esa siyosiy huquq va erkinliklarni tushunadilar.

1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da mustahkamlangan huquq va erkinliklarni to'rt guruhga ajratib tasniflash muimkin.

Birinchi guruhga elementar huquq va erkinliklar kiradi. Bular: yashash, erkinlik va daxlsizlik huquqi (3-modda); qullikdan erkin bo'lish huquqi (4-modda); qiy Nash yo shafqatsiz, g'ayriinsoniy muonala qilishning yoki jazolar (5-modda); qonun oldida tenglik (7-modda); odil sudlovnинг protsessual kafolatlariga oid qator huquqlar (8-11-moddalar); shaxsiy va oilaviy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashuvdan hamda kishining sha'n'i va obro'-e'tiboriga daxl qilinishidan himoyalanish, uy-joy daxlsizligi, yozishmalarning sir saqlanishi (12-modda).

Ikkinchi guruhga fuqaroviy huquqlar kiradi: shaxsning huquq sohibi ekanligining tan olinishiga bo'lgan huquqi (6-modda); davlat huquqida erkin harakatlanish va turarjoyni erkin tanlash huquqi (13-modda); siyosiy

boshpana so'rash huquqi (14-modda); fuqarolikni olish huquqi (15-modda); nikohga kirish va oila qurish huquqi (16-modda) mulkka ega bo'lish huquqi (17-modda).

Uchinchi guruhga siyosiy huquq va erkinliklar kiradi: fikrlash, vijdon, din erkinligi (18-modda); e'tiqod va uni bayon etish erkinligi (19-modda); tinch yig'ilishlar o'tkazish va uyushmalarga birlashish erkinligi (20-modda); mamlakatni boshqarishda ishtirok etish huquqi (21-modda).

Nihoyat, to'rtinchi guruh iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar, ya'ni, mehnat qilish va erkin kasb tanlash huquqi, teng mehnat uchun teng haq olish huquqi, kasaba uyushmalariga birlashish huquqi, dam olish huquqi, muayyan hayotiy darajaga bo'lgan huquq, ilm olish huquqi (22-28-moddalar).

Demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan va jahon hamjamiatiga a'zo bo'lgan har bir davlat o'z fuqarolari uchun yuqorida sanab o'tilgan huquq va erkinliklarni ta'minlashni zimmasiga oladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida mamlakatimizning inson huquqlariga, demokratiya va ijtimoiy adolat g'oyalariga sadoqatli ekanligi e'lon qllingan.

Davlat har bir inson uchun lozim bo'lgan munosib hayot darajasini ta'minlab berishi lozim. Bunda har bir kishining turarjoy sharoiti, ish bilan bandligi, moddiy ta'minoti, ta'lim-tarbiya va iim olish imkoniyati, ijtimoiy sug'urta qilinishi, tibbiy yordami olishi, madaniy o'sishi uchun sharoit yaratilganligi va boshqalar nazarda tutiladi.

Davlat bilan shaxsnинг o'zaro munosabatlarini tartibga solishda shaxs (fuqaro)ning huquqiy maqomi muhim rol o'ynaydi. Shaxs (fuqaro)ning huquqiy maqomi deganda shaxsnинг muayyan siyosiy-huquqiy holatini belgilash maqsadida davlatning qonunlarida mustahkamlangan huquqlar, erkinliklar va majburiyatlardan yig'indisi tushuniladi.

Huquqiy maqom yuksak qadriyat darajasidagi huquqiy voqelik bo'lib, shaxsnинг jamiyatdagi, fuqaroning davlatdagi nufuzli o'rnini, ahamiyatini aks ettiradi. Shaxsnинг huquqiy maqomi asosini uning konstitutsiyaviy maqomi, ya'ni o'ta muhim huquqlari, erkinlik va majburiyatlari yig'indisi tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek: "... inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" (13-modda).

Jamiyatda inson manfaatlari va farovonligini ta'minlashning asosiy jihatlari Konstitutsiya va mamlakatimiz qonunlarida belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiriladi" deb ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston davlat siyosatida inson manfaatlari ustuvorligini

ta'minlashning huquqiy kafolatlari aholini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan qabul qilingan qonunlar, qonun osti hujjatlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Shaxsnинг huquqiy maqomi inson va fuqaroning huquq va erkinliklari ajralmasligi prinsipiiga, ularni chegaralash mumkin emasligiga asoslanadi. Huquqiy maqomning yana bir muhim prinsipi shundaki, unda har bir shaxsga faqat huquqlar berilib qolmasdan, balki shunga yarasha majburiyatlar ham yuklatiladi. Mazkur prinsip har bir kishida ham huquq, ham majburiyat mavjud bo'lishini aks ettirib qolmasdan, shuningdek ko'pchilik huquqdar ayni bir vaqtning o'zida majburiyat (ba'zilari huquqiy ma'nodagi, boshqalari – ma'naviy, axloqiy ma'nodagi majburiyatlar) xususiyatiga ega bo'lishini ifoda etadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnat qilish huquqi mustahkamlangan (37-modda). Bu huquq bir vaqtning o'zida shaxsnинг jamiyat oldidagi burchi, majburiyati hamdir. Asosiy qonunning 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simllk va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish to'g'risidagi qoida belgilangan. Bu qoida bir vaqtning o'zida ham huquq, ham majburiyatdir. Yana bir misol: "Mulkdor mulkiga o'z xoxishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqdarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni buzmasligi shart" (54-modda). Bu yerda ham huquq bilan majburiyat birligi, hamohangligi yaqqol ko'rinish turibdi.

Inson bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda qonun ustuvor bo'lishi lozim. Qonun ustuvorligi tamoyili avvalo davlatning huquq yaratish, qonun ijodkorlik faoliyatida, davlat hokimiyyati va boshqaruvi idoralari faoliyatida izchil amalga oshirilishi shart. Davlat idoralarining inson huquqlariga oid yuridik qoidalar yaratish borasidagi faoliyatida qonun ustuvorligi tamoyilidan har qanday chekinish fuqaroning davlatga va qonunga ishonchszligini keltirib chiqaradi. Davlat boshqaruvi, ayniqsa, mahalliy hokimiyyat idoralarining huquqiy hujjatlari qonunga zid bo'lib qolsa, fuqarolarning huquqlari va boshqa manfaatlari zavol topishi mumkm. Bunday hollarda boshqaruv va mahalliy hokimiyyat idoralarining o'zboshimchaligi, inson huquqlarini oyoq osti qilish vaziyati vujudga keladi. Qonunlar faqat fuqarolar amal qilishi uchun yaratiladi, deb tushunmaslik kerak. Qonun davlat hokimiyatining barcha bo'g'inxilar uchun, boshqaruv va mahalliy davlat idoralari uchun, mansabdor shaxslar uchun ham birdek qatiy majburiy va ustuvor bo'lmog'i darkor.

Qonun ustuvorligi tamoyilining tub ma'nosи shundaki, jamiyat hayotidagi eng muhim, asosiy ijtimoiy munosabatlар aynan qonun bilan tartibga solinadi. Bundan xulosa: hamonki inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekan, demak, inson huquqlari, erkinligi hamda manfaatlari bilan

bog'liq hamma masalalar faqat qonun bilan belgilanishi talab etiladi. Dunyodagi demokratik rivoj topgan ko'pgina davlatlarda bu talabga qat'iy rioxoya etiladi. Inson huquqlari, erkinlik va majburiyatlarini turli idoraviy hujjatlar bilan emas, balki qonun vositasida mustahkamlash orqali shaxsning yuksak yuridik maqomiga erishish mumkin. Zero, qonun nafaqat shaxsning bunday maqomini mustahkamlaydi, balki unga oliy darajada kafolat ham beradi.

Huquqiy davlatda uning fuqaro bilan o'zaro munosabatlarini qonun yordamida tartibga solish shunday sifatlarga ega bo'ladiki, davlat, uning idoralari, mansabdar shaxslar butun jamiyatga xizmat qiladigan, inson va fuqaro oldida mas'uldirlar; insonni, uning hayoti va sog'ligi, shaxsiy daxlsizligi va xavfsizligi, boshqa huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini oliv qadriyat deb bilib, ularni har qanday tajovuz va tazyiqdan muhofaza etadilar. Bu – davlat zimmasidagi majburiyatdir. Shuningdek, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshiradi. Ayni vaqtida, fuqarolarning davlat va jamiyat oldidagi majburiyatları haqida ham uggirib o'gish joizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida ta'kidlanishicha, O'zbekiston fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va majburiyatları bilan o'zaro bog'liq sirlar. Davlat idoralari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul bo'lganlaridek, fuqarolar ham davlat oldida mas'uldirlar.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. Demokratiya va huquqiy davlatchilik o'zboshimchalik va mas'uliyatsizlik bilan sig'isha olmaydi.

Davlat bilan shaxsning o'zaro huquq va majburiyatlar orqali bog'liqligi shuni anglatadiki, bunda davlat va inson (fuqaro) o'zaro munosabatda teng huquqli subyektlar sifatida maydonga chiqadilar. Ularning huquqiy hamkorligi asosida manfaatlар mutanosibligi va uyg'unligi yotadi. Biron bir maifaatga ustunlik berish o'zaro munosabatdagi huquqiy muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Davlat shaxsning huquqiy holatini belgilab, uni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga olar ekan, o'z navbatida fuqarolardan huquqqa muvofiq harakat qilishni, qonunlarga qat'iy rioxoya etishni talab eta oladi. Shu bois davlat o'zining fuqarolarga tegishli talablarini majburiyatlar tizimi tarzida ifodalab, ularni bajarmaganlik uchun muayyan yuridik va axloqiy javobgarlik choralarini belgilaydi. Davlat siyosiy hokimiyyat sohibi sifatida fuqarolar tomonidan o'z huquq va majburiyatlarini erkin bajarishlari uchun zarur bo'lган maxsus yuridik mexanizmlarni yaratib berishi lozim.

Shunday qilib, "davlat – fuqaro" munosabatlari o'zaro mas'ullik tizimi zamiriga qurilib, unda bir tomonning huquqiga ikkinchi tomonning

majburiyati, va aksincha, birining majburiyati qarshisida ikkinchisining huquqi qarama-qarshi turadi. Mazkur munosabat subyektlarining huquq va majburiyatlar tizimi davlat bilan fuqaroning bir-biri oldida o'zaro mas'ulligini ta'minlaydi. Fuqarolarning qonunlarga qatiy amal qilishi, o'zlarining jamiyat va davlat oldidagi ijtimoiy va yuridik mas'uliyatini anglab yetishi jamiyatning yetukligi, davlatning ma'rifiylig'i va undagi huquqiy asoslarning mustahkamligidan yorqin dalolatdir. Davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlari yuqoridagi tamoyillardan tashqari yana ijtimoiy adolat, insonparvarlik, chinakam demokratizm, qonuniylik, inson shaxsining huquqiy jihatdan qatiy va ishonchli muhofazalanganligi, qonun bilan taqiqlanmagan hamma narsaga ruhsat etilishi va aybsizlik tamoyillariga tayanadi. Davlat inson huquqlari va erkinliklari amalga oshishi uchun tegishli yuridik, siyosiy-iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy-ruhiy kafolatlarni vujudga keltirishga majbur. Inson huquqlarini muhofaza etish kafolatlari tizimi, avvalo, qonunchilikdan boshlanadi. Har qanday qonunni yaratishda shaxs manfaatlari va huquqlari ustuvorligi inobatga olinishi kerak. Shaxsning huquq va erkinliklari samarali ro'yobga chiqarilishi uchun huquqni muhofaza etuvchi idoralar tizimi (sud, prokuratura, millitsiya, advokatura) qat'iy, aniq va sobitqadamlik bilan faoliyat ko'rsatishi lozim. Bu tizimda sud yetakchi o'rinni egallaydi. Sud adolat posboniga aylanishi, haqiqatni qaror toptiruvchi, inson huquqlarini qo'riqlovchi idora sifatida maydonga chiqishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning VI sessiyasida (1996-yil 29-avgust) ta'kidlaganidek: "Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlарини himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim". Sudning o'rni va roliga qarab jamiyatning demokratik darajasiga baho beriladi. Fuqarolarning sud muhofazasiga murojaat etish imkoniyati inson huquqlarini ta'minlashning muhim kafolatidir. Bu o'rinda "fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyatga ega. Sud muhofazasi tizimida Konstitutsiyaviy sud alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda demokratik islohotlar chuqurlashib borgani sayin inson huquqlarini ta'minlovchi tashkiliy tuzilmalar va boshqa maxsus institutlar qaror topmoqsa. Masalan, 1995-yil 23-fevralda Oliy Majlisning inson huquqlarini bo'yicha Vakili lavozimi ta'sis etildi va bunday vakil saylandi. 1996-yil 26-aprelda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 29-avgustdagagi O'zRQ – 441-soni qarori asosida qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. 2017-yil 11-dekabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va YXHTning O'zbekistondagi loyihalari Koordinatori hamkorligida "Inson huquqlari – Konstitutsiya va O'zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi nigohida” mavzusida xalqaro konfrensiya tashkil etildi. Konfrensiya butun jahonda boshlangan Inson huquqlari bo‘yicha Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganligining 70 yilligini nishonlashga tayyogarlik ko‘rish doirasida amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi mazkur sohada 70 dan ortiq xalqaro hujjalarga qo‘shilganligi ta’kidlab o‘tildi.

Mazkur institutlarning samarali va faol ishlashi mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini sobitqadamlik bilan ta’minlashning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Inson, jamiyat, davlat tushunchalariga ta’rif bering?
2. Inson bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni izohlang?
3. Inson huquqlarini nechta avlodni mavjud?
4. Inson huquqlari va fuqarolik huquqlari to‘g‘risida ma’lumot bering?
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan huquq va erkinliklarni qanday guruhlarga ajratib tasniflash mumkin?

6-§. INSON TARAQQIYOTIDA XALQARO TASHKILOTLARNING O‘RNI

REJA:

1. Inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik.
2. Inson huquqlarini himoya qilishda BMTning roli va ahamiyati.
3. BMTning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bilan bog‘liq faoliyati.
4. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va uning faoliyati.

Tayanch so‘z va iboralar: *Xalqaro hamkorlik, xalqaro tashkilotlar, tenglik uchun kurash, nizom, Bosh Assambleya, xavfsizlik kengashi, iqtisoslashgan tashkilotlar, YHXT, Xelsinki yakunlovchi akti, xalqaro tashkilotlar.*

Barcha insonlar teng qilib yaratilgan, ular yaratuvchi tomonidan muayyan daxlsiz huquqlar va shular jumlasidan yashash, ozodlik va baxtgaga intilish bilan ta’minlanganligini biz asll haqiqat deb tan olamiz. Ularning bunday intilishlari va harakatlarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishda jahondagi eng obro‘li va nufuzli BMT, YXHT singari xalqaro tashkilotlarning ahamiyati benihoya kattadir. Ularning ahamiyati tenglik uchun kurash, xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, davlatlar va xalqlar o‘rasida o‘zaro ishonch va teng huquqli hamkorlikni rag‘batlantirish, mahalliy va mintaqaviy nizo-janjallarga yo‘l qo‘ymaslik, harbiy harakatlarni

to'xtatish va ularning oldini olish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish, insonning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik kabi insonparvarlik tamoyillari bilan belgilanadi. Ikkimchi jahon urushi dunyo ahlini ko'z ko'rib, qulqoq eshitinagan daxshatlarga soldi. Urushni boshidan kechirgan davlatlar xalqi inson bilmagan, ular uchun yot bo'lgan qynoq, azob-uqubatlarni, tahoqirlashlarni boshidan kechirdi. Ikkinchchi jahon urushiga sabab bo'lgan nemis fashizmi insoniyatni kelajakda bunday dahshatlarga qarshi birgaliqsa kurash olib borish kerak degan xulosa chiqarishiga olib keldi. Jahonda tenglik va taraqqiyotdan manfaatdor bo'lgan kuchlar fashizmning qayta tiklanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida turli davlatlarning birgalikda harakat qilishlari zarurligini va bu borada qo'llab-quvvatlashni so'rab o'z hokimiyatlari oldiga qat'iy talablar qo'ydilar. Tinchliksevar kuchlar va davlatlarning bu yo'ldagi harakatlari BMTning faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topdi. Urush ofatlaridan avlodlarni xalos etish, inson huquqlariga ishonchni qaror toptirish,adolat va xalqaro huquq tamoyillarini hurmat qilishni ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyotga hamda barchanening turmush sharoitini yaxshilashga yordam berish BMTning asosiy maqsadlaridan biri deb e'lon qilindi. Bu nufuzli va obro'li tashkilotning Nizomiga "Biz Birlashgan Millatlarning xalqlari, insonning asosiy huquqlari, inson shaxsining qadr qimmatiga, hamda katta va kichik millatlar huquqi tengligiga ishonchimizni yana bir karra tasdiqlab, BMT Nizomini qabul qilishga azmu qaror qildik" degan so'zlar yozilib qo'yildi. Ushandan buyon ancha vaqt o'tishiga qaramay bu maqsadlar hozirgi kun uchun ham muhim ma'nova ahamiyat kasb etmoqda.

BMTning asosiy maqsadlaridan biri – bu Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida qayd qilingan barcha huquqlar va erkinliklarni samarali amalga oshirish va ularga rioxha qilishni ta'minlashdan iborat. Buning uchun BMT barcha a'zo davlatlarning diqqat e'tibori va ularning sa'y-i-harakatlarini, birinchi navbatda, inson huquqlarini va erkinliklarni himoya qilishga safarbar etishlarini rag'batlantirishga qaratmoqda. BMT ixtiyoriy tashkilot bo'lsa-da, biroq uning Nizomida belgilangan me'yorlar va talablarni bajarishda har bir a'zo-davlat mas'uldir. Mas'uliyat BMT tomonidan biror-bir davlatni uning nizomidagi talablarini bajarishga majburlashni emas, aksincha ularning ixtiyoriyligi asosida inson huquqlarini kamsitish yo'lidagi urinishiarga yo'l qo'ymaslik burchini chuqr anglashni ifoda qiladi.

Har bir davlat mamlakatda insonning haq-huquqlari, uning sha'ni va qadr-qimmatiga nomunosib bo'lgan harakatlarni taqiqlash va buni huquqiy jihatdan kafolatlash yo'lida tinmay kurash olib borishi zarur. Bu zaruriyat a'zo-davlatlarning mamlakatda inson huquqlarini kafolatlash sohasida olib beradigan amaliy ishlari natijalaridan kelib chiqadi.

Inson huquqlari va erkinliklari masalasi BMTning 70 tadan ortiq asosiy huquqiy hujjatlarida belgilangan va ifodalangan. Inson huquqlari

Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Pakt (1966-yil), Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt (1966-yil) hamda Fakultativ protokol (1966-yil)lar shular jumlasidandir. Bu tarixiy hujjatlarning har biri inson huquqlari va erkinliklari hamda ularni himoya qilishning zarurligi, yo‘llari, shart-sharoitlarini alohida moddalarda huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

BMTning inson huquqlariga doir qabul qilgan xalqaro hujjatlari mantiqan bir-birini to‘ldiradi va mazmunan boyitadi. Bu moddalarda belgilangan me’yorlar inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan talablarga aslo zid emas. Ular BMT faoliyatining ayrim davrlarida ishlab chiqilgan bo‘lsada, o‘zining mohiyat e’tibori bilan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish maqsadlariga to‘la mos keladi. BMT inson huquqlari va erkinliklariga doir faoliyatini o‘zi ishlab chiqqan va qabul qilgan ana shu tarixiy hujjatlarning talablariga muvofiq ravishda olib borishga harakat qiladi. BMTning Bosh Assambleyasi, Xavfsizlik Kengashi va uning boshqa organlari inson huquqi va erkinliklariga doir masalalarii hal qilishda bu hujjatlarga asoslanadi va ularda belgilangan me’yorlarga amal qiladi. Masalan, Bosh Assambleya o‘zining ko‘plab rezolyutsiya, konvensiya va deklaratsiyalarida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilgan bo‘lib, ularda a’zo davlatlarning diqqat-e’tiborini inson to‘g‘risida, uning sha’ni, qadr-qimmati va erkinligini bimoya qilishga qaratgan. Binobarin, BMT Assambleyasi tomonidan 1959-yilda qabul qilingan “Yosh bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya”, 1965-yilda qabul qilingan “Irqiy kamsitishning hamma shakllarini tugatish haqidagi Konvensiya”larda inson shaxsi, uning huquq va erkinliklari har bir mamlakatda huquqiy jihatdan kafolatlanishi qayd etilgan. “Yosh bola huquqlari haqidagi Deklaratsiya”da onalik va bolalikni himoya qilish, bolalarning mehnati, salomatligi, tarbiyasini huquqiy jihatdan muhofaza etish, ularning irqiy kamsitishiga yo‘l qo‘ymaslik singari huquqlari har bir mamlakatda qonun asosida himoyalanishi zarurligi ta’kidlangan.

Bosh Assambleya xalqaro huquq tamoyillariga taalluqli bo‘lgan inasalalarni ham qarab chiqadi. Bundan maqsad xalqaro huquqning insonparvarlik mohiyatini rag‘batlantirishdir. Shuningdek bundan asosiy maqsad iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, sog‘liqni saqlash, sohalarida xalqaro hamkorlikka yordamlashish hamda irq, jins, til va din tafsuvutlaridan qat‘i nazar, inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini amalga oshirishga ko‘maklashishdir.

Bosh Assambleyaning o‘z vazifalarini bajarishga yordam beradigan komitetlari orasida huquqiy masalalar bilan shug‘ullanadigan komitet ham faoliyat ko‘rsatadi. Komitet faoliyatida xalqaro huquqqa doir masalalar bilan bir qatorda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish masalalari ham

muhim o'rın egallaydi. Komitet doimiy ravishda Bosh Assambleyaga inson huquqlarini himoya qitish to'g'risida axborotlar, tavsiyalar berib turadi.

BMTning Bosh Assambleyasi singari uning Xavfsizlik Kengashi ham insonning huquq-erkinliklarini himoya qilish bilan bog'liq maqsadlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xavfsizlik Kengashining inson huquqlarini himoya qilishga doir maqsadlarini amalga oshirishda unga hisob berib turuvchi yordamchi organlariing ham ahamiyati kattadir. Bunday organlar Xavfsizlik Kengashining turli komissiyalaridan tashkil topgan bo'lib, bu komissiyalarlilg ayrimlari bevosita insonning haq-huquqlari masalalari bilan shug'ullanadi. "Inson haq-huquqlari komissiyasi" BMT Xavfsizlik Kengashining ana shunday komissiyalaridan biridir. Bu Komissiya Xavfsizlik Kengashiga inson huquqlari va erkinliklari masalalariga doir takliflar, tavsiyanomalar va ma'ruzalar beradi.

"Xotin-qizlarning haq-huquqlari komissiyasi" ham Xavfsizlik Kengashiga inson huquqlari masalalariga doir hisob berib turuvchi komissiyalardan biridir. Bu Komissiya ham "Inson haq-huquqlari Komissiyasi" singari Xavfsizlik Kengashiga jahon xotin-qizlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi haq-huquqlarini himoyalash borasida qilingan ishlar to'g'risida hisob berib turadi. O'z navbatida, komissiya xotin-qizlarning haq-huquqlari va erkinliklari, uning himoya qilinishi yoki kamsitilishi bo'yicha tezlik bilan hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar yuzasidan Xavfsizlik Kengashiga tavsiyalar beradi.

BMTning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bilan bog'liq faoliyatida uning ko'plab ixtisoslashgan tashkilotlari muhim o'rın egallaydi. Bunday ixtisoslashgan tashkilotlar tizimida "BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti (YUNESKO)", "BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO)", "BMTning savdo va taraqqiyot masalalari bilan shug'ullanuvchi Konferensiya", "BMTga ko'maklashadigan assotsiatsiyalarning jahon federatsiyasi", "BMTning taraqqiyot dasturi", BMTning Bolalar fondi (YUNISEF)", "BMTning maxsus fondi" singari tashkilotlari alohida ahamiyatga egadir. BMTning bular kabi ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlariing har biri, garchi ular insonning huquqi va erkinliklari masalasi bilan bevosita shug'ullanmasalarda, ayni paytda ular insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohadagi ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydilar.

Insonning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi har bir mamlakatda amal qiladigan qonunlar, huquqiy hujjatlarda u yoki bu darajada aks etadi. Har bir davlat o'z fuqarolarining bunday ehtiyojlarini qondirishda mamlakatda aniq tadbirlarni, vazifalarni belgilaydi, fuqarolar ehtiyojining qondirilishida ro'y beradigan noxush holatlarga qarshi kurash olib boradi. Binobarin, inson ehtiyojlarini qondirish borasida ro'y beradigan salbiy holatlarni bartaraf qilishda mamlakatda amalda bo'lgan huquqiy

kafolatlardan foydalanishga haraqat qiladi. Ularning bunday harakatlari qanday amaliy natijalarga olib kelishidan qat'i nazar, inson ehtiyojlari himoya qilishda qonunlar kuchidan foydalanishning o'zi muhim ahamiyat kasb etadi.

BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari olib boradigan faoliyatning inson huquqlarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati bu nufuzli tashkilot tomonidan qabul qilingai "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro Pakt" ning 22-moddasida juda aniq ifoda qilingan. Bu Paktda, jumladan, shunday deyilgan: "Iqtisodiy va ijtimoiy kengash Birlashgai Millatlar Tashkilotining boshqa organlari, ularning yordamchi organlari va texnik yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtarilgan muassasalarining diqqat-e'tiborini mazkur Paktning ushbu qismida eslatilayotgan ma'ruzalar munosabati bilan paydo bo'layotgan har qanday masalalarga qaratilishi mumkin, zero bu hol ana shu organlar tomonidan vakolatlar doirasida ushbu Paktning asta-sekin amalga oshirishga ko'maklashishi mumkin bo'lgan xalqaro tadbirlarning qanchalik maqsadga muvofiqligi borasida qarorlar chiqarishda foydali bo'lishi mumkin".

BMT ixtisoslashgan tashkilotlarining inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi roli va ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, ixtisoslashgan tashkilotlar BMTga a'zo bo'lgan mamlakatlarda aholi turli qatlamlarining ehtiyojlarini qondirishda sotsial-iqtisodiy, siyosiy madaniy yordam ko'rsatadi va shu yo'l bilan mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, BMTning "Birlashgan Millatlarning oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti" xalqlarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida ocharchilik va qashshoqlik ro'y bergan mamlakatlarga moddiy yordamlar ko'rsatadi. BMTning "Bolalar fondi" (YUNISEF) bolalarning moddiy va sotsial hayat sharoitlarini yaxshilash yo'lida hukumatlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlarga yordam berish maqsadida tuzilgan. Fondning faoliyatida sog'lijni saqlash sohasidagi dasturlar asosiy o'rinni egallaydi. Bunday dasturlar yordamida bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularning o'limini qisqartirish ishiga ko'mak berish, bolalarning hayoti uchun zararli bo'lgan mehnatga jalb qilinishiga yo'l qo'ymaslik va boshqa shular singari muammolarni hal etish bo'yicha muhim tadbirlar amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari o'z faoliyatida inson huquqlarini kamsitishga olib keluvchi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillarning rivojiga to'sqinlik qilish maqsadlariga xizmat qiluvchi yetakchi siyosiy kuchlar sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, BMTning ixtisoslashgan tashkilotlaridan biri bo'lgan "Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ko'maklashadigan assotsiatsiyalarning jahon federatsiyasi inson huquqlarini xurmatlash va ularga rioya etish, dunyodagi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitni yaxshilash manfaatlarini ko'zlab milliy assotsiatsiyalarning faoliyatlarini

uyg‘unlashtirish maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. BMTning bu ixtisoslashgan tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ko‘maklashuvchi assotsiatsiyalarining Yalpi sessiyalarini o‘tkazib turadi va bu sessiyalar ishida inson huquqlarini himoya qilishga doir masalalarni vaqt-i-vaqt bilan muhokama etib, tegishli qarorlarni qabul qiladi.

Uchinchidan, BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari insonning iqtisodiy, sotsial va ma’naviy hayotini yaxshilashga ko‘mak berishi bilan, bunday yordam oz yoki ko‘p darajada bo‘lishidan qat‘i nazar, insonning sha’ni, uning qadr-qimmati, erkinliklari va boshqa huquqlarining kamsitilishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qiladi. Bunday to‘sqinlik bevosita huquqiy me’yorlarni qo‘llash yo‘li bilan emas, balki huquqiy me’yorlarning buzilishiga olib keladigan sharoitlarga yo‘l qo‘ymaslik yoki ularning oldini olish orqali amalga oshiriladi. Binobarin, ixtisoslashgan tashkilotlar insonning hayotini yaxshilash, uning xilma-xil ehtiyojlarini qondirish sohasida qanchalik ko‘p xayrli ishlarni amalga oshirib borsalar, bu ularning shaxsiy va ijtimoiy huquqlaridan foydalanishdagi imkoniyatlarning shunchalik kengayib borishiga yordam beradi.

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) XX-asrning 70-yillari boshlarida Sharq va G‘arb o‘rtasida ko‘p tomonlama hamkorlik va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil qilingan. XX-asrning 90-yillarida xalqaro maydonda ro‘y bergen tub siyosiy o‘zgarishlar YXHTning davlatlararo munosabatlardagi rolining oshishiga, uning huquq va burchiarining yanada kengayishiga olib keldi. Shunga ko‘ra bu tashkilotning 1994-yilda Budapeshtda bo‘lgan Oliy darajadagi uchrashuvi, uni shunchaki oddiy Kengash emas, balki Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti deb atashga qaror qildi. Shundan keyin bu nufuzli xalqaro Tashkilot qatnashchilarining Belgrad, Madrid, Vena kahi shaharlarda qator uchrashuvlari bo‘lib o’tdi. Ularda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik masalalariga doir muhim muammolar muhokama qilindi va qator shartnomalar imzolandi.

Jahonda ro‘y bergen kuchli ijtimoiy-siyosiy, milliy va hududiy o‘zgarishlar Yevropa xavfsizligi uchun yangi dastur ishlab chiqishni taqozo etdi. Shu sababli 1990-yilning noyabr oyida “Yangi Yevropa uchun” nomi bilan ataluvchi Parij Xartiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjat o‘zining ahamiyati jihatidan Xelsinki Yakunlovchi Aktiga tengdir.

Hozirgi kunda bu tashkilot 55 ta a’zo davlatga ega bo‘lib, bularga Yevropadagi hamma davlatlar, AQSh, Kanada hamda sobiq Ittifoq qulashi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlar kiradi. Makedoniya kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. Barcha ishtirokchi davlatlar umumiyligi maqomga ega. Ularning ishtiroki umumiy manfaatlar, qoidalar va me’yorlarga asoslanadi.

YXHTning tashkil topish tarixi XX-asrning 50-yillarga borib taqaladi. 1969-yilda Finlyandiya Yevropada xavfsizlik va hamkorlikka bag‘ishlangan

kengashni Xelsinkida o'tkazishni taklif etdi. Yevropadagi barcha davlatlarga, shuningdek, AQSh hamda Kanadaga taklifnomalar yuborilgan edi. 1972-yilga kelib taklif qilingan davlatlardan 25 tasi mazkur kengashni o'tkazish bo'yicha masalalar tayyorlashga kirishib, Xelsinkida o'tkazilgan bo'lajak kengashga asos solishgandi.

1975-yil 1-avgustda Xelsinkida yig'ilgan 35 davlat boshliqlari Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Xelsinki Yakunlovchi ahdnomasini imzoladilar. Bu yakunlovchi ahdnama Xelsinki kelishuvi nomi bilan mashxur bo'lib, unda ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi munosabat va hukumatlarning o'z fuqarolari o'rtasidagi munosabatlari tamoyillari belgilandi.

Xelsinki Yakunlovchi Akti bilan YXHTning bundan keyingi rivojlanish jarayoniga asos solindi. Uning mazmuni bo'yicha uchta asosiy hujjat ishlab chiqildi.

1. Yevropa xavfsizligiga bog'liq masalalar;

2. Iqtisodiyot, fan va texnika hamda atrof muhit sohalarida hamkorlik;

3. Gumanitar va boshqa sohalarda hamkorlik.

Shu bilan birga bu aktda ahdlashuv bo'yicha YXHT a'zolarining uchrashuvlarini imuntazam o'tkazib turish, hamkorlikni kengaytirish va siyosiy muloqotlarni qo'llab-quvvatlash, yangi qoidalar va me'yorlar ishlab chiqish masalalari nazarda tutildi. Tashkilotga a'zo-davlatlarning uchrashuvlarida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha kelishib olindi, hamda kengash ishtirokchilarining o'zaro harbiy faoliyat va harbiy ma'lumot almashish to'g'risida oldindan ogoh etish yo'li bilan ishonchini mustahkamlash tadbirlari bo'yicha tomonlarning kelishuviga erishiladi. Shu bilan birga ekspertlarning alohida masalalar, jumladan, demokratik institutlar, inson huquqlari, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, atrof muhit, axborot vositalari, fan, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida hamkorlik kabi masalalar bo'yicha uchrashuvlari o'tkazib turiladi.

1990-yilda imzolangan Parij Xartiyasi YXHT tarixida muhim burilish bo'ldi. Sovuq urush masalasi hal bo'lgandan so'ng, YXHTning faoliyati o'zining yangi qirralarini ochishi zarur edi. Xelsinki uchrashuvidan keyin bo'lib o'tgan davlat va hukumat boshliqlarining oliy darajadagi birinchi uchrashuvida qabul qilingan yangi Yevropa uchun Parij Xartiyasi, Yangi sharoitda jahonda YXHTning o'rmini aniqlab berdi. Unda bu tashkilotning kelajak faoliyati uchun yangi yo'nalishlari belgilandi va doimiy harakatdagi yangi institutlar: ya'ni Venada mizolarni (kelishmovchiliklarni) bartaraf qilish bo'yicha Markaz, Varshavada erkin saylovlari bo'yicha Byuro va Pragada Kotibiyyat tashkil qilindi. Xartiyaga asosan tashkilotning uchta asosiy siyosiy maslahatlashuv organi tasdiqlandi. Jumladan, Vazirlar Kengashi, u ishtirokchi davlatlarning tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topadi; Yuqori

mansabdar shaxslar Kengashi. Bu Kengash davlat boshliqlari va hukumatlarining oliy darajadagi muayyan uchrashuvlari asosida ish olib boradi hamda joriy ishlarga rahbarlik qiladi.

1992-yil iyulda qabul qilingan yangi Xelsinki hujjati davlatlarning YXHT doirasida birgalikda harakat qilishlarga yana bir turtki bo'ldi. Ushbu hujjat YXHTning inson huquqlarini himoya qilish ishida va Yevropada yuz berayotgan noxush jarayonni boshqarishdagi faoliyatini yanada kengaytirishning bir qancha amaliy mexanizmini yaratishga imkon berdi. YXHT nizolarni bartaraf qilish va krizislarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Unda kam sonli millatlar ishi bo'yicha Oliy Komissar lavozimi ta'sis etilib, uning zimmasiga etnik darz ketishlari, kamsitishlarni, mintaqalarda nizolar kelib chiqmasligining oldini olish yoki ularni bartaraft etish singari vazifalarni hal qilish yuklangan.

1992-yil dekabrda YXHTning yangi Bosh kotibi lavozimi ta'sis etildi. 1993-yili Venada kengaytirilgan kotibiylar xuddi shu yerda ushbu yilning dekabrida yangi organ – Doimiy Qo'mita (hozirda Doimiy Kengash) tashkil qilindi.

YXHT xalqaro tashkilotining oliy anjumani har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. 1990-1996-yillar davomida to'rt bor ana shunday yirik anjumanlar bo'lib o'tdi. Bular 1990-yil Parijda, 1992-yil Xelsinkida, 1994-yil Budapestda va 1996-yil Lissabonda o'tkazildi. Tashkilotning keyingi sammiti 1999-yil noyabr oyida Istanbul shahrida o'tkazildi va unda O'zbekiston Respublikasi ham ishtirok etdi.

Keyingi yillarda YXHTning imkoniyatlari tobora kengayib bordi. U davlatlar va xalqlar o'rasisida ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolar, kelishmovchiliklarni bartaraft qilish yoki ularning oldini olish maqsadida joylarga o'zining missiyalarini yuborib turdi. Masalan, 1996-yilning fevralida YXHT Serbiya va Chernogoriyaga (Yugoslaviya) nisbatan qo'llagan sanksiyasini bajarish bo'yicha bu yerga o'z missiyasini yubordi. Hozirgi kunda tashkilotning bunday missiyalari Latviyada, Estoniyada, Tojikistonda, Moldovada, Makedoniya Respublikasida, Gruziyada va Saraevoda faoliyat olib bormoqda.

YXHT tashkil topgandan hozirgi kunga qadar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan hududlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan bir qatorda, inson huquqlarini himoya qilish borasida ham muhim ishlarni amalga oshirimoqda. U BMT tomonidan inson huquqlari va ularni himoya qilishga doir barcha hujjatlarni e'tirof etish hamda ularda belgilangan taimoyillarni amalga oshirishga intilmoqda. Uning BMT bilan bu boradagi hamkorligi inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamining oshib borishiga yordam bermoqda.

YXHTning inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'lik tavsiya va ko'rsatmalari hamda qabul qilgan hujjatlari siyosiy ahamiyatga ega bo'lib,

ularga majburiy huquqiy me'yor yoki tamoyil sifatida qarash to'g'ri emas. Bu hujjatlarda belgilangan me'yorlarga va tamoyillarga amal qilishda har bir davlat erkindi.

YXHTning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatida undagi barcha a'zo-davlatlar singari O'zbekiston Respublikasining o'rni va roli ham alohida ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi YXHTning inson huquklari sohasidagi tadbirlarida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bevosita yoki bilvosita ishtirok etib kelmoqda. O'zbekiston YXHTga 1992-yil 26-fevralidan a'zo bo'lib kirdi va uning tomonidan qabul qilingan hujjatlarni tan oldi. 1995 yil oktabrda Toshkentda YXHTning Markaziy Osiyo bo'yicha Byurosi ochildi. Ushbu xalqaro tashkilot bilan Respublikamizning muntazam aloqasi inson huquqlarini amalda himoya qilishga katta yordam beradi.

YXHTning Demokratik institut va inson huquqlari bo'yicha Byurosi inson huquqlarini himoya qilish sohasida vujudga keladigan kamsitish, tazyiq, nizo, taqiq hamda boshqa salbiy holatlarni bartaraf etadi va oldini oladi. Bu masalalarga bag'ishlangan seminar va forumlarda Respublikamiz muntazam ravishda ishtirok etmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi DIIXB tomonidan inson huquqlari (1995-yil.), qonun ustuvorligi (1995-yil.), vijdon erkinligi(1996-yil.), sud tizimi faoliyatini takomillashtirish (1996-yil.) masalalari bo'yicha o'tkazilgan forumlarda faol ishtirok etdi. Bu forumlarda O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning imustaqil subyekti sifatida ishtirok etib, inson huquqlari va uni himoya qilish masalasida o'zining aniq maqsadga yo'naltirilgan nuqtayi nazarini bayon etib kelmoqda.

Respublikamiz YXHT kengashlarida o'zining vakillari bilan ishtirok etadi. Bu ular uchun ham amaliy, ham nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston o'z mustaqilligining qisqa davrida jahon hamjamiyatida va ayni paytda YXHTda o'zining munosib o'rni ega bo'ldi. Bu, bir tomonдан O'zbekistonning xalqaro maydondag'i obro'-e'tiborini oshishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan esa, uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojlanishida keng imkoniyatlarining ochilishini ta'minladi.

Xulosa qilib aytganimizda, O'zbekiston BMT va YXHT ning teng huquqli a'zosi sifatida bu nufuzli tashkilotlarning faoliyatida faol ishtirok etib, a'zo-davlatlar bilan keng ko'landa hamkorlikni rivojlantirmoqda. O'z navbatida, YXHT O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi yuksak mavqeyiga katta ishonch bildirib, bu mintaqada xavfsizlik va hamkorlikni rivojlantirishga, inson huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi ishlarni kengaytirishga harakat qilmoqda.

1. Xalqaro tashkilotlar:

BMT tarkibida:

- Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti;

- o Xalqaro mehnat tashkiloti;
 - o Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti;
 - o Butunjahon intellektual mulk tashkiloti;
 - o Ta’lim, fan, madaniyat masalalari bo‘yicha BMT tashkiloti
- (YUNESKO;)

- o Atom energiyasi bo‘yicha agentlik xalqaro dengiz tashkiloti;

- o Xalqaro dengiz tashkiloti;

- o Xalqaro sayyohlik tashkiloti;

2. Asosiy mintaqaviy tashkilotlar:

- Afrika birligi tashkiloti;

- Arab davlatlar ligasi;

- Amerika davlatlari tashkiloti;

- Yevropa ittifoqi;

- Janubiy Sharqi Osiyo mamlakatlari asatsatsiyasi (ASEAN);

- Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO);

- Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi;

- Shanxay bitimi;

Hukumatlararo Xalqaro Tashkilot – umumi maqsadga erishish uchun shartnomalar asosida ta’sis etilgan, doimiy organlariga ega bo‘lgan va a’zo davlatlar suverinetitini xurmat qilib, faoliyat yuritadigan davlatlar uyushmasi.

Hukumatlararo xalqaro tashkilot belgilari:

- Uch va undan ortiq davlatlar a’zoligi;

- Xalqaro ta’sis shartnomasining mavjud bo‘lishi;

- Doimiy organlari va shtab kvartirasiga egaligi;

- A’zo davlatlar suverinetitini xurmat qilish;

- Ichki ishlarga aralashmaslik;

– Qarorlar qabul qilish va ularning yuridik kuchi tartibini o’rnatish va boshqalar.

Xalqaro tashkilotlarning klassifikatsiyasi

Nohukumatlararo xalqaro tashkilotlar (NXT)

– Siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy, kasaba uyushmalari tashkilotlari.

– Xotin – qizlar tashkilotlari, shuningdek oila va bolalarni ximoya qilish bo‘yicha tashkilot.

- Yoshlar, sport, ilmiy, madaniy-oqartuv tashkilotlari.

– Matbuot, kino, radio, televideniye sohasidagi tashkilotlar va boshqalar.

Hukumatlararo xalqaro tashkilotlar (XXT)

– Faoliyat predmeti bo‘yicha – siyosiy, iqtisodiy, moliya-kredit, savdo, sog‘liqni saqlash, madaniyat masalalari bo‘yicha va boshqalar.

– Ishtirokchilar davrasi bo‘yicha – universal, submintaqaviy, mintaqalararo.

- Yangi a'zolar qabul qilish tartibi bo'yicha – ochiq, yopiq.
- Faoliyat sohasi bo'yicha – umumiy vakolatiga ko'ra, maxsus vakolatiga ko'ra.
- Faoliyat maqsadlari va prinsiplari bo'yicha – qonuniy, qonunga zid.
- A'zolar soni bo'yicha – jahon miqiyosidagi, guruhiy holda faoliyat yurituvchi tashkilot hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik deganda nimani tushunasiz?
2. BMT to'g'risida ma'lumot bering.
3. BMTning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bilan bog'liq faoliyatni nimirdan iborat?
4. Bugungi kun dunyoda qanday xalqaro tashkilotlar mavjud?
5. Mintaqaviy tashkilotlar deganda nimani tushunasiz?

7-§. INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

REJA:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining mazmuni va ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini tuzilishi, tarixiy hujjat, xalqaro inson huquqlari kuni, deklaratsiya moddalari, deklaratsiya g'oyalari, universal hujjat.*

Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill inson huquqlarini himoya qilish borasida qabul qilingan eng asosiy hujjatlar majmuyi bo'lib, u bu sohada keyimchalik qabul qilingan barcha hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill o'z ichiga inson huquqlari sohasidagi BMT tomonidan ishiab chiqilib, qabul qilingan asosiy hujjatlarni birlashtirgan. Bu xalqaro hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil);

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil);

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda unga ilova qilingan

I. Fakultativ Bayonnomma (1966-yil) va O'llim jazosini bekor qilishga qaratilgan

II. Fakultativ Bayonnomma (1989-yil).

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi, tuzilishi, mazmuni va ahamiyati. Birlashgan Miliatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi insонning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilovchi dastlabki muhim tarixiy hujjat hisoblanadi.

2018-yilda ushbu Deklaratsiya qabul qilinganligining 70 yilligi butun dunyoda keng nishonlanishi to‘g‘risida BMT Bosh kotibining murojaati e’lon qilindi. Ushbu murojaatga javoban, takidlash kerakki, Konstitutsiyamizda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy prinsiplari o‘z aksini topgan. 2018-yil ushbu deklaratsiyasning 70 yilligi butun dunyoda keng nishonlanadi. O‘zbekistonda ham inson huquqlariga oid birinchi universal xalqaro hujjat bo‘lgan mazkur deklaratsiyaning mazmun-mohiyatini atroflicha targ‘ib etish uchun maxsus davlat dasturi qabul qilindi.

Inson huquqlari to‘g‘risidagi mazkur hujjat qabul qilinishidan oldin bu sohada muhim ishlar amalga oshirilgan edi. BMTning tashkil topishi va uning Nizomining qabul qilinishi inson huquqlari sohasidagi davlatlararo munosabatlarni yangi sifat darajasiga ko‘tardi. BMT Nizomi xalqaro munosabatlar tarixida inson huquqlari bo‘yicha davlatlarning keng hamkorligiga asos solgan birinchi ko‘p tomonlama shartnoma bo‘ldi. Ammo, BMT Nizomini ishiab chiqish va qabul qilish jarayonida inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan davlatlar turlicha yondashuvda ekanliklari namoyon bo‘lib qoldi.

1946-yilda BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasi tashkil etildi, unga inson huquqlari sohasida universal hujjat, ya’ni Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ishiab chiqish vazifasi yuklatildi. Komissiya huzurida Deklaratsiya loyihasi bo‘yicha ishcni guruh tuzildi. Bu ishchi guruh 1947-1948-yillar mobaynida Deklaratsiya loyihasi ustida ishlashdi va Deklaratsiya loyihasi 1948-yili 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi a’zolari tomonidan qizg‘in tortishuvlardan keyin qabul qilindi. 1950-yil Bosh Assambleya 10-dekabrn “Xalqaro inson huquqlari kuni” deb e’lon qildi.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 400 dan ortiq tillarga va dialektlarga tarjima qilingan va Ginessning rekordlar kitobiga kiritilgan. Shuning uchun ham Deklaratsiya eng ko‘p tilga tarjima qilingan hujjat bo‘lib, haqiqatan ham jahondagi eng “universal” hujjat hisoblanadi.

Deklaratsiya loyihasi barcha mintaqalar va huquqiy an’analarning vakillari tomonidan tayyorlangan. Vaqt o‘tishi bilan u mamlakatlarning hukumatlari hamda xalqlari o‘rtasidagi o‘ziga xos shartnoma sifatida ko‘rilishi lozim. Deklaratsiya, shuningdek, aholining barcha qatlamlarini ham qamrab olgan inson huquqlarini himoya qiluvchi infratuzilmani kengaytirish uchun asos bo‘lib qoldi.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” muqaddima va 30 moddadan iborat bo‘lib, unda insонning asosiy huquqlari, qadr-qimmati,

inson shaxsining benazirligi hamda erkaklar bilan ayollarning teng huquqligi o‘z ifodasini topgan. Deklaratsiyaning 1-moddasida huquqiy jihatdan asoslangan falsafiy fikrlar bayon etilgan bo‘lib, unda “Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur” deyilgan.

Deklaratsiyaning bu moddasi uning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Unga ko‘ra, birinchidan, inson o‘zining erk, huquq, tenglik singari ajralmas huquqlaridan mahrum qilinmasligi va ikkinchidan, inson aql va vijdon sohibi sifatida yer yuzidagi boshqa mavjudotlardan farq qilib, o‘z taqdiri va hayotini o‘zi erkin belgilashi lozim.

2-moddada har bir inson huquq va erkdan foydalanishda teng bo‘lishi, u Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo‘lishi quyidagicha bayon etilgan: “Har bir inson, biror-bir ayirmachiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e’tiqodi yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqisidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlaridan qat’i nazar, mazkur Deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquq va erkinliklar sohibi bo‘lishi kerak”.

3-moddada har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi ta’kidlanadi. Bu modda 4-, 21-moddalarga kirish bo‘lib, bularda fuqarolik va siyosiy huquqlar ifodalangan: qullik yoki qaramlikdan saqlanish huquqi; azob-uqubatga yoki vahshiyarcha jazoga mustahiq bo‘imaslik huquqining qonun tomonidan bab-baravar muhofaza etilishi; o‘zboshimchalik bilan qamoqqa olinishdan, ushlab turish va quvg‘in qilinishdan saqlanish huquqi; qo‘yilgan aybning asoslanganligini aniqlash uchun tenglik asosidagi ijtimoiy adolatning barcha talablariga rioya qilish va uming sud tomonidan holisona ko‘rib chiqilish huquqi; shaxsiy yoki oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashishdan muhofaza qilinish; uy-joy va xatlardagi sirlarning daxlsizligi huquqi; davlat hududida erkin yurish va o‘ziga istiqomat joyini tanlash erki; boshqa mamlakatda boshpana olishdan foydalanish huquqi; fuqarolik huquqi; nikohdan o‘tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi; erkin fikr, vijdon va din erkinligi huquqi; maslak erkinligi va uni ifodalash huquqi; tinch yig‘inlar o‘tkazish va uyushmalar tuzishda qatnashish huquqi; mamlakatni boshqarishda ishtirok etish huquqi va boshqa huquqlardan foydalanish shular jumlasidandir.

Deklaratsiyaning 23-27-moddalari insonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini muhofaza qilishga bag‘ishlangan. Bu moddalarda har bir insonning mehnat turini o‘z erki bilan tanlashi, ishsizlikdan muhofaza qilinishi, oilani ta’minlaydigan darajada adolatli daroinad olish imkoniyatiga ega bo‘lishi, jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishi singari huquqlari o‘zining aniq ifodasini topgan.

Deklaratsiyaning 28-30-moddalarida esa, Deklaratsiyadagi huquqlarni amalga oshirish yo'llari belgilab berilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tuzilishiga ko'ra deklarativ hujjat bo'lsa-da, uning normalari o'ziga xos xalqaro odat normalari darajasigacha ko'tarilmoqda, Buni quyidagi misollar tasdiqlaydi.

BMTning 1968-yilda Eronda bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha birinchi umumjahon anjumanida qabul qilingan Tehron konferensiyasi hujjatlarda Deklaratsiyaning ahamiyatiga alohida baho berilar ekan, shunday deyilgan: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi jahon xalqlarining, xususan, har bir insonning ajralmas va mustahkam huquqlari bo'yicha umumiyl bitimni o'zida namoyon qilib, xalqaro hamjamiyatning barcha a'zolari uchun majburiydir".

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida shakllangan g'oyalar keyinchalik xalqaro maydonda qabul qilingan ko'plab xalqaro hujjatlarda o'zining huquqiy va mantiqiy rivojini topdi. 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, unga fakultativ protokollar hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1965-yilgi, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risida xalqaro konvensiya, 1979-yilgi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya, 1984-yilgi Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya, 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risida konvensiya kabi inson huquqlari bo'yicha BMTning asosiy hujjatlari, shuningdek, 1951-yilgi Qochoqlar to'g'risidagi konvensiya, 1951-yilda qabul qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining teng taqdirlov to'g'risidagi konvensiyasi. 1974-yilda qabul qilingan "Qurolli to'qnashuvlar davrida va favqulorra holatlarda xotin-qizlar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya" 1975-yilda e'lon qilingan "Ilmiy-texnikaviy yutuqlardan tinchlik va insoniyat farovonligi manfaatlari yo'lida foydalanish to'g'risidagi deklaratsiya", 1981-yilda e'lon qilingan "Din yoki e'tlqid uchun kamsitishning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi deklaratsiya" kabi hujjatlar shular jumlasidandir.

"Barcha davlatlar va xalqlar erishishga harakat qilishi lozim bo'lgan andoza" sifatida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar tomonidan konstitutsiyalarining, inson huquqlariga oid turli qonunlari va hujjatlarining alohida qoidalari ishlab chiqish uchun asosiy huquq manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. 1948-yildan keyin qabul qilingan 110 dan ortiq milliy konstitutsiyalarda Deklaratsiya qoidalari yoki uning ta'siri ostida kiritilgan fundamental huquqlar ro'yxati mavjud. Unda huquqiy yo'naliishlar belgilangan bo'lib, u mezon (etalon) sifatida barcha hukumatlarga inson huquqlarini himoya qilishdagi taraqqiyot darjasini o'lchashga imkon beradi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalari aks ettirilgan va u Deklaratsiyaga to'la mos keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qllindi?
2. Qaysi kun xalqaro inson huquqlari kuni deb qabul qilingan?
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tuzilishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi moddalarida nimalarga e'tibor berilgan?

8-§. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQLARI REJA:

1. O'zbekistonda inson huquqlari sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
2. O'zbekistonda mustaqillik yillarda inson huquqlariga oid qonunchilik tizimining shakllanishi.
3. Inson huquqlari sohasidagi ta'lif – inson huquqlari madaniyatini shakllantirishning asosi.
4. O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorligi

Tayanch so'z va iboralar: *Davlat siyosati, rivojlanish yillarining 2 bosqichi, konstitutsiya, inson huquqlari eng oliy qadriyat, inson huquqlarining tamoyillari, qonunchilik tizimi, fuqarolarning teng huquqligligi, sud-huquq islohotlari, xalqaro munosabatlari, umuminsoniy qadryat, o'zaro tinchlik, o'zaro foyda, ochiqlik, shartnomalar, bitimlar, ixtisoslashtirilgan muassasalar.*

O'zbekistonda inson huquqlari sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yillarini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin bo'lib, bu uch bosqichning har birida inson huquqlari ham o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega.

Birinchi bosqich – 1991-2000-yillar: birinchi darajali islohotlar va o'tish davri islohotlari va milliy davlatchillik asoslarini shakllantirish. Bu davrda O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurishning huquqiy va tashkiliy asoslari, bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilgan asoslari barpo etildi, inson huquqlari va erkmliklarini rag'batlantirish, ularga rioya etish va himoya qilish tizimi shakllantirildi. Ayni shu yillarda O'zbekiston BMTning inson huquqlariga oid oltita asosiy hujjalari qo'shildi, inson huquqlari

bo'yicha milliy institutlar. inson huquqlari sohasida uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich – 2001-2015-yillar: faol demokratik yangilanish va mamlakatni modernizatsiyalash davri. Bu davr, birinchidan, umum davlat va mintaqalar manfaatlarni ifodalovchi ikki palatali parlamentning tashkil etilishi va faol ishlashi asosida qonunchilik hokimiyati roli va ta'sirining kuchayishi; ikkinchidan, davlat miqyosidagi muhim qarorlar qabul qilinishida siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatini institutlarining roli va ta'sirining oshishi, davlat tuzilmalari ustidan jamoatchilik nazorati va monitoringini amalga oshirish borasida nodavlat notijorat tashkilotlari nufuzi va ahamiyatining oshishi; uchinchidan, sud-huquq tizimini liberallashtirish va insonparvarlashtirishga qaratilgan tub islohotlarning amalga oshirilishi, jazo tizimidan o'lim jazosining chiqarib tashianishi, sud hokimiyati mustaqilligi va samaradorligining mustahkamlanishi; va to'rtinchidan, inson huquqlari ta'limi sohasida keng axborot-ma'rifiy ishlarning amalga oshirilishi, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirish bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich 2015-yildan hozirga qadar: Umumxalq muhokamasdan so'ng besh yilga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi, 2017-yil mamlakatimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilindi, mamlakatimizning barcha hududlarida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi, Insonpavarlik tamoyillaridan kelib chiqib, shaxsnı qamoqda saqlash bilan bog'liq ko'plab holatlar qayta ko'rib chiqildi, mamlakatimizda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda, sud organlarining chinakam mustaqilligi ta'milnanmoqa.

Inson huquqlarini himoya qilish – Konstitutsiyaning asosiy prinsipi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'naliishi va pirovard maqsadi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda inson huquqlari to'g'risidagi qonunlar tizimi shakllandı. Konstitutsiya, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro bitimlarda mustahkamlab qo'yilgan xalqaro nomalar va andozalar inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston qonunlarining negizi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid yuzdan ortiq qonunlar qabul qilingan. Ayni paytda mamlakatimiz inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro shartnoma va konvensiyalarga qo'shilgan. Ular inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini tashkil etadi va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning faoliyati, ularning huquqiy maqomi, vakolatlari va majburiyatları, shuningdek, qator boshqa jihatlarini ham tartibga soladi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Konstitutsiyada inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasidagi o'z siyosatini quyidagi tamoyillar negizida qurmoqda:

birinchi tamoyil – inson huquqlari sohasida umume'tirof etilgan g'oyalar va qadriyatlarga hamda inson huquqlari sohasida o'zining xalqaro majburiyatlariga sodiqlik;

ikkinchi tamoyil – inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyatini shakilantirishga asoslangan asosiy milliy manfaatlardan kelib chiqishi;

uchinchi tamoyil – shaxs manfaatlari ustuvorligini ta'minlashda O'zbekiston Konstitutsiyasida inustahkamlangan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining muvozanati tamoyili;

to'rtinchi tamoyil - ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va sud-huquq sohalaridagi barcha islohotlarning tadrijiy bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va tizimlilik xususiyati;

beshinchi tamoyil – alohida toifadagi shaxslar: bolalar, yoshlar, ayoliar, nogironlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilishning ustuvorligi;

oltinchi tamoyil – ochiqliq va oshkorlik;

yettinchi tamoyil – davlatning fuqarolik jamiyatni institutlari va OAV bilan ijtimoiy hamkorligi;

sakkizinchi tamoyil – inson huquqlari sohasida faol xalqaro hamkorlik.

O'zbekistonda mustaqillik yllarida inson huquqlariga oid yahlit qonunlar tizimi shakllandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va boshqa xalqaro bitimlarda mustahkamlab qo'yilgan xalqaro andozalar inson huquqlari sohasidagi milliy qonunlarning negizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi katta miqdordagi normativ-huquqiy hujjatlar (Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslar, qonunlar, qonunosti hujjatlari)dan tashkil topgan. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada inson huquqlari bo'yicha alohida bo'lim mavjud bo'lib, unda Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan inson huquqlarining barcha turlari, barcha qirralari o'z aksini topgan. Konstitutsiyaga muvofiq kompleks qonunlar qabul qilingan bo'lib, ularda insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va inadaniy huquqlari tasdiqlanmoqda va aniqlashtirilmoqda. Ularga: Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Xo'jalik-protsessual, Jinoyat-ijroiya, Mehnat, Oila, Yer, Uy-joy, Soliq, Saylov, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks kabi 16 ta kodeks va 600 dan ziyod qonunlar kiradi.

Hech bir alohida qonunning qoidasi Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan insonning asosiy huquqlarini cheklab qo'yishi mumkin emas, agar bunday cheklash holati mavjud bo'lsa, bu masala Konstitutsiyaviy sudga bunday cheklashning konstitutsiyaviligidini aniqlash uchun berilishi mumkin. Inson huquqlari cheklanishi xalqaro normalarga muvofiq (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasi), milliy va davlat xavfsizligini ta'minlash, millatning ma'naviy va ruhly sog'lig'ini himoya qilish maqsadlarida amalga oshirilishi mumkin va u qonunchilikda aniq belgilab qo'yilishi kerak.

Yuqorida qayd etganimizdek, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid yuzdan ortiq qonunlar qabul qilingan bo'lib, ular O'zbekiston qo'shilgan inson huquqlariga oid 70 ga yaqin xalqaro shartnoma va konvensiyalarning normalarini o'zida aks ettiradi.

Professor A.X.Saidov O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi qonunchilik tizimini besh tarkibiy qismga bo'ladı. Bular:

birinchisi, fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar – vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar, fuqarolarning murojaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish, umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat, muqobil xizmat to'g'risidagi va boshqa qonunlar;

ikkinchisi, fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar – jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, saylovlar, fuqarolarning o'zim o'zi boshqarish, kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari, ominaviy axborot vositalari, axborot olish erkinligi va kafolatlari, referendum to'g'risidagi va boshqalar;

uchinchisi, fuqarolarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlar mulkchilik, tadbirkorlik, yer, ijara, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, aholini ish bllan ta'minlash, garov, sug'urta, dehqon xo'jallgi, bankrotlik, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish, iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish, aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar, fuqarolik, inehnat, soliq, bojxona kodekslari;

to'rtinchisi, insonning madaniy-ma'naviy huquqlariga oid qonunlar fan, ta'lim, madaniyat, muzeylear, madaniy merosni himoya qilish, davlat tili to'g'risidagi va boshqa qonunlar;

beshinchisi, inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar (ko'p tomonlama va ikki tomonlama) – milliy tizimning tarkibiy qisimi sifatida.

O'zbekiston Respublikasi o'z Konstitutsiyasida inson huquqlariga oid quyidagi muhim xalqaro huquqiy qoidalarni mustahkamlagan:

birinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlat majburiyatidir;

ikkinchidan, inson huquqlari va erkinliklari tizimining xalqaro huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi;

uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilganidan boshlab taalluqlidir, ya'ni tabiiylik g'oyasi va nazariyasining e'tirof etilishi;

to'rtinchidan, hammaga va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar ta'luligini;

beshinchidan, inson huquqlari va erkimpliklari davlat idoralari faoliyatining mazmunini tashkil etishi;

oltinchidan, fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi;

yettinchidan, inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslar huquqlarining buzilmasligi zarurligi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlariga:

birinchidan, inson huquqlarini to'la amalga oshirishning huquqiy kafolatlarini ta'minlash;

ikkinchidan, konstitutsiyaviy adliya (sudlov)ni rivojlantirish;

uchinchidan, inson huquqlariga oid xalqaro va milliy institutlarni shakllantirish va ular faoliyatini takomillashtirish;

to'rtinchidan, yangi demokratik institutlarni, jumladan, ombudsman institutini taraqqiy ettirish kiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'tgan qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklari to'g'risida milliy qonunchilik tizimini tashkil etuvchi yuzdan ortiq qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining 1992-yildagi Konstitutsiyasida xalqimiz, millatimiz, davlatchiligidimizning va insomiyat huquqiy madaniyatining barcha ilg'or qadriyatları chambarchas uzviy bog'liq ekanligi o'z aksini topdi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha barcha me'yirlarni bajarish barcha davlat idoralari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning majburiyati hisoblanadi. Unda jamiyat keng qatlamlarining inson huquqlari va erkinliklari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning huquq va erkinliklari haqidagi bilimlarni o'rganish va ularni tarqatish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning teng huquqligini. O'zbekistonda qurilayotgan demokratik insonparvar fuqarolik jamiyati mulk shakllarining yangi tizimi, qudratli ishlab chiqarish kuchlari va vositalari, ilg'or fan va madaniyat barpo etish, xalq farovonligini oshirish, takomillashtirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qulay sharoitlar vujudga keltirayotgan jamiyatdir.

Respublikamizda 2017 yilda faoliyat yuritgan notijorat tashkilotlari soni 23749 tani tashkil etadi. Ulardan 17120 ta (yoki jamiga nisbatan 72,1%) notijrat tashkilotlari ta'lif sohasida, 2606 tasi (11,0%) notijarat tashkilotlari

davlat boshqaruvi va mudofaa sohasida, 1286 ta (5,4%) notijorat tashkilotlari sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida, 1136 ta (4,8%) notijorat tashkilotlari professional, ilmiy va texnik faoliyat sohasida, 565 ta (2,4%) notijorat tashkilotlari san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida faoliyat ko'rsatadi. Mahalla instituti uyg'onish davriga kirdi. Yurtimizda millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlash bo'yicha noyob tizim yaratilgan bo'lib, 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv yashamoqda. Ta'lim 7 tilda olib borilmoqda. Teleradio dasturlari 12 tilda tayyorlanayotgan bo'lsa, gazeta va jurnallar 14 tiida chop etilmoqda.

Adolatli fuqarolik jamiyati mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligi, ularning qardoshlarcha hamkorligi asosida fuqarolarning do'stligi va birligini yaratib, g'oyat uyushgan, yuksak ongli va ma'rifatli kishini kamol toptirmoqda, har bir fuqaroning baxt-saodati to'g'risida hammaning g'amxo'rlik qilishi va hammaning baxt-saodati to'g'risida har bir fuqaroning g'amxo'rlik qilishini o'z hayotiy qonuni qilib oladigan baynalmilal jamiyatdir.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'ilb, fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir.

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi shaxs bilan davlatning doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgllaydi, bu aloqalar ularning o'zaro huquqlari va burchlarini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqarolik huquqiga ega. Insonning fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan o'zboshimchalik bilan mahrum qilinishi, kamsitilishi qonun bilan man etiladi.

Har bir inson, shu davlat fuqarosimi, chet el fuqarosimi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxsni, baribir o'zi istiqomat qilayotgan davlat hududida shu davlat bilan huquqiy aloqada bo'ladi. Barcha fuqarolar istiqomat qilayotgan shu davlat qonunlariga, ijtimoiy va huquqiy tartibotga to'la riosa qilishiari kerak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va fuqaroligi to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning davlat bilan fuqarolarning siyosiy-huquqiy munosabatlarini, bu munosabatlar ularning o'zaro huquqlari, erkinliklari va burchlarini ifodalashi orqali kelib chiqishi aniq ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganidan qat'i nazar, hamma uchun tengdir. Fuqarolik har bir shaxsga respublikaning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy turmushida murnkin qadar to'lar oq ishtirok etish imkonini beradi. Chunonchi, shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlariimizda inustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki,

O'zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlari va erkinliklarini himoya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston davlati o'z organlari, mansabdar shaxslari orqali fuqarolar oldida, fuqarolar esa, davlat oldida mas'uldirlar. Davlat mamlakatimiz hududida va uning tashqarisida o'z fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlарини himoya qiladi.

Fuqarolik deganda, insонning huquqiy yoki siyosiy-huquqiy томондан himoyalанishи va qonuniy manfaatlариниning davlat ichida va uning tashqarisida qо'llanishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolaring va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro normalarga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar", deyilib, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquqiy maqomini qonuniy ifoda etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi mamlakat hududida chet el fuqarolaring doimiy yoki vaqtinchalik istiqomat qilish jarayonidagi demokratik huquq, erkinlik va burchlarini aniq-ravshan belgilab bergen. Ularga O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan demokratik huquq, erkinlik va burchlar berilib, mamlakat fuqarolari bilan teng foydalanadilar.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'zlarining shaxsiy, mulkiy, oilaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, mehnat qilish, dam olish, salomatligini mustahkamlash, malakali tibbiy yordam olish, ijtimoiy ta'minot olish, uy-joyli bo'lish, bilim olish, tarixiy, madaniy yodgorliklardan foydalanish kabi huquq va erkinliklardan ham keng foydalanadilar. Ularga mulkdorlik, fan, adabiyot, san'at, ixtiro, ratsionalizatorlik huquqlari berilgan. Shuningdek, ular vijdon erkinligi, tijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalariga birlashish huquqidан ham foydalanishlari mumkin. Bu huquq va erkinliklarga то'sqinlik qilingan taqdirda ular ma'muriy va sud organlariga himoya qilinish uchun imurojaat etish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston qonunchiligi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga keng demokratik erkinliklar berilishi bilan ulardan o'zbek jamiyatni va davlati o'rnatgan tartib-qoidalarga zid xatti-harakat qilmasliklarini talab etadi.

Ayni paytda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga davlatimiz fuqarolari bilan demokratik huquq va erkinliklarda hayotning hamma jabhalarida tenglik berilgan, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Qator huquq va erkinliklar borki, ular xarakteri jihatidan faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan asosiy huquq va erkinliklar har bir ımsonga, har bir fuqaroga taalluqli bo'lib, ular barcha uchun teng va barobardir. Konstitutsiyaning Muqaddimasida inson huquqlariga sodiqlik tantanali ravishda e'lon qilingan, unda hozirgi zamon konstitutsiyalariga xos bo'lgan umumiy yo'nalishlar aks etgan, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari birinchi o'ringa qo'yilgan, unda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, ularning kafolati hamda fuqarolaming burchlari mustahkamlangan.

Fuqarolaming huquq va erkinliklari borasida Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasing barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan. "Davlat organlari va mansabdor shaxslar, – deyiladi Asosiy Qonunimizning 2-moddasida, – jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar". Bu fuqarolaming huquq va manfaatlari ustunligini va ular konstitutsiyaviy darajada kafolatlanishini anglatadi. Inson, uning hayoti, erki, sha'ni va qadr-qimmati hamda boshqa huquq va erkinliklari muqaddas bo'lib, ular davlat tomonidan himoyalanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinlik va burchlari ularning jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarini o'zida ifodalaydi, davlat manfaati bilan shaxs manfaati birligida o'z aksini topadi, shuning uchun ham, bu erkinliklardan fuqarolar keng foydalanib, o'zlariga yuklatilgan burchlarni vijdonan bajarishga intiladilar.

O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan demokratik, insonparvar fliqarolik jamiyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari uch guruhga bo'linadi:

O'zbekiston fuqarolari, erkinlik va burchiarining birinchi guruhiga ularning uy-joy daxlsizligi, shaxsiy xatlarining sir saqlanishi, vijdon erkinligi, mulk, vorislik kabi huquqlari kiradi. Bu huquq va erkinliklar o'zbek jamiyatini va davlatida shaxs kamolotining asosiy omilidir.

Ikkinchi guruuh O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarming siyosiy huquqlari va demokratik erkinliklariga asosan jamoat birlashmalari va siyosiy partiyalarga uyushish, saylash va saylanish, so'z, matbuot erkinligi, majlis va mitinglar o'tkazish huquqlaridan iborat.

Uchinchchi guruuh ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar bo'lib, ular mehnat qilish, dam olish, moddiy ta'minot kabi huquqlardan iborat.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning sha'ni, qadri, obro'-e'tiborini himoya qiluvchi qator qonunlarning joriy etilishi xalqaro normalarga to'la mos keladi va haqiqiy demokratik, insonparvar, adolatli davlat tuzumining insoniy mohiyatidan kellb chiqadi.

Konstitutsiyaning 25-moddasida: "har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega" ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 27-moddasida "Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan

tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyining daxlsizligi huquqiga ega”.

“Hech kim qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari tarzda birovning turar joyiga kirishi, tintuv o’tkazishi yoki uni ko’zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so’zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas”, deb fuqarolarning bu boradagi demokratik huquq va erkinliklari qonuniy ifoda etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasiga asosan har bir shaxs bevosita o’zi va boshqalar bilan birqalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko’rib chiqilishi shart.

Respublikamiz fuqarolari mansabdar shaxslar, davlat va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining nojo’ya harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga egadir. Fuqarolarning shikoyatlari O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko’rib chiqilishi va hal qilinishi lozim. Mansabdar shaxslarning qonunni buzib, vakolat doirasidan chiqib qilgan g’ayriqonuniy harakatlari, shuningdek, fuqarolarning haq-huquqlarini kamsitadigan harakatlari ustidan qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-bobi fuqarolarning burchlari (majburiyatlariga)ga bag’ishlangan bo’lib, shunga ko’ra, O’zbekistonda yashovchi har bir fuqaroning eng muhim burchiari (majburiyatlariga)dan biri Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish, Asosiy qonunda belgilab qo’ylgan burchlarni bajarishdir (47- va 48-moddalar). Mazkur konstitutsiyaviy talab zamirida mamlakatda qat’iy qonunchilik rejimini ta’minlash maqsadi yotibdi.

Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish nafaqat ularning qoidalarini buzmaslik, balki fuqarolar o’z faoliyati, hayot tarzi bilan konstitutsiyaviy tamoyil va asoslarni, qonunchilik normalarini real vogelikka aylantirishga ko’maklashishlari demakdir. “Fuqarolar, – deb ta’kidla-nadi Konstitutsianing 48-moddasida, – Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarining huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”.

Xalqaro me’yorlar talabiga muvofiq, O’zbekistonda nafaqat inson huquqlari va erkinliklarini konstitutsiyaviy-huquqiy himoyalash asoslari va kafolatlari shakkantirildi, balki uni rag’batlantirish, himoya qilish yuzasidan tashkiliy mexanizm hamda tegishli mlliyy infratuzilma ham vujudga keltirildi. O’zbekistonda sud-huquq islohotlari va inson huquqlari. Huquqiy davlatga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurishni bugungi kunda aksariyat demokratik jamiyatlar kabi bizning jamiyatimiz ham o’zining pirovard maqsadi qilib olgan bo’lib, bu yo’lda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar ichida

sud-huquq tizimini isloh qilish dolzarb va doimiy vazifa hisoblanadi. Chunki, "Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdag'i eng muhim yo'nalishlaridan biri bu qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir".

Shuning uchun ham, mustaqillikka erishilgan dastlabki davrdanoq mamlakatimizda bu sohadagi islohotlar sobitqadamlik bilan amalga oshi-rib kelinmoqda. Jinoyat qonunchiligi ilberallaشتirilmoqda va sud tizimida ixtisoslashuvlar amalga oshirilmoqda.

Fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sudlarning va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining faoliyatida asosiy mazmunga aylanmog'i lozim.

Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim.

Davlat boshlig'inining mustaqitlikning dastlabki kunlaridan oq sud hokimiyatiga bunday jiddiy e'tibor qaratishi va mamlakatda sud-huquq islohotlariga katta ahamiyat berishidan maqsad, avvalambor, huquqiy fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik davlat qurish edi.

Chunki, mustabid davri sud hokimiyatining faoliyat yuritish tamoyillari bu hokimiyatni ko'proq jazolovchi organ sifatida namoyon qilgan edi. Bu davrning sud hokimiyati siyosiy partiya hukmonligi ostida va asosan, yuqori lavozimli partiya amaldorlari tayziqi ostida ish olib borganliklari natijasida mustaqil faoliyat ko'rsata olmagan hamda amalda o'zining "adolat tarozisi" sifatidagi rollni to'liq bajara olmagan. Hatto, nosudlov organlari tomonidan insonlarni jazoga tortish holiari yuz bergen. Bunga tarixdan juda ko'plab misoliar keitiriladi. Bu davrda yetarli darajada adolatli ish olib borilmaganligi oqibatida qanchadan-qancha shaxslar, hamyurtlarimiz siyosiy qatag'on qurbanlari bo'lган.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab birinchi Prezidentimiz tashabbusi bllan kun tartibiga, eng avvalo, Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyani qabul qilish masalasi qo'yildi. 1992-yil 8-dekabrda o'z urf-odatlarimiz, milliy tariximizdan kelib chiqib hamda ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda, 1991-yil 30-sentabrdan O'zbekiston qo'shilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi talablariga mos keluvchi Konstitutsiyamiz qabul qilindi. Konstitutsiyamizda hokimiyatlar bo'linish tamoyiliga asoslanib sud, alohida mustaqil hokimiyat, ya'ni sud hokimiyati darajasiga olib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasida O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi belgilab qo'yildi. Shunga asoslanib, hozirda ham respublikamizda sud-huquq

islohotlari jadallik bilan davom ettirilmoqda. Bu borada keyingi yillarda sndlarning takomillashuvi yuzasidan bir qancha Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, qonunlar qabul qilindi.

Jumladan, 1995-yil 30-avgustda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”, 1999-yil 23-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudini tashkil etish to‘g‘risida”, 1993-yil 2-sentabrda “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qillnib, 2001-yil 14-dekabrda ushbu qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 14-dekabrdagi 164-11-sonli ”Sudyalar malaka hay’atlari to‘g‘risida”gi, ”Sud xodimlarining malaka darajasi to‘g‘risida”gi. ”Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi nizomlarga qo‘srimchalar va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 23-sentabrdagi 383-sonli ”O‘zbekiston Respublikasi sndlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 24-sentabrdagi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuri-dagi ”Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha Oliy malaka komissiyasi” tashkil etildi. Mazkur farmonga ko‘ra, 2001-yil 19-martdagি O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarmi tanlash va lavozimga tavsiya etish bo‘yicha ”Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risida”gi Farmon asosida tashkil etilgan komissianing yangi tahrirdagi nizomi tasdiqlanib, komissiya zimmasiga sndlар faoliyatini tashkiliy jihatdan takomillashtirish, barcha bo‘g‘indagi sudyalarni tanlash va lavozimiga taqdim etish vazifalari yuklatildi. Endilikda har bir viloyat, shuningdek, unga tenglashtirilgan sndlardagi malaka hay’atlarining o‘zi sud kadrlarini uning layoqati, axloqiy va ishchanlik sifatlari, bilim darajasi, dunyoqarashi, amaliy ish tajribasiga jiddiy e’tibor bergen holda tanlaydigan bo‘ldi va bu malaka hay’atlariga ulkan mas’uliyat yuklaganligidan ham dalolat beradi.

Sud hokimiyati sud qarorlarini ijro etish kabi ijro hokimiyatiga xos bo‘lgan vazifalardan ozod qilindi. Bu hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlar bo‘imish tamoyilining mazmun-mohiyatini yana bir qaror topishi bo‘ldi. Sud tizimidagi mazkur o‘zgarishlar yangi tahrirdagi ”Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunda o‘z aksini topdi. Odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari hlmoyasi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Sudyalar oliy kengashi va O‘zbekiston Sudyalar assotsiatsiyasining quyidagilar orqali sud organlari faoliyatining shaffofligini yanada ta’minlash, aholi bilan ochiq muloqotni kengaytirish va odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik rolini kuchaytirish to‘g‘risidagi takliflari qabul qillndi.

Mamlakatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy normalarga qat’iy rioya etilishini ta‘minlash hisoblanadi. O‘tgan yillar davomida sudni hokimiyatning mustaqil va alohida tarmog‘i sifatida tashkil etish, uni o‘tmishdagi jazolash organidan inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi hamda ishonchli himoya qiluvchi davlatning chinakam mustaqil institutiga aylantirish bo‘yicha salnoqli ishlar amalga oshirildi. 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi. Shu yilning sentabr oyida Bosh vazirning (pm.gov.uz manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. 2017-yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e‘lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 28-dekabr kuni “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e‘lon qilingani munosabati bilan hamda aholining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi ishi to‘g‘risidagi ko‘plab ijobjiy fikrlarini e‘tiborga olib, barcha darajadagi davlat organlari faoliyatida “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyilni amalda qaror toptirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida O‘zbekiston Prezidentining Xalq qabulxonasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi tashkil etish ko‘zda tutilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda (tumanga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) esa O‘zbekiston Prezidentining Xalq qabulxonalarini faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilming 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi. O‘z nutqida Umumxalq muhokamasidan so‘ng besh yilga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Bu strategiyani ishlab chiqishda hiz o‘zimizga chetdan nazar tashlab, salohiyat va imkoniyatimizni holis baholash bilan birga, xato va kamchiliklarimizni ham atroflicha tanqidiy tahlil qildik deb ayтиб o‘tdi.

Inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishi Vakil faoliyatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu faoliyat BMT va YeXHT xalqaro shartnomalar ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi ma‘ruzalarini tayyorlashda ishtiroy etish, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda a‘zolik doirasida, xorijiy Ombudsmanlar bilan ko‘p tomonlama aloqalarni rivojlantirish, xalqaro forumlar, chet el delegatsiyalarini qabul qilishda ishtiroy etish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish

masalalari bo'yicha xalqaro tasbkilotlar va xorijiy hamkasblar murojaatlarini ko'rib chiqish orqali amalgalashirilgan. Vakil Xalqaro ombudsman instituti, Yevropa ombudsman instituti va Osiyo ombudsmanlar assotsiatsiyasi a'zosi bo'lib hisoblanadi. Vakil tomonidan xorijiy ombudsmanlari bilan hamkorlik to'g'risida 10 bitinlar imzolangan bo'lib, Shvetsiya, Ispaniya, Portugaliya, Polsha, Janubiy Koreya, Slovakiya, Bolgariya, Latviya, Rossiya va Ozarbayjon shular jumlasidandir.

O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatga, jumladan, BMTning o'nta shartnomasiga qo'shilgan. Bugungi kunda ushbu hujjatlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va amaliyotga joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalgalashirilmoqda. Bu borada Xalqaro Mehnat Tashkiloti bilan yaqin hamkorlikda ko'rilgan ta'sirchan choralar tufayli bolalarning majburiy mehnatidan foydalanish illatiga barham berildi. Bularning barchasi O'zbekiston inson huquqlari va qadriyatlarini tan olishi hamda o'zining xalqaro manfaatlariga sodiq ekanining yorqin ifodasidir.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekistonda inson huquqlari sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. O'zbekistonda mustaqillik yillarda inson huquqlariga oid qanday qonunlar qabul qilindi?
3. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining qaysi bo'limida inson huquqlariga to'xtalib o'tilgan?
4. O'zbekiston fuqarolarida huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun nimalarga e'tibor berilgan?
5. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari nimalarga asoslanadi?
6. O'zbekiston bugungi kunda qaysi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib bormoqda?

9-§. INSON HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI XALQARO PAKTLAR REJA:

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar, ularning tuzilishi va ahamiyati
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokollar
3. Inson huquqlari to'g'risidagi paktlarning huquqiy mohiyati va mazinuni.
4. O'zbekiston Respublikasi va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill

Tayanch so'z va iborlar: Xalqaro pakt, fakultativ protokol, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, xalqaro bill, deklaratsiya, mehnat kodeksi, fuqarolik kodeksi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganidan so'ng BMTga a'zo-davlatlar tasdiqlashi zarur bo'lgan inson huquqlari to'g'risidagi paktlarning imperativ xususiyatga ega bo'lgan shartnomaviy shaklini ishlab chiqishga kirishildi.

Paktlar deyarli 18 yilda ishlab chiqildi va qabul qilindi. Dastlab bitta hujjat ishlab chiqish va qabul qilish ko'zda tutilgan edi. 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasiga o'zining Rezolutsiyasida fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanish, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarga hamda madaniyat sohasidagi huquqlarga ega bo'lish o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi huquqlar ekanligini e'lon qildi. 1951-yilda Komissiya maxsus muassasalarining fikrlari va hukumatlarning takliflari asosida iqtisodiy, ijtimoiy huquqlar to'g'risida 14 ta moddani tuzdi. U, shuningdek, bu huquqlami amalga oshirish yuzasidan chora ko'rish to'g'risidagi 10 ta moddani shakllantirdi. Shunga muvofiq, Paktning ishtiroychi-davlatlari bu masala bo'yicha o'zlarining ijodi ma'ruzalarini topshirishlari lozimligi qayd qilindi. 1951-yilda uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng Bosh Assambleya Komissiyaga inson huquqlari to'g'risidagi ikkita paktning loyihasini ishiab chiqishni va ulardan birida fuqarolik va siyosiy huquqlar, boshqasida esa iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlar yoritilishi lozimligini topshirdi. 1966-yilda oldindan belgllangan bitta pakt o'miga ikkita Xalqaro pakt ishiab chiqildi: Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga Fakultativ protokol ham qo'shimcha ravishda ishlab chiqilib, unda alohida shaxslarning paktda ifodalangan huquqlarining buzilishiga doir xabarlari ko'rib chiqilishi o'z ifodasini topishi zarurligi qayd etildi.

Inson huquqlari to'g'risidagi paktlarning huquqiy mohiyati va mazmuni. Har ikkala Paktning Muqaddimasi, 1- 3- va 5-moddalari aynan bir xildir. Har bir Paktning Muqaddimasida BMT Nizomiga muvofiq ravishda davlatlarning majburiyatlari qayd etilgan. Unga ko'ra, har bir inson bu huquqlarga rioya qilishi va har bir davlat inson huquqlarini himoya qilishga doir amalga oshiriladigan ijobiy tadbirlarni rag'batlantirib turishi zarur.

Har ikkala Paktning 3-moddasida ishtiroychi davlatlar insonga berilgan barcha huquqlardan erkaklar va ayollarga teng huquqni ta'minlash majburiyatini oladilar. Har ikkala Paktning 5-moddasida biron-bir davlat, guruh yoki alohida shaxs paktda e'tirof etilgan har qanday huquq yoki erkinliklarni cheklashga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi bor

deb qarashi va buni targ'ib qilishi mumkin emasligi hamda insonning huquqlari biror-bir tarzda cheklanishi yoki kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-15-moddalarida mehnat qilish huquqi (6-modda), adolatli va qulay mehnat sharoiti (7-modda), kasaba uyushmalari tuzish va unga kirish (8-modda), ijtimoiy ta'minot huquqi (9-modda), oilani, onalik, bolalik va o'smirlikni keng himoya qilish va yordam berish huquqi (10-modda), yetarli hayotiy darajaga ega bo'lish huquqi (11-modda), jismoniy va ruhiy sog'iomlikning eng yuqori darajasiga erishish va ma'lumot olish huquqi (12-13-moddalar), madaniy hayotda ishtirok etish huquqi (15-modda) va boshqa huquqlar qayd etilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-27-moddalarida insonning yashash huquqi himoyalanishi nazarda tutiladi. Bu moddalarda hech kim azob-uqubatga solinmasligi yoki zulmlik bilan, insonlikka isnod keltiruvchi bir tarzda yoki uning qadr-qimmatini xo'r lab muomala qilinmasligi yoki jazoga mustahiq etilmasligi kerak (7-modda); hech kim qullikda saqlanishi mumkin emas; qulchilik va qul savdosi, bular qanday shaklda bo'imasin, taqiqlanadi; hech kim majburiy yoki shart bo'lgan mehnatga majbur qilinishi mumkin emas (8-modda); hech kim o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi yoki hibsa saqlanishi mumkin emas (9-modda); ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga insonlarcha muomalada bo'lish kerak (10-modda); hech kim biror shartnomasi majburiyatini bajarishga qodir bo'lmagan asosdagina ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas (11-modda); har bir odam davlat hududida erkin ko'chib yurish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egadir (12-modda).

Ushbu Paktda ishtirok etayotgan biron-bir davlatning hududida qonuniy tarzda turgan chet ellik shaxs qonunga binoan chiqarilgan qaror asosidagina chiqarib yuborilishi mumkin (13-modda).

Paktda barcha shaxslar odil sudlar va tribunallar oldida tengdirlar, jinoyat va fuqarolik jarayonlarida kafolatga egadirlar, deb e'tirof etilgan (14-modda); shuningdek, jinoyat sodir etilgan paytda qo'llanilishi lozim bo'lgandan og'irroq jazo tayinlanishi mumkin emas (15-modda); qayerda bo'lishidan qat'i nazar, har bir inson o'zining huquq subyekti ekanligining e'tirof etilishi huquqiga egadir (16-modda); hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchallik bilan yoki g'ayriqonuniy tarzda aralashish, uy-joy daxlsizligi yoki maktublari sirining daxlsizligiga o'zboshimchalik bilan yoki g'ayriqonuniy tusda yoki uning or-nomusi va sha'niga g'ayriqonuniy tusda tajovuz qilish mumkin emas (17-modda).

Bundan tashqari, mazkur Paktda qayd etilishicha, har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga egadir (18-modda); har bir inson bemalol o'z fikrida sobit bo'lish huquqiga egadir (19-modda); urushni har qanday

yo'sinda targ'ib etish qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilishi kerak: dushmanlik, zo'ravonlik, gijgijlash, milliy, diniy yoki irqiy g'animlikni yoqlab qilinadigan har qanday yo'sindagi harakat qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilishi kerak (20-modda); ular osoyishta yig'ilishlar o'tkazish (21-modda) va uyushmalar tuzish erkinligini e'tirof etadi (22-modda). Ular nikoh yoshiga yetgan erkaklar va ayollarning nikohdan o'tish huquqi va oila qurish huquqi, nikohda bo'lgan davrda va nikoh bekor qilinayotganida er-xotinlarning huquq va majburiyatları tengligini e'tirof etadi (23-modda); ular bolalar huquqini muhofaza qilish tadblrilarini belgilaydi (24-modda); va o'z mamlakatining davlat ishlarida qatnashishdan iborat har bir fuqaroning huquqini nazarda tutadi (25-modda). Ular barcha odamlaming qonun oldida tengligi va ularning hech bir kansitishlarsiz qonun tomonidan bab-baravar himoya qilinishi tadbirilarini nazarda tutadi (26-modda). Va nihoyat, 28-moddada Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tuzish ko'zda tutilgan. Bu Qo'mita Paktda qayd etilgan huquqlarni hayotga tatbiq etilishini nazorat qilib boradi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qattiq talablar belgilangan: faqat favqulorra holat rasmiy ravishda e'lon qilingandagina ishtirok etuvchi davlatlar o'z majburiyatlaridan chekinishlari mumkin. Cheklashlar shu davlatning qonunida belgilanib, ular umumiyl farovonlik maqsadlariga va mamlakatda amalda bo'lgan tartib-qoidalar tabiatiga mos bo'lishi shart.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qattiq talablar belgilangan: faqat favqulorra holat rasmiy ravishda e'lon qilingandagina ishtirok etuvchi davlatlar o'z majburiyatlaridan chekinishlari mumkin. Cheklashlarning Paktda alohida qayd etilgan huquqlarga ta'siri bo'lishi mumkin emas. Bular: yashash huquqiga ega bo'lish, qyinoqni taqiqlash, qulchilik, odil sudlov va hokazo. Qabul qilingan cheklashiar to'g'risida ishtirok etuvchi davlatlar BMTning Bosh kotibi orqali Paktning boshqa ishtirokchi a'zolarini xabardor qilishi lozim. Paktda qayd etilgan ayrim huquqlardan foydalanishda davlat cheklash o'rnatishi mumkin. Bu cheklashlar qonunda o'z ifodasini topishi shart. Ular davlat xavfsizligini va ijtimoiy tartibini, aholining sog'lig'i yoki axloqiy udumlarini, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, Paktda qabul qilingan boshqa huquqlarga mos bo'ladi.

Har bir Paktda unda ko'rsatilgan me'yor va tamoyillarni amalgalashirishga qaratilgan bir qancha qoidalar keltirilgan.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga muvofiq, unda qatnashuvchi har bir davlat BMT Bosh kotibiga Paktda e'tirof etilgan huquqlarni amalgalashirishda erishilgan yutuqlar va tadbirlar to'g'risida ma'ruza berib turishni o'z zimmasiga oladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash vaqtiga bilan Bosh Assambleyaga umumiyl tusdagagi tavsiyanomalar bilan mazkur Paktda ishtirok etayotgan

davlatlardan va ixtisoslashgan tashkilotlardan olingen ma'lumotlarning bayoni to'g'risida ma'ruzalar taqdim etishi mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash BMTning boshqa organlari ularning yordamchi organlari hamda texnikaviy yordam berish bilan mashg'ul bo'lgan va ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning diqqat-e'tiborini mazkur Paktning ushbu qismida eslatib o'ttilayotgan ma'ruzalar munosabati bilan paydo bo'layotgan har qanday masalalarga qaratishi mumkinki, bu ana shu organlar tomonidan o'z vakolatlari doirasida ushbu Paktni tadrijiy yo'sinda amalga oshirishga yordam berishi mumkin bo'lgan xalqaro tadbirlarning nechog'lik maqsadga muvofiqligi xususida qarorlar chiqarishda foydali bo'lishi mumkin (22-modda).

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga birinchi Fakultativ Protokol 1966-yilning 16-dekabrida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Fakultativ protokolning birinchi moddasiga binoan, Paktda qatnashuvchi davlatlar Protokolning qatnashuvchilari bo'lib, ular Inson huquqlari to'g'risidagi qo'mita vakolatini oladi. Protokolda ishtirok etuvchi davlatda inson huquqlarining buzilish hollari ro'y bersa, u Qo'mitaga olti oy ichida yozma tushuntirishi xati yuborishi kerak. Bu Protokolga muvofiq, alohida shaxslar o'z huquqlari buzilgan hollarda, o'z davlatlari ustidan Qo'mitaga murojaat qilisblari mumkin. Qo'mita o'zining yopiq majlislarida alohida shaxslardan hamda manfaatdor davlatlardan kelgan yozma axborotlarni ko'rib, o'z mulohazasini ishiab chiqadi va uni alohida shaxslarga, davlatlarga yuboradi. Bu sohada qilingan ishlar bo'yicha qisqartirilgan axborot har yili Bosh Assambleyaga Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash ma'ruzasi orqali yuboriladi. Ushbu protokol 14 moddadan iborat bo'lib, ushbu moddalarda, yuqoridaqilardan tashqari, shikoyatni taqdim etish tartibi (1-3-moddalar), qo'mitaning shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi (4-5-moddalar), Protokolga qo'shilish (8-modda) yoki uni denonsatsiya qilish (12-modda) tartibi, protokolning kuchga kirishi (9-10-moddalar), unga o'zgartirishlar kiritish tartibi (11-modda), BMT Bosh kotibi tomonidan imzolash, ratifikatsiya, denonsatsiyalar, protokolning kuchga kirishiga doir masalalar bo'yicha a'zo davlatlarga xabar berish tartiblari (13-modda) ko'rsatib o'tilgan.

1989-yil 15-dekabrdi BMT Bosh Assambleyasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga ikkinchi Fakultativ protokolni qabul qildi. Unda o'lim jazosidan voz kechish ko'zda tutilgan. Protokol 1991-yil iyul oyidan kuchga kirdi. Bu Protokolga muvofiq, qatnashuvchi davlatlar o'z qonunchiligidagi va amaliyotda o'lim jazosini qo'llashdan voz kechishlari shart. Protokol 1991-yl iyul oyidan kuchga kirdi. Ushbu Protokol Muqaddima va 11 moddadan iboratdir. Protokolning 1-moddasida "Ushbu protokolga a'zo davlat yurisdiksiyasi ostidagi hech bir kishi o'lim jazosiga tortilmasligi kerak" deb qayd etib o'tilgan. 2-moddaning 1-bandida

protokolga hech qanday qo'shimcha shart qilishi mumkin emasligi va urush vaqtin bundan mustasno ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ya'm, umumiy gumanitar huquq xarakteridan kelib chiqib, urush qoidalarini qo'pol ravishda buzib, qurolli mojaro vaqtida jiddiy jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan o'lim jazosi saqlanib qoladi. 3-4-moddalarda esa, a'zo davlatlarning ma'ruzalari va xabarlarining Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tomonidan qabul qilinishiga oid masalalar ko'rib chiqiladi. I-fakultativ protokol asosida tashk'il etilgan Qo'mita ushbu protokol bo'yicha taqdim etiladigan ma'ruza va xabarlarni ham ko'rib chiqish huquqiga egadir.

O'zbekiston davlati o'z mustaqilligini mustakamlab borish bilan birga, o'zining ichki va tashqi siyosatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan demokratik tamoyillar va normalarga har tomonlama yondashishini bayon etib bormoqda. Xarakatlar stragiysi ijrosi doirasida shu yilning o'zida 20 dan ortiq qonun va 700 dan ziyod qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Xalq bilan muloqat va inon manfaatlari yili deb e'lon qilingan 2017 yilda "Inson manfaatlari hamma narsadan ulug" degan g'oya asosida katta ishiar amalga oshirildi. Bu ishiar Konstitutiyaning asosiy moyiliarini ro'yobga chiqarishda yana bir ulkan qadam bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro hujjatlarga qo'shilar ekan, bevosita ularda mavjud qoida va me'yorlarni bajarish hamda o'z ichki qonunchiligidagi ushbu me'yorlani aks ettirish va ularni samarali ravishda amalga oshirish majburiyatini oladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining (bundan buyon Deklaratsiya) 1-moddasida barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'ilishi to'g'risidagi qoida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topgan. Jinoyat kodeksida fuqarolarning teng huquqlilagini buzish jinoyat hisoblanib, javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi ko'rsatilgan. Deklaratsiyaning 5-moddasi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (bundan buyon FSHXP)ning 7-moddasida hech kim azob-uqubatga yoki vahshiylarcha, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rlaydigan muomala va jazoga mustahiq bo'lmasisligi kerakligi belgilangan. Konstitutiyaning 26-moddasi 2-bandida ham bu qoida mustahkamlab qo'yilgan. Jinoyat kodeksida bunday harakatlar og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanisbi belgilab qo'yilgan.

Deklaratsiya va FSHXP har kimning o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanish va turarjoy daxlsizligi huquqini belgilab beradi. Konstitutiyaniz ham ushbu huquqlarni o'zida mujassamlashtirgan. Jinoyat kodeksi tuhmat uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan mazkur harakatning qayta sodir etilishiga nisbatan jinoiy javobgarlik kelib chiqishini belgilaydi. Kodeksda shaxsnинг qadr-qimmatini qasddan yerga urganlik uchun ham (ma'muriy jazo

chorasi qo'llangandan so'ng qayta sodir etilsa) jinoiy javobgarlik belgilanadi. Jinoyat kodeksiga binoan, uy-joyga u yerda yashovchilarning erkiga qarshi, zo'rlik ishlatib noqonumi tarzda kirish 3 yil muddatga axloq tuzatish ishlari bilan yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazo'anishi mumkin.

Deklaratsiyaning 15-moddasi har bir insonning fuqarolik huquqi mavjudligini belgilaydi. Konstitutsiyamizning 21-moddasi va "Fuqarolik to'g'risida"gi qonun (1992-yil 2-iyulda qabul qilingan) yuqoridagi qoidalarni o'zlarida mujassamlashtirgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev fuqarolik masalalariga to'xtalar ekan, BMTning 72-sessiyasida shunday fikrlarni bildiradi: "Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat. Ishonchim komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga hizmat qilshi kerak" – deb ta'kidlagan edi.

Deklaratsiya hamda FSHXPda mavjud so'z va fikr, axborot olish erkinligi masalasi Konstitutsiyamizning 29-30-moddalarda yoritib berilgan. Bu qoidalari "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida" (2003-yil),

"Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" (1997-yil), "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida" (1993-yil), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997-yil) qonunlarda, shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks hamda Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida o'z ifodasini topgan.

Deklaratsiyaning 20-moddasi hamda FSHXPning 21-, 22-moddalarida har bir insonning osoyishta yig'ilishlar o'tkazish va uyushmalar tuzish huquqi mustahkamlangan. Konstitutsiyamizning 33-34 va 57-moddalarida yuqoridagi masalaga doir asosiy me'yorlar belgilab qo'yilgan. Fuqarolarning ushbu huquqi "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida" (1991-yil 15-fevral), "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1992-yil 2-iyul), "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996-yil 26-dekabr), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi (1999-yil) qonunlarda o'z ifodasini topgan.

Deklaratsiya hamda FSHXPda mavjud insonlarning bevosita va vakillar vositasida mamlakat boshqaruvida ishtirok etish, davlat xizmatiga kirish huquqi va xalq hokimiyati to'g'risidagi qoidalarni Konstitutsiyamizning 32-moddasida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida" (1991-yil 18-noyabr), "O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida" (1991-yil 18-noyabr), 2002-yildagi "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy tamoyillari to'g'risida", 2002-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida", 2002-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida", 2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" (yangi tahrirda), 2004-yildagi "Xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosimi chaqirib olish to'g'risida"gi qonunlarda uchratishimiz mumkin.

Ijtimoiy himoya va ta'minot to'g'risidagi me'yorlar Deklaratsiyaning 22-moddasi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-moddasida belgilab qo'yilgan. Bu masala Konstitutsiyaning 39-moddasida, shuningdek, "Nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi va "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunlarda ham o'z ifodasini topgan.

Deklaratsiya hamda IIMHXPda har bir insonning mehnat qilish, teng mehnatga teng haq olish, kasaba uyushmalari tuzish, dam olish va haq to'lanadigan ta'tillar olish huquqlari ham belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning 37-moddasi, Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va kafolatlari to'g'risida" (1992-yil 2-iyul), "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" (1998-yil 1-may), "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar ham shaxsnинг mehnat qilish va u bilan bog'liq boshqa huquqlarini kafolatlaydi. XMTning 1935-yil 22-iyundagi Konvensiyasida ish haftasining 40 soatlik muhlati va qoidasi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida ham haftalik ish vaqtining davomiyligi 40 soatdan oshmasligi, ta'tilning eng kam muddati 15 ish kunidan kam bo'lmasligi ko'zda tutilgan.

Bilim olish huquqi Deklaratsiyaning 26-moddasi hamda IIMHXPning 13-, 14-moddalarida, 1960-yil 14-dekabrdagi Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya moddalarida, shuningdek, Konstitutsiyamizning 41-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ham yuqoridagi me'yorlarni o'zida aks ettirgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Birinchi Fakultativ protokoliga 1995-yilda qo'shilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston fuqarolari o'zlarining Paktda ko'zda tutilgan huquqlari va erkinliklarining buzilish holatlari bo'yicha, Protokolda ko'zda tutilgan shartlarga muvofiq ravishda BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga murojaat qilish huquqiga egadir. O'zbekiston Respublikasida 2008-yilning 1-yanvaridan o'lim jazosining bekor qilinishi, unga Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga doir, ushbu o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan Ikkinchi Fakultativ protokolga qo'shilishga imkon berdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2008-yilning 10-dekabrida mamlakatimizning ushbu hujjatga qo'shilganligini tasdiqladi.

Ma'lumki, 2016 yilda xalqaro jamoatchilik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar qabul qilinganining 50 yilligini keng nishonladi. Zero, mazkur hujjatlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha universal tizimlarning

konseptual asosi hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va ikkita xalqaro pakt davlatlar hamda dunyo xalqlari o'rtasidagi umumiy manfaatlar va qadriyatlarga asoslangan kelishuv samarasidir. Ushbu huquqiy hujjatlarni hayotga tatbiq etishda BMT a'zolari sanalgan jahondagi aksariyat mamlakatlar faol ishtirok etayotgani bu boradagi muvaffaqiyatni ta'minlamoqda. Deklaratsiya va paktlardagi qoidalar ko'plab davlatlar konstitutsiyalarini va qonunlarida ham belgilab qo'yilgani bunga bir misoldir. Ana shu hujjatlarda o'z ifodasini topgan huquqlar va erkinliklar xalqaro jamoatchilik tomonidan mukammal, pishiq-puxta, bir-biriga chambarchas bog'langan, deb tan olingan. Shuning uchun mazkur huquq va erkinliklar davlat, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, fuqarolik jamiyatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan hamda muhofaza qilinadigan asosiy tamoyillarga aylandi.

Nazorat uchun savollar

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlar qancha muddatda ishlab chiqilgan?
2. Inson huquqlari bo'yicha nechta xalqaro pakt ishlab chiqilgan?
3. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarda nimlar bayon etilgan?
4. O'zbekiston qachon fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Birinchi Fakultativ protokoliga qo'shilgan?
5. Qaysi voqeal O'zbekistonni fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning ikkinchi fakultativ protokoliga qo'shilishiga imkon berdi?

10-§. DEMOGRAFIK VAZIYAT VA UNING INSON TARRAQQIYOTIDAGI O'RNI REJA:

1. O'zbekistonda demografik statistika va bandlik.
2. Demografik vaziyat: mohiyati va tarkibi.
3. O'zbekistondagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: *Demografik statistika, bandlik, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, kambag'allikning global o'lchovi, kamta minlanganlik, ishsizlik, ish bilan ta'minlanganlik, demografik tendensiya, aholining o'rtacha yillik o'sishi, obyektiv va subyektiv omillar.*

Demografik statistika, aholi statistikasi statistika fani tarmog'i, aholi yoki uning alohida guruhlarining miqdori, tarkibi, joylashishi va takror barpo bo'lishi haqida statistik uslub asosida ma'lumotlar to'plash, uni qayta ishlash va tahlil qilishni o'rganadi. Demografik statistika aholi va demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lish, nikoh va ajralish, aholining takror barpo bo'lishi)

haqidagi raqam ko'rsatkichlar yig'indisidan iborat. Demografik statistika ma'lumotlaridan sotsial-demografik tadqiqotlarda foydalaniladi.

Demografik statistika aholi va demografik jarayonlar haqida ma'lumotlar toplashda ularning ma'lum ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida miqdor va sifat jihatdan muntazam o'zgarib borishini nazarda tutadi. Demografik statistikaning aholi ro'yxati o'tkazish, demografik jarayonlar va migratsiyani doimiy ro'yxatga olib borish kabi uslublari mavjud aholi haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlash, ularni qiyoslash va demografik omillarni o'rghanish qoidalarini ham ishlab chiqadi.

Demografik statistika statistikaning boshqa tarmoqlariga nisbatan ancha oldin paydo bo'lgan. O'zbekistonda demografik statistika asosan, XX asrning 20-yillari I-yarmidan shakllana boshlagan. 1927-yil Respublikada fuqarolik holatini qayd etish (ZAGS) byurolarining tarkib topishi demografik statistika rivojlanishiga olib keldi.

Demografik statistika ma'lumotlari dunyoning juda ko'p mamlakatlarida maxsus byulletenlarda, statistik to'plam jurnallari va demografik yilnomalarda nashr etiladi. 1-sonli Milliy vazifa. 2015-yilga borib kam ta'minlanganlikni ikki barobar qisqartirish Kambag'allik – murakkab muammo. U har bir joyda va zamonda o'zgarib, xilma-xil shaklda namoyon bo'ladi hamda kambag'allikni turlicha ta'riflaydi. Barcha mamlakatlar hamda mintaqalar uchun kambag'allikning universal ta'rifi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Kambag'allikning miqdoriy ko'rsatkichlari juda nisbiy bo'lib, eng avvalo, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Kambag'allikning asosiy tavsisi – uning ijtimoiy nomaqbulligi ya'ni kambag'allik – kishilar duchor bo'llishdan qochadigan ahvol. Shunday qilib, kambag'allik – imkon qadar ko'proq odamlar yetarlicha oziq-ovqatga, tegishli uy-joyga ega bo'lishi, ta'limdan va sog'liqni saqlashdan bahramand bo'lish imkoniyatlga, zo'ravonlikdan himoyalanish va hayotiy muhim masalalarda ovoz berish huquqiga ega bo'lishi uchun harakatga da'vat, kambag'allar uchun ham, boylar uchun ham bir xilda da'vatdir. Kambag'allik ahvolini monitoring qilish uchun, birinchi navbatda, unga ta'rif berish va uni o'lchay bilish zarur. Kambag'allik murakkab muammo bo'lgani sababli uning qo'lamini baho'lash uchun kamida bir nechta ko'rsatkich zarur. 2002-yilda o'tkazilgan tibbiy-demografik kuzatishning natijasida shu ma'lum bo'ldi-ki. O'zbekistonda vazn kamligi mavjud bolalarning umumiyligi ahvoli 1996-yildagi 18% dan 2002 yilda 8% ga tushdi. Yaqinda o'tkazilgan kuzatishga ko'ra, O'zbekistondagi "kam ta'minlanganlar" "yetishmovchilikdagilar" tasnifiga tushar ekan, chunki aholining 98% o'zning tomorqa yoki kvartirasiga, 86% yerga, 87% o'zining televizoriga, 38% muzlatgich va 12% aholi o'z avtomashinalariga ega. O'rtacha miqdorda besli nafar kishidan iborat o'zbek oilasi uchun kishi boshiga 50 AQSh dollari miqdorida daromadga ega bo'lish, miqyosning

ijobiy ta'siri tufayli bir nafar kisbiga shu miqdordagi daromadga ega bo'lishdan ko'ra ancha yetarli daromaddir. Miqyosning ijobiy ta'siri turar joy, kommunal xizmatlar uchun sarflarni bo'lish demakdir.

Kambag'allik miqdorini xalqaro ko'lamma o'lchash uchun kambag'allik chizig'ining yagona ko'rsatkichidan foydalaniladi. Kishi xarid qobiliyati pariteti bo'yicha kuniga 1 AQSh dollaridan kamiga yashasa, u o'ta iqtisodiy qashshoqlikda xayot kechirayotgan hisoblanadi (XQP mamlakatlar bo'yicha nisbiy valutalar xarid qobiliyatini o'lchaydi).

Ko'p mamlakatlar o'z kambag'allik chizig'i ko'rsatkichini o'z mamlakatlari xususiyatlari hamda rivojlanish sharoiti asosida o'zlar belgilashadi. O'zbekistonda kam ta'minlanganlikni qisqartirish maqsadida qanday choralar ko'rlimoqda? Hukumat hamkorlar bilan o'zaro jips munosabatda kam ta'minlanganlik holatini tahlil qilish va kambag'allikka qarshi kurash siyosatini amalga oshirish uchun qator ishlarni bajardi.

O'zbekiston 2004-yilda "Aholi farovonligini oshirish strategiyasi oraliq hujjati"ni ta'riflab berdi. BMT va ORB o'z kuch g'ayratlarini birlashtirib, milliy MRMga erishish strategiyasining umumiylashtirishini va uning bashoratlari ko'rinishini shakllantirishda ko'maklashishdi. Asosiy tendensiyalar va kambag'allikning konsentratsiyalanishi O'zbekistonda kambag'allik bo'yicha asosiy ma'lumotlar 2001-yilda o'tkazilgan uy xo'jaligi byudjeti tadqiqoti jarayonida to'plangan. Shu ma'lumotlar asosida 2001-yilda O'zbekiston aholisining 27,5% (6,8 million kishi)ni kam ta'minlangan, deb tasniflash mumkin edi. 2003-yilga kelib kam ta'minlanganlar soni 26,2% gacha qisqardi.

Rivojalanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligidagi kabi, aholining eng nochor guruhlari qishloq aholisi, ko'p bolali oilalar, nogironlar, ishsizlar, ma'lumoti darajasi past kishilar hamda boquvchisi ayol bo'Igan oilalardir.

Daromad darajasi kam ta'minlanganlikning asosi bo'lsada, yagona aniqlovchisi emas. Hozirgi O'zbekistonda kam ta'minlanganlik sog'liqni saqlashdan, ta'limdan, kommunal xizmatlarning toza suv va tegishli sanitariya sharoiti singari asosiy turlaridan bahramand bo'lish sifati bilan bog'liq. Shunday qilib, kambag'allik darajasini pasaytirish boshqa barcha MRMga erishish bilan chambarchas bog'liq bo'Igan kompleks vazifadir.

Kam ta'minlanganlikning "Aholi farovonligini oshirish strategiyasi oraliq hujjati"da belgilangan bosh omillari quyidagilardir:

Demografik vaziyat;

Bandlik darajsi va mehnat bozori tuzilmasi;

Ta'lim va sog'liqni saqlashdan bahramandlik;

Mintaqaviy tafovutlar;

Atrof muhitning ahvoli.

Kam ta'minlanganlikni demografik ko'rsatkichlar orqali kuzatib borish kimlar kam ta'minlangan ekanligini va ular qayerda yashashini yaxshiroq

aniqlashda bizga yordam beradi. O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalar qishloq joylarda istiqomat qiladi va kambag'allik darajasi u yerda shahardagi 22% o'rniغا 28,7% ni tashkil qiladi. Kam ta'minlangan oilalar respublikaning janubiy va shimoliy mintaqalarida eng ko'p jamlanganı kuzatiladi. Toshkent mintaqasi va markaziy mintaqanı ayrim viloyatlarida esa bunday jamlanganlik darajasi eng past. Janubiy mintaqalarda kambag'allik darajasi Toshkent mintaqasidagidan deyarli 4 baravar yuqoridir.

Kam ta'minlangan oilalarga oila boshligi ishsizligi va oilada farzandlar ko'pligi xosdir. Biroq hatto ishning mavjudligi ham kambag'allikdan doim ham kafolatlamaydi, chunki kam ta'minlangan oilalarning 50% ida oila boshiig'i ishlaydi. Shuningdek ishsizlik kambag'allik chizig'i ortiga tushib qolishning potensial ehtimolini keskin oshirishining ham ahamiyati kam emas.

Ma'lumot darajasi kishilar moddiy farovonligining yana bir muhim ko'rsatkichidir – u qancha yuqori bo'lsa, kambag'allik chizig'i ortiga tushib qolish ehtimoli shuncha kam bo'ladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega shaxslar boshchilik qiladigan oilalarda bunday ehtimol oila boshlig'i o'rta ma'lumotga ega bo'lmagan oilalarga qiyosan ikki baravar pastdir.

2003-yilda jami ishsizlarning 56% ayollarga to'g'ri kelardi (2002 yilda 61%). Ular orasida homilador, yosh bolasi bor ayollar yoki nogiron ayollar. Bolalar orasida qoniqarsiz oziqlanish kambag'allikning eng xavfli ko'rinishlaridan biridir. U sog'liqqa tahdid soladi, shuningdek me'yorida o'sish va rivojlanish imkoniyatini cheklaydi.

1996-yildagi kuzatishlarning natijasiga ko'ra, besh yoshgacha bo'lgan bolalarning 31%. 2002-yil kuzatishlari esa 21% qoniqarsiz oziqlanadi. Hozirgi paytda 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 20% ga yaqini qoniqarsiz oziqlanadi. Qoniqarsiz oziqlanish hollari ko'proq qishloq joylarda uchraydi. Aholi orasida anemiya (kamqonlik) va sil kasalligi tarqalishi nuqtayi nazaridan qaraganda, Qoraqalpog'iston eng ko'p darajada nochordir. Qoniqarsiz oziqlanish esa Namangan va Surxondaryo viloyatlarida ko'proq kuzatilmoqda.

Tekshirishlar uch yoshgacha bo'lgan bolalarning 61% tez o'sish davrida temir moddasi yetishmasligi oqibatida kamqonlikdan azob chekayotganini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda bolalar va reproduktiv (tug'ish) yoshidagi ayollar orasida kamqonlik bilan xastalanish darajasi Markaziy Osiyo bo'yicha eng yuqoridir. Butun mamlakat bo'yicha 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan yosh guruhidagi ayollarning 65% ga yaqini kamqonlik kasaliga duchor bo'lgani va buning oqibati o'laroq, onalari shu kasal bilan og'rigan bolalar bu kasalga duchor bo'lishi ehtimoli ikki baravar ko'pligi aniqlangan. Shunday qilib, bu jiddiy muammolar hal etilayotganiga qaramay, ular hali ham jiddiyligicha turibdi.

Onalarning bu masalalarini bilishi va ulardan xabardorligi bolalarning oziqlanishi sifatiga va kasallanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Bu boradagi noqulay tendensiyalar onalarning ma'lumoti darajasi pastligi bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari, yetarlichcha oziqlanmaslik, ayniqsa, qishloq joylarda, daromad darajasi va sog'liqni saqlash xizmatlaridan bahramandlik bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Bolalar va butun aholining oziqlanish sifatini yaxshilash, shuningdek kambag'allar orasida nomutanosib va qoniqarsiz oziqlanishning ta'sirini pasaytirish maqsadida kamqonlik, A vitaminini hamda temir moddasi yetishmasligi bartaraf etish uchun bir qator hukumat dasturlari ishlab chiqilgan.

“Demografik vaziyat” tushunchasi aholining konkret ijtimoiy-tarixiy davrdagi portretini, ahvollni ifodalaydi. Uning uch tarkibiy komponenti mavjud:

Birinchidan, demografik vaziyat aholi miqdoriga qarab belgilanadi. Aholi miqdori aniq ilmiy uslub va usullar asosida aholim ro'yxatga olish tadbirlarini amalga oshirish orqali aniqlanadi.

Ikkinchidan, demografik vaziyat aholi tarkibida yuzaga kelgan konkret holat bilan ham bog'liq. Odatda aholi tarkibi deganda individlarni biror bir xususiyatga asosan birlashtirgan guruhlar yig'indisini tushunadilar. Aholi ko'plab xususiyatlarga ega bo'lgani bois individlarni ham turli guruhlarga birlashtirish mumkin. Aynan ana shu xususiyatlar aholi tarkibini belgilashda fundamental xarakter kasb etadi, ularning o'zgarishi esa demografik vaziyatning yangilanishiga olib keladi.

Uchinchidan, demografik vaziyat aholining joylashishi, zichligi darajasini anglatadi. Aholining joylashuvi hududdagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mutanosib bo'ladi. Tabiiy shart-sharoitlar qulay, turmush sharoiti oqilona tashkil etilgan hududda aholining zichligi darajasi ham yuqori bo'ladi. Va, aksincha, tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlar og'ir bo'lgan hududlarda 1 kv. km.ga ancha kam aholi to'g'ri keladi.

Demografik vaziyat so'f demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida o'zgarib boradi. Demografik omillar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, avlodlarning tabiiy almashinuvi. Jamiyatdagi tug'ilish va o'lish, nikoh va ajralish jarayonlari bir avlod o'rnnini ikkinchi avlod egallashiga, ya'ni demografik vaziyatning yangilanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, aholining mexanik harakati. Mamlakatdagi demografik vaziyat kishilarning migratsiyasi natijasida o'zgaradi. Migratsiya, bir tomonidan, aholining tarkibi va joylashuviga yangicha tus beradi, ikkinchi tomonidan resurslar taqsimotini tubdan o'zgartirib yuboradi, uchinchi tomonidan esa tug'ilish, o'lish, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Uchinchidan, kishilar ijtimoiy ahvolining o'zgarishi. Ma'lumki, kishilar ijtimoiy ahvoli yoshning ulg'ayishi, oilaviy ahvolning o'zgarishi, ma'lumot darajasining o'sishi, kasbning yangilanishi natijasida o'zgarib boradi. Ushbu omillar ayni paytda demografik vaziyatning ham o'zgacha tus olishiga sabab bo'ladi.

Demografik vaziyatga quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Mamlakatdagi yoki uning ayrim mintaqasidagi aholining turmush darjasasi. Kishilarning uy-joy bilan ta'minlanganligi darjasasi, oylik ish haqi miqdori bilan demografik o'sish sur'ati bevosita aloqador. Turmush darjasasi yuqori bo'lgan mintaqalarda fuqarolar farzandlarning optimal miqdorini maqsadga muvofiq tarzda belgilaydilar. Turmush darajasining yomonlashuvi aholi miqdorining oshib kefishiga sabab bo'ladi.

2. Aholining ish bilan ta'minlanganligi darjasasi. Mazkur omil aholining joylashuviga, uning mexanik harakatlanishi xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ishsizlik kishilarni mamlakatning boshqa mintaqalariga, o'zga mamlakatlarga doimiy yoki vaqtincha ko'chib ketishga undashi mumkin. Fuqarolarning ish bilan ta'minlanganligi darjasasi tug'ilish jarayonlariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Buning oqibatida jamiyatdagi keksalar va yoshlар o'rtasidagi mutanosiblik o'zgaradi.

3. Tibbiyotning rivojlanganligi. Sog'lijni saqlash tizimining taraqqiy etganligi darjasasi bilan demografik o'sish sur'ati, bolalar o'limi miqdori, umr davomiyligi, jamiyatdagi keksalar va yoshlар soni kabi demografik ko'rsatkichlar o'rtaida jiddiy aloqadorlik mavjud. Tibbiyotning rivojlanishi ushbu ko'rsatkichlarni optimal miqdorda ushlab turish, hatto demografik o'sish sur'atlarini nazorat qilish imkonini beradi. Aksincha, sog'lijni saqlash tizimidagi muammolar oxir-oqibatda demografik ko'rsatkichlarning salbiy tus olishiga sabab bo'ladi.

4. Ta'lif va madaniyat darjasasi. Ta'lif olish imkoniyatlari katta bo'lgan, madaniyat maskanlarining faoliyati samarali tashkil etilgan shaharlar va mamlakatlar barcha zamonlarda kishilarning diqqat-markazida turgan. Jahonda o'nlab megapolislarning yuzaga kelishi sababi shundan. Intellektual salohiyatni oshirish imkoniyatlarining cheklanishi, ta'lif muassasalarining kamligi yoki zamonaviy axborot va ta'lif texnologiyalar bilan qurollanmaganligi, muzey, teatr, kinoteatr, kutubxona va hatto Internet kafelar faoliyatining besamarligi migratsion jarayonlarga turtki beradi.

Bugungi davrda jahondagi demografik vaziyat besh asosiy tendensiya ta'sirida yangilanib bormoqda. Jahondagi demografik o'zgarishiarning birinchi tendensiyasi shundan iboratki, bizning davrimizga kelib, jahon aholisining o'sishi sekinlashdi. Ushbu tendensiya jahondagi demografik muammoni bir qadar yengillashtirdi. Biroq demografik o'sish sur'atining pasayishi barcha mamlakatlarda bir xilda kechayotgani yo'q. Xususan, bugun

jahon aholisi kuniga esa 254 ming kishidan o'sib bormoqda. Shundan 13 minggi rivojlangan, 241 minggi esa rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan mamlakatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Buning natijasida jahon aholisi tarkibida rivojlanmagan mamlakatlar aholisi ulushi ortib bormoqda.

Demografik o'zgarishlarning ikkinchi tendensiyasi bolalar o'limi koeffisientining kamayib borishi bilan bog'liq. Keyingi yarim asr mobaynida rivojlangan mamlakatlarda sog'liqni saqlash sistemasiga, ayniqsa bolalar sog'lig'ini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlarga jiddiy mablag' ajratilishi, turmush darajasining o'sishi, iqtisodiy taraqqiyot va shu kabilar bolalar o'limini 5 barobarga kamaytirdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bolalar o'limi 2 barobarga, rivojlanmagan mamlakatlarda 1,5 barobarga kamaydi. Bu mamlakatlar byudjetida katta defitsitning mavjudligi, yalpi ichki daromad miqdorining pastligi, jahon sog'liqni saqlash sistemasi bilan integratsiyaning yo'qligi, sanitariya-epidemiologiya shart-sharoitlarining noqulayligi bolalar o'limi koeffitsientining nihoyatda sekinlik bilan kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchi demografik tendensiya jahon mamlakatlarida tug'ilish miqdorining kamayib borayotganiga dahldor. Rivojlangan mamlakatlarda mazkur tendensiya aholi tarkibihing tubdan o'zgarishiga, aholi tug'ilishi va o'lishi darajalari o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Oqibatda aholining tabiiy kamayishi jarayoni tezlashib ketmoqda. Ayni paytda rivojlanmagan mamlakatlardagi tug'ilish miqdorining nisbatan kamayishi muttasil olib borilgan madaniy-ma'rifiy va tibbiy tadbirlarning samarasidir. Ma'lumki, mutasaddi xalqaro tashkilotlar rivojlanmagan mamlakatlarda uzoq yillar mobaynida kichik oilani, tegishli tibbiy preparatlarni targ'ib etib keldilar. Asrimizning boshiariga kelib ushbu sa'y-harakatlar o'z samarasini bera boshladi. To'rtinchi demografik tendensiya jahon aholisi tarkibida keksa kishilar sonining ortib borayotgani bilan bog'liq. XX-asrga kelib, aholining qarishi sur'ati demografik o'sish sur'atlaridan ham tezlashib ketdi. Juhon aholisi tarkibida keksa kishilar sonining ortib borayotgani umumjahon tendensiyasiga aylanganiga qaramasdan, uning darajasi rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda bir nehnatga layoqatli kishi 2 pensionerni ta'minlashi kerak bo'lsa, rivojlanmagan mamlakatlarda bir fuqaroga 2 voyaga yetmagan bola to'g'ri kelmoqda. Natijada rivojlangan mamlakatlarning hukumatlari fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshini kechiktirish, pensiya jamg'armalariga ajratmalarni oshirish, keksalarni ijtimoiy himoyalash va boshqa masalalar ustida bosh qotirmoqdalar. Rivojlanayotgan va rivojlanmagan mamlakatlarda esa bunday vaziyat ta'lim sistemasini rivojlantirish, bolalar nafaqasini oshirish kabi muammolarga alohida e'tibor berishga majbur qilmoqda. Masalalar ko'lami va xarakteri,

tabiiyki, davlat siyosati va byudjetini ham mutanosib tarzda shakllantirishni taqazo qiladi.

Beshinchı demografik tendensiya XX-asr so'nggida migratsiyaning misli ko'rilmagan oqimi vujudga kelgani bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlardagi tug'ilish miqdorining kamligi, aholl qarishi sur'atlarining yuqoriligi, jamiyat hisobiga yashash kayfiyatining kuchayib borayotgani tufayli iqtisodiyot sohalarida bevosita band kishilar soni kamayib ketdi. Oqibatda rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchiga ehtiyoj osha boshiadi. Ishchi kuchiga ehtiyoj qolmagan rivojlanmagan mamlakatlarning fuqarolari yoshlar kam va keksalar ko'p bo'lgan, shu bois ishchi kuchiga ehtiyoj osib borayotgan rivojlangan mamlakatlarga oqib kela boshladilar. Migratsiya bo'yicha Xalqaro Tashkilotning ma'lumotlariga qaraganda, 2008-yilda o'z mamlakatidan tashqarida yashayotgan va ishlayotgan xalqaro migrantlar soni 200 milliondan osib ketdi.

O'zbekistondagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari. O'rta Osiyo hududida yashagan ibridoiy odamlarning qadimiy punktlari quyi paleolit davriga to'g'ri keladi. Jez davrida O'zbekiston hududida Chorvador va qisman dehqonchilik Bilan shug'ullangan qabilalar yashagan. Bu vaqtida ibridoiy jamoa davri yemirilib, qabilalar o'rtasida mulkiy munosabatlar vujudga keldi. Eron shohi Doro I ning Behustun kitoblari – xorazmiylar, so'g'diyilar, saklar, baqtriyalklar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Yunon va Rim tarixchilari Gerodot, Strabon, Arrian va Ptolomey hozirgi O'zbekiston hududida yashagan saklar haqida ma'lumotlar qoldirganlar. O'zbeklarning alohida elat bo'lib, shakllanishi uzoq etnik jarayonlar mahsulidir. Ular O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq Bilan shug'ullanib kelgan mahalliy aholi: so'g'diyilar, xorazmiylar, baxtarlar, Chorvador sak-massagetlar kabi etnik guruhlar tashkil tgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryolari bo'yalaridan turli davrlarda Movarounnahirga kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etganlar. Markaziy Osiyoning keng hududida bu etnoslar asosan, turkiy va sharqiy eroniylarda so'zlashganlar.

Amudaryo va Sirdaryo havzalari oralig'inining etnik jihatdan dastlabki aralashuvi jarayoni nitajasida o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, o'zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllangan. Miloddan avvalgi III-asrda Sirdaryoning o'rta oqimida Qang' davlati hukm surgan davrda Amudaryo va Sirdaryo oralig'i va unga tutash mintaqalarda iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustivorlik qilib, o'ziga xo suyg'unlashgan madaniyat yuzaga keladi. Arxeologik va tarixiy majmualarda bu madaniyat "Qovunchi

madaniyati" nomi bilan qayd etilgan. Antropolog olimlarnig ta'kidlashicha, aynan shu davrlarda O'rta Osiyoning vodiysi va vohalarida yashovchi aholining tashqi qiyofasida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos O'rta Osijo ikki daryo oralig'i antropologik tipii to'liq shakllandi.

O'zbek xalqining etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar kushonlar hamda IV-V-asrlarda O'rta Osiyoning markaziyi viloyatlariga Olttoy, janubiy Sibir va Sharqiy Turkistondan kirim kelgan xioniy, kadariy va eftalillardir. Shuningdek, o'zbeklar etnogenenizinga O'rta Osiyoning markaziy mintaqalari (Toshkent vohasi, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylari va Xorazm) kelib o'troqlashgan turkiy etnik komponentlar faol ta'sir ko'rsatadi. Bu komponentlar va mahalliy aholi o'rtasidagi etno-madaniy munosabatlarning rivoji natijasida Yangi qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo'jalik an'analari bilan jadal uyg'unlashuvi yuz beradi. VII-asrning 30-yillaridan boshlab o'l kamiz "Turkiston" nomi bilan atala boshlagan.

VIII-asrda arab va ajam xalqlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi bllan mahalliy aholining etnik tarkibida ma'lum darajada o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lsada, ammo mintaqadagi etnik jarayonlarga kuchli ta'sir etmagan. Bu davrda Movarounnahirdagi o'troq va yarim o'troq turkiyzabon aholi, so'g'diyilar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida arablar hukmronligida yashaganlar.

IX-XI-asrlarda Movarounnahrdha yahlit turkiy qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kelib, o'z navbatida so'g'diyilar va boshqa mahalliy etnoslar Bilan integratsiyalashuv jarayoni jadallahsgan. Bu davrda Movarounnahir va Xorazmda turkiy etnik qatlam asosini aksariyat ko'pchiligi o'troqlashgan turg'un turkiy etnoslardan iborat bo'lgan.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahir va Xorazmda siyosiy hokimiyyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan sodir bo'lgan etnik jarayonlar o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ldi. Aynan shu davrda o'zbek xalqiga xos elatni belgilovchi hududiy, madaniy-ma'naviy umumiylilik, etnik o'zlikni anglash ma'lum bir davlat doirasidagi etnik uyushqoqlik, din umumiyligi kabi etnik omillar shakllandi. Bu davrda o'zbeklarning umum elat tili qaror topadi. Umuman olganda, elat shakllanishidagi muhim ahamiyatga molikaksariyat etnik alomatlar shakllanib yetiladi. Shunday qilib, asrlar Osha yurtimizda kechgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatda muttasil davom etgan etnik jarayonlar natijasida XI-XII-asrlar boshlarida o'zbek xalqi shakllandi.

O'zbekiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishi XX-asrning 2-yarmidan boshlab podsho Rossiysi bosib olgandan so'ng keskin o'zgardi. Bu holat aholi soni, milliy va yosh-jinsiy tarkibi, ko'payish sur'atlari, joylashish xususiyatlarida aksini topdi. Rossiyadan dehqonlar ko'chirilib, Mirzacho'lga joylashtirildi, Sharqiy Turkistondan uyg'urlar

ko'chirilib keltirilib, Respublika sharqidagi tog' vodiylarida ular uchun joy ajratildi. 1899-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq O'zbekiston hududida 3,9 mln kishi yashagan, shundan 19 % shahar aholisi edi. Tub aholining migratsion harakatchanligi past bo'lган. Aholining ko'chib keluvchilar hisobiga o'sishi podsho hukumati mustamlakachilik siyosatining natijasi edi. Shu siyosat tufayli o'lkada Yangi-yangi qishioq va shaharchalar barpo etildi. Biroq, shunga qaramay 1865-1900-yillarda aholi 0,6%ga ko'paydi. XX-asrning 1-choragida ham aholi o'sishida sezilarli o'zgarish bo'imadi. 1924-40-yillar davomida O'zbekiston aholisi 2,3 mln kishiga oshdi, aholining o'sishi yiliga 3% ga teng bo'ldi.

II-jahon urushi O'zbekiston aholisining soniga, uning tarkibi va joylashuviga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urush natijasida respublika 1 mlndan ortiq aholisini yo'qotdi. Aholining umumiy soni 1940-45-yillarda 6,6 mln. kishidan 5,2 mln. kishigacha kamaydi.

Urushdan keyingi davrda aholi o'sish sur'atlarida ijobiy o'zgarishiar bo'ldi. Aholining soni 5,2 mln.dan 8,4 mln.gacha ko'paydi. Bunda ham sofabitiy ko'payishdan ko'ra chetdan ko'chirib kltirilgan aholining salmog'i kata bo'ldi. XX-asrning 60-80-yillarida Respublika aholisi tarkibida o'zbeklarning soni imuntazam ravishda yuqori sur'atlar bilan ko'payib bordi. 1989-yilda o'zbeklar salmog'i Respublika ahollsining tarkibida 91,4 % ni tashkil etgan.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishi uning demografik tarixida mazmunan yangicha bosqichga o'tishni taqozo etdi. Respublikada bozor munosabatlarining shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sharoitlarning o'zgarishi natijasida Yangi demografik jarayon boshlandi: tug'ilish kesikn kamaydi, mamlakatdagi slavyan xalqlar, yahudiy, mesxeti turk, grek, ukrain, nemis va boshqa xalqlarning ma'lum qismi o'z tarixiy yurtlari va boshqa xorijiy davlatlarga ko'chlb ketdi. Eng katta manfiy migratsiya sadosi 1990-yilda kuzatilib, 181,2 ming kishini tashkil etdi. Mazkur demografik jarayonlar O'zbekiston aholisining o'sish sur'atlarining qisqarishiga olib keldi. Keyingi 15 yil davomida respublika aholisi 4,8 mln. ga ko'paydi, o'sish sur'ati 1,8% ni, o'rtacha yillik mutlaq ko'payish soni 400 ming kishini tashkil qildi.

Mamlakat demografik vaziyatining uch xususiyati qayd qilinadi: a) O'zbekiston o'ziga xos geografik va tabiiy-iqlim shart-sharoitlariga egaligi, tabiiy resurslar va energiya zahiralariga boyligi tufayli asrlar davomida aholi miqdorining kattaligi bilan ajralib kelgan; b) mamlakat aholisi tarkibi erkaklar va ayollar miqdori orasidagi mutanosiblikning optimalligi, yoshlarning ko'pligi, mehnatga layoqatlari kishilar sonining kattaligi bilan xarakterlanadi; v) O'zbekiston aholisi Toshkentdan g'arbroqda va shimoliq'arba siyrak, Farg'ona vodiysida esa zinch joylashgan; aholining katta qismi qishloqda istiqoniat qiladi.

O'zbekistondagi demografik vaziyatning bu xususiyatlari quyidagi tendensiyalar ta'sirida o'zgarib bormoqda:

1. Mamlakatda aholi o'sishi sur'atlari sekinlashdi. XX-asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi o'sish sur'atlari Osiyoda Xitoydan keyin ikkinchi o'rinni egallagan, sobiq Sovet Ittifoqida 1917-1991-yillar mobaynida aholi soni qariyb 5,5 barobarga o'sgan bo'lsa, bugungi kunda aholining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari ancha sekinlashdi va 2007-yilda 1000 aholi soniga nisbatan 17,5 kishini tashkil qildi.

2.O'zbekistonda bolalar tug'ilishi miqdori kamaydi. Qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida mamlakatdagi tug'ilish koeffitsienti 2008-yilda 22,7 promilleni tashkil qilgan bo'lsa, 2009-yilda bu ko'rsatkich 20,6 promillega tushdi. Biroq tug'ilish koeffitsientini barcha mintaqalarda bir xilda deb bo'lmaydi. Masalan, Quyi Amudaryo va Mirzacho'l mintaqalarida u mutanosib ravishda 20,7 va 15,4 promilleni, Zarafshon va Farg'ona vodiylarida esa 20,2 va 19.0 promilleni tashkil qilgan.

3. Mamlakatda bolalar o'limi koeffitsienti kamayib bormoqda. "Ona va bola" dasturining amalga oshirilishi, yosh avlodni sog'lomlashtirish muammolarini bartaraf etishga qaratilgan maxsus qarorlar qabul qilinishi, bolalar sog'lig'ini saqlash muassasalarida mutlaqo yangi xarakterdagi tibbiy preparatlar va metodikalarning qo'llanila boshlanishl, oila manfaatlarining muhofaza qilinishi tufayli mamlakatimizda onalar o'limi darajasi 2 baravardan ko'proq, bolalar o'limi 3 baravarga kamaydi.

4. O'zbekistonda iqtisodiy faol aholi sonining oshishi kuzatilmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning o'zbek modeli asosida amalga oshirilgan islohotlar mehnat bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada iqtisodiy faoliyatga jalb etilganlar soni oshib bordi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asoslanadigan bo'lsak, 2000-2007-yillar mobaynida respublikamizda iqtisodiy faol aholi soni 2 million 280 ming 800 kishiga ko'paygan.

5.O'zbekiston aholisi tarkibida erkaklar soni ayollar soniga qaraganda tezroq ko'payib bormoqda. 2001-yilda mamlakatdagi ayollar 12449,2 mingtani, erkaklar 12350,8 mingtani tashkil qllgan. Ular o'rtasidagi nisbat 98,4 mingga yetgan. 2004 yilda O'zbekistondagi ayollar soni 12876,0 ming kishidan, erkaklar soni 12831,4 ming kishidan iborat bo'lган. Ular o'rtasidagi nisbat atigi 45,6 ming kishini tashkil etgan.

6. O'zbekistonda erkaklar va ayollarning umri davomiyligi oshib bormoqda. Mamlakatimizda mustaqilligimizning qariyb 27-yill mobaynida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 74 yoshga, ayollarning o'rtacha umr ko'rish esa 75 yoshga oshdi. Albatta, bu rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlariga qaraganda ancha past. Biroq jahoning rivojlanayotgan mamlakatlari va MDHning tegishli ko'rsatkichlari bilan

taqqoslaganda. O'zbekistondagi koeffitsientlar ancha yaxshiligi ma'lum bo'ladi.

7. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi ko'lami ortib bormoqda. Mehnatga yaroqli aholi orasida o'zga mamlakatlardan ish izlash tendensiyasi, ya'ni mehnat migratsiyasi yuzaga kelyapti. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, mehnat migratsiyasi mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 7-8 foizini qamrab olmoqda. Bu oqim asosan Rossiyaning turli mintaqalariga va Qozog'istonning janubiy viloyatlariga yo'nalgan. Mutaxassislar Rossiyada 400-450 mingga yaqin hamyurtlarimizning mehnat qilayotganini qayd qiladilar.

XIX-asrgacha dunyo aholisining soni ancha sekin o'sib, 1820-yilga kelib 1 milliard kishiga yetdi. Bu jarayon aholining tabiiy o'sishi pastligi bilan belgilangan edi, chunki o'tgan tarixiy bosqichlarda ham tug'i lish, ham o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, ular orasidagi farq juda kichik darajada edi. Lekin 1 milliarddan 2 milliardgacha ko'payish uchun insoniyatga birmuncha kamroq vaqt, ya'ni 107 yil kerak bo'ldi (1820-1927-yillar orasi). Keyingi yillarda dunyo aholisi soni yanada tezroq o'sib bordi. 1960-yilga kelib dunyo aholisi 3 milliard kishiga yetdi. 1975-yilga kelib 4 milliard kishi, 1987-yilda 5 milliard kishi, 1999-yilda 6 milliard kishi, 2011-yilga kelib esa 7 milliard kishiga teng bo'ldi. 2017-yil holatiga jahon aholisi soni 7,5 milliard kishi atrof da va o'sishi davom etmoqda.

Demak, XIX-asrning ikkinchi yarmiga kelib jahon aholi sonining ko'payishi keskin tezlashdi. Bu jarayon fanda demografik portlash deb ataladi. Bu hodisaning sababi – ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnika taraqqiyoti tufayli aholining turmush darjasini yuksalishi, yashash sharoiti yaxshilanishi va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi, odamlarning o'rtacha umr davomiyligining o'sishi, o'lim darjasini esa pasayib ketganligidir. Dastlab demografik portlash XIX-asrning boshi – XX-asrning birinchi yarmida G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada ro'y bergan bo'lsa, XX-asrning ikkinchi yarmida esa Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyadagi rivojlanayotgan mamlakatlar aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishida o'z aksini topdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi yuqori tezlik bilan o'sib kelgan bir paytning o'zida, Yevropa davlatlari va Yaponiyada aholining tabiiy ko'payishi keskin sekinlashdi. Hattoki, ayrim hollarda tug'ilish o'limdan ham pastroq darajaga tushib ketib, aholining tabiiy kamayish (depopulyatsiya) jarayoni ham ro'y berdi.

Demografik portlashdan keyingi tug'ilishning pasayib ketish jara yoni sabablarini demografik o'tish nazariyasi yordamida izohlash mumkin. Bu nazariyaga ko'ra. jamiyatda aholining takror barpo bo'lishi 4 ta bosqichdan o'tib o'zgarib boradi. Dastlabki. I-bosqichda tug'ilish bilan o'lim juda yuqori bo'lib, orasidagi tafovut, ya'ni aholi tabiiy ko'payishi minimal darajada

saqlanadi. Bunday demografik vaziyat “an’anaviy turg‘unlik” deb ataladi. Keyingi, 2-bosqich davomida o‘lim darajasi keskin kamayib, yuqorida ta’riflangan demografik portlash hodisasi ro‘y beradi. Demografik o‘tishning 3-bosqichida o‘limning pasayish jarayoni o‘z poyoniga yetib, tug‘i lish darajasi kamayishni boshiaydi. Tug‘ilishning pasayib ketishi aholining yashash tarzi o‘zgarganligi (shaharlashuv, sanoatlashuv, mehnat unumdarligining yuksalishi, tibbi yotning rivojlanishi, ayollarning jamiyatdagi o‘rni o‘zgarishi va hokazo) natijasida yuzaga keladi. Yakuniy, 4-bosqichda esa tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari ancha past bo‘lib, tabiiy ko‘payish minimal darajada kuzatiladi va “zamonaviy barqarorlik” deb ataluvchi demografik vaziyat vujudga keladi. Ba’zida demografik o‘tish jarayoni bu holat bilan chegaralanib qolmasdan, depopulatsiya bosqichiga ham o‘tib ketadi.

Dunyoning turli mamlakatlari demografik o‘tishning har xil bosqichini boshdan kechirmoqda. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi rivojlangan mamlakatlar 4-bosqichda bo‘lib, tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishining pastligi bllan ajralib turibdi. Osiyoda Janubiy va Shimoliy Koreya, Singapur, Tailand va hattoki aholi soni jihatidan dunyoda yetakchilik qilayotgan Xitoy ham demografik o‘tishning yakuniy bosqichiga kirdi. Lotin Amerikasi va Okeaniyaning ayrim rivojlanayotgan inamlakatlarida ham o‘xhash demografik vaziyat kuzatilmoqda. Tug‘ilish va aholining tabiiy ko‘payishining eng past ko‘rsatkichlari esa Vengriya, Bolgariya, Serbiya, Ruminiya, Latviya, Litva, Ukraina kabi Yevropaning o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlariga xos. Bu davatlarda bir necha yildan buyon aholining tabiiy kamayishi sodir bo‘lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi demografik o‘tishning 3-bosqichini kechirmoqda, ularda tug‘ilish ko‘rsatkichlari asta-sekin pasayib bormoqda. Demografik o‘tish jarayonining eng past sur’atlari esa Afrika davatlari uchun xos. Ayniqsa, G‘arbiy, Markaziy va Sharqi Afrika mamlakatlarida tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishining yuqori darajalari saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2016-yil yakunlari bo‘yicha, jahonning aholi tabiiy ko‘payish sur’atlari bo‘yicha 10 ta yetakchi davlat ichida 9 tasi Afrika materigida joylashgan, birinchi beshlikdan esa faqat Afrika mamlakatlari (Malavi, Uganda, Burundi, Niger, Mali) joy olgan.

Demak, dunyoning eng rivojlangan davatlari hamda o‘tish iqtisodiyotidagi ko‘p davlatlar demografik o‘tishni yakunlab qo‘ygan bo‘lsalar, Afikaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan eng sust rivojlangan mamlakatlari 2-bosqichdan 3-bosqichga o‘tish arafasida turibdi. Shuning uchun hozirgi sharoitda dunyo aholisi, asosan, rivojlanayotgan va eng qolq mamlakatlar hisobiga ko‘payib bormoqda. Hozirgi davrda dunyo aholisi har yili o‘rtacha 70–80 mln kishiga ko‘paysa, bu ko‘payishning 97% Afrika, Osiyo va Lotin

Amerikasining rivojlanayotgan davlatlariga to‘g‘ri keladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning demografik vaziyatidagi tafovutlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, shaharlashuv, aholining turmush tarzi va an'anaviy qadriyatlarning saqlanganlik darajasi kabi omillar bilan bog‘liq.

Dunyo va yirik regionlarning asosiy demografik ko‘rsatkichlari (2016-y.)

Hududlar	Tug‘ilish (Har 1000 kishi)	O‘lim (Har 1000 kishi)	Aholi tabiiy ko‘payishi (Har 1000 kishi)
Dunyo	20	8	12
Rivojlangan davlatlar	11	10	1
Rivojlanayotgan davlatlar	22	7	15
Yevropa	11	11	0
Osiyo	18	7	11
Afrika	36	10	26
Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada)	12	8	4
Lotin Amerikasi	17	6	11
Avstraliya va Okeaniya	17	7	10

Tabiiy ko‘payishning yuqori sur’atlari saqlanishi yoki o‘ta past darajaga tushishi mamlakat iqtisodiyoti uchun turli muammolarni keltirib chiqaradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu muammolar ishsizlik, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi kamchiliklar bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda ular mehnat resurslari yetishmasligi, nafaqa va soliq tizimlarining beqarorligida bilinadi. Ayrim davlatlar demografik vaziyatini o‘zgartirish maqsadida maxsus moddiy, ma’muriy va targ‘ibot choralarini qo‘llab kelmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan bunday choralar tizimi demografik siyosat deb ataladi. Demografik siyosat, asosan, ikki xil: mamlakat aholisi tabiiy o‘sishini kamaytirishga qaratilgan yoki uni ko‘tarish maqsadini ko‘zlaydigan bo‘ladi. Birinchi yo‘nalishdaggi demografik siyosat tajribalari Xitoy, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Eron va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda mavjud bo‘lsa, ikkinchisi Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Demografik statistika nimani o'rgatadi?
2. O'zbekistonda demografik statistika qachondan boshlab vujudga kelgan?
3. Demografik vaziyat inson taraqqiyotida qanday o'rinni egallaydi?
4. Demografik vaziyatga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. O'zbekistonning demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari niinlardan iborat?

11-§. GLOBALIZATSIYA VA INSON TARAQQIYOTI REJA:

1. Globalizatsiyaning Inson taraqqiyotidagi o'rni.
2. Globalizatsiya rivojiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Globalizatsiyada "butun jahon o'rgimchak to'ri"ning ahamiyati

Tayanch so'z va iboralar: *Globalizatsiya, ma'lumotlar to'ri, virtual muhit, moliyaviy inqiroz, informatsion to'lqin, gegemon davlatlar, internet, global texnologiya, xalqaro terrorizm, kiberjinoyat, kiberterrorizm.*

Har bir inson o'zining vaqtini bilan yashaydi va har bir insondan o'zining takrorlanmas xarakteriga egadir. Bizning davrga to'xataladigan bo'lsak, biz globalizatsiya va informatizatsiya jarayonidan o'tishimizga to'g'ri keladi. Bizning davrda odamzod ma'lumotlar to'ri ostida yashamoqda. Bunday holat hayotimizning har bir jabhasida xususan, maorif tizimi, ish va boshqalarda kuzatilmoqda. Inson taraqqiyoti, bilimlar uyg'unlashuvi, dunyoqarashning kengayishi ularning almashinuviga bo'lgan ehtiyoj tufayli turli xil aloqa vositalarining tarqalishi va kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Shu yo'sinda informasion soha degan yo'nalish ham paydo bo'lib bordi. Hanuzgacha u jamiyatning hayotiga bevosita ta'sir o'tkazib kelmoqda. Bugungi kunda informatsion kommunikatsiyadan barcha jabhalarda xususan ishlab chiqarish, iqtisod, siyosat, harbiy va boshqalarda keng qo'llanilmoqda. Ta'kidlab o'tish lozimki, insonning bu sohadagi faoliyati shundan iboratki, u vaziyatga xususan bozordagi sharoitga qarab kerakli ma'lumotni taqdim etishi lozim. Biroq ma'lumotni keragidan ortiq berish va uning miqdorini oshirish, shunday holatga olib keladiki, inson uni tizimlashtirish, turli tarafдан hollsona yondashuvga imkoniyatsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun u ko'proq boshqa kishilarning fikrlari bilan ish ko'rishga majbur bo'lib qoladi. Bu jamiyatni maxsus informatsiya vositasida boshqarish, ta'sir qilish imkonini beradi. Informatsiyaga boy bo'lgan va doimiy ravishda o'zgarib turgan dunyoda aniq yo'nalishni yoqotish tufayli, haqiqatdan yiroqlashish, atrof muhitda sodir bo'layotgan voqealarni yaxshi anglay olmaslik, dunyoga obyektiv ko'z bllan qaray olmaslik kabi kamchiliklarni keltirib chiqarishi

mumkin. Ayniqsa bugungi kunimizda. O‘z muammolarimiz to‘lib toshib yotganida, barqarorlikni sezmay qolganingda, biz o‘zimizni virtual muhitga tashlaymiz. U yerda bizning yurish turishimiz, boshqalarning fikrlari va o‘y mulohazalaridan iborat bo‘lgan kommunikativ informatsiya tufayli o‘zgarib boradi. Ayni kunlardagi vaziyatni shunga misol qilib keltirish mumkin. Insonlar tobora kommunikatsiyaga o‘rganib borishmoqda. Misol uchun 2008-yilning ikkinchi yarmida moliyaviy inqiroz degan tushuncha paydo bo‘ldi. Ruhiyatga aralashgan informatsion to‘lqin katta kuch bilan inson ongini egalladi. Bu esa uning yashash tarziga ham ta‘sir etdi. Ayniqsa bu narsa ishlab chiqarish sanoatida ko‘proq kuzatildi. Inson o‘ziga ko‘proq: “Inqiroz, yetishimovchilik, bankrot, qullash, imkonsizlik, qarzlar” kabi tushunchalarni singdirib informatsion to‘lqining asiriga aylanib qolmoqda. Ammo aytishadiku, “Pashshadan fil yasamaslik darkor deb”. Bugungi kunda jamiyatda sodir bo‘layotgan voqeа va hodisalar o‘zidan so‘ng muammolarni keltirib chiqarmoqda va biz bugun buni kuzatib turibmiz. Gap ishsizlik degan muammoda ham emas, gap bizning ongimizda o‘y fikrlarimizda. Biz xuddi bir baloi-ofat yaqinlashib kelmoqda deb qabul qilishga o‘rganib qolmoqdamiz. Ongimizga singdirilayotgan axborat esa bizning kar’eramizga ijobiyligi ta’sir qillshi aniq bo‘lgan qadaqlarni tashlay olmaypmiz. Kelajakda biz informatsiyaga o‘zimizni bog‘lab qo‘ymoqdamiz. Ya’ni o‘zimizga o‘zimiz muammoni keltirib chiqarib keyin undan sakrab o‘tmoqchimiz. Bir hisobda bu raqobat bozorida o‘zini ko‘rsatish uchun yaxshi imkoniyat ham bo‘lishi inumkindir. Bunday vaziyatlarda insonning ongi yaxshi ishlaydi va bu o‘z o‘zidan yangi g‘oyalar va innovatsiyalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Xulosa sifatida shuni alohida ta‘kidlashni o‘rinli deb bildik. Agarda vaziyatni o‘zgartira olmasangiz, u holda unga nisbatan munosabatingizni o‘zgartiring! O‘shanda marra ham, yutuq ham sizniki bo‘ladi! Xalqimiz o‘tmishida ma’naviyati yuksak insonlar ko‘p bo‘lgani va bunday insonlar tomonidan ulkan ma’naviy boyliklar meros ekan sizga yaxshi ma’lum. Diniy-dunyoviy va ilmiy mavzularda yetuk asarlar bitgan bu zotlar ayni paytda shaxsiy hayotlarida ham yuqoridagi mezonga mos edilar. Bugun-chi? Bugun ilmnинг ilgari egallah amrimahol bo‘lgan cho‘qqilarni zabit etayotgani da’vo qilinmoqda. Bu gapda haqiqat bor: taraqqiyot hozir inson hayotiga ko‘p farovontik, yengillik keltirdi.

Globallashuv (Glabilizatsiya) – lotinchcha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurrelashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat extiyoridagi xuddi bir butun bir sharga, kurraga aylanishini tushunish mumkin.

Jahon miqyosida globallashuvning paydo bo‘lishiga imkon bergan quyidagi omillarni sanab o‘tish mumkin: temiryo‘llar, aviatsiya, radio, telefon, telegraf, televideniye, internet tizimi, yerning suniy yo‘ldoshlari, kino, kundalik matbuot va boshqalar.

Globallashuv sabab keng jahon kichik bir qishloqqa aylandi. Iqtisodiy maqsad-manfaatlар dunyoning siyosiy chegara va to'siqlaridan oshib o'tib, jahонни bir xil qонунлар asosida ishlaydigan yagona bozorga birlashtirdи. Lекin taraqqiyot, ilm-fan qanchalik rivojlanayotgan bo'lsa, shu bilan bab-barobar qarama-qarshi tomonga ma'naviy qadriyatlar tanazzulga yuz tutib boryapti. Chunki globallashuv keltirgan moddiy farovonlik, asosan, faqat tanga rohat berishga xizmat qilmoqda. Bugungi taraqqiyot bizga in'om etgan ne'matlar haqida bir o'ylab ko'ring. Kompyuter texnologiyalari, sun'iy yo'ldosh berayotgan imkoniyatlar, internet va hokazo. Bular mutaxassislar qo'lida taraqqiyotni yanada jadallashtirishga xizmat qilayotgan bo'lsada, ayni paytda oddiy avom xalq – ular foydalanuvchilarning aksariyatini tashkil qiladi – bu vositalardan faqat ko'ngilxushlik uchun foydalanyapti. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihat, u hozirgi sharoitda mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariiga xizmat qilmoqda. Avvalo, iqtisodiy va siyosiy darajada globallashuv ayrim yirik trans va multinatsional korporatsiyalar manfaatigagina xizmat qiluvchi tizimdir. Unda qashshoq davlatlarga beg'araz yordam berish, biror davlat yoki xalq farovonligi uchun xizmat qilish kabi maqsadlar bo'lmaydi. Ularga iste'mol qilish quvvatiga ega mijozlar bo'lsa bas. Agar birov globallashuv yo'liga to'g'anoq bo'lsa, undaylar shafqatsizlarcha jazolanadi. Tizim shu darajada yaxshi ishlyaptiki, globallashuv qobig'ida o'z manfaatlari uchun ishlovchi davlat va iqtisodiy guruhlar yer yuzasidagi har bir tirik jonni o'z maslaklariga ishontira oladi. Bugun dunyodagi gegemon davlatlarning xalqaro maydonda "xalqlar ozodligi" uchun olib borayotgan urushlari aslida bir necha bankir, moliya guruhlari va transnatsional korporatsiyalar buyurtmasi bilan olib borilayotgan ishlardir. Ma'naviy va xususiy darajada globallashuv insonni quruq iste'molchiga aylantiradi: baxt moddiy farovonlik bilan belgllanadi. Yashashdan maqsad maksimal darajada hayotdan lazzatlanishdangina iborat bo'ladi. Bu yerda ruhiy-ma'naviy qadriyatlarga, e兹gullik, savob, birovga beg'araz yaxshilik qilish kabi oliy tushunchalarga o'rин yo'q. "Birovga zararing yetmasa bas, istaganingni qilishing mumkin". Bu aqida qolipsiz demokratiya qobig'ida yanada chiroyli va adolatli ko'rindi. Shu o'rinda oddiy bir mantiq yuzaga chiqadi. Mana shunday aqida bilan kun kechirayotgan insonlar "tepa" lariga ham o'zлари kabi odam o'tirishini istaydi. Bejizga ayrim G'arb o'lkalarida saylovda ishtirot etayotgan nomzodlar besoqolbozlikni qonuniylashtirishdek har qanday din va ma'naviyat la'natlagan odatlarni o'z saylov dasturlarida ko'tarib chiqayotganlari yo'q. Italiyalik bir siyosatchidan, nega siz saylov dasturingizda xorijdan kelib noqonuniy ishlaydigan fohishalar ishini taqiqlash haqida gapirmaysiz, deb so'rashganda, men millionlab erkak saylovchilarimni boy berishni istamayman, deb javob bergen ekan. Jamiyatning chirigan jasadi ana shunday

tarzda tepaga chiqib qoladi. Davlatdag'i ma'nani buzuq insonlarning ovozini to'plash, ularning ko'nglini xushlash uchun xalq boshida turishdek mas'uliyatli lavozimga da'vogar kishilar buzuq, jirkanch odatlarni qonuniylashtirishgacha yetib borishyapti. Ayni shu misollarda globallashuv va uning bugungi ma'naviyatga ta'siri, umuman, zamonaviy dunyoda inson qanchalar tanazzulga yuz tutib borayotgani yaqqol namoyon bo'ladi. Global axborotlashuv asrida zamonaviy ommaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, radiotelevidenie, Internet tarmog'isiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, internetning imkoniyatlari keng va cheksiz bo'lib, u gazeta, radio va hatto televideniedan ko'ra ham kuchliroq ta'sirga ega. Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqliq, sisfat va tasirchanlikni ta'minlash, axborotni global miqyosda keng yoyilish imkoniyatlarini ochib berishi "butun jahon o'rgimchak to'ri"ning ahamiyatini, undan foydalanish ehtiyojini orttirmoqda. O'zbekistonga ham Internet shiddatli qadamlar bilan kirib kelmoqda va kundalik hayotimizda o'zining o'ringa ega bo'immoqda. 2008-yilga kelib O'zbekistonda Internet foydalanuvchilari soni 2 min 200 ming kishidan oshib ketdi. Fan-teknikaning yutuqlari insoniyat foydasiga, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi ijobjiy holat. Lekin, virtual olamdan ayrim kuchlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganligi ham haqiqatdir. Afsuski, elektron dunyonи turli siyosiy kuchlar, terroristik, ekstremistik-tashviqotlar va g'oyalarni targ'ib qiluvchi, har-hil jinoiy to'dalarning faoliyatlarini amalga oshirishlariga va o'z qarashlarini ommaga targ'ib qilishlariga ham ko'maklashmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstrimizmning "Al-Qaida", "Hizb ut-tahrir", "Hamas" kabi yirik tashkilotlarining tahdidlari, Internet tarmog'ida ham o'zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, umumjahon kompyuter tarmog'ida keng qamrovli axborot terrorini, "muqaddas urush" – "elektron-jihod"ni olib borayotganliklari, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahidlar va yangi muammolar paydo qilayotganliklari, ayni paytda, globallashuv sharoitida, dunyo mamlakatlarining oldida axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini keltirib chiqarmoqda. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlar bilan yo'g'irilgan giyohvand moddalar iste'mol qilish, sotish, axloqsizlik, zo'ravonlik, qotillik va millatlararo, dinlararo va irqiy murosasizlik keltirib chiqarishni keng targ'ib qiluvchi, terrorchilik va ekstremistik tashkilotlarga xizmat qilayotgan saytlar faoliyatlarini amalga oshirishda davom etmoqdalar. Ularning terrorchilikka, jinoyatga undovchi resurslar bilan to'lib-toshib borishi insonlar ongini, ayniqsa yoshlarni tezda o'ziga jalb qilyapti. Qo'poruvchilik, harbiylar va tinch aholini qyinoqlarga solish, ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan usullar bilan jazolash sahnalari namoyish etish orqali, vahima uyg'otish, tinch hayot tarzini izdan chiqarish, g'oyaviy porokandalik yuzaga keltirish maqsadida, shuningdek ma'naviyatga zarar etkazadigan, aqidaparastlik ruhida yo'g'irilgan, o'z mafkuraviy

ta'sirlarini muttasil tarzda saqlab turishga qaratilgan manbalar tobora xavfi ko'rinish kasb etib borinoqda. Bu kabi axborotlar nafaqat alohida olingen yagona bir yoki bir necha davlat uchun, balki butun jahon hamjamiyati uchun katta xavf tug'diradi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ushu muammoni bartaraf etishning ishonchli vositalarini, mukammal dasturlarini ishlab chiqishga xarakat qilinmoqda, katta miqdordagi mablag'lar ajratilmoqda, ko'plab saytlar filtirlab qo'yilmoqda. Albatta, xaqli ravishda savol tug'iladi, O'zbekistonda yuqorida aytib o'tilgan muammolar ta'sirlariga tushib qolmaslik uchun, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an'ana va urfodatlarga, xalqni e'tiqodiga, ma'naviyati va madaniyatiga, ongi va tafakkuriga zarar etkazadigan yot mafkura va qarashlardan saqlash uchun nimalar qilinyapti va nimalar qilish kerak bo'ladi? Internet olamini cheklab yoki malumotlar olishni to'xtatib qo'yish bilan masala xal bo'lmaydi. Bu hususida Shavkat Mirziyoyev quyidagicha to'xtaladi "Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 29-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekistonning turli tuzilimalari tomonidan axborotlarni uzatish tarmoqlarida ta'lim va yoshlar bo'yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona ZiyoNet axborot tarmog'iga birlashtirildi. Tarmoqning asosiy vazifalari: yoshlar uchun milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, yoshlarning ma'naviy va aqliy jihatdan kamol topishiga ko'maklashadigan axborotdan keng ko'lamda foydalanishlarini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va jismoniy tarbiya va sport turlarini ommalashtirish, o'quvchilar va yoshlar uchun masofadan turib ta'lim olish usullarini va boshqa axborot-kommuni katsiya xizmatlarini ta'lim tizimiga joriy etishda ko'maklashishdir. Ma'lumki, ko'plab sayt va tarmoqlar katta mablag'lar evaziga filtirlab qo'yilgan va bu holatni ko'plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta taqiqqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy

axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin. Internetdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning foydali manbalari asosida o'z dunyoqarashini kengaytirish, g'arazli ma'lumotlarni inkor eta bilish idrokini, maskuraviy immunitetni hosil qilish g'oyat muhim jihatdir. Har bir yosh ma'lum bir ko'nikma va bilmlarga, diniy va dunyoviy ilmlarni mohiyatini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga befarq bo'lmasligi lozim. Buni avvalo, o'zining taqdiri, kelajagi oldidagi ma'suliyat deb bilsa, ikkinchidan, vatani va xalqi oldidagi burchi sifatida tushunmog'i lozim. Internet tarmog'i ham, kashf qilingan har qanday fan yutuqlari singari o'zining ijobjiy va salbiy jihatlariga ega. Global tarmoqning hayotimizdag'i o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligi, insoniyat uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini asoslashga hojat yo'q. Xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlarni virtual olam orqali o'z ta'sirlarini o'tkazishga harakat qilishlari ham tabiy holat. Qachonki hamma davlatlar terrorizm havfini, xalqaro, hududiy va milliy xavfsizlik va barqarorlikka, umuman insoniyatga fojeali global havfini tushunib, birgalikda harakat qilganlaridagina yaxshiroq natijalarga erishilgan bo'lardi. Jamiyatni global axborotlashtirish – axborot resurslarini faol shakllantirish va ulardan keng miyosda foydalanish global, umumbashariy jarayonidir. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida ishlab chiqarishning odatdag'i texnologik usuli va turmush tarzi kibernetika vositalari va usuliaridan foydalanishga asoslanadigan yangicha, postindustrial shakl-shamoyil va mazmun-mohiyat kasb etadi. Axborot jamiyati – postindustrial jamiyat konseptsiyasi; sivilizatsiya rivojlanishining yangi tarixiy bosqichi bo'lib, unda axborot va bilim ishlab chiqarishning bosh mahsullari hisoblanadi. Axborot jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari:

- jamiyat hayotida axborot va bilimlar rolining ortishi;
- yalpi ichki mahsulotda axborot kommunikatsiyalari, mahsullari va xizmatlari ulushining ko'payishi;
- quyidagilarni ta'minlovchi global axborot maydonining yaratilishi: a) odamlar samaralii informatsion o'zaro aloqa qilishini; b) ular jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishini; v) ularning axborot mahsullari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishini.

Ma'lumki, davlat va jamiyat qurilishida insonning o'rni va uning shaxs sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olganda shaxs va uning kamoli muammosi ijtimoiy fanlar: sotsiologiya, falsafa, psixologiya, insonshunoslik kabi fanlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv va modernizatsiyalashuv jarayonida shaxsning o'z-o'zini anglashi, aniqlashi identifikatsiyasi muammosi dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Bu esa shaxs va jamiyatning uzviy aloqada bo'lishini, xususan, shaxsning yuksak kamol topishidagi o'ziga xos muhitning shart-sharoitlar hamda jamiyatdagi tub o'zgarishlar sodir bo'lishi

bilan uyg'un holda kechmoqda. Zero, axborotlashgan jamiyatning inson hayotidagi o'mi va roli hamda shu asosda shaxsning ijtimoiylashuv-siyosiyashuviga bo'lgan ta'siri bilan belgilanadi. Xususan, axborot oqimining kuchayuvi, uning son va sifat jihatidan xabarning tez va aniq uzatilishi shaxsning onggi va qalbi orqali o'tmoqda. Bu esa o'z-o'zidan har bir axborot, tarqatilayotgan turli-tuman xabarlarning shaxs ong va tafakkuriga ta'siri bilan o'lchanadi. Ushbu axborotning shaxsga qanday ta'sir etishi eng avvalo uning bilim darajasi (ommaviy, ilmiy, kundalik ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy), dunyoqarashi hamda dunyoni his etishi idrok etishi bilan belgilanadi. "Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmasligimi o'zimizga yaxshi tasavvur etamiz". Shaxs dunyoqarashiga axborotning ta'sir kuchi eng avvalo axborotni uzatilishi, qabul qilinishi ongda qayta ishlanishi hamda ma'lum bir xulosa qilinishi bilan amalga oshadi. Shu nuqtayi nazardan axborot olish va uni o'zlashtirish modelini ishlab chiqqan fransiyalik olim J.Dyuran aynan inson omiliga e'tibor qaratadi. Uning fikricha kommunikatsiya tizimining asosini tashkil qiluvchl inson axborotni qabul qilib oluvchi obyekt sifatida besh bosqichni boshidan kechiradi. "Birinchi bosqich – axborot bilan ilk to'qnashuv bosqichi bo'lib, bu bosqichda retsipient individ u yoki bu harakat amalga oshirish yoki amalga oshirmslik haqida qaror qabul qiladi.

Ikkinci bosqich – axborotni tushunish bosqichi bo'lib, bu bosqichda individ qabul qilib olgan axborotini o'z ongida qayta ishlaydi va uni o'zicha talqin qiladi.

Uchinchi bosqich – pozitsiyani o'zgartirish bosqichi bo'lib, bu bosqichda insonga yetkazilgan axborotlar insonga ta'sir ko'rsatib. Uning qarashlari, tuyg'ulari, pozitsiyalarini o'zgartiradi.

To'rtinchi bosqich – qabul qilingan axborotning inson ongida muhrlanishi hisoblanadi.

Va nihoyat beshinchi bosqich – inson fe'l atvoridagi o'zgarishlar bosqichi hisoblanib, bu o'zgarishlarning asosini qabul qilingan axborotlari, insonning dunyoqarashi va tashqi muhit ta'siri tashkil qiladi".

Shunday ekan jamiyatni shaxs ongiga ta'sir etishda axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch qismidan tarkib topadi: mediatizatsiya (lot. mediatus – vositachi) – axborot to'plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni; kompyuterlashtirish – axborot qidirish va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni; intellektuallashuv – axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini

rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan sun'iy intellektdan foydalanish jarayonidir. Ma'lumki, axborot quyidagicha tushuniladi: axborot tashqi muhitga moslashish jarayonida undan olingen ma'lumot, signalning mazmunimi ifodalash (N.Viner); entropiyani inkor etish (Brillyuen); kommunikatsiya va aloqa, noaniqlikni yo'q qilish jarayoni (K.Shennon); rang-barangllki ifodalash (R.Eshbi); o'ziga xoslik, yangilik, strukturalarning murakkabligi mezoni (A.Mol'); tanlash ehtimolligi (T.Yaglom), xilma-xillikni aks etish (A.Ursul); makromolekulalarning xossasi va ularning avtorepduktsiya qobiliyatiga ko'ra baholanishdir (M.Eygen); mavjud va teng variantlarda eslab qolingan bitta variantning tanlovi (G.Kastler) va boshqalarni aytish mumkin.

Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni zamonaviy axborot-texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlarni takomillashtirish deb talqin qilish lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektuallashuv jarayonlari bilan uyg'un bog'liq bo'lishi kerak. Zotan, bu shaxsning va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirishga imkoniyat yaratadi. Shu bois, globallashuv jarayonida shaxs ijtimoiy faolligini oshirishda axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan sifat jihatidan farq qiladi. Bu yerda moddiy omillar emas, balki ideal omillar – bilim va axborot birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, olingen axborot va bilim olish, ularga ishiov berish, ularni saqlash va berish jarayonida jamiyat a'zolarining aksariyati band bo'ladi. Axb dorotlashgan jamiyatda axborot ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarishni siqib chiqarmaydi, balki uning ustida qurilladi va moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki beradi. Tabiiyki, bu jarayon shaxsning ongi shuuriga ta'sir etish barobarida unga o'zining axborotning mazmun-mohiyatiga bo'lgan munosabatni ham o'zgartiradi.

Bugungi kunda demokratiyanı shakllantirishning zarur sharti bo'lgan axborotlashtirish, uning ko'lami, sur'atlari va yo'nalishi ayni jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va umuman madaniy jarayonlarga, shu jumladan fan, ta'lim, umumiyl madaniyatning globallashuv darajasiga uzviy bog'liqdir.

Axborot terrorizmi globalizatsiya mahsuli xisoblanadi. Ekspertlar fikriga ko'ra, Axborot terrorizmi 2020-2030-yillarga borib o'z ta'sirini yuqori darajaga ko'taradi. Bu esa axborot jamiyatidagi isloxtlarni va xalqaro terrorizm faoliyatini rivojlanishini ta'minlab berishi mumkin.

Bundan tashqari, kiberterrorizm kompyuter vositalari orqali turli davlat va shaxsiy tarimoqga zarar keltiruvchi faktor sifatida e'tirof etilmoqda.

Kiberterrorizm – mahsus xaker dasturlari orqali kompyuter boshqaruvi tarmoqlarini egallab olish va kompyuter viruslari yordamida internet tarmog'ida terakt sodir etish, internet tarmog'ini ishdan chiqarishni ko'zda tutadi.

Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari mudofaa vazirligi Pentagon ma'lumotlariga ko'ra, kompyuter tarmoqlari orqali 60 yo'nalish bo'yicha turli axborotlar qabul qilinadi. Shuningdek, ayrim xakerlar tomonidan Amerika davlat xokimiyati tizimi serverlari orqali Yugoslaviya, Serbiya, Rossiyaga nisbatan aniq bir siyosiy maqsadga yo'naltirilgan hujumlar uyuştirilgan. Bundan tashqari, bunday misollardan biri xakerlar tomonidan Hindiston atom tadqiqot markaziga xam ushbu yo'nalishda kompyuter vositalari orqali hujum qilingan.

Shvetsiyada siyosiy xokimiyat tizimida xakerlar tomonidan chap guruh tashabbusi bilan o'ng radikallarning kompyuter tarmog'i yo'q qilingan.

SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida axborot xavfsizligi sohasida ham samarali faoliyat olib borilmoqda.

2012-yil 27-martda Toshkentda bo'lib o'tgan SHHTning mintaqaviy aksilterror tuzlumasining yig'ilishida a'zo davlatlar o'rtasida axborot xavfsizligini ta'minlashda yangi zamonaviy ko'nikmaga ega bo'lish, kompyuter tarmoqlaridan terroristik maqsadlarda foydalanayotgan tashkilotlarni aniqlash, ularga qarshi kurashish to'g'risida kelishuvga erishilgan.

Axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda davlatlar oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda va ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar SHHTning faoliyatini kengaytirish, axborot xavfsizligi yo'nalishida aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Bugungi kunda internet orqali turli mazmundagi axborotlarning tarqalishi yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jumladan, Internetning to'g'ri maqsadlarda ishlatalishi uning salbiy ta'sirlaridan himoyalanishni ta'minlaydi. Internetda yoshlar ma'naviy tarbiyasiga zarar yetkazadigan audio-vizual va kontent ma'lumotlarning tarqatilishi, zo'ravonlik, pornografiya, pedofiliya sahnalarining e'lon qilinishi keskin tanqid qilinmoqda. Internetning axborot maydoni, dezinformatsiya, yolg'on va tuhmatlar manbaiga aylangani salbiy holat hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda Yevropa global tarmog'ida buzg'unchi saytlar mavjudligi hamda virtual firibgarlik ta'siriga tushub qolishi mumkinligini inobatga olmagan yoshlar turli saytlarga kirishi tufayli ruhiy va hatto jismohiy salomatligiga ziyon etkazuvchi axborotlarga duch kelmoqda.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda muktab o'quvchilarining qurollangan holatda turli jamoat joylari, muktab, savdo do'konlariga bostirib kirish hollari tez-tez uchramoqda. Mutaxassislar bolalar o'rtasida bu kabi holatlarning ko'payib borayotganini internet saytlari, jangari filmlar, videolavhalar va boshqa vositalarning ta'siri bilan bog'lamoqdalar. Shu bilan bir qatorda psixologlarning mulohazalariga ko'ra, o'smirlik shaxsnинг fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi o'ziga xos davri bo'lib, bu davrda

o'smirlar agressiv ruhdagi tomoshalarga, onlayn o'yinlariga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, "Axborot terrorizmini" hozirgi kunda zamonaviy terrorizmning bir ko'rinishi sifatida davlatlar o'rtasida axborot urushini keltirib chiqarishi, axborot vositalaridan foydalangan holda terroristik tashkilotlar tomonidan terakt sodir etilishi jahon xamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Axborot terrorining ko'rinishlarini Respublikamiz hududida yuz berishi davlat va xususiy kopyuter tarmoqlarini izdan chiqarishi, boshqa davlatlar bilan o'zaro do'stlik va hamkorlik aloqalariga, shuningdek aholini ayniqsa yoshlarning ma'naviy – ruhiy holatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Globallashuv, axborot sohasi liberalлаshayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli xil siyosiy, mafkurafiy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda) o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida ommaviy kommunikatsiya vositalaridan, ayniqsa, Internet tarmog'idan foydalanib, axborot erkinligini suiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidilarini ko'rsatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, yoshiarning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlari kuchaytirayotgani hech kimga sir emasdir.

Shunday ekan, nosog'lom axborot oqimi va ta'siridan yoshlarni himoyalash uchun qanday huquqiy mexanizmlar mavjud, degan o'rinali savol to'g'iladi?

Ma'lumki, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to'g'risida" Konvensiya, "Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida" Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" BMT Konvensiyasini, "Yoshiarni himoyalash to'g'risida" Germaniya, "Voyaga etmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida" Litva va "Bolalarni sog'ligi va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi Rossiya Federasiyasi qonunlari mavjud ekanligini tilga olishimiz mumkin bo'ladi.

AQSH tajribasi haqida gapiradigan bo'lsak, shuni aytish lozimki, 2001-yili kuchga kirgan qonunga asosan, davlat dotatsiyasini oluvchi ommaviy muassasalarining barchasi kontent fil'trasiya tizimini o'matishi majburligi belgilanib (Child Internet Protection Act), 2001-yili 74 foiz maktablar, 43 foiz kutubxonalar, 41 foiz oilalar (qaysikim bolalari Internetga chiqish imkoniyatlari borlari) kontent fil'trasiya tizimini, tegishli dasturlarni o'matdilar.

Yevropa mamlakatlari tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak Buyuk Britaniyada davlat strukturasi faoliyat yuritib ("Internet Watch Foundation")

u doimiy ravishda Internetdagi xavfli kontentli resurslarni monitoring qilib boradi.

Milliy qonunchiligidizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlar man etilishi", Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbazarliklar sodir etilishiga sabab bo'luchchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filimlarmi namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan bo'lsada, bugungi axborot makonidagi tendensiyalar, axborot ekspansiyasi, agressiv axborotlarning kuchayishi milliy qonunchiligidizni va ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarimizni yanada kuchaytirishni taqoza etadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalari bizni global axborot makoni bilan bog'lab, axborotni olish va tarqatish geografiyasini kengaytirib, dunyo mamlakatlari va xalqlarini yaqinlashtirdi. Bu ijobjiy holat, albatta. Biroq, axborot makonida tahdidlar bor ekan, milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmasligini nazarda tutib, kelajagimiz vorislarini o'ylab, vayronkorlik va buzg'unchilik mazmunidagi axborot oqimini cheklashimiz, yosh avlodning ma'naviy olamining daxlsizligini asrashimiz kunning dolzarb vazifalaridan biri desak, mubolag'a bo'lmash.

Virtual reallik, virtuallik (ing. virtual reality, virtual – borligicha, lot, virtus – potensial, ehtimollik, energiya, kuch, shuningdek tasavvurdagi xayol) – kompyuter yordamida modellashtirish asosida foydalanuvchi sun'iy dunyoga cho'mib, maxsus sensorli moslamalar orqali unda harakat qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak globallahuv Xalqimiz o'tmishida ma'naviyati yuksak insonlar ko'p bo'lgani va bunday insonlar tomonidan ulkan ma'naviy boyliklar meros ekani sizga yaxshi ma'lum. Diniy-dunyoviy va ilmiy mavzularda yetuk asarlar bitgan bu zotlar ayni paytda shaxsiy hayotlarida ham yuqoridagi mezonga mos edilar. Bugun-chi? Bugun ilmning ilgari egallah amrimahol bo'lgan cho'qqilarni zabt etayotgani da'vo qilinmoqda. Bu gapda haqiqat bor: taraqqiyot hozir inson hayotiga ko'p farovonlik, yengillik keltirdi. Globallahuv sabab keng jahon kichik bir qishloqqa aylandi. Iqtisodiy maqsad-manfaatlar dunyoning siyosiy chegara va to'siqlaridan oshib o'tib, jahonni bir xil qonunlar asosida ishlaydigan yagona bozorga birlashtirdi. Lekin taraqqiyot, ilm-fan qanchalik rivojlanayotgan bo'lsa, shu bilan bab-barobar qarama-qarshi tomonga ma'naviy qadriyatlar tanazzulga yuz tutib boryapti. Chunki globallahuv

keltirgan moddiy farovonlik, asosan, faqat tanga rohat berishga xizmat qilmoqda. Bugungi taraqqiyot bizga in'om etgan ne'matlar haqida bir o'ylab ko'ring. Kompyuter texnologiyalari, sun'iy yo'ldosh berayotgan imkoniyatlar, internet va hokazo. Bular mutaxassislar qo'lida taraqqiyotni yanada jadallashtirishga xizmat qilayotgan bo'sada, ayni paytda oddiy avom xalq – ular foydalanuvchilarning aksariyatini tashkil qiladi – bu vositalardan faqat ko'ngilxushlik uchun foydalanyapti. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihat, u hozirgi sharoitda masifikuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Avvalo, iqtisodiy va siyosiy darajada globallashuv ayrim yirik trans va multinatsional korporatsiyalar manfaatigagima xizmat qiluvchi tizimdir.

“Globallashuv” - bu hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobjiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investetsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab ish o'rinnarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarning, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo mulqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoxda.

Globallashuv atamasi dastlab XX-asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983-yilda “Garvard biznes revyu” jurnalida e'lon qilgan maqolasida qo'llanilgan edi. Unda ayttilishicha, Globallashuv – transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli – tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni.

Uni o'rganish jarayoni esa Roland Robertson tomonidan 1985-yili uning jahonni yagona bir butun qilish maqsadiga qaratilgan obyektiv jarayonlarning majmuasi sifatida aniqlangan davridan boshiangan.

Bu tushunchaga ana shu paytdan boshlab to hozirgacha turliqa qarashiar davom etib kelmoqda. Aksariyat ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda globallashuvni lotin tilidagi “globus” shar, fransuz tilidagi “global” umumbashariy so'zları bilan ta'riflaydilar. Respublikamiz olimlari hamkorligida nashr etilgan “Falsafa qomusiy lug'ati”da “Global (umumbashariy) muammolari” tushunchasi berilgan. Unda bu tushuncha (Fransuzcha global eng umumiy) o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga dahldor bo'lgan muammo ekanligi

ta'kidlanadi. Shuningdek mazkur lug'atda global muammolar keng ma'noda inson va tabiat o'rtasida o'zaro aloqalarning buzilganligini anglatadi, deb ko'rsatiladi hamda bugun jahonda yuzaga kelgan global muammolarning bir nechta misol tariqasida keltiriladi.

Rus olimi L.Grininning fikricha, "globallashuv - mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir". U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi ta'rifni beradi. "Globallashuv bu jarayon, uning natijasida dunyo o'zining barcha subyektlariga yanada aloqador va yana ham bog'liq bo'ladi"

2002-yilda nashr etilgan O'zbekiston milliy ensiklopediyasida global va globallashuv tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Global-fransuzcha global, - umumiylotincha globus-shar)

- 1) butun Yer sharimi qamrab oluvchi;
- 2) har tomonlama, to'liq, yalpi, universal.

Globallashuv tushunchasi haqida mamlakatimiz olim va siyosatchilari ham o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar. Jumladan, faylasuf olimlarimizdan yana biri Abdurahim Erkayev globallashuv va uning yuzaga kelishi haqida quyidagi fikrni ilgari suradi: Globallashuv – jahon taraqqiyotining asosiy tendensiyalaridan biridir. Savdo va ishlab chiqarish, iqtisodiy, moliyaviy aloqalarning dunyo miqyosida g'oyat kuchayishi, tezlashishi globallashuvning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Globallashuv – iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning haddan tashqari intensivlashuvi, eng yangi axborot texnologiyalari va umuman axborotning jahon miqyosida shiddat bilan tarqalishi, xalqaro standartlashuv va maishiy turmushda, iste'molda, shu jumladan, nomoddiy iste'molda umumiy qolip hamda andozalarning paydo bo'lishidir

"Aqliy imkoniyat belgilaringning begonalashuvi" maqolasining muallifi professor S.Choriyev shunday yozadi: "Globallashuv sharoitida aqliy imkoniyat belgilaringning aqldan begonashuvi umumbashariy xarakter kasb etmoqdaki, yoshlarga ta'lif va tarbiya berish jarayonida ushbu tendensiyani chetlab o'tib bo'lmaydi.", shuningdek, olim aql to'g'risida: "Inson aqliy imkoniyatlardan dalolat beruvchi birinchi belgi uning tushunchalar hosil qilish, mulohaza yuritish va xulosa chiqarish bilan bog'liq bo'lgan olyi qobiliyati sifatida e'tirof etiladi. Binobarin, tushunchalar hosil qilish, to'g'ri mulohaza yuritish, sog'lom xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilargina haqiqiy aql sohibi deb atash mumkin."

S.Choriyev aytganidek, globallashuv jarayonlarida aql bilan ish tutmoq, unga tayanish muhim ahamiyat kasb etadiki, negaki bu jarayonda aqlga binoan bajarilgan ish o'z samarasini beradi.

Darhaqiqat, globallashuv jarayoni hozirda hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv jarayonidan ikki xil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Ezgulik yo'lidagi

harakatlar davlatni va jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan bo'lsa, yovuzlikni maqsad qilgan taraqqiyot mahsull esa buning tamomila aksidir.

Nazorat uchun savollar

1. Globalizatsiya so'ziga ta'rif bering.
2. Globalizatsianing inson taraqqiyotida qanchalik o'rni bor?
3. Globallashuv jarayoniga ta'sir etuvchi qanday ommillar bor deb o'ylaysiz?
4. Butun jahon o'rgimchak to'ri deganda nimani tushunasiz?
5. Axborot terrori – bugungi kunda yoshlar ma'naviyatiga qanchalik ta'sir ko'rsatmoqda?

12-§. INSON TARAQQIYOTIDA TA'LIM, MADANIYAT, DIN VA AXLOQ MASALASI

REJA:

1. O'zbekistonda ta'lism sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari.
2. Inson taraqqiyotida madaniyat tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari.
3. Din "Inson taraqqiyoti" fanining muhim obyekti sifatida.
4. Axloq inson taraqqiyotida ijtimoiy munosabatlarning muhim ko'rinishi sifatida.

Tayanch so'z va iboralar: *Ta'lism, ta'lism to'g'risidagi qonun, milliy dastur, ta'lim tizimi, huquqiy asos, kadrlar tayyorlash, ta'lim turlari, uzlusiz ta'lim, madaniyat, moddiy madaniyat, ma'naviy madaniyat, elitar madaniyat, kontrmadaniyat, din, diniy dunyo qarash.*

O'zbekistonda ta'lism sohasida amalga oshirilgan islohotlar va milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'naliishlari hamda islohotlarning natijalari. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi barcha sohalar qatori ta'limi tizimida ham muhlm o'zgarishlar va islohotlar o'tkazishni taqozo etdi. Shu asnoda mamlakat ta'lim tizimining mustamlaka davridan qolgan eski an'analariga barham berish, yosh, yangi tashkil topgan mustaqil davlatiniyning yorqin kelajagini ta'minlovchi ta'lim tizimini yo'lga qo'yish muhim ustivor vazifa sifatida qarala boshladi. Shu sabab istiqlol yillarda ta'lim tarbiya tizimini isoh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora-tadbirlar belgilab olindi. Istiqlolning dastlabki yillardan boshlab ta'lim sohasiga ijtimoiy tarmoqning ustavor sohasi sifatida qarab kelingan.

Davlat mustaqilligi ta'lism sohasini ham demokratik ruhdagi, jahon andozalariga mos qonun hujjatlari bilan ta'minlashning imkonini berdi.

Ta'lism sohasidagi islohotlarning amalga oshirilishi avvalo istiqloq tufayli yuz berdi. Mamlakat mustaqilligi ta'lism sohasida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni, qonunlar qabul qilishni taqozo etdiki, bu holatda 1992-yil 2-iyulda ta'lism to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi, davr nuqtayi nazaridan juda zarur va o'ta muhim voqeа bo'ldi. Bu qonun tizimdan yangi tizimga o'tish davrida ko'priк vazifasini o'tagan tayanch vazifasini o'tadi. Ta'lism sohasida mustaqillikni mustahkamlash yo'li shu qonun asosida olib borildiki, shu asnoda ta'lism tizimiga bir necha o'zgartirishlar kiritildi. Bu fuqarolar manfaatlari, ularni bilim olishdek muqaddas huquqlari ro'yobi sifatida qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil, demokratik, huquqiy, insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millatl, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'i nazar fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir.

Har qanday davlatning mavjudligi, fuqarolarining huquqiy madaniyati, erkinligi uning qonuniyligi bilan belgilanadi. Demokratik, fuqarolik, huquqiy davlat qurayotgan O'zbekistonda ham barcha sohalar qonunchiligi bilan bir qatorda ta'lism sohasida ham o'z tarixiy tajribasi va an'analari bor. Xususan, hadislarda "Bir saatlik ilm ollsh bir kunlik ibodatdan maqbul" ekanligi, Mirzo Ulug'bekning Samarcand madrasasi peshtoqiga yozdirgan "Ilm olish har bir musulmon uchun farz" ekanligi haqidagi bitigi, jadid namoyandalarining ozodlik yo'li ilmy ursfondan boshlanishi haqidagi chaqiriqlari ta'lism qonunchiligining asoslaridan bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Mustaqil yurtimizda ta'lism to'g'risidagi qonun hujjatlarining taimal toshi, asosi sifatida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim ahamiyatga ega. Uning 41-moddasida zikr etilgan har bir insonning bilim olish huquqiga ega ekanligi xususidagi me'yor ham konstitutsiyamizning haqchil va demokratik ruhda ekanligidan dalolat beradi. Konstitutsiya ta'lism qonunchiligining asosi sifatida qonun va qonun osti hujjatlari uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lism to'g'risidagi qonun hujjatlarining rivojlanish bosqichlarini 4 bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich. 1992-1997-yillar.

Ushbu bosqichda 1992-yilning 2-iyulida Vatanimiz tarixida birinchi bor "Ta'lism to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Qonun bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida O'zbekistonda ta'lism tizimining uzviyligi saqlab qolnib, uning asosida o'quv, jarayoni, kadrlar tayyorlash masalasida katta o'zgarishlarga erishildi.

1993-yildan boshlab oliy ta'lism muassasalari kirish sinovlarida test usulining joriy etilishi muhim yangilik sifatida qabul qilindi. Shuningdek,

testga nisbatan, aniqrog'i davlat olib borayotgan siyosatga nisbatan xalqning ishonchi ortdi.

Bu davrda 1993-yil 2-sentyabrda "Lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvini joriy etish haqida"gi qaror e'lon qilinib, 1996-1997-o'quv yilidan boshlab maktablarning boshlang'ich sinflarida lotin yozuvida o'qitish boshlandi.

1993-yil 29-oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 1-oktyabrni O'qituvchilar va murabbiylar kuni sifatida nishonlash yo'lga qo'yildi. 1996-yilda esa sanani qonun bilan mustahkamlanishi ta'lim sohasiga berilayotgan e'tiborning yorqin dalilidir.

1992-1997-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimi shakllanib, shu davrda u o'z ichiga 57 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 15 ta universitet va 42 ta institutni birlashtirgan. Ularda 164 ming talaba ta'lim olgan, 15 universitetning 12 tasi O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18.5 ming o'qituvchini 52 foizini fan doktori va fan nomzodlari tashkil etgan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida 100 dan ortiq oliygochlarda o'quv-tarbiya jarayonlari olib borilmoqda.

Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli jamg'armalari tashkil etildi.

Ikkinchchi bosqich. 1997-2001-yillar.

1997-yil 27-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi" Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

XXI-asrga o'tish arafasida ushbu qabul qilingan qonun ta'lim qonunchlligi taraqqiyotining O'zbekiston tajribasini amalgaga oshirishda asosiy dastur sifatida ishlab chiqildi. Iqtisodiyotdagi singari ta'lim yo'nalishida ham Vatanimiz o'z yo'lini tanlab oldiki, bu jarayon hozirgi kunlarga kelib o'z samarasini bermoqda. Bu o'z navbatida ta'lim sohasida ham amalgaga oshirayotgan islohotlarimizni ham bosqichma-bosqich olib borish tamoyiliga amal qilinganligining dalolatidir.

Ushbu sessiyada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada 1997-yildan keyingi O'zbekistonda ta'lim yo'nalishi, taraqqiyoti izchil ravishda belgilab berildiki, unda amal qilinishi zarur bo'lgan bosqichlar ham o'z ifodasini topdi. Bu bosqichlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, ta'lim tizimi yo'nalishida amalgaga oshirilishi mo'ljallangan chora-tadbirlarni belgilab bergen bo'lib, albatta, bu chora-tadbirlar zamirida ta'lim qonunchilligi ham o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, 1999-yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etilib, dunyoviy ta'lim qatorida diniy ta'lim berishning qonuniyligi ta'minlangan edi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha birinchi bosqich (1997 – 2001-yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Ushbu bosqichda quyidagllarni amalga oshirish zarur edi:

"Ta'lif to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ta'lif tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

ta'lif oluvchilarning yuksak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgllab beruvchi davlat ta'lif standartlarini yaratish va joriy etish;

o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lif jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

ta'lif va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta'lif muassasalarini bilan bir qatorda nodavlat ta'lif muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta'lif xizmati ko'rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;

ta'lif muassasalarini faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

Xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotiari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta'lif sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga qabul qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o'quvchi o'rnlari zarur moddiy-texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'naliishlariga aniqliklar kiritiladi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish uchun "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunga muvofiq qonun osti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular ta'lif sohasining huquqiy asoslarini yaratish uchun xizmat qilgan. Jumladan, "Akademik litseylar va kasb-hunar kolejlarini tashkil etish va ularni faoliyatini boshqarish to'g'risida" 1998-yil 24-fevraldag'i 77-sonli, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (yangi tahriri) 1998-yil 30-aprel.

Uchinchi bosqich. 2001-2005-yillar.

2001-2005-yillarda Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritishni ko'zda tutadi.

Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobilatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqlashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshishni ko'zda tutdi.

Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish nazarda tutildi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltirildi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzlusiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshish belgilandi.

Uchinchi bosqichda qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlari milliy dasturni amalda ishga tushirilishi ta'minlashni ko'zda tutgan. Jumladan, bunday hujjatlar sirasiga "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori №342 20.07. 2004, "Oliy ta'lim to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i №1222 22.02.2003, "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №343 16.08.2001, "Yilming eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" tanlovi g'oliblariga ilmiy daraja va ilmiy unvon berish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №290 06.07.2001 kiritish mumkin.

Bular ichida 2001-yil 16-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'rsida"gi №343-sonli qarori oliy ta'lim sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Ta'lim qonunchiligi bu qonun osti hujjati oliy ta'lim yo'nalishida bakalavr va magistratura mutaxassisliklari uchun ko'nikma va malaka talablarini belgilab berdiki, bu holat O'zbekiston tajribasida dastlabki yutuq sifatida baholash mumkin edi.

To'rtinchi bosqich. 2005 va undan keyingi yillar.

2005 va undan keyingi yillarda to'plangan tajribani tahlil etish va umumiashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishni amalga oshirish ko'zda tutildi.

Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanib, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash nazarda tutildi.

Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish rejalarhtirildi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarish shaktlari tarkib topdi.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzlusiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinib, bu bosqichda asosan ta'limning me'yoriy hujjatlarini qonuniy asosda mustahkamlashga e'tibor qaratildi. Shuning asosida bir necha qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №25 16.02.2006, "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qillish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №20, 10.02.2006, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №190, 10.09.2007, "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i №1981, 10.07.2009, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i №1963, 05.06.2009, "Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №118, 18.06.2010, "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i №1981-1, 26.08.2010, "Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №278, 26.09.2012, "Respublika oliy ta'lim muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №371, 29.12.2012, "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori №365, 28.12.2012.

2008-yildan buyon Toshkentda innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihialar yarmarkasi o'tkazib kelinmoqda. 2008–2015-yillar davomida o'tkazilgan I – VIII-yarmarkalar doirasida jami 4000 dan ortiq ishlannmalar

taqdîm etildi. 2008-yıldan buyon umumiyy qiymati 113 mlrd. soʻmdan ortiq boʻlgan 3000 dan ziyod shartnomalar tuzildi. Oʻzbekiston olimlari demokratik va huquqiy jamiyatning maʼnaviy-maʼrifiy va madaniy rivojlanishini tadqiq qilish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, energetika va energiya xomashyonini tejash, axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya, kimyo, bio va nanotexnologiyalarni rivojlanitirish, qishloq xoʼjaligi, ekologiya va atrofimuhitni muhofaza qilish, tibbiyat, farmakologiya, geologiya, geofizika, seysmologiya boʻyicha maʼlum yutuqlarga erisib kelmoqda. Arxeologiya fani sohasida ham maʼlum siljishlar boʻldi. Jumladan, 2002-yıldan “Oʻzbekistonda arxeologik tadqiqotlar” yillik toʼplamlari nashr etilib, ularda respublikamiz hududida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarning umumlashma ilmiy xulosalari berib boriladi. 2010-yıldan esa “Oʻzbekiston Arxeologiyasi” ilmiy jurnali chop etila boshlandi. Fanning boshqa yoʼnalishlaridagi olimlar ham yirik natijalarni qoʻlga kiritishmoqda. Fanlar akademiyasi Oʼsimlik moddalari kimyosi instituti tomonidan tayyorlangan 10 jiddlik “Tabiiy birikmalar (Oʼsimlik zaxiralari, tuzilishi va xossalari)” nomli noyob maʼlumotnoma ingliz tilida Londonda chop etildi. Bu ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlik rivojlanayotganidan ham dalolat beradi. Mustaqillikning dastlabki yillari birligina Fanlar akademiyasining ilmiy mahsulot eksporti 8,2 martaga koʼpaydi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875 sonli qarori asosida taʼlim muassasalarida chet tiliarni oʼrganish va chet tili mutaxassislarini tayyorlash ishlari 2013-2014-oʼquv yilidan boshlab amalda qoʼllanib kelinmoqda. 2015-yil 10-yanvar kuni “Oliy taʼlimning Davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʼgʼrisida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy taʼlim tizimini rivojlanitirish chora-tadbirlari toʼgʼrisida” gi PQ-2909-sonli qarori qabul qilindi.

Oʻzbekiston taʼlim tizimi oʼz taraqqiyotining oʼtgan 25 yıldan ortiq vaqt mobaynida ikkita “Taʼlim toʼgʼrisida”gi qonunlar asosida ish olib bordi. 1992-yilda qabul qilingan qonun oʼzida 11 yillik taʼlimni aks ettirib, unga koʼra maktab taʼlimi 3-qismga boʼlinar edi. Boshlangʼich, toʼliqsiz oʼrtा va toʼliq oʼrtा taʼlim. Amino, ushbu uch bosqichga boʼlingan taʼlimning har bir sinfiga qanday fanlar, qanday ilmiy asoslarda oʼqitilishi haqida ilmiy asoslar mavjud boʼlmagan. Bunday tashqari oʼn yillik taʼlimning 11 yillikka almashtirilishi haqida ham qonun hujjatida aytarli hech qanday asos yoʼq. Shuningdek, oʼquvchi va oʼqituvchi munosabatlari ham huquqiy ravishda tartibga solinmagan. Shuningdek, erkin fuqarolik jamiyatni qurish yoʼlida barcha shaxsnинг erkin fikr bildirishi xususidagi tamoyiliga amal qilinmay kelingan. Shuningdek, bitruvchilar masalasi, ularning keyingi taqdiri, taʼlim jarayonining uzviyligi toʼla saqlab qolinmagan.

1997-yil 29-avgustda qabul qilngan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun esa mamlakatimizda ta’lim tizimiga yangicha yondashuvni asoslab berdi. Unga ko‘ra avval mavjud bo‘limgan ta’lim tizimi, o‘zaro uzviylikni tashkll etgan holda uzluksiz ta’lim tizimi yangidan shakllantirildi. Uning tarkibiga quyidagi tizimlar kiritildi.

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o‘rtalim;
- o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to‘qqiz yillik umumiy o‘rtalimda uch yillik o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tilishini ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim dasturlari: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar), umumiy o‘rtalim (I-IX sinflar), o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limini qamrab oladi.

Kasb-xunar ta’limi dasturlarini o‘rtalim maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy (bakalavriat, magistratura) ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Oliy ta’lim sohasida ham yangi bosqichlar joriy etildi. Oliy ta’lim mutaxassisliklari tizimi bakalavriat va magistraturaga bo‘lindi. Bu tizimning afzalligi ishlab chiqarishga taklif etilayotgan mutaxassislarini darajalarga ajratish, ilmiy, ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishdan ko‘zlangan maqsadda o‘z aksini topdi.

Hozirgi kunga kelib magistratura mutaxassisligi bo‘yicha talabning oshib borishi o‘z navbatida salohiyatli kadrlar sifatiga o‘zining ijobiyligi ta’sirin ko‘rsatmoqda.

2012-yil 17-fevralda Toshkent shahrida tashkil etilgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. “Qabul qilingan dasturlarga muvofiq, mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo‘yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta’lim tizimi joriy etildi. Afsuski ta’lim sohasidagi bu ilohatlar to‘laqonli o‘z samarasini bermadi, xalqimizning istak-hohishlari inobatga olinib 11 yillik ta’limga qaytildi. 2017-yil umumta’lim va o‘rtalim maxsus kasb-hunar ta’limi tizimida tub islohotlar yili bo‘ldi. Xalq qabulxonalarini va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktabalaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o‘tkazilgan so‘rovnomasi

natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya'ni 12-yillik majburiy ta'limga qaytildi. 2017-yilning o'zida 10-sinf o'quvchilar uchun 9 mln. nusxa darsliklar chop etildi va 10 mingga yaqin umumta'lim maktabida 11-yillik ta'limga o'tilgan holda o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi.

2017-yil 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin, davlat ja miyatdag'i malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar imobatga olinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta'lif tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta'lif takomillashtirildi. 2017-yil 16-noyabrda O'zbekiston Prezidentining "Respublika oliy ta'lif muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lif, san'atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'llim yo'nalishlarida test sinovlari bo'lmaydi. Masalan, O'zbekiston davlat konservatoriysi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va alohida iqtidor talab etadigan ta'lif yo'nalishlariga faqat ijodiy imtihonlar orqali qabul qilish yo'lga qo'yiladi. Tibbiyotga oid oliy ta'lif tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, tibbiyot sohasida bakalavriat ta'lif yo'nalishlarida o'qish muddati 7 yildan 6 yil va tibbiy profilaktika yo'nalishida 6 yildan 5 yil etib belgilandi.

Test sinovlari shaffof va haqqoniy o'tishini ta'minlash maqsadida ushbu tizimni takomillashtirish hamda abituriyentlar, ota-onalarga yengilliklar tug'dirish maqsadida mavjud tizimni isloh qilish talab etildi. 2018/2019-o'quv yilidan boshlab, test jarayonini bir kunda emas, 15 kun davomida o'tkazish, natijasini esa imtihonning ertasiga e'lon qilish vazifalari qo'yilgan.

2012-yilga qadar aspirantura (3 yil) va doktarantura (3-yil)dan iborat bo'lib, 2012–2017-yillarda bir bosqichli doktarantura faoliyat olib bordi. 2013–2017-yillar oraliq'ida faqat 360ga yaqin tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Bu esa respublikadagi oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalari uchun oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondira olmadi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg'or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o'rgangan holda 2017-yilning 1-iyuhidan boshlab oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lifning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Birinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – dissertatsiya himoya

qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Maktabgacha ta'lim, 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislarining ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois, bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda muhim o'rinni tutadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlilik tizimiga Qoraqalpog'iston maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta'lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo'limlari kiradi.

2017-yilga kelib O'zbekistonda 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasalarini faoliyat yuritmoqda. Oxirgi 20 yil davomida bog'chalar soni 45%ga kamaygan. Ayni damda bog'chaga borayotgan bolalar umumiy bolalar sonining 30% ni tashkil qiladi.

Ta'lim sohasidagi islohotlarni asosiy yo'nalishlari esa uning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va pedagogikasi, shuningdek, jahon xalqlari pedagogikasining yutuqlari asosida ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda o'qituvchilar, pedagogik jamoalarini tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar ochib berish va uni har tomonlama rag'batlantirish, bilim va ko'nikmalarini puxtaligini ta'minlaydigan zamonaviy didiktik vositalarni qo'llashni keng ko'lama yo'lga qo'yish, shu asosda ta'lim mazmunini yaxshilashdan iborat.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib shuni aytish lozimki, o'tgan yillarda mobaynida ta'lim sohasida ko'pgina islohatlar amalga oshirildi, biroq jamiyat taraqqiyoti natijasida ta'lim sohasida ham bir qator kamchilik va tezkorlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar ko'zga tashlanib qoldi. Bu esa sohaga bir qator yangiliklar va o'zgartirishlar kiritishni ta'qozo etmoqda.

Madaniyat individual shakldами yoki hamkorlik tariqasidами, bundan qat'i nazar, hamma vaqt ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Keng ma'noda madaniyat – bu mehnat quollaridan tortib, uy-ro'zg'or predmetlarigacha, kishilarning urf-odatlari, an'analari, hayot tarzidan tortib, fan va san'at, din va hurfikrlilikkacha, axloq va falsafagacha insoniyat tomonidan yaratilgan va

yaratilayotgan narsa-hodisalardir. Har qanday madaniyat predmeti eng avvalo mehnat, aniqroq aytganda, moddiy va ma'naviy faoliyat mahsulidir. Madaniyat predmeti tabiat tomonidan emas, balki mehnat baxsh etgan hususiyatlar tufayli tarkib topadi. Madaniyatning bosh vazifasi – faoliyatning subyekti, ya'ni insonni har tomonlama taraqqiy etdirishdan iborat. Tabiat va jamiyat inson faoliyatning obyekti bo'lib xizmat qiladi. Shunga muvofiq madaniyatning yahlit strukturasila ikki katta soha ajralib chiqadi: insonning tabiatni o'zgartirish jarayonidagi yangilanishi bilan bog'langan moddiy madaniyat; insonning ma'naviy madaniyat. Moddiy va ma'naviy madaniyat inson faoliyatining asosiy sohalari (moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish) bilan uzviy bog'langan, ular o'rtaсидаги тафовутлар ham ana shu negizida qaralib chiqilishi kerak.

Madaniyatning har ikkala asosiy sohasi murakkab tuzilishga ega. Moddiy madaniyatga mehnat madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati, turmush madaniyati, tabiiy muhitga madaniy munosabatda bo'lish madaniyati kabilar kiradi. Ishlab chiqarish vositalari, avvalo mehnat qurollari moddiy madaniyatning eng muhlim vositasi bo'lib, ulardan kishilar ishlab chiqarish faoliyatlarida keng foydalanadilar. Jamiyatning moddiy-texnikaviy kamoli moddiy madaniyat sohasidagi taraqqiyotiga asoslanishi tabiiy, qo'l mehnatidan mashinalarga, so'ngra avtomatika va kompyuterlarga o'tishi naqaqt texnikaviy progress, balki jamiyat moddiy madaniyati taraqqiyotining ham sifat ko'satkichidir. Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo'lgan narsa va buyumlarni o'z ichiga oladi. Bularga mehnat qurollari, o't yoqish asboblari, jang qurollari, uy-joylar, boshqa qurilish obyektlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, ichimlik, idish-tovoq, mebel, poyafzal va boshqalar kiradi. Boshqacha aytganda moddiy madaniyat moddiy ishlab chiqarishlik faoliyatining barcha sohalari va ularning natijalarini o'z ichiga oladi.

Kishilar ijtimoiy amaliyot jarayonida zaruriy moddiy shart-sharoit va hayot vositalarini yaratilishning o'zi bilan cheklanib qolmaydi, ayni vaqtda ongini ham ishlab chiqardilar.

Ijtimoiy ongning rang-barang shakilari (dunyoqarash, axloq, huquq, estetik ong, siyosiy ong, badiiy ong va boshqalar)ni vujudga keltiradilar yoki ma'naviy madaniyat sohasini tashkil etadi.

Ma'naviy madaniyat kishilar ma'naviy ishlab chiqarishlik faoliyati natijalarini-turli tuman tasavvurlar, g'oyalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san'at hodisalari, axloqiy va huquqiy normalarni vujudga keltirishdan hosil bo'ladi. Ma'naviy madaniyat – bu ma'naviy faoliyatning shunchaki mahsulotlari bo'lib qolmasdan, shu bilan birga ana shu jarayonni amalgalashiradigan kishilar o'rtaсидаги munosabatni ham bildiradi. Shunday qilib ma'naviy madaniyat madaniyatning murakkab qatlami bo'lib, ta'lim va fan

sohasi bilan bog'langan ilmiy faoliyat va bilim omili bilan bog'langan bilish madaniyati, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi.

"Inson taraqqiyoti" fani madaniyatni ijtimoiy borliqning bir bo'lagi tarzida olib o'rganadi. Madaniyat sotsiologik tadqiq etilganda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor beriladi: mazkur jamiyatda madaniyat obyektlarini o'zlashtirish, yaratish taqsimlash va boshqalarga etkazilishning aniq shakllari va usullari; madaniy hayotda barqaror hamda o'zgaruvchan jarayonlar, ularning mohiyati va tabiatini belgilamaydigan mexanizmlar hamda omillar; aniq ijtimoiy birlik yoki tizimning madaniyat taraqqiyotiga qo'ygan hissasi, ular tomonidan madaniyatni o'zlashtirganlik bahosi va hakazolar.

Sotsiologik o'rganish madaniyat taraqqiyotining umumiy sotsial qonuniyatlarini, har bir jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichda turli tabaqalar va sotsial guruuhlar madaniy holatining o'ziga xosligini tadqiq etishni nazarda tutadi. Bunda yaratilgan va foydalanadigan predmetlar, g'oyalilar, tasavvurlar, ustivor hodisalarini ifodalovchi qadriyatlar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan sotsial-madaniy me'yorlar, shu tartibdagi munosabatlarni tashkil etish, yashash qoidalari, usullariga e'tibor berlladi.

Madaniyat 3 ta shaklga bo'linadi:

- Elitar madaniyat;
- Xalq madaniyati;
- Ommaviy madaniyat.

1) Elitar madaniyat (fransuzcha, eng sara) – har qanday ijtimoiy tuzilmaning boshqaruv, madaniyat, fanni rivojlantirish funktsiyalarini amalga oshiruvchi oliy, imtiyozli qatlam madaniyatidir. Elita haqidagi nazariyalar dastavval Platon, Nius qarashlarida bayon qilish bo'lib, tizimli bir ko'rinishga XX-asr boshlarida V.Peretto, G.Moska, Mixels ta'limotida ega bo'ldi. Hozirgi g'arb Inson taraqqiyotisida elita turli xil ko'rinishlarga ko'ra olib qaraladi. Bunda elita hokimiyatga yo'nalgan siyosiy jihatdan eng faol odamlar, jamiyatda eng ko'p obro', maqom boylikka ega bo'lgan, ommaga nisbatan aqliy va axloqiy ustunlikka ega odamlar, jamiyatning noijodiy ko'pchiligidan farq qiluvchi qismi, eng malakali mutaxassislar, menejerlar va boshqaruv tizimidagi oliy xizmatchilar (texnologik determexanizm) kabi izohlanadi. Hozirgi zamон Inson taraqqiyoti elita nazariyasi Mills, Gismen, Bell qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Kiborlar (elita) madaniyati – jamiyatning imtiyozli tabaqalari uchun shakllantiradigan "san'at – san'at uchun" qoidasiga asoslangan madaniyat (masalan nafis san'at, mumtoz musiqa mutolaa qiladigan badiiy adabiyot).

Odamda kiborlar madaniyati namunalari oddiy odamlar uchun murakkab bo'ladi va ularni ko'proq maqomga ega bo'lgan toifa vakillari iste'mol qiladilar.

2) Xalq madaniyati – maxsus tayyorgarligi bo‘lman shaxslar tomonidan buniyod bo‘lgan madaniyat. Xalq ijodining mualliflari odatda noma’lumdir. Jumladan, afsonalar, ertaklar, dostonlar (Go‘ro‘g‘il, Algomish) madaniyati elementlari yakka (baxshilar), guruhiy (qo‘sish yoki o‘yin) yoki ommaviy (sayillar, xalq bayramlari) ko‘rinishiga ega bo‘lishi mumkin.

3) Ommaviy madaniyat – XX-asr o‘rtalarida ommaviy muloqot va axborot vositalarining jamiyat hayotida chuqur kirib kelishi va barcha ijtimoiy guruhiar uchun etarli bo‘lishi natijasida shakllangan va mohiyatan barcha yoshdag‘i aholi uchun tushunarli bo‘lgan madaniyat namunalari (sirk, ommaviy musiqa). Ommaviy madaniyat odatda kiborlar yoki xalq madaniyatiga nisbatan kamroq badiiy qadrga ega va u ommaviy iste’molga mo‘ljallab madaniy qadriyatlarni ishlab chiqishni ifodalaydi hamda u industrial-jamiyatlarga xosdir. Ommaviy madaniyat barcha odamlarga qaratilgan bo‘lib, muttasil ravishda kundak hayot uchun ishlab chiqiladi va ommaviy muomila vositalari faoliyatida yorqin namoyon bo‘ladi.

Madaniyatning 2 xil turi mavjud:

- Submadaniyat
- Kontrmadaniyat

1. Submadaniyat – (lot. atrofida, ostida va madaniyat) har bir ijtimoiy guruh va avlodga xos bo‘lgan, jamiyatdagi hukmron madaniyatdan farqlanuvchi madaniy olam (yoshlar submadaniyati, milliy guruhiar, qariyalar). Submadaniyat hukmron madaniyatda tili, kiyinishi, odatlar va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Yolg‘iz odamlar, sport bilan shug‘ullanuvchilar, tilanchilar, o‘g‘rilar, kar-soqovlar va boshqalar o‘z madaniyatiga egadirlar. Turli ijtimoiy tabaqa vakillari farzandlari ham o‘zar farqlanadilar – ular turli maktabga qatnaydilar, turli kitoblar o‘qishida va hokazo.

2. Kontrmadaniyat – qarama-qarshilik asosida rivojlanadigan va unga javob tariqasida yuzaga keladigan madaniyatdir.

a) zamondagi madaniyatlar ham mavjud makoni munosabatlar: mavjud voqealarini tartibini, moddiy obyektlarning ko‘lamini ifodalaydi.

Zamonaviy munosabatlar – almashtiruvchi voqealarning tartibidagi ularning uzunligidan iboratdir.

Ijtimoiy hayotning muhim jabhasi bo‘lgan din va diniy e’tiqod masalasi “Inson taraqqiyoti” fanining muhim obyektlaridan biri hisoblanadi. Inson taraqqiyoti jamiyat hayotini o‘rganar ekan, shu hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan va ayni paytda unga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil – din doimo uning diqqat markazida bo‘lgan. “Inson taraqqiyoti” fanining asoschisi hisoblanuvchi O.Kont jamiyat taraqqiyotini davrlarga bo‘lar ekan asosiy mezonlardan biri sifatida dinga murojaat qiladi. Uning tasnifida insoniyat o‘z rivojida uch bosqichni bosib o‘tadi. Bular quyidagilar: teologik, metofizik va ilmiy bosqichlar. Kont fikricha, har uchchala bosqichda ham din

muayyan rol o'ynaydi. Dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni va rolini tahlil qilish uchun, avvalo, din o'zi nima? degan savolga javob topish kerak. Bu savol engil tuyulsa ham javob berish ancha murakkab. Bu savolga dinshunoslik, Inson taraqqiyoti va falsafadagi turli oqimlar turlicha javob beradilar. Bu javoblarning aksariyati esa bir-biriga zid va bir-birini inkor qiladi. Sho'rolar davrida chiqarilgan falsafa va atoizmga oid adabiyotlarda din vogelikning kishilar ongidagi fantastik inikosi, deb ta'riflangan va u xalq uchun afyun deb e'lon qilingandi. Bu adabiyotlarda dinning asosiy belgilaridan biri ilohiy kuchga, ya'ni xudoga ishonish deb belgilanardi. Holbuki, dunyoda shunday dinlar borki, ularda xudo tushunchasi umuman yo'q. Inson taraqqiyoti va dinshunoslikka oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish ularda dinga ko'plab ta'riflar berilganini ko'rsatadi. Biz bu ta'riflar qatoriga yana bittasini qo'shish o'miga dinning o'ziga xos belgilarini sanab o'tmoqchimiz. Ular quyidagilar:

1. Muayyan e'tiqod va ta'limotning mavjudligi. Har bir din dunyoni o'z nuqtayi nazarida izohlaydi va ishonuvchilarda muayyan e'tiqod shakllantiradi.

2. Marosim va rasm-rusumlar. Har bir din o'ziga xos marosim va rasim-rusumlarga ega.

3. Diniy marosim, rasm-rusumlar muayyan qismning faqat belgilangan joylarda jamoa bo'lib bajarilishi. Masalan, yahudiy va xristian dinida ibodatning asosiy qismi faqat sinagoga va cherkovda bajariladi. Islom dinida erkaklar tomonidan o'qiladigan namoz asosan shams masjidlarida o'qiladi. Dinalar sehrgarlikdan avvalo mana shu belgi bilan, ya'ni muayyan marosimlarni muayyan joylarda bajarish bilan farqlanadilar. Sehrgar va shamanlar g'ayritabiyy harakatlarni individual holatda bajarsalar, dindorlar diniy marosim va ibodatlarning asosiy qismini jamoa bo'lib bajaradilar. Sanab o'tilgan belgilarning uchchalasi ham dunyoviy dinlarning barchasida mavjud. Bu dinlar quyidagilar: iudaizm, xristianlik va islom.

Iudaizm (yahudiy dini) ular ichida eng qadimiysi bo'lib, miloddan taxminan ming yillar oldin shakllangan. Bu din o'sha davrda mavjud bo'lgan boshqa dinlardan farqli o'laroq, yakka xudoni tan olgan.

Milodiy dastlabki asrlarida yahudiylar dunyoning ko'p mamlakatlariga tarqab ketdilar, lekin biror mamlakatda iudaizm rasmiy din sifatida tan olinmadidi. Ko'p joylarda bu din vakillari ta'qib ostiga olindi. Ikkinchisi jahon urushi yillarida millionlab yahudiylar natsislarning konslagerlarida o'ldirib yuboriladi. Urush tugagach, Isroil davlati tashkil topti va unda iudaizm rasmiy din sifatida e'tirof etildi.

Xristianlik dastavval sekta sifatida iudaizm tarkibida vujudga keldi va kichik Osiyo, Yunoniston va Rimda tarqala boshladi. Imperator Konstantin davrida bu din Rim imperiyasining rasmiy dini deb e'lon qilindi. Milodiy davomida xristianlik g'arb mamlakatlarida asosiy din bo'lib kelmoqda.

Xristianlikning provaslavi, katolitsizm, protestantlik kabi bir necha tarmoq va oqimlari mavjud.

Islom dini VII-asrda shakllandi. Bu dinning asosini besh farz tashkil qiladi:

1. Iymon, 2. Namoz, 3. Ro'za, 4. Zakot, 5. Haj.

Islomda sunniylik va shia yo'nafishlari bo'lib, ular ham o'z navbatida bir qator imazhablarga bo'linadi. Musulmon dini dunyoning besh qit'asida va deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Saudiya Arabiston, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, lordaniya, Jazoir, Pokiston, Eron kabi qator mamlakatlarida islom rasmiy din deb e'lon qilingan. Islom dinida ham mo'tadil va aqidaparast oqimlar mavjud.

Uch olamiy dindan tashqari, buddaviylik, induizm, konfutsiylik kabi dinlar ham ko'p millionlik tarafdarlariga ega. Induizm miloddan avvalgi ming yillikda shakllangan. Bu din tarafdarlari asosan Hindistonda istiqomat qiladi.

Bu din ta'limotiga ko'ra, yerda tug'ilish, o'lish va qayta tug'ilish jarayoni abadiy kechadi. Yangi tug'ilganlar tanasiga avval o'lganlarning ruhi joylashadi. Bu ruhning avvalgi hayotdagi mavqeyiga mos ravishda insonlar ijtimoiy hayotda o'z mavqelariga ega bo'ladilar. Shunday qilib, bu din odamlarning kastalarga bo'linishini ilohiy sabablar bilan izohlaydi.

Buddaviylik, konfutsiylik va daosizm dinlari uchun umumiy hususiyat shundaki, ularning tarafdarlari xudoni e'tirof etmaydilar.

Buddaviylik miloddan avvalgi VI-asrda Hindistonda yashagan Siddhartha Gautama ta'limotidan boshlanadi. Unga ko'ra insonlar tug'ilish va qayta tug'ilish doirasidan o'z hohish va ehtiroslaridan voz kechish orqali chiqishlari mumkin. Buddaviylikning asosini nirvana to'g'risidagi ta'limot tashkil qiladi. Bu din Tailand, Birma, Nepal, Shri-Lanka, Xitoy, Yaponiya, Koreya singari mamlakatlarda tarqalgan.

Konfutsiylik miloddan avvalgi VI-asrda yashagan Kun-Fu-Chi ta'limotiga asoslanadi. U budda bilan bir vaqtida yashagan bo'lib, insonning tabiat bilan uyg'unlashish yo'llarini axtargan.

G'arbda Inson taraqqiyotining fanga aylanishi O.Kont nomi bilan bog'lansa, undan ko'p asrlar avval ham g'arb va Sharq olimlari din va jamiyat muammosi ustida ko'p bosh qotirganlar. Bu masalada Markaziy Osiyoda etishib chiqqan ulkan allomalar Yusub Xos Xojib, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari o'nlab va yuzlab o'llom-u fuzalolar chuqur fikrlar bildirganlar. Kichik bir bobda dinning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni to'g'risida Markaziy Osiyolik olimlar bildirgan fikrlarning barchasini qamrab olish imkonini yo'q. Shuning uchun Markaziy Osiyodan otishib chiqqan olimlar ijodida dinning jamiyatda tutgan o'rniga katta e'tibor berilganini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu olimlar dinning ijtimoiy hayotdagi o'rnini tahlil qilar ekanlar, bir dinni madh etib

boshqasini tanqid qilish yo‘lidan bormadilar. Ular turli dinlarning jamiyat taraqqiyotiga o‘tkazayotgan ta’sirini tahlil qilishda kuzatish, qiyoslash va tarixiylik usullaridan keng foydalandilar. Xususan, Abu Rayhon Beruniy o‘zining qator asarlarida, ayniqsa “Hindiston” kitobida turli qabilalar, elatlari va xalqlar hayotida dinlar qanday rol o‘ynaganini chuqur tahlil qilib berdi.

G‘arb va Sharq olimlari din va diniy oqimlarning odamlar va jamiyat hayotiga o‘tkazadigan ta’siri to‘g‘risida qanchalik chuqur fikr bildirmasınlar, din Inson taraqqiyotisi maxsus ilmiy yunalishi sifatida XIX-asr oxiri va XX-asr boshlari shakllandi.

Din Inson taraqqiyotisining shakllanishi M.Veber nomi va ilmiy faoliyati bilan bog‘liq. “Inson taraqqiyoti” fanining asoschilaridan biri hisoblanadigan nemis olimi M.Veber ijodida dinni sotsiologik tahlil qilish markaziy o‘rinni egallaydi. Barcha dinlarni inkor qilib ularni xalq uchun afyun deb e’lon qilingan. Marks ta’limotidan farqli o‘laroq Maks Veber jamiyat munosabatini tahlil qilar ekan umuman din to‘g‘risida emas, muayyan davrdagi muayyan din yoki diniy oqim to‘g‘risida fikr yuritadi.

Maks Veberning fandagi eng katta xizmatlaridan biri, uning xristian dinidagi protestantlik mazhabning iqtisodiy taraqqiyotga o‘tkazgan ta’sirini kashf etishida bo‘ldi. Uning nazariyasiga ko‘ra, boylikni, boylik orttirishga intilishini unga o‘xshamaydigan xristian dini mazhablari iqtisodiy taraqqiyot va kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Veber talqinida, protestantlik kapitalizm vujudga kelishidagi asosiy sabablardan biri edi.

Veber izdoshlari uning fandagi xizmatlarini ko‘klarga ko‘tarib maqtashdi. Uning xizmatlarini e’tirof etish bilan birga, shuni ham ta’kidlash lozimki, u iqtisodiy taraqqiyotga faqat diniy mazhab – protestantlikning o‘tkazgan ta’srini keng tadqiq qildi.

Islom dinidagi oqimlar, mazhablar, yo‘nalishlar turlicha bo‘lib, ularning barchasi faqatgina o‘zları mansub bo‘lgan mazhab yoki yo‘nalish baqiqiy islom dini ekani, boshqalar esa yo‘ldan adashganlar, deb da‘vo qilishadi. Boshqa dinlarda bo‘lgani kabi islomda ham aqidaparast (fundamentalistik) va mo‘‘tadil oqimlar o‘rtasida kurash borgan. Aqidaparast oqimlarning vakillari dinni ilk paydo bo‘lish davridagi holatga qaytarmoqchi bo‘ladilar. Aslida esa bu g‘oyalari mavjud tuzumdan norozilik alomati bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyot yo‘nalishini orqaga burish uchun urinish ifodasidir.

Aqidaparastlarning ijtimoiy taraqqiyotni ortga qaytarish uchun qilgan harakatlariga qarshi taraqqiyarvar ma‘rifatchilar harakati vujudga keldi. Tarixda xadidchilik nomini olgan bu harakat namoyandalari xalqni ilm-ma‘rifatli qilish, diniy e’tiqodda mutanosiblikdan mo‘‘tadillik tomon yuz tutish g‘oyalari bilan chiqdilar.

Ma‘rifatchilik harakatini vujudga keltirgan asosiy sabablardan biri diniy fiqx ilmini talqin qilishda ulusi qadimiya va usuli jadidiya o‘rtasidagi

munozara va kurashlar orasida edi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida diniy aqidaparast atamasi muomalada deyarli bo'lmagan. Uning o'rnida "qadimchilar" atamasi keng qo'llanilgan. qadimchilar dinni "asl" holiga qaytarish, yangiliklaridan himoya qilish uchun harakat qilganlar. Usuli jadidiya tarafdorlari, ya'ni ma'rifatchilar meyorlarini belgilashda jamiyatda yuz bergan va berayotgan o'zgarishlarni hisobga olish, yangiliklarini qo'llash tarafdoi edilar. Diniy aqidaparastlar qirg'inidan omon qolgan ma'rifatchilar kommunistik aqidaparastlar qirg'iniga duchor bo'ldilar. XX-asr 20-30-yillarda kommunistik tuzumi jadidlarning qadimchilar qirg'inidan tirk qolganlarini qirib bitirdi. Shunday qilib, jadidlar ikki aqidaparast terroristik kuchlar: diniy aqidaparastlar va kommunistik aqidaparastlar tomonidan ta'qib va qirg'in qillndilar. Chunki ular targ'ib qilgan ma'rifat va istiqlol mafkurasi xalifalikni tiklamoqchi bo'lgan diniy aqidaparastlarning ham, kaltani cho'zib, uzunni uzib barchani teng qilmoqchi bo'lgan kommunistik aqidaparastlarning ham mafkurasiga to'g'ri kelmas edi.

XX-asr boshlarida Markaziy Osiyoda juda ko'p xunrezliklarga sabab bo'lgan diniy aqidaparastlik XX-asr so'ngida ham ijtimoiy tanglikni keltirib chiqarishga urindi. Sho'rolar tuzumining oxirgi yillarda hokimiyatning bo'shashgani va kishilar ongida mafkuraviy bo'shilq vujudga kelganidan foydalanib, aqidaparastlar o'zlarining mavqelarini mustahkamlab olishga harakat qildilar. Ularning bu harakati O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillarda ham davom etdi. O'zlarini etarli kuchga ega, deb hisoblagan aqidaparastlar O'zbekistondagi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik yo'li bilan ag'darishga urindilar. 1999-yil 16-fevralda Toshkentda bo'lib o'tgan portlatishlar, bundan oldinroq Farg'ona vodisida va boshqa ba'zi viloyatlarda bo'lib o'tgan salbiy hodisalar shundan guvohlik beradi. Lekin asr boshida ma'rifatparvar kuchlarga qattiq zarba bergan aqidaparastlar asr so'ngida o'z qilmishlari tufayli xalqning qaxr-g'azabiga uchradi. Mana shu hodisa ham diniy oqimlar radikallashib aqidaparastlikka aylana borgani sari ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'lishi va aksincha, mo'tadil oqimlar ijtimoiy barqarorlikka barakali ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tasdiqlaydi.

XX-asr o'rtalarida "Inson taraqqiyoti" fanida "fuqarolik dirlari" tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushuncha ilohiy kuchlar va hodisalarga emas, ijtimoiy turmushdag'i narsa-hodisalarga sig'inishni anglatadi. Masalan, Buyuk Britaniya, AQSh kabi mamlakatlarda bayroq, madhiyaga cheksiz hurmatini, taxtga o'tirish va innauguratsiya marosimlarini bu tushuncha tarafдорлари diniy marosimlar bilan tenglashtiradilar. Sobiq sovet ittifoqida Marks, Engels, Lenin shaxslari amalda ilohiylashtirilgan edi. Ular sha'niga, ayniqsa, Lenin sha'niga biror tanqidiy gap aytish man qilingan, ularning ishlari va gaplarini faqat madh etishga ijozat berilgan edi. Bu hodisalar XX-asr ikkinchi

yarmidagi diniy Inson taraqqiyoti yo‘nalishiarida fuqarolik dirlari deb ataladi.

Shunday qilib din Inson taraqqiyotisi ijtimoiy fikrda din atamasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy xulqini o‘rganadi. Mustaqil O‘zbekistonda dinga milliy qadriyat sifatida qaralishi xalq ongida ushbu hodisaga nisbatan to‘g‘ri holis munosabatning shakllanishiga zamin bo‘ldi. Bu boradagi yoshlar va fikr tarbiyasining asosiy yo‘nalishi ham islam dimiga xos bo‘lgan insonparvarlik tamoyillarini ongga singdirib borishini taqozo etadi.

Axloq Inson taraqqiyotida ijtimoiy munosabatlarning muhim ko‘rinishi sifatida.

Axloq ijtimoiy ong shakli sifatida muayyan xalq, elat yoki uyumaning asrlar davomida shakllangan xulq-atvor, xatti-harakatlar, xis tuyg‘u va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro real munosabatlar tizimini ifoda etadi. Axloq muayyan xalqning atrof muhitga, kishilarga va o‘z o‘ziga bo‘lgan munosabatlari sifatida, bir jihatdan, mahalliy-milliy hususiyatga ega bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, millatning umumjamiyat talablariga uyg‘un muvofiqligini ta‘minlovchi umuminsoniy hususiyatga ham egadir.

Axloq va ijtimoiy munosabatlar uchun mushtarak manbalardan biri, tabiiyki til hisoblanib, u ijtimoiy axborotni saqlovchi, ifodalovchi va etkazuvchi muhim vosita bo‘lib, kishilar hatti-harakati, fe’l-atvorlarini (axloqiy ta’sir-tazyiq, ishontirish, tushuntirish, rag‘batlantirish, jazolash va hakozo) boshqarish omillidir. Til muloqot kaliti-ijtimoiy munosabatlarga tarixiy tabiiy mahsulidir.

Axloq va jamoatchilik fikri hodisalarining bog‘liqligi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi va undan keyingi davrlarida namoyon bo‘la boshlagan bo‘lib, u qabila hamda elatlar maishiy va ijtimoiy ongida o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlagan.

Maishiy hayot doirasida axloq asosan quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lgan: a) munosabatlar b) faoliyat. Axloqiy sifatlar insonning xatti-harakatlarida namoyon bo‘lib, uning geoseologik, iqtisodiy va ijtimoiy kelib chiqishi, hozirgi mavqeyi va axloqiy qarashlariga ishora va guvohlik berib turgan axloqiy sifatlar yoki xatti-harakatlar ilk kishilik tarixi, ya‘ni insomiyatning zaminga dastlabki qadamlar qo‘yishishidan shakllanish bosqichiga kirgan va shu boisdan har bir xalq, elatlarda u o‘ziga xos va betakordir. Xuddi shuningdek millat va elatlar ijtimoiy ongingin muayyan holati hlsoblanmish jamoatchilik fikri ham o‘zining shakllanish manbalarining salmog‘i, real kuchga aylanish sur’ati, uyushqoqlik darajasi, hissiy-emotsional potensiali hamda mantiqiy-intellektual asoslariga ko‘ra milliy, iqlimiylar mahalliy hamda regional o‘ziga xosliklarga egadir.

Axloq asrlar davomida odamlarni jamoatga, uyushuvga, boshqalar manfaatini shaxsiy manfaatlardan yuqori qo'yib, yondashuvga undan kelgan. Bu xususida ulug' donishmandlar ibratli fikr-qarashlarni ilgari surganlar.

Hazrat Bahovuddin Naqshbandiy aytar edilar: "Har kim o'zgalarni xohlasa, o'zini xohlabdi, kimki o'zgani xohlamabdi, bilsinki, o'zini xohlamabdi".

Movarounnahr xalqlari axloq tizimi jamoatchilik fikrining salmog'ini, uning haq va islom qoidalariga nechog'li muvofiq bog'liq ekanligini alohida qayd etadi. Shu jamaoa a'zolarining to'g'ri va halolligi gunoh ishlardan qanchalik o'zlarini forig' tuta bilishlari bilan ham o'lchanishiga e'tibor qaratadi. Ayni chog'da jamaoa a'zolari gunoh yo'lga kirgudek bo'lsalar, ularni tarbiyalash ishidan bo'yin tovlamaslik zarurligi ham uqtiriladi. "Bu toifa ahlidan har kim bir gunoh qilsa, unga chora-tadbir bor, biroq undan yuz o'girish ravo emas".

Jamiyat jamoatchilik fikri shaxs zimmasiga ijtimoiy tuzum, shakllangan axloqiy qarashlar, an'ana va urf-odatlar mantig'idan kelib chiqaruvchi ko'pgina talablar, sa'y-harakatlar, ish yuritish, turmush tutishda qator majburiyatlarini hisobga olish mas'uliyatini ham yuklaydi. Axloqiy qarashlarning jamoatchilik fikri hosil etish imkoniyatlari qanchalik katta bo'lsa, uning ommaga ta'sir doirasi shunchalik teran va ta'sirchan bo'ladi. Shu boisdan ham har bir axloqiy talab va qoida jamiyat tomonidan to'la ma'qullagan va o'zlashtirilgan bo'lishi zarur. Shaxsning jamiyat hayotiga bo'lgan ishtiropi qanchalik yuqori bo'lsa, uning axloq tizimida ijtimoiy mas'uliyat va vazifalari salmog'i ham shunchalik katta bo'ladi. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni esa mehnat, faoliyat bilan chambarchas bog'liqidir. Shuni alohida qayd etish lozimki, har qanday axloqiy qoida va talablar jamiyat tomonidan e'tirof etilib, jamoatchilik fikrida mustahkamlangan holdagina umrboqiylik kasb etadi. Shu boisdan ham axloq jamoatchilik fikrining asosi va unga bevosita bog'liq ijtimoiy ong ko'rinishidir.

Har qanday siyosiy tizim birinchi galda axloq asoslarini o'zgartirishga intiladi. Hozirgi kundagi ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bozor iqtisodiyoti unsurlari bolaning tezkor kirib kelishi axloqiy qarashlar va bu qarashlarni ifodasi bo'lgan jamoatchilik fikri mazmunida ham katta o'zgarishlar bo'lishiha olib kelishi shubhasizdir.

Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuyini, zamonaviy tilda aysak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopolikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, vatanini, xalqi uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydi. Bunday hayot tarzini jamiyat axloqi va jamoatchilik fikrigina boshqarib turiladi.

Abu Nasr Farobi yatganlaridek, "Mamlakat aholisi xushxulqqa ega bo'lgan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj to'g'iladi". Jamoatchilik fikri jamiyat axloqining ifodasi tarzida namoyon bo'lganligi sababli, u axloqning o'zi bo'llib ham tuyuladi. Fransuz olimi Berj bu xususida qiziqarli mulohazani o'rta ga tashlaydi: "Jamoatchilik fikri axloqqa juda o'xshab ketadi, chunki liar ikkalasi ham jamoani hukm o'tkazib boshqaradi".

Jamoatchilik fikrining jamoani katta ishonch bilan boshqarishini asosiy sababi shundan iboratki, u kishilar orasida axloqiy tizimiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy qarashlar esa kishilarning turmush tarzi orqali ularning orzu-o'yлari, maqsadlariga erishish yo'lidagi kurash va baxslarda tug'iladi va xatti-harakatlar mazmunining jamoatchilik fikri tomonidan baholana borishi jarayonida shakllanadi.

Axloqiy tushunchalar kishilarning oddiy-odatiy turmush tarzida kundalik hayot jarayonida tarkib topib, uning amaliy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umumjahon axloqi asoslarini yaratish g'oyasi garchi bugungi kunda hech kimda shubha uyg'otmasada ko'p yillar mobaynida mazkur ijtimoiy intilishga bir yoqlama yondashish yaxshidan illat, savobdan qusur izlash tendensiyasi hukm surib keldi.

Tabiiyki xalqaro axloq qoidalari kuch yoki quroq vositasida hayotga joriy etilmaydi. Umuminsoniy tamoyillar negiziga quriluvchi bu axloqiy qoidalari faqat jamoatchilik fikri orqaligina boshqariladi va nazorat qilib boriladi.

Xulosa, sifatida quydagilarni alohida qayd etib o'tishni zarur deb hisoblaymiz:

1) Axloq jamoatchilik fikrining uyg'onish, shakllanish va amal qilishning uzviy manbaalaridan sanalgan holda xalq axloqi y ahliitligining yuzaga kelishida jamoatchillik fikri muhim o'rinn tutadi, bu ikki ijtimoiy hodisa hamma holatlarda mustahkam aloqada bo'ladi, bir birini to'ldirib, boyitib turadi.

2) Jamoatchilik fikri o'zining shakllanish manbaalarining salmog'i, kishilarning uyushqoqlik darajasi, aholining hissiy-emotsional potensial, mantiqiy-intellektual imkoniyatlariga, shuningdek, milliy, iqlimiyl, mahalliy va regional shart-sharoitlarga bog'liqdir.

3) Axloq va jamoatchilik fikrining o'zaro aloqadorlik me'yori jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasiga, yalpi taraqqiyot uchun tanlangan rivojlanish dasturiga, mantiqiy yo'nalishlar o'ziga xosligiga, xalq ma'naviyati va milliy o'ziga xosliklar omillariga bog'liqdir.

4) Sovet tuzumi davrida "avval iqtisod, keyin siyosat" aqidasining amal qilishi, iqtisod, siyosat "avval materiya so'ng ong" degan moddiyonchilik ishoralarining g'oyaviy ta'sir-tazyiqi ostida shakllantirilganligi puxta hisobga olish zarurdir ma'naviyatning birlamchiligi, umuminsoniy tamoyillar ustuvorligini e'lon qilib, ozod jamiyat qurishga kirishgan O'zbekistonda

nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ma'naviy bo'hronlar botqog'idan muvaffaqiyat bilan chiqilmoqda.

5) Jamoatchilik fikri xalq an'ana va urf-odatlariga mustahkam tayanadi va ularning jamiyat hayotida amal qilishiga imkoniyat yaratiladi. Zero an'analar axloqiy qarashlarning progressiv jihatlarini avloddan avlodga etkazuvchi muhim omili, xalqning o'ziga xos qiyofasini saqlab qolish va himoyalash mezonidir.

6) Axloq kategoriyasining muayyan urug', qabila, el-elat va xalq miqyoslaridan xalqaro miqyoslarga o'sib o'tishi, umuminsoniy tamoyillar negizidagi umumplanetar axloqlikning tarkib topishida jamoatchilik fikri o'ziga xos ko'priq vazifasini o'taydi. Ayni chog'da jamoatchilik fikri va axloq jamiyatda umumiyl murosasi va madoraning turg'un maromimi ta'minlash yo'lida o'zaro munosabatlikda, tarixiy takomil jarayondagi muvofiqlikda rivoj topa boradi, bir birini to'ldiradi, bir-biriga uyg'un tarzda mukammallahadi.

Nazorat uchun savollar

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qillindi?
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
3. Madaniyatning qanday tur va shakllari bor?
4. Inson taraqqiyotida din qanday o'rinn tutadi?
5. Buyuk Sharq allomalari o'z asarlarida axloq to'g'risida qanday fikrlar bayon etganlar?

13-§. SOG'LIQNI SAQLASH INSON TARAQQIYOTINING OMILI REJA:

1. Sog'lijni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar.
2. Sog'lijni saqlash inson taraqqiyotini rivojlanishida asosiy omil.
3. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatni shakllantirish borasidagi amalil ishlari.
4. O'zbekistonni Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti bilan olib borayotgan hamkorlik aloqlari.

Tayanch so'z va iboralar: *Sog'lijni saqlash tizimi, sanitariya-epidemiologiya, qishloq vrachlik punktidları, ona va bola salomatligi, moddiy texnik baza, tibbiy yordam, tibbiy markaz, profilaktika, tibbiy madaniyat.*

Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelb chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har

qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. O'zbekiston Respublikasi hududidagi ajnabiy fuqarolarning sog'liqni saqlash Huquqi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, sog'liqni saqlashda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng huquqdan foydalanadilar. Fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioxqa qilinishi;
- aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;
- profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;
- sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- tibbiyat fanining amaliyot bilan birligi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Fuqarolar sog'liqqa ta'sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to'g'risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalari muvofiqligi to'g'risida o'z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga ega. Har bir fuqaro davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida oilaga taalluqli masalalar, o'zida ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavfli bo'lgan kasalliklar hor-yo'qligi yuzasidan, nikoh va oila munosabatlarining tibbiyruhly jihatlari yuzasidan bepul maslahatlar olish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar olish va tekshiruvdan o'tish huquqiga ega. Har bir oila o'ziga oilaviy shifokor tanlash huquqiga ega. Qayd etib o'tilsinki, sog'liqni saqlash tizimini isloq qilish chora-tadbirlarini izchil amalgalashuvchi natijasida respublikada – birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatuvchi qishloq vrachlik punktiari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, viloyat ko'p tarimoqli tibbiyot markazlaridan boshlab, murakkab yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarigacha barcha darajalarni qamrab olgan aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning yahlit tashkiliy tuzilmasi yaratildi. So'nggi o'n yilda davolash-profilaktika muassasalarini modernizatsiya qilish va eng zamonaviy laboratoriya, tashxis va davolash uskunalarini bilan

jihozlashga 750 million AQSH dollaridan ortiq miqdorda byudjet mablag'larini yo'naltirildi va imtiyorozli kreditlar hamda grantlar jaib qilindi.

Mustaqillik yillarda sog'liqni saqlash sohasiga qilingan xarajatlar 3,6 baravar o'sdi va bu yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 4,0 foizni, mam'lakatning Davlat byudjetida esa 15,7 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 1990-yilga nisbatan o'ttacha umr ko'rish 67 yoshdan 74 yoshgacha ortdi, onalar hamda go'daklarning o'limi tegishli ravishda 3,1 va 3,2 marotabaga qisqardi. Aholining, ayniqsa sil, gepatit, turli yuqumli xastaliklar bilan umumiylashtirish darajasi sezilarli ravishda pasaydi. Shu bilan birga, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati, ayniqsa joylarda, tuman va viloyat tibbiyot birlashmalarining moddiy-teknika bazasi holati o'sib borayotgan zamonaviy talablarga hamon javob bermay kelmoqda.

Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini boshqarish tizimi tubdan takomillashtirilishini taqozo etmoqda, ularda yetakchi xorijiy tibbiyot markazlarining tajribasini, shuningdek, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirishning ilg'or shakkularini qo'llash, ularning moddiy-teknika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash talab qilinmoqda. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish, tibbiyot muassasalarini faoliyati samaradorligini oshirish, zamonaviy talablar va standartlarga muvofiq aholiga yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash, respublika sog'liqni saqlash tizimida boshqarish va mehnatni tashkll etishning ilg'or shakl hamda uslublarini joriy etish maqsadida 2012-2015-yillarda respublika sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

Aholiga, ayniqsa qishloq joylarda, yuqori sifatli birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishi keng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash, fuqarolarga kasalliklar profilaktikasi va sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha diagnostika hamda ambulatoriya-profilaktika muassasalarining ish samaradorligini tubdan oshirish; tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining mavjud quvvatlaridan foydalamish samaradorligini oshirgan, zamonaviy uskunalar bilan, shu jumladan ularni xalqaro moliya institutlari kreditlari va grant mablag'lari hisobidan jihozlagan holda tuman (shahar) darajasida tibbiyot muassasalarini tarmog'i va o'rinnar fondini maqbullashtirish hamda tarkibiy qayta qurish; zamonaviy, xalqaro tajribadan o'tkazilgan tashkiliy va moliyaviy menejment usullarini tatbiq etib respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, ularning moddiy-teknika bazasini yanada mustahkamlash, eng zamonaviy tibbiyot uskunalarini bilan jihozlash va doimiy ravishda qayta jihozlab borish; tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati samaradorligini, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning tezkorligi va sifatini oshirish, ularni tizimli asosda eng yangi tashxis va davolash uskunalarini bilan qayta jihozlash, zamonaviy mobil tibbiy

uskuna va aloqa vositalari bilan butlangan maxsus avtotransport bilan qo'shimcha jihozlash; ona va bola salomatligini muhofaza qilish Milliy modeliga muvofiq onalar va bolalar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, perinatal, skrining markazlari, tug'ruqqa ko'maklashish hamda pediatriya muassasalarining moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash; aholini virusli va yuqumli kasalliklardan muhofaza qilishning profilaktik tadbirlarini kuchaytirish hamda ishonchliligini oshirish, onkologik va sil kasalligiga qarshi xizmatlar muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, profilaktika ishlarining, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolashning samarali tizimini shakllantirish; zamonaviy tashxis va davolash uskunalariga, yuqori malakali tibbiyot kadrlariga ega xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini tartibga solish va litsenziya berishni yanada takomillashtirish, ularga nisbatan tasdiqlangan davolash standartlariga muvofiq ravishda aholiga sifatli ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat ko'rsatish talabiarini oshirish.

2011-yil 18-iyuldagagi PF-3676-sonli farmoyishi bilan tuzilgan Komissiyaning: 2012-2015-yillarda byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan sog'liqni saqlash tizimi statsionar muassasalari tarmog'i va o'rinalar fondini maqbullashtirish to'g'risidagi; 2012-2014-yillar mobaynida olis qishloq aholi punktlarida qishloq aholisi uchun birlamchi tibbiy yordamdan qulay va tez foydalanishni ta'minlaydigan qo'shimcha 102 ta qishloq vrachlik punktlarini barpo etish to'g'risidagi; 100 ta tuman tibbiyot birlashmalarini 93 miliyon AQSH dollari miqdoridagi "Salomatlik-3" loyihasimi Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirish doirasida zamonaviy laboratoriya, tashxis va davolash uskunalar bilan jihozlanadigan tuman tibbiyot muassasalarining tashxis, statsionar va ko'makchi bo'linmalarini bir hududda ixcham joylashtirish asosida modernizatsiya qilish to'g'risidagi; bankimeng 27 million yevro miqdoridagi imtiyozli kreditlari va grant mabiag'lari hisobiga jihozlanadigan barcha viloyatlar va Nukus shahridagi ko'p tarmoqli bolalar tibbiyot markazlarining binolarini, shuningdek, umumiy qiymati 13 million yevro miqdorida jalb etiladigan imtiyozli kreditlar va Germaniya hukumatining grant mablag'lari hisobiga jihozlanadigan kattalar uchun mo'ljallangan 5 ta tibbiyot markazlarining binolarini rekonstruksiya qilindi.

Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini aksiyalashtirish quyidagi shartlarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi: respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalari aksiyalarining 51 foizini davlatda saqlab qolgan holda, davlat ulushi bo'yicha tegishli bo'lgan dividendlarni 2020-yilni ham o'z ichiga olgan davrda birinchi navbatda ixtisoslashtirilgan markazlarni to'liq jihozlash va qayta jihozlash uchun zamonaviy tibbiyot uskunalarini xarid qilishga yo'naltirish; aksiyalarning 49 foizini

ixtisoslashtirilgan markazlarning mehnat jamoalariga (ulushni tasarruf qilish va taqsimlash huquqisiz) foydalanish uchun berib, ular bo'yicha tegishli bo'lgan dividendlarni ixtisoslashtirilgan markaz faoliyatining pirovard moliyaviy natijalarida xodimlarning mehnat ishtiroki koeffitsiyentiga qarab ularni (shu jumladan, markazlarning rahbarlar tarkibi uchun 10 foizgacha) moddiy rag'batlantirishga yo'naltirish; Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari Kengashlarining tarkibiga Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor tuzilmalarning vakillarini kiritgan holda ularning zimmasiga markazlar faoliyati strategiyasini shakllantirishda faol qatnashish, Kengash tomonidan tasdiqlanadigan biznes rejalar bajarilishini nazorat qilish, byudjet hamda byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalaniishi ustidan monltoringni amalga oshirish vazifalarini yuklash.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Moliya vazirligi bilan kelishilgan viloyat va tuman bo'g'inidagi 46 ta sog'liqni saqlash muassasalarimi bosqichma-bosqich o'zini-o'zi to'la moliyalashtirishga o'tkazish, shuningdek, 57 ta tibbiyot muassasalarining umumiy xarajatlarini moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'lar salmog'ini oshirish haqidagi takliflari ishlab chiqildi.

Vazirlar Mahkamasi 2012-2015-yillarga mo'ljallangan dasturiy choratdbirlar kompleksini tasdiqlagan holda, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining, kechiktirib bo'lmaydigan va shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari, onkologiya xizmatining moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek, silga qarshi muassasalarini eng avvalo, xalqaro moliya institutlari hamda donorlarning grantlari va imtiyozli kreditlari hisobiga tubdan qayta jihozlash bo'yicha moliyalashtirishning aniq manbalari va ularni amalga oshirish muddatlarini ko'rsatib o'tsin;xususiy tibbiyot muassasalariga litsenziyalar beriladigan tibbiy faoliyat ixtisoslashuv turlarining yangilangan ro'yxatini, undan odamlarning, ayniqsa bolalarning hayoti va salomatligi uchun yuqori darajadagi xatar bilan bog'liq turlarini chiqarib tashlab, shuningdek, xususiy tibbiyot muassasalarini uchun litsenziya talablari va shartlarini hamda ularga rioya etilishi uchun javobgarlikni kuchaytirgan holda Tibbiy faoliyatni litsenziyalash to'g'risida yangi tahrirdagi mizomni tasdiqlasin. 2012-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan xususiy tibbiyot muassasalarining litsenziya talablari va shartlariga rioya etishlari xususida o'tkazayotgan tekshiruvlari nazorat qiluvchi idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika Kengashi va uning hududiy komissiyalari bilan qo'shimcha ravishda kelishilmagan holda amalga oshiriladigan Nazorat idoralarining nazorat funksiyalari ro'yxatiga kiritildi.

2007-yil 19-sentabrdagi PF-3923-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini isloq qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida" Farmonda berilgan soliq va

bojxona imtiyozlari 2018-yilning 1-yanvarigacha uzaytirilsin, bojxona imtiyozlari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan olib kelinadigan tibbiyot uskunalariga, butlovchi buyumlarga, tibbiyot uskunalarining ehtiyyot qismlari va sarflanadigan materiallariga nisbatan joriy etilsin. 1998-2005-yillarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirishga doir asosiy chora-tadbirlari tasdiqlandi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qllish Davlat dasturini amalga oshirishni tashkil etish va nazorat qilish Respublika Komissiyasi tuzildi. Quyidagilar Respublika komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni amalga oshirish bilan aloqador vazirliklar, idoralar, muassasalarining, shuningdek, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha tashkilotlarning faoliyatini muvosiqlashtirish; Davlat dasturi talablariga muvofiq sog'liqni saqlash tizimining amaldagi huquqiy va me'yoriy asoslarini qayta ko'rib chiqish hamda ularning yangilarini ishlab chiqish;

Xalqaro tashkilotlar, xorijiy sarmoyadorlar, jamg'arninalar jamoat tashkilotlarining mablag'larini sog'liqni saqlash tizimiga jalb etish uchun shart-sharoit yaratish;

Davlat dasturi bajarilishining muntazam monitoringini tashkil etib, Vazirlar Mahkamasiga yilning har choragida hisobot taqdim etish.

Respublika komissiyasi zarur hollarda tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, sog'liqni saqlash sohasini moliyalashni tubdan o'zgartirish, tibbiyot muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish, sog'liqni saqlash tizimining nodavlat sektorini va xususiy Davolashni rivojlantirish bo'yicha qonun hujjatlari loyihalarini, me'yoriy-uslubly hamda boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun yuqori malakali mahalliy va xorijiy ekspertlardan iborat ishchi guruhiarini tashkil qiladi.

Sog'lom turmush tarzi -ma'naviy barkamollik na'munasi. "Odamzodning sog'ligi ko'p jihatidan avvalambor uning o'ziga bog'liq. Buning uchun u o'z hayotini oqilona yo'lga qo'yishi, har qanday kasallikning oldini olish uchun sog'lom hayot tarzi va turmush madaniyati talablariga amal qilib yashashi lozim." (O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2004-yil 7-dekabrda so'zlagan nutqidan).

Turmush tarzi - inson hayotining shunday bir tayanch nuqtasiki, har bir inson unga tayangan holda, o'z hayotini tubdan o'zgartirishga erishishi mumkin.

Turmush tarzi-deganda inson bilan tabiiy ijtimoiy muhit o'rta sidagi barqaror va uzoqni ko'zlab o'rnatilgan munosabatlар tizimidан iborat bo'lgan jamiyatning axloqiy va moddiy qadriyatlari sifatida gavdalangan, intilishlari, maqsadlari, shakllangan xulqi, uzoq kelajakni o'ylab ish tutishi nuqtayi nazardan esa jamiyatdagi mavjud qonunlar, ananalar va tartiblarga

asoslangan holga o'zining turli xil ehtiyojlarini qondirib yashash tarzi tushuniladi.

Turmush tarzi – bu jamiyatda odamlarning faoliyati yurishi tartibi bo'lib, yashash sharoitlari bilan bog'langan, ularga javob beradi, ulardan u yoki bu darajada foydalanishni nazarda tutadi. Turmush tarzi- har bir shaxsning turmush kechirishi yoki boshqacha aytganda ularning yashash faoliyati shaklidir. Yashash sharoiti esa turmush tarzi bilan vositalashgan va shartlangan omillar yig'indisi bo'lib belglaydi yoki boshqacha qilib aysak, yashash sharoiti turmush tarziga ta'sir kursatuvchi moddiy va manaviy omillar yig'indisidan tarkib topadi.

Turmush tarzi quyidagi 4 ta toifani o'z ichiga oladi: (Yu.P.Lisiston 1987-yil.)

1. Iqtisodiy yoki "yashash darajasi" – farovon yashash toifasi bo'lib uni son jihatdan o'lichash mumkin. Bunga milliy daromad, iste'mol fondlari, aholining haqiqiy daromadlari va ulardan foydalanishni, uy-joy bilan ta'minlanish, tibbiy xizmat ko'rsatish va savodxonlik darajasi, ish vaqtini va bo'sh vaqtning davomiyligi, daromadlari tarkibi va hokazolarni kiritish mumkin

2. Ijtimoiy yoki "yashash sifati" esa uy-joy, yashash sharoitlari va ovqatlanish, qulayliklariga egaligi, ishdan qoniqishi, muloqotda bo'lishi kabilarni baholash uchun qo'llaniladigan toifa hisoblanadi.

3. Ijtimoiy ruhiy tomoni "yashash uslubi" tarzida baholanib, u har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlari fikrashi va tafakkur dirasi kabilarni qamrab oladi.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy tomoni esa odamlarning jamiyatda tutgan o'mni, hayoti, turmushi, madaniyati hamda ularning yashash faoliyatlarini belgilaydi. Turmush tarzi – deganda insonlarning muayyan ijtimoiy muhitda, jamiyatda o'zini tutishi, ularning mehnat faoliyati va moddiy sharoitlarini o'zaro dialiktik munosabatlaridan iborat falsafiy kategoriya tushuniladi.

Shunday qilib turmush tarzi – ijtimoiy- iqtisodiy infarmatstiya va jamiyatning obyektiv rivojlanish jarayonlari bilan bog'langan holda shakllanib, u tarixiy rivojlanishning ma'lum bosqichida ishlab chiqarish usuliga bog'liq holda paydo bo'ladi.

1. Odatda turmush tarzining quyidagi turlari farqlanadi: mehnat faoliyati bilan boo'liq turmush tarzi;

2. Ijtimoiy – siyosiy faoliyat bilan bog'liq turmush tarzi;

3. Tashqi dunyoni bilib olish, bilimlarga intilish bilan bog'liq turmush tarzi;

4. Madaniy hayot bilan bog'langan turmush tarzi;

5. Oila va tarbiyaviy jarayonlar bilan bog'liq turmush tarzi.

Mehnat faoliyati va ishlab chiqarish bilan bog'liq turmush tarziga: mehnatning turi, uning mazmuni ,tarkibiy qismlari, tashkil qilish darajasi va

hokazolar kirdi. Bunda ishlab chiqarish tarmog'i, jismoniy yoki intellektual ish rejimi, avtomatlashtirish yoki mexanizastiyalash darjasи, mehnat intizomi, ish xajimi, tashabbuskorlik, mehnatga va jamoaga munosabati, rubiy va emostional holat, o'z ishidan qoniqish xosil qilish darjasи kabilar inobatga olinadi.

Tibbiyot ilmining otasi Gippokrat "Insonning faoliyati qanday bo'lsa, uning o'zi ham, tabiatи ham, kasalliklari ham shunday" deb ta'kidlab, insoniyatning sog'ligi va kasalligini uning turmush tarzi, fikrlash doirasi, o'zini tuta bilishi kabilarni o'rganish orqali bilib olish mumkin ekanligini ko'rsatib o'tgan edi.

Turmush tarzi inson faoliyatining shunday – "tayanch nuqtasiki", tibbiyot ilmi unga tayangan holda, odamlar salomatligini tubdan yaxshilashga erishishga yo'l topadi.

Sog'lom turmush tarzi — shunday yashash tarziki, unda odamlar salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar bo'limasligi, inson ulardan ongli ravishda o'zini chetga olishi kerak.

Sog'lom turmush tarzi yoki oqilona yashash tarzi tushunchalari keng qamrovli bo'lib, o'z ichiga insonning tug'ilisidan boshlab umrining oxirigacha aql farosat bilan yashashini – zararli odatlardan holi bo'lishini, to'g'ri ovqatlanib, to'g'ri dam ola bilishi kabi ko'plab boshqa ijobjiy xislatlarini oladi. Oqilona turinush tarzi har bir insonning aql farosati — bilan yaratiladi va har bir kishi uchun individualdir. Bir kishiga foydali bo'lgan narsa boshqaga zarar keltirishi mumkin. Hayot ritmi, mehnat qilish va uxlash davomiyligi, qabul qillinadigan miqdori va sifati har bir inson tomonidan o'z ehtiyoji va imkoniyatiga qarab tanlab olimishi zarur. Shuning uchun ham salomatlikni inson aqlining mahsuli deb qarash kerak. Insonni uning o'z xohishiga qarshi sog'lom qilish va unga uzoq umr baxshida etish aslo mumkin emas. Sog'lom turmush tarzi o'z asosida biologik va ijtimoiy tamoyillarni mujassamlashtiradi.

Biologik nuqtayi nazardan sog'lom turmush tarzi:

1. Organizmning yoshiga bog'liq xususiyatlarga va salomatlik holatiga mos kellshi, organizmning energiya ta'minotiga bo'lgan talabini iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hisobiga to'la qondirilishi;

2. Organizmning mustahkam va jismoniy faol bo'lishi;

3. Belgilangan kun tartibiga rioya qilish, mehnat qilish va dam olishni mutanosib qilishga asoslanishi, hayot ritmlariga mos kelishi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan esa:

Axloqiy pok bo'lish;

Iroda asosida boshqarish;

Go'zal bo'lishi;

O'zini-o'zi tarbiyalashga asoslanishi lozim.

Sog'lom turmush tarzi tushunchasi o'z tarkibiga:

1. Zararli odatlardan (tamaki chekish, spirtli ichimliklarni ichish va giyohvandlik)tiyilish.
2. Muttasil ravishda jismoniy va xarakat faolligi, mo'tadil harakatlanish tartibiga rioya qilish:
3. Tarkib jihatidan tenglashtirilgan va rastsional ovqatlanish;
4. Organizmni chiniqtirish;
5. Shaxsiy va jamoatchilik gigienasi;
6. Ijobjiy ehtiroslar, ziddiyatli vaziyatlardan o'zini chetga olish, stress holatlarini oqilona yechimini topa bilish;
7. Tartibli mehnat qilish va to'laqonli dam olish;
8. Qulay ruhiy holatga ega bo'lish bilan ruhiy fiziologik jihatdan qoniqib yashash:
9. Yuksak tibbiy faolikka ega bo'lish;
10. Iqtisodiy va madaniy jihatdan mustaqlllik;
11. O'z ishidan qoniqish hosil qilib yashash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Fan – texnikaning g'oyat ulkan imkoniyatlari odamlardan sog'lom turmush tarzini shakllantirishni o'z-o'zidan tamimlab bermaydi. Bu o'rinda subyektiv omilning, ya'ni sog'lom gigienaga asoslangan turmush tarzini ta'minlovchi kuchli ijtimoiy siyosatning faol rol o'ynashi talab etiladi. Sog'lom turmush tarzi mehnat va dam olish gigienasi, shaxslar aro madaniyatini, ekologik madaniyat o'z organizmini fiziologik jihatdan avaylash va atrofdagilarning salomatllgi to'g'risida qayg'urish singari kopleks omillarni o'z ichiga oladi.

Mainlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti o'sib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda sog'lom turmush tarzining ijtimoiy – gigiyenik mezonlarini aniq belgilab ollishning ahamiyati ayniqsa ortadi.

Me'zon- bu shunday bir o'lchanishi uning yordamida biz uchun o'lchanishi zarur bo'lgan jarayonlarning shakllantirilgan etalon (standart) bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz, uni baholay olamiz. Sog'lom turmush tarzidek murakkab ijtimoiy jarayonlarini o'lhashda uning biz uchun maqbul va zarur bo'lgan o'lchanlarini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Sog'lom turmush tarzini o'lhashda ishlatalishi mumkin bo'lgan bunday mezonlar qatoriga shaxsning:

1. Jamoatchilik va mehnat jarayonlariga faollik ko'rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi;
2. Oilada va kundalik turmushda namunali yashash;
3. O'zidagi jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga intilishi;
4. Tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi;
5. Sog'lom va barkamol inson bo'lib shakllanish uchun o'z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi;

6. Nosog'lom turmush tarziga xos zararli odatlarning quliga aylanib qolishdan va o'z umrini hayot oqimining ayovsiz girdobiga tushib qolishidan asrashga intilib yashashi;

7. Faqat uzoq yashayotgani uchun emas, balki hayotda to'g'ri yashayotganidan ham qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intilishi;

8. Sog'lom turmush tarzini o'zi uchun bir umrga hamroh qilib olishi kabi qimmatli sifat va xususiyatlarni kiritish mumkin.

“Sog'lom turmush tarzi – bu kundalik turmushni biologik va ijtimoiy qonunlar asosida tashkil qilib, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzidir.”

Salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzi:

1. To'g'ri(oqilona) ovqatlanish;
2. Harakatli turmush va badantarbiya;
3. Kun va ish tartibini biologik qonuniyatlar asosida tashkil qilish; Jinsiy tarbiya, sog'lom oila;
4. Rubiy osoyishtalikni ta'minlash;
5. Zararli odatlardan tiyilish;
6. Shaxsiy va jamoat gigienasiga riox qilish;
7. Baxtsiz hodisalar va jarohatlardan ehtiyojkorlik;
8. Sog'lom turmush tarzi haqida bilim va malakaga ega bo'lish.

Nosog'lom turmush tarzida yashash – tana ehtiyojlariga yo'l berish, biologik instinktlar talabi bilan chegaralangan holda, vegetativ turmush tarzida yashashdir.

Inson o'z salomatligini va taqdirini hayot oqimining ayovsiz girdobiga tashlab qo'yib, sog'ligini o'zining zararli odatlariga qurban qilishi, insonning shaxs sifatida parchalanishi va tubanlikka yuz tutishidir.

Nosog'lom turmush tarzida yashashning oqibati inson mohiyatining yuzaga chiqmasdan yopiqligicha qolib ketishidir, jamiyatning esa iste'doddlardan mahrum bo'llishidir, shaxs dunyoqarashining chegaralanganligi, o'z salomatligiga qadriyatlar pillapoyasidan munosib o'rinn ajratolmaslik, uni oliy qadriyat sifatida qadrlash darajasiga ko'tara olmasdan yashab o'tish tarzidir.

Komil inson g'oyasi – ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyanob g'oyadir.

Bu g'oya butun xalqlarni yuksak taraqqiyotga yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida misilsiz yutuqlarga ilhomlantirgan.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning va millatning kelajagi yo'q.

Komil inson g'oyasi azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo'lib kelgan. Shu sababli yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakkantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajasiga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga etkazishga muhim e'tibor berilmoqda.

Sharq falsafasida va ma'naviyatida birinchilar qatorida komil inson tushunchasini ta'riflab bergan ulug' donishmand va faylasuf olim Jaloliddin Rumiy hisoblanadi. Rumiy sog'lom va barkamol shaxs g'oyasini ta'riflab, komil insonlar shunday insonlarki, ular o'zlarida dunyoviy va diniy ilmlarni mushtarak qilib o'zlashtirib, millat manfaatini, vatan manfaatini o'zinikidan ustun qo'ya oladilar. Ular yolg'iz o'z manfaat va ehtiyojlari bilan band bo'lib, tirikchilik tashvishlaridan zir yugurib, ulardan baland ko'tara olmagan va o'zining insoniy mohiyatini anglash darajasiga yetmagan odamlardan farqli o'laroq, o'z mohiyatini chuqr anglagan mukammal insonlardir, shu boisdan ularni – komil inson deb ataydilar.

Respublikamizning buyuk kelajagi ana shunday komil insonlarni tarbiyalab, yetishtirish darajasi bilan belgilanadi.

Insoni komil – olamning gultojidir, butun insoniyatning orzusi va barcha xalqlarning maqsadidir.

Jaloliddin Rumiy Hazratlari inson bolasini uning o'ziga tanishtirib, u inaqsad – inson, lekin oddiy inson emas, o'z-o'zini bilgan va ikki olamga barobar inson. Rumiyning fikricha o'z-o'zini anglagan va o'z-o'zini unutib, dunyo bilan birikkan Tangriga eng yaqin insondir. Zero komil inson Xudoga juda yaqin ekan, uning kamolot yo'lidagi mehnat va muhabbatni insoni komilga sidqi sadoqat borasidagi intilishlari ham muqaddasdir.

Mavlono Rumiy Insonni, avvalo ko'zini ochishga va ochilgan ko'zlar bilan o'z mohiyatiga nazar tashlashga undaydi, insonning o'zi bir butun kichik olam ekanligini uqtiradi. Mashoyixlarning "o'zini bilgan avliyo bo'ladi" degan fikrini isbotladi.

Dunyoga kelishdan muddao "yo'lini qilib kun kechirish, yeb ichish nasl qoldirib o'tish" kabi biologik ehtiyojlarni qondirib yashashdangina iborat bo'lmay aksincha, bular vosita, maqsad ruhan pog'onaga chiqish, Ollohnning huzurida loyiq bo'lishdir. Ruhan poklanish va jisman poklanish o'zaro uzviy bog'langan hamda uyg'unlashgan tushunchalar bo'lib, qalbi pok insonlar albatta jisman ham pok bo'lishni anglatadi.

Jamiyat insoniylikka munosib bo'lgan poklik va adolatda yashashi uchun Olloh mast qlluvchi ichimliklarni ichish, o'g'irlik, poraxo'rlik va

sudxo'rlik, nohaq odam o'ldirish, buzuqlik, qimorbozlik kabi ishlarni harom qilgan.

O'z mohiyatni anglagan komil yoshlari bunday nomunosib ishlardan hamisha pok bo'lganlar, sog'lom turmush tarzida yashash ularga xos xususiyat bo'lgan. Olloh huzuriga intilish komillikning kaliti bo'lsa, sog'lom va pokiza turmush tarzida hayot kechirish shu maqsadga olib boradigan ravon yo'ldir.

Jaloliddin Rumi: "Ey inson, agar baxt-saodat istasang, g'urur, manmanlikdan yiroq bo'l, hikmatli so'zlarni sekinlik bilan tingla, takabburlik, adovat, ginachilikdan hazar qil. Qayg'u, alamlar ustuniga hujum etsalar, bunga o'z adabsizliging sababchidir. Tarbiyasiz, adabsiz odam alam, hasrat daryosida g'arq bo'ladi. Shunga ko'ra adab nuri bilan o'zingni nurlantir, qalbing pok bo'lsin. Salomatlikni istasang, mag'rur mutakabbir bo'lma, adovat gina saqlashdan uzoq bo'l. Qanoat — tuganmas bir xazinadir, buning haqiqatini yaxshi tushunishga g'ayrat qil. Qanoatning faqat nomigagina o'rganib, bir qancha xatolarga, ranj va aziyatlarga tushmaslik kerak. Qanoat ahli har jihatidan xushvaqt va mammundir", - deb ta'kidlab, yoshlarni sabr-qanoatli bo'lishga, gina va adovatdan saqlanishga chaqiradi.

O'zbekistonda ham aholi tibbiy madaniyatini yuksaltirish borasida bir qancha islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Aholi salomatligiga tahdid solayotgan tibbiy omillarning obyektiv va subyektiv jihatlari, aholl tibbiy madaniyatini yanada oshirishning samarali usuliali, vositalari va yo'llarini aniqlash, ishlab chiqish zaruriyati bilan bog'liqdir.

Birinchidan, globallashuv sharoitida jamiyat hayotiga xavf solayotgan bir qancha xastaliklar o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, ta'sir kuchi ortib bormoqda. Xususan, oziq-ovqat tovarlarining eksport va import xajmi ortishi jamiyat umumiyo rivojlanishi va xavfsizligiga jiddiy ta'sir etayotganini ta'kidlash zarur. Bu esa o'z navbvtida turli xil kasalliklarning namoyon bo'lish shakkiali va ijtimoiy oqibatlariga, ularning oldini olish chora-tadbirlariga yangicha nuqtayi nazardan yondashuvni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, hozirgi globallashuv jarayonida dunyoning aksariyat mintaqalarida aholi hayotiga xavf solayotgan xavfli va yuqumli kasalliklar: Ebola, OITS, Parranda grippi kabilarning mavjudligi va ushbu kasalliklarning mamlakatimiz aholisiga xavf solish extimolining borligi, bunday ofatlardan mamlakatimiz aholisini asrashimizning eng maqbul yo'llaridan biri bu - aholi tibbiy madaniyatini oshirish ekanligidir.

Uchinchidan, hukumatimiz tomonidan sog'liqni saqlash. aholi tibbiy madaniyatini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, qabul qilingan qaror va qonunlar bilan mamlakatimiz aholisini tanishtirishning interfaol usullarini ishlab chiqish lozim.

To'rtinchidan, mentalitetimizdan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash joizki oila, mahalla va ta'lim-tarbiya tizimi aholi tibbiy madaniyatini oshirish jarayonida muhim o'r'in tutadi. Ayni paytda, mazkur institutlar aholl tibbiy madaniyatini yuksaltirishda ham alohida ahamiyat kasb

etadi. Shunday ekan, ularning faoliyatida tarbiya va tibbiy madaniyat uyg'unligini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni tizimli tahlil qilish mavjud muammolarning oqilona yechimlarini topishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, bugungi kunda OAVning aholi, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashi va tafakkuriga ta'siri oshib bormoqda. Bu OAV orqali aholi tibbiy madaniyatini yuksaltirish, turli xil kasalliklar va ularning oldini olish bilan bog'liq muammolarni tahlli qilish, "to'rtinchi hokimiyat"ning turli tarmoqlarida olib boriladigan tibbiy targ'ibot mazmumini kuchaytirish imkoniyatlari va yo'llarini tadqiq etish borasida samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi ixtisoslashgan muassasa hisoblanib, 1948-yil 7-aprelda tashkil topgan. (Ushbu sana jahon sog'lig'i kuni sifatida nishonlanadi).

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining asosiy maqsadi – barcha insonlarning maksimal darajada sog'ligini ta'minlash, davlatlarga har tomonlama texnik yordam ko'rsatish va bu borada eng yangi ma'lumotlarni yetkazib berish hamda har bir mamlakatda sog'liqni saqlash tizimida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda ko'maklashishdan iboratdir.

JSST sog'lollik holatini kasalliklarning yo'qligida emas, insonning to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy saodati sifatida ko'radi. Yani JSST nafaqat sog'liqni saqlash tizimi bilan ish olib boradi, balki sog'liqqa ta'sir etuvchi bir qator boshqa sohalar bilan hamkorlikni olib boradi.

JSSTga 193 davlat a'zodir. Tashkilotning asosiy organi Butunjahon sog'liqni saqlash assambleyasasi (BSSA) hisoblanib, uning asosiy vazifasi JSSTning dasturi hamda byudjetini kelayotgan ikki yilga tasdiqlash va shu bilan bog'liq masalalar yechimini topishdan iboratdir.

JSST ning ijro etuvchi qo'mitasi sog'liqni saqlash sohasida malakli 34 a'zodan iborat. Qo'mitaning asosiy vazifasi Jahon sog'liqni saqlash asambleyasining qarorlarni hayotga tadbiq etish, konsultativ yordam ko'rsatish hamda assambleyaning ishlariga ko'maklashishdan iborat.

JSST ning bosh direktori 5 yilga ikki marttadan ortiq bo'Imagan muddatga saylanadi. 1992-yil 25-may kuni O'zbekiston Respublikasi JSSTga a'zo bo'ldi. 1993 yilda respublikada JSSTning aloqalarni muvosifqlashtiruvchi Byurosi tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi va JSST o'rtasidagi hamkorlik aloqalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda JSSTning Evropa mintaqaviy byurosi o'rtasida ikki yil muddatga tuziladigan bitim asosida amalga oshiriladi.

JSST Yevropa mintaqaviy qo'mitasining 2015-yil 14-17-sentabr Vilnyus shahrida o'tkazilgan 65-sessiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va JSSTning Yevropa mintaqaviy byurosi o'rtasida 2016-2017-yillar uchun hamkorlik bitimi tuzildi. Mazkur bitim doirasidagi JSSTning O'zbekiston uchun ajratadigan mablag'i 3 mln. dollarni tashkil etadi.

2017-yilning iyul oyidan boshlab, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Teedros Adhan Gebreyes bo'lib, u rahbarligida bugungi kunda jahon miqyosida sog'lom turmush tarzi, aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish, hanuzgacha o'z davosini topmagan xavfli kasalliklarga qarshi kurashish borasida ijobiy say harakatlar olib borilmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida qanday islohotlar olib borilmoqda?
2. Inson taraqqiyotida sog'liqni saqlash qanday o'rinn tutadi?
3. Sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat deganda nimani tushinasiz?
4. O'zbekistonda ona va bola salomatligiga qanchalik e'tibor qaratilmoqda?
5. Qishloq vrachlik punktlari va ularning faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?

14-§. ATROF-MUHIT VA INSON TARAQQIYOTI REJA:

1. Insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri
2. Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi
3. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'mi
4. Tabiatni asrash – inson ma'naviyatining muhim belgisi

Tayanch so'z va iboralar: *Ekologik muammolar, ekologik ong, ekologik havfsizlik, ekologik madaniyat, qizil kitob, gidrosfera, tabiat va inson, tabiiy resurs, tabiat bilan bog'liq afsonalar, atrof-muhit, Orol muammosi.*

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan insonlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'siri o'sib boradi. Inson tabiat bilan, ya'ni o'simlik va hayvonot dunyosi hamda yer osti va yer ustsi boyliklari bilan o'zaro muloqotda bo'ladi.

Ekologik muammolar kengayib ularni hal etish dolzarb vazifa bo'lib qolgan hozirgi davrda bu muammolarni hal qilishda insoniyat uchun asosan ekologik ong va ekologik madaniyatning o'rni beqiyosdir.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi, ularga rioya qilmaslik ertami kechmi albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojiali oqibatlari jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Albatta, ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijasida, turli soha ilm va texnologiyalarining taraqqiyoti, yangi energiya manbalari va kimyoviy inoddalarning paydo bo'lishi, tabiiy resurslardan yovuzlarcha foydalanish natijasida havo, suv ifloslanadi, insoniyatni boquvchi yer yaroqsiz holga kelib, oqibalda uni yashash muhitidan mahrum etadi..

Hozirgi davrda insoniyat, u qanday xavf qarshisida kelib qolganligini tushunib yetdi, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi.

Inson faoliyatining natijasida atrof muhitga ancha sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bular asosan hozirgi kunda mavjud bo'lgan ekologik xavfizlik klassifikatsiyasida bo'lgan: umumsayyoraviy, mintaqaviy, milliy, lokal ekologik xavfsizliklar mamlakatimiz hududini ham chetlab o'tmadi.

- Bu xavflardan;
- ozon qatlami muammolari, ya'ni yemirilishi;
- iqlimning o'zgarishi;
- cho'llanish;
- toza ichimlik suvi tanqisligi,
- Orol dengizi muammosi;
- hayvonot va o'simlik dunyosi turlarining qisqarib borishi;
- o'simlik dunyosining noqonuniy kesilib borishi;
- yer degradatsiyasi;
- suv resurslari tanqisligi;
- atmosfera ifloslanishi shular jumlasidandir.

Ekologik fojialarni bu darajadagi jadallahish borishida ekologik ong va ekologik madaniyat alohida o'rinn tutadi.

Ekologik ong va ekologik madaniyatning asosiy vazifasi xalqimiz ekologik madaniyatini oshirish orqali huquqiy fuqarolik jamiyatni tamoyillari asosida tabiatdan foydalanishni yo'lga qo'yish, tabiatni muhofaza qilish sohasida Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqimiz ongi va madaniyatida ona Vatanimiz tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, uni asrab-avaylash va kelgusi avlod uchun zarus hayotiy sharoitlar qoldirishimiz kerakligini ko'rsatishdir.

Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini kechirayotgan hozirgi kunda ko'p sarmoya talab qiladigan ekologik tadbirdarni o'tkazish qiyindir.

Lekin xalqimiz eng avvalo yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik, ongida mitlatimiz va davlatimiz rivojiga xavf solib turgan xodisalarga, shu jumladan, ekologik xavfga ham, faqat ularni bilishi va sodiqligi, tadbirdorligi va mas'uliyatliligi bilan javob bera olishi hamda xavfni bartaraf etish mumkinligini singdira olishimiz, shu jumladan, ekologik ong va madaniyatni yo'lga qo'yish orqali kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan ko'p ofatlarni oldini olish mumkin bo'ladi.

Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgan holda u bilan bo'lgan munosabat orqali, ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini kashf qilib kelgan. Ammo inson o'zining tabiatga ta'siri orqali undagi muvozanatni buzzdi va tabiat hodisalarining davriy muvozanatini ishdan chiqardi.

Xalqimizda bir maqol bor: "Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga yetmaydi". Darhiqaqt, necha asrlar davomida inson o'zining taraqqiyoti jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi.

Mulohaza qilib aytadigan bo'lsak, ekologik muammolar aksariyat hollarda insoniyat ta'siri ostida vujudga kelar ekan.

O'zbekistonda hozirgi kunda azaldan yig'ilib kelgan maishiy va ishlab chiqarish chiqindilari 1 mlrd. 400 mln. tonnadan oshib ketdi.

Ijtimoiy ongning o'zgarishi, qadriyatlarga nisbatan munosabatlarning ekologik yo'nalishdagi ma'naviy madaniyatning rivojlanishi, sayyoramiz hayotiga yangicha qarashning shakllanishi uzoq yillar davomida va qiyin kechadigan jarayon bo'lib, bu o'rinda ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirishda, ekologik ong va dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda bir qator yutuqlarga erishilayotgan bir vaqtda ushbu sohani singdirishda muhim o'rinn tutadigan maktab tarbiyasiga, o'rta va oliy ta'lim muassasalariga e'tibor qaratishimiz lozim.

Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas go'shadir. Tabiat ularni to'ydiradi, kiydiradi, issiq vasovudan asraydi. O'z navbatida tirik mavjudot ham tabiatga mehr qo'yadi. Bu mehr tabiatni asrash, uning boyliklarini ko'paytirish tuyg'usi bilan uyg'unlasha olsagina haqiqiy sanaladi. Yaqin o'tmishimizda biz tabiatni sevamiz deb bong urdig, biroq uni asrab-avaylash ishiga mas'ul ekanligimizni unutib qo'yidik. Ana shu mas'uliyatsizligimiz «Ekologiya» deb nomlanuvchi yangi fanga zamin yaratdi. «Ekologiya» so'zi «eko» — uy, turar-joy, «logos» — fan so'zlaridan olingan bo'lib, u atrof-muhitning buzilishi va bunga sabab bo'lgan omillar, muhit halokatinining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish borasidagi bilimlarni targ'ib etish asoslarini o'rganadi.

Yangi asrning barkamol kishlisi o'zida ekologik madaniyat unsurlarini ham naimoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik madaniyat — bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir.

Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi, deb atash mumkin.

Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kinaslik, turar-joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonodon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniatlilikning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-tehnika taraqqiyoti va atrof-muhit jamiyat va ekologiya o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelayotir. Bularning

barchasi ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda.

Buni yodda tuting: 1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. «Sog'lom avlod davlat dasturi» va «Ekologik ta'lif-tarbiya konsepsiya»si ishlab chiqildi, «Ekosan» jamg'armasi tuzildi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи tabiatni muhofaza etish va ekologiyaga oid zarur hujjatlar qabul qilib, ekologiya ishlarining huquqiy asosini yaratdi.

Aslida, ekologik madaniyat tabiatni barcha go'zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Insonning tabiat kuchlari — sovuq va issiq, qurq'oqchilik, yong'inlar, turli ofatlar ustidan g'alabasi unga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Bu ko'r-ko'ronalikdan asta-sekin ongli munosabatga aylana boradi. Tabiatga bo'lgan mehr tuyg'usi boyib, unga munosabat shaxs madaniyatining ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan allomalar tabiat va undagi muvozanat, hayvonot olami va o'simliklar dunyosi, atrof-muhitni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Muhammad Muso al-Xorazmiy risolalaridan birida odamlarni daryoga mehrli bo'lishga da'vat qiladi, agar daryoning ko'zları yoshlansa, uning boshiga g'am kulfati tushgan bo'ladi, deydi. Ehtimol, buyuk bobomiz daryo suvini ortiqcha isrof qilmaslikni ham nazarda tutgandir?

Abu Rayhon Beraniy esa tabiatning davomiyligi haqida shunday fikr aytadi: «Ekin ekish va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi».

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida ko'rgan-kechirganlari, borgan joylarining tabiatni, boyligi, hayvonoti, o'simliklari va odamlari, xalqlarning urf-odatlarini tasvirlagan. Unda yer, suv, havo, turli tabiat hodisalariga tegishli ko'plab fikrlar bor. Bobur o'lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, qadrlagan va ular bilan hamisha maslahatlashgan. Ayniqsa, u gullar, manzarali hamda mevali daraxtlarni ko'paytirishga e'tibor bergan.

Madaniyatli kishi tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi, bu borada boshqalarni ham to'g'ri faoliyat ko'rsatishga da'vat etadi, hech bo'limganda ko'chalarga axlat tashlanmasligiga, suv va havo ifloslanmasligiga hissa qo'shamdi.

Ekologik madaniyat tarkibiga tabiatni muhofaza qilish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati, ekologik tizimni qaytadan o'zgartirish madaniyati ham kiradi. Bular bir kishining yoki hududning vazifasi bo'la olmaydi. Umum insoniyat bunday vazifalarni yechishga birgalikda kirishsagina ekologik muammolar hal bo'ladi.

Masalan, birkina Orol muammosi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Orol dengizining suvi kamayib ketishi haqida dastlabki xavotirlar bildirilganidan beri yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishidan oldingi yillarda dengizning sathi keskin kamayib ketayotganligi baralla gapirilib, bu masalaga butun dunyo mamlakatlari va suvchi mutaxassislarining e'tibori tortildi.

Buni yodda tuting: Orolning qurib ketishi faqatgina uning atrofida joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston emas, butun dunyo iqlimiga salbiy ta'sir etadi. Shu-ning uchun Orolni saqlab qolish dunyo ahamiyatidagi muammodir.

Biz kelajak avlodlarga yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklarimizni, bizgacha mavjud bolgan tabiatni va unga munosabatimizni, ya'ni ekologik madaniyatimizni ham meros qoldiramiz. Ekologik madaniyat, bu — faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning tiklanishi, yanada go'zallashuvi, gullab-yashnashiga hissa qo'shish, atrof-muhitni g'orat etuvchilarga qarshi beayov kurash olib borish degani hamdir.

Ekologik bilimlar tashviqoti, aholini ekologik tarbiyalash va aholini o'qtish boyicha ishlar avj oldirilganligiga qaramay, Respublikamiz oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida atrof muhit muhofazasi ya'ni ekologiya sohasida boshqa sohalar kabi Davlat noziri kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kunga qadar yo'lga qo'yilmagan. Ushbu soha uchun Davlat noziri kabi mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun talabidir.

Bundan tashqari insoniyat tarbiyasi uchun uning mahallasi ham alohida o'rin egallaydi. Mahallalar ham ushbu ishlarga jonbozlik ko'rsatishi lozim deb o'layman.

Har kuni lta tur o'simlik yoki lta hayvon turi yer yuzidan yo'qolib boryapti.

1983-yili hayvonlarning 63-turi va 1984-yil o'simliklarning 163 turi Qizil kitobning birinchi nashriga kiritildi. Mana oradan vaqt o'tib tabiat muhofazasiga munosabat o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 9-martdagi 190-sonli "Qizil kitobni yuritish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

1998-yil O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning 1-jildi (o'simliklar qismi) nashr qilindi va bunda o'simliklarning 301 turi (163 tadan 301taga oshgan) kiritilganligi qayd qilingan bo'lsa, 2006-yildagi yangi jildida esa Qizil kitobga kiritilgan o'simliklar turi 305-turni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich oshib bormoqda.

Inson o'zhayoti va faoliyati, shuningdek, barcha tirik mavjudot dunyosi – biosfera uchun ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan miqyos va buzuvchanlik qudratiga ega bo'lgan, katta va kutilmagan salbiy o'zgarishlar, atrof-muhitga uzoqni o'ylamay qilingan munosabat, xatolar va yangi ishlarning hosilasi sifatida hozirgi yer yuzidagi vaziyat yuzaga keldi.

O'zbekistonda har bir kishi 1 sutkada 2-3 litr chuchuk suv ichadi.

Gidrosferani faqatgina 2,5 foizini chuchuk suv tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligining ayrim sohalaridagi suv sarfini qiyosiy hisoblab ko'rsak;

1 tonna bug'doy yetishtirish uchun 1,5 tonna, 1 tonna sholi uchun – 4-5 ming tonna, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 10 ming tonna suv sarflanadi.

O'simlik dunyosi yer yuzidagi hayot muvozanatini ta'minlash va ijtimoiy hamda iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash uchun hayotiy zarur bo'lgan ekzotizmlar, turlar, genetik tiplar va ekologik jarayonlarning rang-

barangligini saqlaydi, insonning hayotiy ehtiyojlari talablariga javob beradigan genetik xilma-xillik va turlarni himoya qiladi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rollini oshirish bugungi "Demokratik, huquqiy davlat qurish" yo'lidagi ekologik bilimlarni targ'ibot qilish, aholining ekologik saviyясини ko'tarish borasida bir muncha ishlар amalga oshirilmoqda. Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'rni. Insoniyat qadimgi zamonlardanoq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o'zi ning harakatlari bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda boshqariladiganligini his qilib kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e'tibor qaratilishini kech bo'lsa-da tushunib y etdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojiana borar ekan, tabiat in'omlari bo'lmish o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o'zlar uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

Atrof-muhit sofligi, uning rang-barangligi-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish asosan tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog'liq bo'libgina qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchidir.

Joylardagi davlat hokimiyati organlarining atrof-muhit muhofazasiga oid qonun va hukumatimiz qarorlarini bajarishda ma'lum bir sustkashliklarga yo'l qo'yilmoqda deb uzil-kesil ayta olaman. Sabab esa, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qaysidir yillarda ekilgan daraxtlarni parvarishlash, ularning qurigan turlari o'rniga qaytak o'chat ekish yo'li bilan tiklash ishlari qoniqarli darajada emas. Chunki Ixota daraxtzorlari sifatida ekilgan daraxtlar o'mi beqiyos ekanligi, mahsulot hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ixotazorlarni zarurligini tasavvur ham eta olmagan holda ayrim fermerlar tomonidan ixota daraxtzorlarini kesish hollari davom etmoqda.

Atrof-muhltini muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qallamilayotgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan noto'g'ri foydalanganlarga tabiat solig'ini qo'llash hamda Jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va uni boshqarish ahamiyati rollini oshirishda huquqiy demokratik tarzdagi huquqiy normalarni takomillashgan holda joriy qilish kerak b o'ladi.

Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug'iladi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan

har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatiga bo'lgan farzandlik burchidir.

Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Agentligining "Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun atrof muhitni muhofaza qilishda boshqaruv" o'quv-treningida qatnashganimda Yapon xalqining atrof muhit muhofazasiga ongli ravishdagi munosabati meni hayratda qoldirdi. Ayniqsa Yaponiya davlatida chiqindilarni saralangan holda yig'ib olish, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida chiqindisiz ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanib xalq ehtiyoji uchun kerakli mahsulotlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilganligi, suvni tozalash inshootidagi suvni tozalash bosqichlari biznikiga o'xshasada, laboratoriya xulosasini tekshirib ko'rganimizda hatto ichish uchun 100 foiz yaroqliligiga amin bo'ldim.

U yerda tashkil etilgan monitoring markazlari ishi juda yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, markazlashgan holatdadir. Masalan bir tumanda faoliyat yuritayotgan zavod, fabrikalar atrof muhitga chiqarayotgan chiqindilar haqidagi ma'lumotlarni monitoring markazlari avtomatik tarzda tumandagi, prefekturadagi, hatto atrof muhit muhofazasi vazirligidagi monitordan ham kuzatish mumkin. Atrof muhitni ifloslanish darajasini organish monitoringi markazlashgan holatda kompyuterlar asosida olib boriladi va avtomatik tarzda markazga uzatiladi.

Yaponiya va O'zbekiston biologik resurslarini muhofaza qilish sohasidagi ayrim qiyosiy ma'lumotlar jadvali:

Ko'rsatkichlar	Yaponiya	O'zbekiston
Mamlakat umuniy maydoni	380 000 kv . km	447 400 kv . km
O'rmon maydoni	68 %	19,4 %
O'simliklar soni	7000	4500
Davlat nozirlari	230	179
Qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlari soni	1994	305
Qizil kitobga	668	182
kiritilgan bayvon turlari soni		

Sapporo shahar atrof muhit muhofazasi boshqarmasida ham havoni ifloslanishini o'rganadigan 10ta monitoring markazi, Sta yo'li kuzatuv markazi mavjud bo'lib, 1 dona metereologik kuzatuv jihozlari shahar telemiorasida o'rnatilgan.

Yaponiya davlatida 15 ta atom elektr statsiyasi mavjud ekan. Lekin aholi o'rtasida daraxt kesib uy isitish kabi holatlar kabi muammolar ularda mavjud emas. Har bir aholi punkti, yoki har-bir uy muqobil energiya

manbaiga ega. Shu sababli ko'mir yoqib, o'tin yoqib isitish manbai sifatida foydalanish taqiqlangan. Hatto sanoatda ham ko'mir yoqish va undan isitish manbai sifatida foydalanish butunlay taqiqlangan.

Ayrim uylarni isitishning manbai sifatida ma'lum miqdorda kerosindan foydalaniadi.

Tabiat resurslaridan foydalanish pullik bo'lib, ayniqsa dorivor va texnik o'simliklarni maxsus plantatsiyalarda yetishtirish juda rivojlangan.

Chunki tabiiy resursni saqlash va shu yo'ldagi foydalanishni yaratuvchanlik yo'li bilan ya'ni dorivor o'simliklarni pitomniklarda yetishtirish keng avj olgan.

Yaponiya davlatida qishloq xo'jalik yerlari umumiy yer maydonini 13 % ni, uy-joy yerbasi 4% ni, cho'l va quruq dasht yerbasi 1% ni tashkil etadi. Yaponiya davlatida ekologik madaniyat, ta'lim tarbiya juda rivojlangan.

Muhofaza etiladigan hududlar Xokkaydo prefekturasining o'zida 1-kategoriyali milliy bog'lar soni- 6 ta bo'lib, (503, 434 ga), 2-kategoriyali milliy bog'lar soni-5 ta, (212,359), Xokkaydo prefekturasiga bo'y sunuvchi 12 ta milliy bog' (145,410 ga) mavjud.

Milliy bog'lar bizning qo'riqxonalarga solishtiriladigan bo'lsa, ilmiy ishiar boyicha xodim va Davlat nozirlari shtati yo'q. Ushbu ishlarni ilmiy tashkilotlar joylardagi hokimiyat bilan shartnoma asosida olib boriladi.

Milliy bog' Davlat nozirlari o'rnnini esa biologik Davlat nozirlari tezkor guruhi bajaradi . Buni "Utonay" qo'riqxonasi misolida ko'rish mumkun. Unda jami 3 kishi ishlar ekan. Bundan tashqari u yerdan uchib o'tadigan qushlar soni 50000 ni tashkil qiladi.

Qo'riqxonada jarohatlangan qushlarni davolash reabilitatsiya markazi faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston tabiatining biologik va landshaftlar xilma-xilligi milliy boyligimizning bir qismidir. Bu boylik bir necha ming yillik evolutsiya davomida yuzaga kelgan, hamda ajodolarimiz tomonidan bizga qoldirilgan ulkan merosdir. Ziminamizda bu merosni avlodlarga xilma-xil va barqaror tizim ko'rinishida qoldirishdek ulkan va ma'suliyatlari vazifa turibdi.

Shu sababli bizning asosiy vazifalarimizdan biri ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish kabi masalalardir. Bu borada esa Qonunchilik tizimlarini yana rivojlantirish kerak deb o'ylayman.

Tabiatni asrash – inson ma'naviyatining muhim belgisi. Inson tabiat Insoniyat tabiatning (mavjudotning, farzandi borliqning), inson esa atrof-muhitning ajralmas qismidir. Insonni qurshab turgan tabiat, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini falsafiy nuqtayi nazardan fahmlash, ilmiy bilish amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy aytganidek, "Inson aql chirog'i, qolaversa, butun koinot ko'zining nuridir". Tabiat benihoyat xilma-xil shakl va ko'rinishlarda bo'lib, insonni qurshab turgan moddiy olam, butun borliqni qamrab oladi. U keng ma'noda olganda materiya, koinot tushunchalarini ham ifodalaydi.

Inson har doim tabiat bag'rida yashagan va bundan keyin ham yashaydi. Inson hech qachon tabiatdan tashqarida, u bilan aloqa va

munosabatda bo'lmasdan turib yashay olmaydi. "Tarixdan ma'lumki, – deb yoziladi "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida, – "O'rta Osiyo hududida aholi azal- dan vodiylarda, katta suv manbalari – daryo va anhorlar bo'yida yashab keladi. Atrofi cho'l va sahrolar bilan o'ralgan, tabiatni, iqlimi g'oyat murakkab bo'lgan mintaqaga sharoitining o'zi ana shu elat va millatlarning ming yillar davomida bir-biriga moslashib, yaqin yelkadosh bo'lib, bir-birining og'irini yengil qilib yashashini taqozo etib keladi. Chindan ham, bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq bo'lib yashashga imkon yo'q, tabiatning o'zi, hayotning o'zi ularni shu ruhda tarbiyalagan". Tabiat biz uchun moddiy ne'matlarning birlinchi manbayi sifatida ham, sog'liq, shodlik, hayotiy qiziqishlarning va har bir kishidagi ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas manbayi sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

Tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Yer insonning oziq-ovqat manbayi, uning dastlabki mehnat vositalarining xazinasidir. Yer insonni boqadi. Ingliz olimi Vilyam Pettib aytganidek, mehnat boylikning "otasi" bo'lsa, yer uning "onasi"dir. Odamlar bir necha ming yillar davomida uning issiq bag'rida voyaga yetdi. Demak, tabiat inson uchun eng e'zozli va qadrli maskandir.

Tabiat – tabiiy resurslar manbayidir. Tabiiy resurslar, ya'ni yomilgi, nafas olimadigan havo, ichiladigan suv, har xil xomashyolar bo'lmasa, inson, jamiyat yashay olmaydi, sanoat, qishloq xo'jaligi va madaniyatni yuksaltirib bo'lmaydi.

Sharq falsafasi va islom ta'llimotida Alloh hamma narsaming ibtidosi, materiyani ham, tabiatni ham Tangri taolo – Xudo yaratgan, deyiladi. Masalan, Mirzo Ulugbekning "To'rt ulus tarixi" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Tangri taolo odamni suv bilan tuproqdan yaratgan. "Odam alayhissalomning yaratilishini muharram ul-ehrom oshuro oy o'ninch kuni, juma kuni soat 11 da; birlinchi tole bo'yicha Jadi va Zuhul darajasida, Mushtariy Xutda, Mirrix Hamalda, Qamar Saratonda, Shams Asadda, Atorud Sumbulada, Zuhro Mezonda paytida bug'doyrang kishi chehrasida baland qomatli va jingalak sochli qilib yaratdi. Yaratgan Tangri hazrati Odamga behishtdan joy berdi. Havvoni uyqusirab turganda uning chap biqinidan yaratdi".

Ilmiy falsafa tabiiy fan ma'lumotlariga asoslanib, odam tabiatning ajralmas qismi, uning oliy mahsulidir, deb hisoblaydi. Tabiatning mavjudligi insonga, uning ongi va sezgisiga bog'liq emas, deb uqtiradi. Bundan million yillar muqaddam Yer shunday bo'lganki, unda o'zining sezgilari va ongiga ega bo'lgan inson u yodqa tursin, boshqa har qanday mavjudotning ham yashashi uchun hech bir imkoniyat bo'Imagan. Yer, Quyosh sistemasi, umuman tabiat har qanday ongdan tashqarida va unga bog'liq bo'Imagan holda mavjuddir. Kishi ongi tabiat taraqqiyotining faqat muayyan bosqichidagina uning mahsuli sifatida vujudga kelgan.

Tabiat, butun moddiy olam doimiy harakatda, to'xtovsiz o'zgarish va rivojlanishdadir. Tabiatning, materianing fazoda cheksiz va vaqtida abadiy bo'lgan tinimsiz harakati jarayonida ba'zi bir narsalar yemiriladi, yangilari paydo bo'ladi.

Tabiatning million yillar ichidagi tadrijiy taraqqiyoti jarayonida jonsiz dunyo kelib chiqqan. Jonli dunyoning paydo bo'lishi tabiatning, materianing cheksiz koinotdagi taraqqiyotidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlardan bividir. Jonli materiya keyinroq yuz bergen hodisalar, uzoq davom etgan taraqqiyot samarasidir. Jonli tabiat ham, jonsiz tabiat ham doimiy harakatdadir. Lekin harakat ularning har ikkala sida ham biroz boshqacharoq shaklda amalga oshadi.

Inson taraqqiyotning ilk bosqichlarida, u tabiatdan endigina ajralib chiqqan kezlarda juda nochor hayot kechirgan, tabiat kuchlariga qaram bo'lgan, tabiatning tayyor mahsulotlarini iste'mol qilib kun kechirgan. Keyinchalik mehnat tufayli turli ish qurollari yasash, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish asosida kishilik jamiyatni paydo bo'lgan va rivojlangan.

Forobiyning fikricha, "har bir inson o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritma olmaydi, ularga ega bo'lishi uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'payadilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'mashadilar, natijada, inson jamoasi vujudga keladi".

Kishilik jamiyatni moddiy olamning, tabiatning ko'p ming yillik tadrijiy taraqqiyotining qonuniy mahsulidir. U taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida, insonlar jamoasi kelib chiqqan davrda yuzaga keladi. Demak, jamiyat tarixi va uning taraqqiyoti inson ma'lum jamoaga birlashib mehnat qilgan, ishlab chiqarish qurollarini yaratgan, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllangan davrdan boshlanadi. Qadimgi xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarni o'rganish jarayonida hozirgi o'zbek xalqining ajoddlari bundan bir necha ming yillar oldin tabiat qo'ynida yashaganligiga e'tibor berish joiz. Ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tishgan.

Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishdan ancha takomillashgan mehnat qurollari yashaghacha, undan urug'chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo'jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarimiz boy qadimiylar madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu o'rinda miloddan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari, Parkana kabi o'lkalarda turli qabila va elatlar yashaganligiga e'tibor berish lozim. Bular hozirgi o'zbek xalqining "ildizi" hisoblangan saklar, massagetlar, so'g'dlar, xorazmiylar, baxtarlar, chochliklar va parkanaliklar kabi qabila va elatlar ekanligini bilishimiz kerak. Keyinchalik ular o'zaro va

boshqa ko‘p urug‘lar bilan birlashib ketgan hozirgi Markaziy Osiyo hududidagi xalqlarning ajdodlari sifatida o‘rganiladi.

Bu elatlар yashagan hududlarda tabiat bilan bog‘liq o‘ziga xos madaniy an‘analar tarkib topa borgan. Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari va xislatlari qadimgi eposlarda, ulardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o‘z ifodasini topgan. Shunga ko‘ra tabiat kuchlariga, ruhga sig‘imish – animizm, ajdodlar ruhiga sig‘inish – totemizm, sehrgarlik kabi diniy e’tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonalar, rivoyatlardan eng qadimgi avlodlarimizning tafakkur dunyosini bilib olsa bo‘ladi. Bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so‘g‘dlar yashagan davrlarga borib taqaladi. Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” ham bevosita tabiat va tabiat bilan bog‘langan bo‘lib, tabiatni avaylab asrashga da‘vat etadi. “Avesto”da dunyoning moddiy asosi hisoblangan yer, tuproq, havo muqaddaslashtirilgan. Havoni bulg‘ash, ifloslantirish, hayvonlar o‘ligi u yoqda tursin, odam-lar jasadini ham yerga ko‘mish, suvga oqizish, olovda yoqish gunoh hisoblangan. Marhumlar yerni, suvni, havoni zaharlab qo‘ymasliklari uchun jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko‘mish rasm bo‘lgan. Zardushtiylik diniga amal qilgan O‘rt Osiyodagi qabilalar suvga va olovga sajda qilganlar, Quyoshmi ilohiy mavjudot darajasiga ko‘targanlar.

“Avesto” Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyatining bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yodgorligi bo‘lib, zardushtiylikning muhim qonun-qoidalarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Qur’oni karim va hadislarda borliqqa munosabat, atrofmuhitni iflos qilmaslik, tozalik, daraxt ekish haqida muhim fikrlar mavjud. Hadislarda: “Qaysi bir musulmon biror daraxt yoxud biror ekin eksa-yu, uning hosilidan inson, qush yoki hayvon yesa, buning uchun unga ajr-u savob ato etilur”, – deyiladi.

Shuningdek, yerning shakli, yulduzlar, Quyosh va Oyning aniq hisob – o‘lchov bilan harakatlanishi haqidagi ma’lumotlar berilgan bo‘lib, islam dini ilmiy emas, degan ko‘pgina bir tomonlama talqin etilgan tushunchalarni rad etadi. “Qur’oni karim”dagi “A’rof” surasining 30-oyatida: “Alloh bergen rizqdan yenglar, ichinglar, lekin isrof, uvol qilmanglar, haqiqatan ham Allah isrof qilguvchilarini sevmaydi”, – deyilishi tabiatga ham munosabatni anglatib, uni isrof qiluvchilar, uvol qiluvchilarga qarshi qaratilgandir. Bu masala hadislarda ham bir necha joyda beriladi va “har qanday isrof qilish – haromdir”, – deb xulosa qilinadi. Hadislarda tabiatga mehr, tevarak-atrofn, suvni, havoni, tuproqni, hattoki hayvonni pokiza saqlash asosiy g‘oyalardan hisoblanadi.

O‘rt Osiyo xalqlarining tabiat bilan Xalq og‘zaki ijodi, va tabiat bog‘liq, eng qadimgi zamonalarga oid ayrim og‘zaki adabiyot yodgorliklарidan ba’zi bir manbalar bizga qadar saqlanib qolgan. Antik tarixchilardan Gerodot, Ktesiy, Poliyen, Xares Mitilenskiy va boshqalarning kitoblarida xalq og‘zaki ijodiga mansub ayrim asarlarning mazmuni hikoya

qilib qoldirilgan. Shuningdek, o'rta asr tarixchilaridan Hamza Isfahoni, Tabariy, Ma'sudiy, Beruniy, Saolibiy va boshqalarning asarlarida ham og'zaki adabiyotga doir qimmatli ma'lumotlar uchraydi. "Avesto", "Behistun", "Bundaxishin", "Denkar" kabi yozma yodgorliklarda ham og'zaki adabiyotning tabiat bilan bog'langan ba'zi bir namunalari keltirilgan. Mahmud Koshg'ariy esa o'zining mashhur lingvistik asari "Devonu lug'otit turk"da tabiatning turli hodisalari haqida qadimgi qo'shiq, lirik she'r va maqollardan turli namunalar bergan. "Xudoynomak" va ulug' shoir Firdavsiyning "Shohnoma"sida qadimgi xalq og'zaki adabiyotining bir qancha asarlari va tabiatga oid obrazlari qayta ishlangan. Shu bilan birga tabiat kuchlari haqidagi qadimgi og'zaki adabiyotning izlari, uning "arxaik elementlari" keyingi davrlarda yaratilgan xalq og'zaki ijodi asarlarida ham saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Bular qadimgi og'zaki adabiyot namunalarini bilan tanishtirib, tabiat bilan muloqot haqida ma'lum tasavvur tug'diradi.

Quyida shunday mif va afsonalardan ayrim namunalar keltiramiz. "Xubbi va Erxubbi afsonasi" – Xorazm mifologik afsonasida Xubbi suv xudosi va kishilarni halokatdan qutqaruvchi sifatida gavdalananadi.

Juda qadim zamonlarda, Faridun va hatto Jamshid zamonidan burun, Amudaryoda Xubbi degan bir yigit bo'lgan ekan. U tabiat qo'ynida yashab, bir qo'li bilan baliq tutar, ikkinchi qo'li bilan uni quyoshga tutib turar, baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq yeb, Amudaryoda 700 yil yashabdi, daryoni qo'riqlabdi, biror yomon ruh, hattoki chivin ham daryoga yaqin yo'lashga botinolmabdi. Xalq suvgaga ma'mur bo'lib, shod-hurram yashar ekan. Biroq Jamshid zamonasiga kelib, Xubbi g'oyib bo'libdi. Kishilar uni osmon suvlarining hukmroni bo'lgan qiz o'g'irlab olgan, deb faraz qilibdilar. Xubbi g'oyib bo'lgandan keyin Amudaryoga uning onasi kelibdi. U birinchi bo'lib qayiq yasabdi, kishilarni qayiqda suzish va dushmanga qarshi suvda jang qilishga o'rgatibdi. Biroq kunlardan bir kun Xubbining onasi g'oyib bo'libdi. Lekin kishilar o'z homiyalarini, Xubbi va unimg' onasini unutmabdilar. Ular qayiqlarda Xubbining onasi qiyofasini tasvirlabdilar.

Bu narsa tabiat bilan insonlar o'rtasidagi muloqotning azaliyligini, tabiat insonning homiysi, boquvchisi ekanligini ko'rsatish bilan birga, uning qonunlariga qarsbi chiqilsa, tabiatning muvozanati buzilsa, albatta falokat sodir bo'lishini ko'rsatadi.

Quyida keltirilayotgan "Baraktom qal'asi haqidagi afsonasi" ham buni tasdiqlaydi (III-IV asrlarda bino bo'lgan).

Qadim zamonlarda Qoraqalpog'istonning Qozog'istonga chegaradosh bir vodisida Barak degan zolim shoh bo'lgan ekan. Shoh bir qasrida o'zi tursa, ikkinchi qasrida katta ov burgutini saqlar ekan. Kunlardan bir kun qasrga burgutning onasi Anqo (mifik qush) kelibdi. Shoh kishilarning gapiga qulq solmay, ona-bolaning diydor ko'rishishiga xalaqit berib, burgutni ovga olib chiqmoqchi bo'libdi. Burgut g'azablanib Barakka chovut solibdi-da, uni

osmonga ko'tarib chiqib, yerga tashlab yuboribdi. Barak shohning parchalangan jasadi o'sha qasrda dafn qilinibdi. Vodiy xarob bo'libdi, karvonlar unga yaqin yo'lamaydigan bo'lib qolibdilar.

Inson hech qachon tabiatdan tashqarida aloqada va munosabatda bo'imasdan turib yashay olmaydi. Tabiat bilan jamiyat, tabiat bilan inson, tabiat tarixi bilan jamiyat tarixi dialektik birlikda, ta'sir va aks ta'sirdadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Har bir inson, umuman jamiyat va insoniyat tabiat bilan uzviy aloqadorlikda yashaydi. Kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi uchun inuayyan tabiiy sharoitlar talab qilinadi. Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqada bo'lgan, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadigan qismi tabiiy muhit deb ataladi. Yer va yer osti boyliklari, daryolar, iqlim, odamlar va boshqa shu kabilalar tabiiy muhitni tashkil etadi. Demak, insonning tabiat bilan aloqasi Yerda inson paydo bo'lgan vaqtlardanoq yuzaga kelgan bo'lib, bu zaruriy obyektiv aloqadorlik o'z aha-miyatini bundan keyin ham hech qachon yo'qotmaydi. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, jamiyatning tabiatga, tabiatning esa jamiyatga ta'siri kishilar ongi va irodasiga bog'liq bo'lmanan obyektiv qonuniyatdir. Jamiyat bilan tabiatning obyektiv aloqadorligi, tabiiy sharoitlarning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri jahondagi ayrim xalqlar va mamlakatlarga taalluqligina bo'lib qolmay, balki butun insoniyat uchun, barcha jamiyatlar va mamlakatlar uchun bir xilda umumiyyatdir. Tabiiy muhit insonning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyatining doimiy, abadiy va zaruriy shartidir.

Odam paydo bo'lgan davrdan to hozirga qadar tabiatga ta'sir qilib, uni batamom o'zgartirib yubordi. Jamiyat rivojlangan sari qo'l inehnatidan mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishiga o'tildi. Dehqonchilikda ham texnikani qo'llash kuchayib, texnologik ishlab chiqarish asosiy o'rinni egalladi. Yer osti boyliklarini qazib olish mislsiz o'sdi. Ekinlar hosil-dorligini oshirish uchun kimyoviy usullar keng joriy etildi. Avtomobil, temir yo'l, suv va havo transportida neft yonilg'isini ayovsiz ishlatish kuchaydi. Fazoni o'zlashtirish, ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishi natijasida jainiyat hayotida, kishilar turmush tarzida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tabiat ifloslandi. Keyingi ming yilliklar davomida inson faoliyati natijasida Yer shari yuzasi, iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosining tanib bo'imas darajada o'zgarib ketganligi bunga misol bo'la oladi. E'tirof etish kerakki, insonning o'z istiqbolini o'ylamay qilgan xatti-harakatlari, ko'r-ko'rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko'p narsalardan abadiy judo bo'ldi. Har xil kosmik changlar, issiqlik elektr stansiyalari, avtomobillar sonining tez o'sib borishi radioaktiv moddalar va boshqalar ta'siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbayı bo'lgan havo toqat qilib bo'lmaydigan darajada ifloslanmoqda.

Atrof-muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan bulg'anish aholining, Chorva mollarning, parrandalarning, daryo va ko'llardagi, su-

omborlari, dengiz va okeanlardagi baliq hamda boshqa jonivorlarning ko'plab zaharlanishiga sabab bo'lmoqda.

Islom Karimovning "O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida..." kitobida ko'rsatilishicha, mamlakatimiz kelajagiga quyidagi ekologik muammolar xavf solmoqda:

- 1) Yerning cheklanganligi va sifat tarkibi pastligi.
- 2) Suv zaxiralarining taqchilligi va ifloslanganligi.
- 3) Orolning qurib borish xavfi.
- 4) Havo bo'shlig'ining ifloslanishi.

Tabiatga noto'g'ri munosabat, yer osti boyliklarini qazib olishda qoidalarga amal qilmaslik ba'zan zilzilalar keltirib chiqaradi. Yer yuzida vujudga keluvchi hududiy, xalqaro nizolar, kelishmovchiliklar, qonxo'rliklar bilan tabiiy ofatlar orasida o'zaro bog'liqlik bor, degan farazlar ham mavjud.

Hayvonot va nabodot olami hamda atrofimizni o'rab turgan boshqa narsalarni to'la-to'kis himoya qilish, saqlash, ularni buzmaslik, isrof qilmaslik to'g'risida ko'pgina maslahatlar mavjud, ularni doimo esda tutishimiz kerak.

Ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashib ketganini Markaziy Osiyo mintaqasi misolida ham ko'rshimiz mumkin. Sho'ro totalitar tuzumi davrida mintaqamizning yakka ziroatchilikka ixtisoslashtirilishi va suv resurslarining cheklanganligi natijasida bugungi kunda Orol dengizi qariyb yarmigacha qurib bo'ldi. Suv ketib qolgan joylarda ikki million gektarga yaqin qum va tuzdan iborat sahrolar paydo bo'ldi.

Orol muammosi faqat O'zbekistonga yoki Markaziy Osiyodagi mamlakatlarga taalluqli mintaqaviy muammo bo'lib qolmay, umumbashariy muammo hamdir. Orol bo'yidagi ekologik vaziyat keyingi paytlarda shu qadar keskinlashib, fojiali tus olib ketdiki, undan faqat Markaziy Osiyo xalqlari emas, balki butun yer kurrasi zarar ko'rmoqda.

Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko'z ochib ko'rgan dunyo bamisolona quchog'i, inson uchun beshikdir. Biz yashab, nafas olib, kun kechirib turgan tabiat, uning tarkibiy qismi bo'lmish Yerimiz – hammaning, butun insoniyatning umumiy uyi, umumiy makonidir.

Bugungi kunga kelib moddiy olam va undagi mavjud narsalar to'g'risida insoniyat ma'lum bilimga ega. Shu sababli atrof-muhit muhofaza qilinmasa, insoniyatning yashashi tobora qiyinlashib borishi sezilmoqda. Natijada, "Ekologiya" fani yuzaga keldi. Bu fan atrof-muhitni muhofaza qilishning milliy, mintaqaviy va umumbashariy muammolarini o'rgatadi. **U** kishilar ongiga "Ekologik xavfsizlik", "Ekologik tozalik" tushunchalariga amal qilish vazifasini ishlab chiqaruvchilar va aholi zimmasiga yuklashni tashviqot qildi.

Tabiatni ko'z qorachig'idek saqlash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'q qo'ymaslik umum davlat, umuminsoniyat ishidir. Tabiatni muhofaza qilishning dolzarbliji ham shunda.

Eng qadim zamonlardanoq aql va ijtimoiylik inson tabiatini tashkil etuvchi tamoyillar deb hisoblangan. Insonga aqli mavjudot va "ijtimoiy maxluq" degan ta'riflar berilgan.

Arastu inson tabiatiga biroz torroq qaragan va uni "siyosiy hayvon" (zoonroliticon) deb atagan.

Bizning buyuk bobokalonlarimiz Forobi va Ibn Sino ham yunon falsafasining, xususan, Aflatunning inson tabiatini to'g'risidagi fikrlarini e'tirof etganlar va rivojlantirganlar.

Dastlab Zigmund Freyd va uning izdoshlari inson tabiatiga irratsional ong osti hodisalari chuqr ta'sir ko'rsatishini isbotladilar.

Inson tabiati haqida o'ziga xos fikr yuritganlardan biri E.Kassirer bo'ldi. U inson turli ramzlar yaratuvchi maxluq (animal sumboliot) ekani haqidagi g'oyani o'rtaga tashladi.

Inson o'zi bilan tabiat oralig'ini turli ramzlar bilan to'ldiradi hamda ular orqali o'zaro va tabiat bilan bog'lanadi. So'zlashuv tili inson yaratgan shunday ramz. Madaniyatning har bir hodisasi ramzi. Masalan, til nafaqat kishilarning o'zaro aloqasini ta'minlaydi, nafaqat ularning jamoaga birlashishi, jamiyatni vujudga keltirishiga shart-sharoit tug'diradi, shu bilan birga tafakkurni yuzaga chiqaradi.

Shuningdek, badiiy so'z san'ati madaniyatning eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohasidir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamiyat kishilarining olam haqidagi tasavvuri, dunyoqarashi hali sodda xarakterga ega bo'lgan davrdayoq vujudga kelgan edi. Shunga ko'ra mehnat jarayonining rivoji inson tajribasi va ongi mafkura turlarining bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan mustaqil sohalari sifatida taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Kishilar turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarini obrazli so'z orqali tasvirlash, bayon etish ko'nikmalarini yarata boshlaganlar. Badiiy so'z tajribasining o'sishi, badiiy did va zavqning takomillashib borishi xilmay-xil badiiy shakkarni, adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Shunday qilib, badiiy so'z san'ati yozma adabiyotning vujudga kelishi uchun zamin hozirlaydi. U og'izdan og'izga, avloddan avlodga, davrdan davrga o'tadi. Biroq dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, har qachon aynan o'sha holicha saqlanib qolmay, balki ijodiy qayta ishlanadi. Sababi, turli xil o'zgarishlarga uchraydi, yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyiydi, yangi sharoitga muvofiqlashadi.

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari dolzarb muammoga aylanib, bu davlat va jamoat tashkilotlaridan jiddiy e'tiborni talab qilmoqda. Shubhasiz, tabiatni asrab-avaylash undan oqilona foydalanish har qanday davlat rivoji va taraqqiyotining muhim omill hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida jamiyat rivojlanishi va shaxsning kamol topishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga yo'naltirilgan hamda barqaror rivojlanishning muhim omillari bo'lgan qulay atrof muhit yaratish, aholi salomatligini muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki, mamlakat kelajagini va barqaror taraqqiyotini busiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuni inobatga olgan

holda, atrof-muhitni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash masalalaridagi muammolar echimini topishga keng jamoatchilikni jaib etish, jamiyatning turli qatlamlari salohiyatini birlashtirish maqsadida 2008-yil 2-avgustda mamlakatimiz ekolog olimlari, shu yo'nalihsda faoliyat olib boradigan nodavlat notijorat tashkilotlari va faol jamoatchilikning tashabbusi asosida O'zbekiston Ekologik harakati tashkil etildi. Ekoharakat tashkil etilgandan boshlab dolzarb ekologik muammolarni hal etishda davlat va jamoat tashkilotlari salohiyatlarini birlashtirish, hamkorlikdagi ishlarni olib borish, ushbu yo'nalihsdag'i davlat dasturlarining amalga oshirilishiga ko'maklashish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga yo'naltirilgan takliflarni ishlab chiqish, aholini atrof muhit muhofazasi ishlariiga keng jaib qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yoshlarga ekologik ta'limgartarbiya berish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni bosqichma-bosqich izchillik bilan amalga oshirdi. "Sog'lom muhit – inson salomatligi" Ekoharakatning asosiy shiori hisoblanib, uni amalda bajarilishini ta'minlash maqsadida o'z oldidagi dasturiy vazifalarni bajarib keldi:

Atrof-muhit muhofazasi va ekologik holatni sog'lomlashtirish ishida jamoatchilik ishtiropi faolligini har tomonlama kuchaytirish;

Atrof tabiiy muhit muhofazasi masalalarida qabul qilingan qonunlar va davlat miqyosidagi boshqa qarorlar ijrosini ta'minlash hamda bu sohadagi qonunchilikni rivojlantirish va takomillashtirishga ko'maklashish bo'yicha tizimli ishlarni yuritish;

Atrof tabiiy muhit muhofazasi va shu maqsadlarga ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish borasida qabul qilingan hujjatlarni iijo etishda markaz va joylarda davlat organlari, jamoatchilik va boshqa tuzilmalar mas'uliyatini oshirish;

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik ta'limgartarbiya tizimini rivojlantirish;

Atrof muhit muhofazasi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

Atrof-muhit muhofazasi davlat, jamiyat va har bir fuqaroning vazifasi bo'lishiga erishish;

Atrof-muhit muhofazasi sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida davlat hokimiyyati organlari, muassasalar va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan hamkorlikning samarali mexanizmi yaratilgan. O'zbekiston ekologik harakati siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida ekologik yondashuv mamlakatning barqaror rivojlanishida eng muhim omil bo'lishiga ishongan, atrof muhit va inson salomatligi haqidagi g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi hamda ularni amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlarini birlashtirishga chaqiradigan ommaviy jamoat harakat sifatida faoliyat olib bordi. Jumladan, 2009-ylli Ekoharakat mahalliy aholining faol ishtiropida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining

ijtimoiy buyurtmasi doirasida “Orol dengizi va Orolbo‘yi hududlari aholi salomatligi va genofondini, o‘simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish, ekologik ta‘lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilonaga samarali foydalanish, erlearning meliorativ holatini yaxshilashga yo‘naltirilgan dastur va loyihalarni NNTlar tomonidan amalga oshirilishi” va “Ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh energiyasi, shamol, biogaz va boshqalar) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning kadastr faoliyati, ekoturizm infrastruktururasini rivojlantirish, chiqindilarni utilizitsiya qilish ishlari” nomli loyihalarini hayotga tatbiq etdi. 2009-yilning iyun oyida jamoatchilikda ekologik muammolarni hal etishda fuqarolik mas’uliyatini oshirish va ushbu masalalarda ahollining faolligini ta‘minlash maqsadida Ekoharakat qoshida “Ishonch telefon” o‘z faoliyatini boshladi. U mamlakatimizdagи va Germaniya, Fransiya, AQSh, Niderlandiya kabi xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayogan “yashil” ishonch telefonlari hamda maslahat xizmatlari tajribasiga tayangan holda amalga oshirilib, tabiat muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, sanitariya va gigiena qoidalari buzilishi to‘g‘risidagi murojaatlarni qabul qilish, holatni joyida o‘rganish, va baholash uchun tegishli mutaxassislarni jalb etish, davlat nazorat organlariga ma’lumot etkazish va tegishli choralar ko‘rilishi ustidan nazorat olib borish kabi vazifalarni amalga oshiradi. 2011-2012-yillarda esa O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikda Parlament qoshidagi Jamoat fondi ko‘magida “Fermer xo‘jaliklarida energiya va resurstejamkor texnologiyalarni rivojlantirish va chiqitsiz texnologiyalarning ilg‘or tajribalarini targ‘ib etish” loyihasi doirasida lalmikor hududlarda dehqonchilik qilayotgan fermerlar uchun Jizzax viloyatida dehqonchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanadigan 120 dan ortiq fermerga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, suv resurslaridan samarali foydalanishning ilg‘or texnologiyalarini joriy etish, chiqindilardan biogaz olish hamda yer unumdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan chorvachilik va parrandachilikda biogumus tayyorlash, shuningdek, ish yuritishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kabi yo‘nalishlarda billm va ko‘nikmalar beradigan dala o‘quv markazi tashkil etdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ekologik harakati chet el ekologik jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni rivojlantirishga va mustahkamlashga jiddiy e’tibor qaratadi. Shu maqsadda Ekoharakat O‘zbekiston vakillarining xalqaro ekologik forumlarda samarali isbtirokin, ekologik muammolar bo‘yicha ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro anjumanlar, seminarlar va uchrashuvlar o‘tkazish amaliyotini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. 2012-yilning noyabr oyida Ekoharakat “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon sayyohlik tashkiloti va boshqa hamkorlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, O‘zbekistonning xususiy sayyohlik tashkilotlari assotsiatsiyasi ko‘magida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari, bu boradagi muammolarni bartaraf etish masalalariga

bag'ishlangan "Mintaqaviy turizm: zamонавији holat: muammolar va istiqbol" mavzuidagi Xalqaro turistik anjuman tashkil etilgani uning xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratganidan dalolat beradi. Ekoharakat tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ekologik bilimlarni yetkazish borasida muayyan ishlar amalga oshirmoqda. Ekoharakat tashkil etilganidan boshlab uning faoliyatiga umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliv o'quv yurtlarida ta'llim olayotgan o'quvchilar, yosh tadbirkorlar va ollmlar jalb etilmoqda. 2010-yilga kelib "Yoshlar qanoti" to'g'risidagi Nizom hamda Harakatlar dasturi qabul qilindi. "Yoshlar qanoti" tarkibiga iste'dodli va faol yoshlar kirishi masalasiga alohida e'tibor berildi. 2013-yilning birinchi yarmida "Global ekologik muammolarni hal etishda yoshlarning o'rni", "Ekologik va huquqiy madaniyatini oshirish, ekologik tarbiya-ta'llim tizimini rivojlantirish", "Atrof-muhitni muhofaza qilishda yoshlarning o'rni", "Yoshlar Markaziy Osiyoning transchegaraviy suv oqimlarida ulkan gidrotexnik inshootlari qurilishiga qarshi" va boshqa mavzularda qator seminarlar o'tkazilgani bu dasturning amaldagi yorqin namunasidir. Ekoharakatning boshqa jamoat birlashmalari, shu jumladan, siyosiy partiyalardan asosiy farqi – Ekoharakat siyosiy maslagidan qat'iy nazar atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik holatni yaxshilash, odamlar salomatligi uchun kurashish, boshqacha aytganda jamiyatining barcha qatlamlari manfaatlariga birdek daxldor muammolarni hal etishda davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning sa'y-harakatlarini safarbar etishga intiladi. Ekoharakatning hududiy bo'linmalari faoliyatida mahalliy aholi va yoshlarni jalb qilgan holda hashar yo'li bilan ekobog'lar barpo etish muhim ahamiyat kasb etdi. Qisqa vaqt mobaynida Ekoharakat faollari o'z hamkorlari bilan Respublikamizning barcha hududlarida umumiy maydoni 120 hektar bo'igan 30 dan ortiq ekobog'lar barpo etdi. Bu o'tkazilgan xashar va amaliy tadbirlar yaxshi an'anaga aylangan. Har yili Butunjahon atrof muhit kunini Ekoharakat hamkorlari bllan Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Chimyon tog'i yonbag'irlarida "Chimyon sadosi" ekologik-turistik festival doirasida "Biz toza Chimyon uchun", "Ochiq osmon ostida ekomaktab" ekologik aksiyasi, mamlakatimizning barcha hududlarida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari ekologik xasharlar o'tkazilib kelinmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ekologik dunyoqarashini shakllantirish, uzuksiz ekologik ta'llim-tarbiya tizimini tatbiq etishga yo'naltirilgan seminar-treninglarni rivojlantirish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston ekologik harakati muassisligida 2010-yilidan boshlab o'zbek va rus tillarida "Buloqcha" ("Rodnichok") bolalar ekologik jurnali nashr etilmoqda. 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar, ularning ottonalariga va ustoz-murabbiylarga mo'ljalangan jurnal yosh tabiatsevarlarga maroqli hordiq bag'ishlab, ularda ona tabiatga mehr uyg'otish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va maktabdan tashqari oilaviy ekologik ta'llimni rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Jurnal sahifalarida turli tanlov va viktorinalar e'lon qilinib, jurnal tahririysi mushtariylar va maktab

o'quvchilari bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazib, ular o'rtasida atrof-muhitga ehtiyojkorona va tejamkorona munosabatni shakllantirish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib boradi. Har yili odat tusiga kirgan hamkorlar bilan o'tkazilib kelinayotgan konkurslar: Ekologik jurnalistik, oliy o'quv yurtlari talabalari va magistrantlari o'rtasida o'tkaziladigan "Global iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha eng yaxshi g'oya" tanlovi, maktab o'quvchilari o'rtasida "Onajonim tabiat" insholar va rasmlar tanlovining nufuzi tobora ortmoqda va ularni o'tkazish an'anaga aylangan hamda mavsumiy xarakterga ega bo'lgan bahor oyida "Ko'chat ek va parvarish qil" shiori ostida turli ekologik aksiyalar, hasharlar, kuz mavsumida xazon barglarini yoqilishiga qarshi tadbirlar, tushuntirish ishlarini olib borish, yoz mavsumida bug'doylardan bo'shagan somon maydonlarini yoqilishini oldini olishga qaratilgan harakatlarini amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratadi. Shuningdek, Ona Vatanimizning bebafo tabiiy boyliklarini kelgusi avlodlar uchun asrabavaylashdek oliy vazifani bajarishda faol ishtirok etishga chaqiradi. Boz ustiga mamlakatimiz fuqarolarining qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'llish, sog'liqni saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xafsizligini ta'minlashga bo'lgan huquqlariga riosa etilishiga erishish, ekologik xafsizlik, sog'lom hayot muhiti va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish Ekoharakatning ustuvor vazifalari sirasiga kiradi. Aholida ekologik ong, ekologik tafakkurni va madaniyatni shakllantirishda hamda ekologik muammolarni bartaraf etishda eng mubim vositalardan biri bu – OAV. Ekoharakat markaziy va mahalliy bosma va elektron OA Vlari bilan hamijihatlikda ish olib bordi hamda Ekoharakatning www.eco.uz Veb-sayti samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Atrof-muhit inson taraqqiyotida qanday o'rinn tutadi?
2. Ekologik ong deganda nimani tushunasiz?
3. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
4. Buyuk Sharq allomalari asarlariда tabiatni asrash bilan bog'liq qanday fikrlar mavjud?
5. Nima uchun tabiatni asrash inson manaviyatining muhim belgisi hisoblanadi?

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
6. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
9. Karimov I. A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan 2012-yil 7-dekabrdagi tantanali marosimdag'i ma'ruzasi.
10. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
11. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008.
12. BMT taraqqiyot dasturi. O'zbekiston va inson huquqlari Vena deklaratsiyasi va harakat dasturi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
13. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati O'zbekistondagi BMT Taraqqiyoti dasturi 54-bet.
15. O'zbekiston Respublikasining nikoh va oila kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
16. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent: 1997.
17. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy Dasturi. – Toshkent: 1997.
18. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: 1998.
19. Aliqoriyev N. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent: 1999.

20. "Avesto" kitobi-tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai mavzuyidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. - Toshkent: 2000.
21. Ashirov A. Atajanov Sh. Etnologiya. – Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
22. Бердиев Н. Смысли истории. - Москва: Наука, 1991.
23. Begmatov A. Sotsiologiya asoslari. - Andijon: 1995.
24. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: 1997.
25. Энтони Гидденс. Социология. – Тошкент: Шарқ, 2001.
26. Фролов А.Н. Социология. – Москва: "Логос", 1996.
27. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
28. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
29. Sirojov G. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 1999.
30. Sandra Burud, Marie Tumolo. Leveraging the new human capital. – Californiya: Davies-Black Publishing, 2004.
31. Saidov A, Tillabayev M. The national human rights centre of the Republic of Uzbekistan: 2005-2010. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
32. Mainashokirov S. Ekologik ta'lim-tarbiyaning metodologik masalalari. – Toshkent: 1995.
33. Maximov T. "Avesto" haqida. – Toshkent: 2000.
34. Mavrushev A. Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid //Ijtimoiy-madaniy faoliyatning dolzarb muammolari. (Ilmiy maqolalar to'plami) - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
35. Mo'minov A.R. Tillabayev M.A. Inson huquqlari. – Toshkent: Adolat, 2013.
36. Xolbekov A., Idirov U. Sotsiologiya. – Toshkent: 1999.
37. Choriyev A. Inson falsafasi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti, 2007.
38. Yunusov K. Sotsiologiya. – Andijon: 1997.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.lex.uz
3. www.google.uz
4. www.eco.uz
5. www.pm.gov.uz

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
1-§. Inson taraqqiyoti kursiga kirish.....	4
2-§. Inson taraqqiyoti to‘g’risidagi g‘oyalari evolyutsiyasi.....	12
3-§. “Inson taraqqiyoti” konsepsiyasining mazmun va mohiyati.....	32
4-§. Inson huquqlarining tarixiy taraqqiyoti.....	44
5-§. Insonning jamiyat va davlat bilan o‘zaro huquqiy aloqadorligi.....	53
6-§. Inson taraqqiyotida xalqaro tashkilotlarning o‘rni.....	62
7-§. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati.....	72
8-§. O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari.....	76
9-§. Inson huquqlari to‘g’risidagi xalqaro Paktlar.....	88
10-§. Demografik vaziyat va uning inson tarraqqiyotidagi o‘rni.....	96
11-§. Globalizatsiya va inson taraqqiyoti.....	110
12-§. Inson taraqqiyotida ta’lim, madaniyat, din va axloq masalasi.....	123
13-§. Sog‘liqni saqlash inson taraqqiyotining omili.....	143
14-§. Atrof-muhit va inson taraqqiyoti.....	156

CONTENTS

Introduction.....	3
1-§. Introduction to the course of “The Human Evolution”.....	4
2-§. The evolution of theories about emergence and evolution.....	12
3-§. The meaning of the conception “The Human Evolution”.....	32
4-§. The Historical Evolution of Human Rights.....	44
5-§. The legal connection of human with the Society and the Government.....	53
6-§. The importance of International Organizations in The Human Evolution.....	62
7-§. The declaration of human rights and its historical content.....	72
8-§. The Human Rights in The Republic of Uzbekistan.....	76
9-§. International Pacts about Human Rights.....	88
10-§. Demographic Position and Its importance in The Human Evolution.....	96
11-§. Globalization and The Human Revolution.....	110
12-§. The issues of Education, Culture, Religion and Ethics in The Human Evolution.....	123
13-§. Being in fit as the main factor of the human evolution.....	143
14-§. The Environment and The Human Evolution.....	156

СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	3
1-§. Введение в курс человеческого развития.....	4
2-§. Эволюция идеи человеческого развития.....	12
3-§. Сущности и содержания концепции “Развитие человека.....	32
4-§. Историческое развитие прав человека.....	44
5-§. Взаимное правовое отношение человека с обществом и государством.....	53
6-§. Место международных организаций в развитии человека.....	62
7-§. Всеобщая декларация прав человека и её историческое значение.....	72
8-§. Права человека в Республике Узбекистан.....	76
9-§. Международные пакты о правах человека.....	88
10-§. Демографическая ситуация и её роль в развитии человека....	96
11-§. Глобализация и развитие человека.....	110
12-§. Образование, культура, религия и этические факторы в развитии человека.....	123
13-§. Фактор развития человека – обеспечение здоровье.....	143
14-§. Окружающая среда и развитие человека.....	156

Zaxriddimbobir XAYDAROV

«INSON TARAQQIYOTI»

(o‘quv qo‘llanma)

Muharrir:

Toxirjon Qozoqov

Dizayner:

Abdurauf Abdullayev

Sahifalovchi:

Mirjalol Rustamaliyev

*Mazkur o‘quv qo‘llanma Namangan davlat universiteti Kengashining 2017 yil
17-iyuldağı № 10- sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga təsviya etilgan*

“Fazilat orgtex servis” xususiy korxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, A. Navoiy ko‘chasi, 72-uy

